



UDK:182.2.2.

Maftuna ABBASOVA,
Samdu KF Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
E-mail: maftuna@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

SOG'LOM MA'NAVIY RAQOBATNING IJTIMOYILASHUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada sog'lom ma'naviy raqobatning ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyati yuzasidan munosabat bildiriladi. Shuningdek, kishilar ma'naviy raqobatiga sabab bo'luvchi ehtiyojlar, shaxs ma'naviy raqobatida ijtimoiy rollarining muhim ahamiyati kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Falsafiy-axloqiy, ma'naviyat, raqobat, ijtimoiylashuv, jarayon, muhit.

ЗНАЧЕНИЕ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ КОНКУРЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение здоровой моральной конкуренции в процессе социализации. Также описываются такие вопросы, как потребности, вызывающие духовную конкуренцию людей, значение социальных ролей в духовной конкуренции человека.

Ключевые слова: Философско-этический, духовность, конкуренция, социализация, процесс, среда.

THE IMPORTANCE OF HEALTHY SPIRITUAL COMPETITION IN THE SOCIALIZATION PROCESS

Annotation

This article discusses the importance of healthy moral competition in the process of socialization. Also, issues such as the needs that cause the spiritual competition of people, the importance of social roles in the spiritual competition of a person are described.

Key words: Philosophical-ethical, spirituality, competition, socialization, process, environment.

Kirish. Ko'proq iqtisodiy sohada qo'llanilayotgan raqobat tushunchasi bugungi globallashuv va ma'naviy ommalashuv davrida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuvda raqobat tushunchasining ijtimoiy ong shakllarini qamrab oluvchi hodisa sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Raqobat jarayoni va hodisasini tahlil qilar ekanmiz raqobatning quyidagi ko'rinishlari bilan tanishib chiqamiz.


Raqobatning turli ko'rinishlari mavjud:
Bellashish.
Kurashish.

Musobaqalashish.

Intilish.

O'z ustida ishlash va hokazolar.

Adabiyotlar tahlili. Nemis klassik falsafasi namoyondasi Fridrix Nitse aytganidek "insonni faqat ikki narsa yo qo'rquv yo manfaat harakatga keltiradi". Demak, bunday shunday analitik xulosa kelib chiqadiki, qo'rquv va manfaat sog'lom hamda nosog'lom ma'naviy raqobatning dinamik, psixologik, pragmatik va ekzistensialistik mohiyatini tashkil etadi.



Shaxs ma'naviy raqobatida ijtimoiy rollar ham muhim ahamiyatga egadir.

Belgilangan ijtimoiy mavqe	Erishilgan ijtimoiy mavqe
Bu shaxsning o'z xizmatlari va doimiy ravishdagi hatti-harakatidan qat'iy nazar, sotsium tomonidan belgilab qo'yiladi. Fatalogik, deterministik ma'noda, taqdirida oldindan yozib yozilgan insonning etnik, ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar	Shaxsning faqatgina o'z xatti-harakati, mehnati, tirishqoqligi, intellektual qobiliyatlari bilan erishgan mavqe tushuniladi. Masalan, san'atkor, korxon boshlig'i, rektor, fan doktori, professor va shu kabilar. Aynan ikkinchi erishilgan ijtimoiy mavqe darajasida qattiq sog'lom hamda nosog'lom ma'naviy raqobatni ko'rishimiz mumkin.

Forobiy "Fozil shahar aholisi qarashlari haqida kitob" asarida hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan rahbarlikka oid fozil podshoga qo'ygan talablari sog'lom ma'naviy raqobatning ahloqiy-falsafiy o'zagini tashkil etuvchi jihatlardir[2]:


1. podshoning mukammal salomatlikka ega bo'lib, o'zining funktsiyalarini oson bajarishi lozim;
fahm-farosatli bo'lishi kerak;

xotirasiyaxshi va kuchli ;
zehnio'tkir, zukko va vaziyatni tezda fahmlaydigan;
fikri tiniq, so'zlari chiroyli, ma'noli;
bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi va doimo intilish kerak;
ovqatlanish, shahvat masalalarida o'rtamiyona bo'lib, ya'ni me'yorni bilish lozim;
haqiqatgo'y, adolatli, to'g'riso'z bo'lishi darkor;

nomusli, oriyatli, oliyhimmatbo'lishi;
moddiy boylikka ro'ju qo'ymaslik, ya'ni ko'zi to'q bo'lishi kerak;

adolatparvar, dovyurak bo'lishi lozim;
doshinmand bo'lishi lozim.

Forobiy qayd etgan bu nozik xislatlar globallashuv davrida sog'lom ma'naviy raqobatni tarbiyalashning muhim tarixiy jihatlari tashkil etadi.



Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim sohasida ham sog'lom ma'naviy raqobat muhiti ilmiy izlanuvchilik, doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilish, ilmiy unvonlarni qo'lga kiritish bilan belgilanadi. Lekin, ayna shu sohalarda ham ham sog'lom ma'naviy raqobat, ham nosog'lom ma'naviy raqobat muhitini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bir tomondan raqobat madaniyatgi amal qilib halol yo'l bilan iliy daraja va unvonlarni kirituvchilar va turldi xil qing'ir, g'irrom, harom yo'llar orqali bunday natijaga erishuvchi professor o'ituvchilar mavjud. Demak, hozirgi ta'lim tizimining o'zida ayni paytda ham sog'lom ham nosog'lom ma'naviy raqobat kurashlari davom etmoqda. Lekin falsafadagi miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga olib kelishi qonuniga ko'ra miqdor ko'paysa, sifat oshadi, bunda kadrlar ko'paysa o'lar o'rtasida mehnat bozorida raqobat muhiti kuchayadi va natijada sifatli kadrlar asta-sekin o'zlariga munosib o'rinlarni egallaydilar[4].

Kishilar o'rtasida sog'lom ma'naviy raqobat qo'yidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

Ta'limgohi

Ilm-fan vama'daniyatsohasi.

Ommaviyaxborotvositalari.

Davlat hokimiyati tizimida

Nodavlatvajamoat tashkilotlari.

Fuqarolarning o'zini o'ziboshqarishorganlari.

Ijodiy birlashmalar

Ishlab chiqarish va iqtisodiyot

Sport va san'at.

XXI asrdagi nosog'lom ma'naviy raqobatga ommaviy madaniyatni misol qilish mumkin. Bunda xarom yo'llar bilan ko'proq pul ishlash, tez boyish, qisqa muddatda shonshuhratga erishish, amoralizmni shior qilish va hokazolari.

Globallashuv jarayoni hayotimizga, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik, ma'naviy tubanlik, tajovuzkorlik, egotsentrizm kabi destruktiv g'oyalar esa nosog'lom ma'naviy raqobat muhitin yuzaga keltirmoqda. Kishilarda ochko'zlik, bir-birin ko'rolmaslik, qo'shinishiga qaraganda balandroq imorat qurish, do'stidan ko'ra boyib ketish, hamkasbidan tezroq mansabga o'tirish, zinokorligi, aroqho'rliqi, maishatparastligi bilan maqtanish kabi jirkanch illatlar aslida nosog'lom ma'naviy raqobatning asosiy jihatlari[5].

Ommaviy madaniyatning har qanday ko'rinishi, behayollik, pornografiya, jangarilik, gotlar, emolar, gomoseksuallar, transgenlar va boshqalar nosog'lom muhitda raqobatga chorlash, ma'naviy tuban yo'llar bilan bellashishga olib keladi.

Nosog'lom ma'naviy raqobatning ko'rinishlari hozirgi davr globallashuvining oqibatlaritufayli namoyon bo'lmoqda:

Demak, ta'limning bu jihatlari uzuluksiz ravishda sog'olm ma'naviy raqobat muhitini yaratish uchun, etishib chiqayotgan kadrlar doimiy o'z ustida ishlashi, xorijiy tillarni erikn o'zlashtirishi, axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, mavjud qonunchilikni a'lo darajada bilishi, eng muhimi raqobat madaniyatga ega bo'lishi zarurdir[3].

Bular:

Ma'naviy tahdidlar;

O'tkir mafkuraviy ta'sirlarning kengayishi;

Mafkuraviy tazyiqlar;

Mafkuraviy va g'oyaviy hurujlar;

Xatarli tahdidlar;

Ma'naviy bo'shliqning kuchayishi;

Axborot xurujlari va dezinformatsiya;

Axloqiy buzuvchilik va behayollik;

"Ommaviy madaniyat" va submadaniyat;

Egotsentrizm va individualizm;

Ma'naviy negizlarga bepisandlik va nigilizm,

marginalizm;

Jismoniy va ruhiy zo'raonlik.

Demak, falsafiy, qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda sog'lom va nosog'lom ma'naviy raqobat parallel chiziq kabi doimo yonma-yon keladi.

Raqobat madaniyati aslida ma'naviy madaniyatning bir shakli va ko'rinishi tashkil etadi. Fikrimizcha, hamma narsa va sohada bo'lganidek raqobatlashishning o'ziga yarasha taribi, qoidasi, ay niqsa madaniyati ham bor deb hisoblaymiz. Raqobat madaniyati raqibni hurmat qilish, unga imkoniyat berish, tolerant bo'lish, yon berishni bilish, uning usullarini inobatga olishdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki insoniyat yaratgan konstruktiv faoliyat natijasi ifodalash uchun ham xizmat qiladi. [6].

Jamiyatdagi "ishlab chiqazish – taqsimlash – ayirboshlash" janjirida "iste'molqilish" alohida o'rin tutadi. Bunday prizmada esa sog'lom ma'naviy raqobat muhiti dominat rolini bajaradi.

Ma'naviy qadriyatlar jamiyatda insonlar tomonidan iste'mol qilinmasa edi, ular yaratilishi haqida gap ham bo'lmasdi. Ma'naviy qadriyatlar mavjudligi jamiyat a'zolari, insoniyat tomonidan unga nisbatan talab borligini bildiradi.

Aynan sog'lom ma'naviy raqobat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Kaerda ma'naviy madaniyat yuqori rivojlangan bo'lsa, o'sha erda kishilar o'rtasida sog'lom ma'naviy raqobat muhiti yuzaga keladi. Bunda, sog'lom ma'naviy raqobat natijasiga esa san'at, ilm-fan, sport, me'morchilik, iqtisodiyot umuman jamiyat taraqqiy etadi.

IX-XII asrlar davomida islom xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy hamda dunyoviy madaniyatning parallell rivojlanishi natijasida Sharq Uyg'onish davri, ya'ni renessans davrida dunyoviy bilimlar, madaniyatlararo sintez va integratsiya, aniq va tabiiy fanlar progressi; ilmiy

izlanishda ratsionalistik-mantiqiy usullardan keng foydalanish, boshqaruvda yuksak gumanizm g'oyalari, falsafavajjtimoiy gumanitar fanlarning keng taraqqiy etishi, san'atning yuqori darajaga ko'tarilishi, komusiy xarakterdagi bilimdonlik kabilar jamiyatda dinamik o'sishga olib keldi [7].

Uygonishdavrida "Ilm uylari", "Donishmandlar uyi" haqiqiy ma'naviy, ma'rifiy ilm maskani sifatida butun dunyoga mashhur bo'lib, unda olimlar o'rtasida tom ma'nodagi haqiqiy sog'lom ma'naviy raqobat muhiti shakllangan. Donishmandlar uyida qolish va u erda obru orttirish uchun olmlar tinimsiz o'z ustlarida ishlo'ab yangi kashfiyotlar, ixtirolar va qonuniyatlarni yaratganlar. Bu davr olimlari olimlik etikasi qoidalariga rioya etib, raqib hisoblangan boshqa olimning sha'ni, qadr-qimmatini ardoqlaganlar. Bellashuv esa fan sohasida kim o'zari

ma'nosida bo'lgan. Bu esa ilm-fan taraqqiyotini jadallashtirgan, Rennessansning poydevorini yaratgan desak, mubolag'a bo'lmadi.

Xulosa. Shunisi e'tiborga molikki, ikki buyuk alloma Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy yozishmalari (o'zaro falsafiy xatlari)o'rta asr tarixidagi tom ma'nodagi sog'lom ma'naviy raqobat muhiti bo'lganligidan dalolat beradi. Vaholanki, Ibn Sino Arastu ta'limotini yoqlab chiqqan, Beruniy esa Demokrit ta'limotini yoqlab raqiblashganlar. Lekin bunda sof sog'lom ma'naviy raqobatning namoyon bo'lishi tarixiy asarlarda ko'rsatilgan. Bu olimlar o'rtasidagi ilmiy bahs edi xolos. Bir-birini haqoratlash, beobru qilish kabi nosog'lom ma'naviy raqobat ko'rinishlari deyarli kuzatilmagan. Bunday sharoitda albatta ilm-fan ravnaq topadi, jamyait esa, gullab yashnaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abbasova M.S.Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri.Monografiya.Samarqand-2023.8-B.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri O'zbekiston milliy ensiklopediyasm Toshkent 2004
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: "Ma'naviyat", 1996, 6- bet.
4. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. – T.: "O'zbekiston", 2001,9-bet.
5. Negmatova Sh. O'zbekistonda sog'lom raqobatni shakllantirishning ma'naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari.-T.: "Fan", 2016. -105 b.
6. Karimov B.,Ziyaev F. Ma'naviyat asoslari. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2013. – 267 b.
7. Tohir Malik. Saodat saroyining kaliti. –T.: "Yangi asravlodi", 2014 - 146 b.
8. Sayfuddinov R. Ibratlixonadon. –T.: "Movarounnhr", 2013.- 6 b.



UDK:81'23

Lola ABDULLAYEVA,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Associate professor of English Language Theoretical Aspects Department
E-mail: lola.abdullaeva1979@gmail.com

Based on the review of SamSIFL, PhD. Associate professor, M.M.Oblokulova

DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE TEACHER'S INTERCULTURAL COMPETENCE

Annotation

Globalization is changing every aspect of human life and the lives of individual countries. As a result, there are new requirements for training foreign language and culture teachers. These teachers must encourage students to become familiar with other cultures and to understand the world in all its diversity while also helping to preserve their own national and ethnic cultures, languages, and customs. The essay goes over a few methods for helping aspiring foreign language instructors develop their intercultural competency.

Key words: Innovative approaches, assimilation, non-verbal, verbal, cross-cultural.

РАЗВИТИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Глобализация меняет все аспекты жизни человека и отдельных стран. В результате к подготовке преподавателей иностранных языков и культуры предъявляются новые требования. Эти преподаватели должны поощрять студентов к знакомству с другими культурами и пониманию мира во всем его многообразии, а также помогать сохранять свои национальные и этнические культуры, языки и обычаи. В эссе рассматриваются несколько методов, которые помогут начинающим преподавателям иностранных языков развить свои межкультурные компетенции.

Ключевые слова: Инновационные подходы, ассимиляция, невербальный, вербальный, кросс-культурный.

CHET TILI O‘QITUVCHISINING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Globallashuv insoniyat hayotining barcha jabhalarini va alohida mamlakatlar hayotini o‘zgartirmoqda. Natijada chet til va madaniyat o‘qituvchilar uchun yangi talablar qo‘yimoqda. Bu o‘qituvchilar o‘quvchilarni boshqa madaniyatlar bilan tanishishga va dunyoni uning xilma-xilligi bilan tushunishga undashlari, shuningdek, o‘zlarining milliy va etnik madaniyatlari, tillari va urf-odatlarini saqlashga yordam berishlari kerak. Chet tili o‘qituvchilariga o‘zlarining madaniyatlararo malakalarini rivojlantirishga yordam berishning bir necha usullarini ushbu maqolada muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion yondashuvlar, assimilyatsiya, noverbal, verbal, madaniyatlararo.

Introduction. Our educational system now faces a new challenge as a result of the process of constructing an open democratic society and integrating into the global community: producing citizens with a planetary mindset, or individuals who recognize themselves as representatives of both their national and global cultures, and who understand their role in global, universal processes.

The study of foreign languages is closely tied to an individual's ability to successfully integrate into the pan-European educational system. One of the most important instruments for a person's global education and growth is learning a foreign language. Foreign language proficiency is ever more necessary for modern integrative processes. The pragmatic focus of all educational activities has sharply increased in tandem with the shift in language acquisition aims. The cultural elements connected to each distinct communication space are evolving with the language criteria used in the selection of the study. Individual psychological traits of representatives of one or more ethnic communities appear during interpersonal interactions; knowledge is shared, and national consciousness is actualized.

Every culture has unique information and experiences. As a result, innovative approaches to education and teaching foreign languages as a way to comprehend cultural customs have to be the foundation of intercultural conversation.

For specialist institutions that prepare foreign language and culture instructors to grasp cross-cultural conversation and polylogue, the inclusion of foreign-language intercultural communication as a fundamental component of foreign language instruction presents new challenges. The extent to which foreign language and cultural instruction is implemented at educational institutions fitting this description will determine how well it works in other kinds of institutes of higher learning. It is evident that the subject, or the creator, must undergo change and transformation before any other aspect of human activity may undergo changes and transformations. It is crucial to reconsider the structure, curriculum, and pedagogy of teacher preparation programs for foreign languages and cultures in light of this.

Currently, the objectives of teaching foreign languages are characterized as the acquisition of intercultural communication skills and abilities, which include the assimilation of professional concepts, sociocultural values, and communicative norms “of foreign language communication” [1]. This is because in intercultural interaction, awareness of one's own culture and the cultural specificity of the partner increase, as does the degree of readiness to perceive the foreign society's culture adequately from an ethno relativist perspective.

Literature review. The primary purposes, forms, and varieties of intercultural communication were developed by

the writers. A large body of research has been written on the theoretical, methodological, and socio-psychological elements of intercultural communication by international scholars, including Hall E., Khaleyeva I.I., Tarasov E.F., Ter-Minasova S.G., Berdichevskiy A.A.

Emergence and growth of trends aiming at analyzing the characteristics of non-verbal (cultural and behavioral tendency) and verbal (linguistic tendency) etiquette have become a promising avenue in the study of intercultural communication in contemporary culture.

Research Methodology. One of the pioneers of the idea of intercultural communication, E.F. Tarasov, identifies two approaches to mastering a foreign culture. "The first way is to understand culture in such a way that "equivalent" image is sought in one's culture, and the knowledge included in the content of this image is transferred to the subject of one's culture" [2].

Another approach to understanding another person's culture is to look for differences between the comparison of the images of the other person's culture and one's own. In this approach, one's own culture should not overshadow or replace the image of the other person's culture; rather, it should promote the acquisition of new information that deepens one's understanding of the other person's culture. When an object is shown in a different culture, national and cultural distinctiveness are always present.

When languages and even more civilizations are studied side by side, comparisons highlight the key characteristics of both language and culture.

Since intercultural communication cannot be taught by learning the language and culture of only the country of the studied language, it is advisable for the teacher to focus on their own culture while exposing students to the national culture of the studied language. Understanding someone else's culture can be aided by making comparisons with your own language and culture. Because human awareness is endowed by nature with the ability to compare, both people national-figurative thinking is comprehensible. As a result, while integrating a foreign culture while learning a language, students must never lose sight of their own culture.

According to S. G. Ter-Minasova: "Even in the rare instances when they comprehend that the conduct of individuals from various cultures is influenced by their own culture, the great majority of people do not see themselves as products of their own culture. And the only way to see the differences or conflicts across cultures is to step outside of your own, that is, to encounter someone with a different perspective" [3].

Learning other languages within the framework of cross-cultural conversation should start with the idea that all human cultures are equal.

Discussion and results. Teaching students to respect the culture of another country, providing an objective evaluation of that country's cultural phenomena, and igniting students' curiosity about the country where the language is being studied while considering the potential for mutual cultural enrichment is all part of the professional training of foreign language teachers. It will only be feasible to discuss the dialogue of cultures in this situation. In order for students to develop intercultural competence, it is critical that they be taught to be tolerant of the culture they are studying. This means that students should be prepared to accept new ideas and be able to relate both their own and others' perspectives, which will help them avoid misunderstandings. Learning a foreign language should start with familiarizing oneself with the language's speaking community.

The primary goal of teaching cultural studies through the use of a foreign language is to develop and expand knowledge of both the basic characteristics and the particular

variations across civilizations. This means that prospective foreign language instructors' sociocultural education should focus on helping them become more self-aware as both subjects of a dialogue between cultures and as cultural and historical entities [4].

To facilitate a student's self-realization as a multilingual cultural subject, it is imperative that they enhance their cultural communication skills within the framework of cross-cultural conversation. The goal of this kind of training is to instill in pupils a new cultural consciousness, which includes the capacity to recognize and accept diverse ways of living while interacting with people from different cultures and beliefs, as well as to reject preconceived notions. Finding similarities between native and non-native cultures and using these similarities to enter the particular national environment of a different culture is the primary methodological tool for introducing pupils to a new culture. Simultaneously, the most challenging goal is accomplished: a shift to a different culture without alienating the original one. In spoken language classrooms, comparing various life styles sparks lively debates where students assess well-known ideas from fresh perspectives.

The primary issue with teaching intercultural communication is that the Linguistic Faculty's language and culture course frequently duplicates the regional studies curriculum.

According to an analysis, current textbooks are jam-packed with regional material, with the primary goals being the development of language competence and the acquisition of knowledge related to linguistic and regional studies.

The texts and assignments given to students must sufficiently inform them about the communicative behavior of representatives of a foreign culture, pushing the student beyond the confines of his own culture in order for the process of forming socio-cultural competence to be organized effectively. The study of sociolinguistic and cultural realities should be included in the curriculum of linguistic education in addition to the language teaching materials.

As a type of national culture repeater, real films, videos, and television programs are among the best ways to develop intercultural competency. The more culturally relevant information a video has, the more beneficial it is didactically and pedagogically, especially for aspiring foreign language instructors. The videos are genuine and showcase comprehensive scenes that accurately depict the socio-cultural reality, communication environment, and situation on both the verbal and non-verbal levels of expression. It has frequently been understated in language usage and linguodidactics literature how distinct language groups differ in communicative behavior, speech norms and preferences, and communication styles. It should be mentioned, too, that language and cultural comparative studies have drawn more attention in recent decades (Lewis, Mead, Campbell, Dirven), as understanding and forecasting a partner's conduct requires understanding the goals that drive them. Therefore, the values, attitudes, and expectations that influence communicative behavior are highlighted as the primary elements impacting intercultural communication. Understanding nonverbal cues and how to read them while accounting for the communicant's cultural affiliation is crucial for effective cross-cultural communication and mutual understanding. It helps you build tolerant relationships, avoid "cultural shock", avoid confrontations, and optimize the communication process overall [5].

The quirks of gestures, facial expressions, smiles, and other non-verbal cues that are used in conversation must be considered when developing intercultural competence because they convey the majority of the information during an interaction and frequently lead to miscommunication between

people from different cultural backgrounds. Men in Italy, for instance, will look a communicant in the eyes and obstinately pat his face with their hand if he stops speaking. This gesture is not instructive in Uzbekistan, and in Italy, it is seen as a sign that the male audience has already grown a beard due to an extended performance. As a result, an Italian performing will be forced to cut their performance short right away [6].

Among all the various ways to show someone you care about them, a grin is arguably the most common in practically all European cultures. A grin is a sign of kindness, friendliness, and non-aggression to Germans. It is hardly unexpected that Germans tend to view Uzbeks as gloomy and unpleasant individuals, given that smiling without cause is not usual in their society [7].

A grin has an entirely different connotation in Uzbek society than it does in European or American culture. An Uzbek grin typically arises spontaneously in response to a happy life experience. Others consider someone who smiles without apparent purpose to be at best silly. In the worst situation, a grin might be interpreted as an enticing gesture (for women) or as a rebellious action (for men).

Role-playing is a great way to help students understand how knowledge about the socio-cultural environment affects how successful information decryption is in practical lessons in a foreign language. Students list numerous motions in accordance with the game's rules. Subsequently, they are split up into two smaller groups, and each group uses gestures to convey meaning independently of the other group. Next, using a predetermined set of gestures, a representative of one microgroup must share some information with the participants of another microgroup.

Conclusion. Effective communication requires intercultural competency, which requires the interlocutors' levels of cultural literacy to coincide. This leads to the conclusion that deliberate research is necessary to understand good intercultural communication. In this sense, the process of using instructional resources must be revised in order to emphasize their cultural content and to add cultural exercises to linguistic ones that are based on the speech patterns and behavioral norms of native speakers. The study of socio-cultural realities should have a proper position in the curriculum of linguistic education in addition to the language teaching materials.

LITERATURE

1. Халеева И.И. Интеркультура - третье измерение межкультурного взаимодействия // Актуальные проблемы межкультурной коммуникации. М., 1999.
2. Тарасов Е.Ф. Межкультурное общение - новая онтология анализа языкового сознания // Этнокультурная специфика языкового сознания. М., 1996.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2000.
4. Бердичевский А.А. Содержание обучения иностранному языку на основе базовой культуры личности // Иностранный язык в школе. 2004. № 2.
5. Hall E. Beyond Culture. N. Y., 1976.
6. <https://core.ac.uk/download/42050702.pdf>
7. <https://e-koncept.ru/2017/970472.htm>



UDK:32.019.51

Sharof AGABAYEV,
“O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti” dotsenti v.b., PhD
E-mail: sharofagabaev@gmail.com

TDIU dotsenti, s.f.d I.Masharipov taqrizi asosida

YOUTH – THE BASIS FOR BUILDING CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Annotation

This scientific article analyzes the socio-political reforms being implemented in Uzbekistan. It is scientifically revealed that youth is a socio-biological group with a special social status in society and strategic potential of a sovereign state; democratic development of the country is determined by the position and socio-political activity of young people in social and political life.

Key words: Youth, civil society, democracy, development, globalization, employment, national identity, national values, integration, tolerance.

МОЛОДЕЖЬ – ОСНОВА ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной научной статье проанализированы осуществляемые в Узбекистане общественно-политические реформы. При этом научно выявлено, что молодежь является социально-биологической группой с особым социальным статусом в обществе и стратегическим потенциалом суверенного государства, демократическое развитие страны определяется позицией и общественно-политической активностью молодежи в общественно-политической жизни.

Ключевые слова: Молодежь, гражданское общество, демократия, развитие, глобализация, занятость, национальная идентичность, национальные ценности, интеграция, толерантность.

YOSHLAR – O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHNING ASOSIY TAYANCHI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar tahlil qilingan. Bunda, yoshlar jamiyatda alohida sotsial statusga ega bo‘lgan ijtimoiy-biologik guruh hamda suveren davlatning strategik salohiyati ekanligi, mamlakatning demokratik taraqqiyoti yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi pozitsiyasi va ijtimoiy-siyosiy faolligi bilan belgilanishi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, fuqarolik jamiyat, demokratiya, taraqqiyot, globallashtirish, bandlik, milliy o‘zlik, milliy qadriyat, integratsiya, tolerantlik.

Kirish. Yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyati rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Harakatlar strategiyasi birinchi yo‘nalishining mazmun-mohiyatida davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni yanada rivojlantirish prinsiplari ilgari suriladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga ko‘ra: «O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi»[1]. Shuningdek, davlatimiz rahbarining «...bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo‘yicha vijdonan yashashga tayyor bo‘lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg‘a qadam bosmog‘imiz kerak»[2] degan fikrlari ham O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog‘liq siyosiy modernizatsiya jarayonlarida esa mamlakatimiz, eng avvalo, yoshlar qatlamiga tayanadi.

Ma’lumki, turli ilmiy adabiyotlarda yoshlar kategoriyasiga turlicha yondashuv asosida ta’rif beriladi. Yoshlar – bu, avvalo, jamiyatda alohida sotsial statusiga ega

bo‘lgan ijtimoiy-biologik guruh hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, yoshlar qatlami, deganda jamiyat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanuvchi, alohida imtiyozlarga ega, lekin ayrim ijtimoiy munosabatlarda faol harakati cheklangan insonlar sosiumi tushuniladi[3]. Yoshlar – bu har bir suveren davlatning strategik salohiyati hisoblanadi. Mamlakatning demokratik taraqqiyoti, xususan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi pozitsiyasi, ularning ertangi kunga ishonchi va ijtimoiy faolligi bilan o‘lchanadi. Shu va boshqa omillar sabab bugungi kunda yoshlar masalasi va yoshlar siyosati davlatning asosiy faoliyatiga aylanib ulgurdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Horijiy ilmiy manbalarda «yoshlar» kategoriyasining turli-tuman talqinlari mavjud. Ba’zi ta’riflarda ijtimoiy jihatga alohida e’tibor qaratsilsa, boshqa ta’riflarda ushbu tushunchaning tabiiy jihatiga urg‘u beriladi. Jumladan, I.S.Kon yoshlar – bu yosh tavsiflarining umumiyligi, ijtimoiy holatning o‘ziga xosligiga asoslangan va u yoki bu ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar asosida ajratib olinadigan ijtimoiy-demografik guruhdir, deb hisoblaydi. Qolaversa, uning ta’kidlashicha «Hayotiy davrning muayyan bosqichi sifatida yoshlar biologik jihatdan universaldir, biroq ularning aniq yosh doiralari, u bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy maqom va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega va ijtimoiy qatlam, madaniyat va ushbu jamiyatga xos bo‘lgan sotsializatsiyaning qonuniyligiga bog‘liq»[4]. Mazkur ta’rif yoshlar sosiologiyasida asosiy ta’rifga aylandi, chunki demografik jarayonda mehnatga

yaroqli aholining yosh tuzilmasi bilan bog'liq bo'lgandagina yoshlarga izoh beriladi.

Shuningdek, yoshlar tafakkurida shakllangan qadriyatlar tizimi nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatga ta'sir qiluvchi ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu joyda esa tolerantlik omilining kuchliligi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Biroz vaqt o'tib I.S.Kon va S.N.Ikonnikova[5]lar yoshlik va yoshlar tushunchalarini ajratishga urinib ko'rishdi. Keyingisini anglatish uchun ijtimoiy-sinfy tabaqalanish tuzilmasidagi tushuntirish komponentlari singari demografik yosh belgilari qabul qilindi. A.I.Gromov, S.N.Ikonnikova va V.T.Lisovskiylar ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida uning holati va o'rni kelib chiqqan holda zamonaviy jamiyat yoshlariga umumiy ijtimoiy ta'rif beradilar. Ularning nuqtai nazarlariga muvofiq, yoshlarning ijtimoiy tavsifi «ochiq-oshkoralik» va «o'zgaruvchanlik»dan, tanlovning muayyan erkinligidan va o'z zimmasiga ijtimoiy nuqtai nazarlar va rollarni olishdan iborat»[6], ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda, har bir mamlakatda yoshlar jamoat tashkilotlari tizimining rivojlanishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim belgisi sifatida qaraladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining keng tarmog'i, eng avvalo, davlat bilan yoshlar qatlami o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur tashkilotlar jamiyatda o'zaro hamkorlik, ma'naviy taraqqiyot, diniy va milliy bag'rikenglik kabi omillarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatida yoshlarning faoliyati turli xil ko'rinishda: volontyorlik uyushmalarida, jamoat tashkilotlarida, sport klublarida, madaniy markazlarda, nodavlat notijorat tashkilotlarida ishtirok etishlari orqali hamda ijtimoiy-siyosiy faolliklari bilan namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimi tarkibiga kiruvchi yoshlar tashkilotlari – bu, xususan, shunday tuzilmadirki, unda yoshlar o'z qiziqishlarini namoyon qilishlari, ularni rivojlantirish uchun faoliyat olib boradi hamda yoshlar orasida tolerantlik madaniyatini mustahkamlashda quyidagi vazifalarni bajaradigan birlashmalarga ega:

- davlat yoki siyosiy partiyalar tomonidan homiylik qilib tuzilgan yoshlar tashkilotlari;
- mustaqil holda tuzilgan nodavlat yoshlar tashkilotlari;
- madaniy, diniy va sport-sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan uyushmalar;
- xalqaro yoshlar tashkiloti va harakatlari[7].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga kelib, dunyo bo'yicha yoshlarning jamoat tashkilotlari soni tobora o'sib bormoqda. Bu sohada rivojlangan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasidan ma'lumki, ular ijtimoiy masalalar borasida biror bir maqsadni ko'zlab faoliyat olib borsa, eng avvalo, uning ilmiy tahlillariga, mutaxassislarning tavsiyalariga tayanib ish ko'rishadi va buning asosida ijobiy natijalarga erishishadi. Masalada, AQSh yoshlar tashkilotlari faoliyatini tahlil qilganda, dastlabki yoshlar tashkilotlari AQShda XIX asrning 30-yillarida shakllana boshlagani ma'lum bo'ladi. Birinchi yoshlar tashkilotlaridan – Yosh erkak xristianlik assosiasiyasi (YMCA –Young Mens Christian Association) bugungi kungacha o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda[8]. Bu tashkilotning asosiy maqsadi sifatida: ijtimoiy, jismoniy va ta'lim sohasida yoshlarga yordam berish, muammolarini echishda ko'maklashish va bu sohalarida ularni ishtirokini faollashtirish hamda yoshlar o'rtasida tolerantlik madaniyatini shakllantirish, e'tirof etiladi.

Umuman olganda, AQSh yoshlar tashkilotlari faoliyatlarini ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- Skautlar, yashash joylaridagi klublar va diniy yo'nalishda faoliyat olib borayotgan yoshlar tashkilotlari;
- sport klublari va yoshlarning o'z qiziqishlari bo'yicha tashkil qilingan ijtimoiy harakatlar.

Ikkala guruhda ham tashkil qilingan yoshlar tashkilotlarining o'z nizomi va dasturlari mavjud bo'lib, ular yoshlarning jismoniy va aqliy qobiliyatini mustahkamlashda va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Mazkur yoshlar tashkilotlarining asosiy vazifalaridan yana biri – yordamga muhtoj ibiron insonlarga hamda qariyalarga g'amxo'rlik qilishdan iborat. Shuning asosida ular jamiyatda o'zaro hurmat, hamdardlik, mustahkam do'stona aloqalar kabi bag'rikenglik tamoyillarini ham mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

XX asrning oxiriga kelib AQSh yoshlar tashkilotlari o'z faoliyatlari bilan davr yoshlarining talabini to'laqonli ravishda qoniqtira olmadi. Shuning uchun ko'pgina yoshlar tashkilotlari o'z dastur, nizomlarini yangidan tuzib chiqishga va faoliyatini takomillashtirishga harakat qilishdi. Bugungi kunga kelib AQSh yoshlar tashkilotlari avlodni avlod bilan bog'lash, oilada, maktabda va, asosan, jamiyatda yoshlarning muammolarini hal qilish uchun faoliyat ko'rsatmoqda, ya'ni ular o'ziga xos «ijtimoiy ko'pri» vasifasini bajarmoqda.

Ayni paytda yoshlar tashkilotlari yoshlarga Amerika jamiyatining bo'lajak namunaviy fuqarosi sifatidagi vazifasi va burchlarini o'rgata bormoqda. Bu borada davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari yosh avlod tarbiyasi masalasiga umummilliy vazifa sifatida qarab, tashabbus ko'rsatishmoqda. Ular yoshlarni vatan, millat uchun foydali ishlar qilishga, fidoyi inson, o'zgalarga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lishga hamda hayotda mustahkam irodali, jo'shqin, tirishqoq bo'lib o'sishga chaqiradilar.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan G'arb jamiyatlarida gorizontol munosabatlarning yorqin namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQShda 1 milliondan ortiq turli-tuman nodavlat uyushmalar, birlashmalar va jamiyatlar faoliyat olib boradi. Ular, o'z faoliyatiga va qiziqishiga qarab uyushgan, mutlaqo tenglik prinsiplariga asoslangan tashabbuskor guruh sifatida shakllangan. Shu o'rinda «Kitob sevuvchilar jamiyati», «Baliqchilar uyushmasi», «Motobaykerlar birlashmasi», «Antiglobalistlar ittifoqi» singari turli nomdagi minglab uyushmalarni sanab o'tishimiz mumkin. Mazkur ijtimoiy guruhlar o'z faoliyatida umumiy qabul qilgan qonun, qoida va qadriyatlar asosida faoliyat olib borishadi. Ular ochiq turdagi birlashmalar bo'lib, uning a'zolari xohlagan paytda guruhni tark etishi yoki qabul qilinishi mumkin. Eng asosiysi, guruhda, fuqarolik jamiyati uchun xos bo'lgan, gorizontol ijtimoiy munosabatlar ustuvorlik kasb etadi. Bunday ijtimoiy uyushmalar tashabbuskor guruh sifatida faoliyat olib borib, alohida davlat ro'yxatidan o'tishi yoki bo'lmasa boshqa byurokratik tizimda harakat qilishiga zarurat qolmaydi [9].

Bu borada 80-yillarga kelib ko'pgina Evropa mamlakatlari ham demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida yoshlarga katta e'tibor berila boshlandi. Yoshlar siyosiy sohalarida qarorlar qabul qilish jarayoniga ham jalb etildi. Yoshlarni erkin dunyoqarashga va o'z fikrlarini bayon qilishlariga keng yo'l ochib berildi. Mintaqaning ba'zi davlatlarida buning uchun esa milliy yoshlar ittifoqlari tuzildi. Xususan, 1995 yilda Vengriya hukumati tomonidan «Mobitalis» yoshlar tashkiloti tuzilgan[10]. Bu tashkilotning maqsadi: Evropa Ittifoqining «Yoshlar Evropa uchun» dasturini barcha mintaqa davlatlarida amalga oshirish va Evropadagi hamda dunyoning boshqa davlatlardagi yoshlar tashkilotlari bilan ko'p tomonlama hamkorlikni o'rnatishdan iboratdir.

Fandagi ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayni paytda yoshlarga yagona bir xil guruh deb qaramasdan, balki yakka va ixcham ijtimoiy guruhlar sifatida yondashish kerakligi e'tirof etiladi. Shuning uchun bu borada davlatlarning markaziy idoralari yoshlarni boshqarish ishlarining bir qismini o'zini-o'zi boshqaradigan mahalliy organlarga topshira bordi hamda bu ishlarga yoshlar tashkilotlari (NNT) ham jalb etildi.

Evropa mamlakatlarida yoshlarga oid davlat siyosatining barcha ko'rsatkichlariga qarab 4 ta asosiy yo'nalishga bo'lishimiz mumkin:

- jamiyatdagi ijtimoiy va sog'lom turmush tarziga bo'ladigan xavf-xatarni oldini olish;
- yoshlar bandligini ta'minlash;
- yoshlarni milliy o'zlikka va milliy qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatish;
- yoshlarni jamiyatdagi boshqa etnik guruhlar bilan integrasiyalashishga hamda tolerantlikka chaqirishdan iborat.

Bugungi kunda, Evropa mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan yoshlarning boyskaut va gyorlskaut harakatlari keng tarqalgan[11]. O'zi boyskautizm – G'arbiy Evropa mamlakatlarida o'smir yoshlarni bo'sh vaqtdan unumli foydalanishi uchun keng tarqalgan tarbiya tizimidir. Bu harakatning maqsadi yosh avlodni o'z vatani, mamlakat va uning siyosiy tizimiga sadoqat ruhida tarbiyalash, hamda yoshlarga vatan, jamiyat uchun foydali ishlar qilishga, komil inson bo'lishga chorlashdan iborat. Shuningdek, u yoshlarda mustahkam irodani va jo'shqinlikni rag'batlantiradi hamda hayot sinovlariga chidamli bo'lishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, BMTning tashabbusi bilan 1985 yildan buyon 12 avgust «Xalqaro Yoshlar kuni» sifatida nishonlab kelinadi. Shunga muvofiq BMTning Bosh Assambleyasi butun dunyoda yoshlarning sharoitini, turmushini yaxshilashga qaratilgan Umumjahon yoshlar dasturini joriy etgan. Bosh Assambleya tomonidan joriy etilgan dasturda asosan ta'lim, bandlikni ta'minlash, qashshoqlik va ochlik bilan kurash, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza etish, giyohvandlikka qarshi kurash, voyaga etmagan shaxslar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash, sog'lomlashtirish va ko'ngilochar tadbirlar, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini, globalizatsiya, axborot va aloqa texnologiyalari, OITS/OIVga qarshi kurash, yoshlar va qurulli to'qnashuvlar hamda avlodlararo munosabatlar kabi masalalar qamrab olingan[12].

Hozirgi kunda Umumjahon yoshlar dasturining yoshlarning rivojlanishi, komillikka etishidagi o'rni nihoyatda kattadir. Dastur yoshlar bilan bog'liq turli masalalarni echishda dunyo mamlakatlarining salohiyatini oshirish hamda yoshlarning jamiyat hayotida to'laqonli va faol ishtirok etishi uchun keng ko'lamdagi imkoniyat va sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

BMTning yoshlar dasturi boshqarmasi tashkilotning yoshlar masalalari bo'yicha asosiy organi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur dastur doirasida BMT davlatlararo masalalarda muhim siyosiy qarorlarni qabul qilish, tadqiqotlar olib borish, yoshlar orasidagi hamkorlikni mustahkamlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi. Har yili 12 avgust kuni butun dunyo bo'ylab yoshlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi tutgan o'rni haqidagi tushunchalarni keng targ'ib qilishga qaratilgan bir qator xalqaro miqyosdagi tadbirlar uyushtiriladi. Ushbu tadbirlar turli mavzulardagi konferensiyalarni o'tkazishdan tortib, katta miqyosdagi konsertlarni tashkil etish kabi ishlardan iborat.

2015-yilda esa 12-avgust «Xalqaro Yoshlar kuni» munosabati bilan nishonlangan tadbirning mavzusi «Yoshlarning fuqarolik jamiyat hayotidagi ishtiroki»[13], deb nomlandi. Ushbu tadbirda inson taraqqiyoti konsepsiyasini to'liq amalga oshirish uchun yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi nihoyatda muhim ekanligi ta'kidlanadi. Eng achenarlisi, ko'p holatlarda yoshlar jamiyatning siyosiy,

iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishi uchun yaratilgan imkoniyatlar nihoyatda kamligi, ba'zida esa bunday imkoniyatlar umuman mavjud emasligidadir.

Keyingi yillarda bir qator mamlakatlarda hukumat miqyosida, BMT agentliklari, mintaqaviy va ko'p tomonlama tashkilotlar, fuqarolik jamiyat institutlari, yoshlar tashkilotlari va tadqiqot institutlari tomonidan yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, maxsus milliy dasturlar amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yoshlar tashkilotlarining ahamiyatini e'tirof etib shuni ta'kidlash lozimki, yoshlar tashkilotlarining mavqe'i va rolini oshirib borishda xorij tajribasini o'rgangan holda, milliy madaniyatimiz va jamiyatimiz mental xususiyatlariga xos bo'lgan yoshlar tashkilotlarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: «Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz»[14], degan fikrlari ham buni asoslab beradi.

Bugungi globallashuv jarayonida, O'zbekistonda ham kuchli fuqarolik jamiyati va demokratik islohotlar jarayonida yoshlar masalasi ustuvor vazifa sifatida talqin etiladi. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilishi jarayonida yoshlarga o'ziga xos o'rin ajratilgan. Ma'lumki, jamiyatimizning ko'pchilik qismini aynan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar qatlami tashkil etadi. 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni va boshqa bir qancha huquqiy normalarda aynan yoshlarga qaratilgan davlat va jamiyat siyosatini ishlab chiqish hamda ularni jamiyat ijtimoiy modernizatsiyasiga jalb qilish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab olingan.

Shuningdek, 2018-yil 4-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ham turli NNT va jamoat tashkilotlarini yoshlar bilan ishlash sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. «Istiqlol yillarida yurtimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muhiti yuksalmoqda, – deya ta'kidlaydi akademik A.Saidov. – Bu ijobiy jarayonlar kishiga mamnuniyat bag'ishlaydi. Nega deganda, har birimiz demokratiya ne'matlari iste'molchisi bo'lish bilan cheklanib qolmasdan, balki shu ne'matlarni yaratuvchi faol shaxslar sifatida o'zligimizni namoyon etishimiz bugungi davr talabidir»[15]. Shunga qaramay, farmonda bu boradagi bir qancha kamchiliklar izohlanib, jumladan, davlat organlari va NNT o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ayniqsa, yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmaganini tanqid qilinadi.

Shuningdek, so'nggi yillarda yoshlarimizni ilmiy faoliyatga jalb etish borasida salmoqli amaliy ishlar olib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish, joylarda ilmiy maktablarni mustahkamlash hamda tegishli hududiy va tarmoq muammolarini hal qilishda ularning faol ishtirokini ta'minlash ishlari ham mamlakatimiz rahbarining doimiy e'tiborida turibdi. Iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, xalqaro miqyosda mamlakat ilm-fani nufuzini oshirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Aynan shu kabi muhim omillar

bugungi globallashuv jarayonida olib borilayotgan keng islohotlarning fuqarolik jamiyati rivojlanishida yoshlarning nufuzi va salohiyatini namoyon etmoqda, shu bilan birga, mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy ifodasini ham ko'rsatib bermoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mazkur strategik vazifalarni amalga oshirishda bir qancha omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Birinchidan, fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlarni, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy yangilanish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Harakatlar strategiyasi negizida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini fuqarolarimizga etkazish va ma'naviy targ'ibot faoliyatini kuchaytirish, ikkinchidan, yurtimizda tom ma'nodagi plyuralistik muhitni yaratish maqsadida turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatamlar, siyosiy kuch va harakatlarni qo'llab-quvvatlash

bilan birga, ularda yagona g'oya – «Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi» maqsadiga erishishlariga ko'maklashadi, uchinchidan, yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini davlat talabiga mos ravishda tubdan isloh qilish, uning huquqiy va institusional asoslarini mustahkamlash, har tomonlama bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim va tarbiya uzviylikiga erishish, to'rtinchidan, ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e'tiqodimiz bo'lmish islom dinining bugungi hayotimizdagi o'рни va ta'sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka kengroq tushuntirish, beshinchidan, ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, ularda hamjihatlik va birdamlik tuyg'ularini kuchaytirish, tolerantlik madaniyatini yanada rivojlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 8-bob, 32-moddasi. –T., 2017.
1. 初旭新, 宗刚. 我国研究生教育国际化培养的现状与对策 [J]. 研究生教育研究, 2015 (05): 18-22
2. 邓键剑, 甘德欣. 风景园林专业硕士跨国联合培养实践教学探究 [J]. 安徽农学通报, 2020, (10): 141-143.
3. 刁小卫, 李超. “一带一路”背景下的语言互通与翻译人才培养研究 [J]. 理论观察, 2024 (2): 112-115
4. 方亦飞. “一带一路”倡议背景下高校复合型外语人才培养探究 [J]. 天津中德应用技术大学学报, 2019 (2): 114-117
5.] 王娟. 新疆维吾尔自治区高校俄语专业合作办学的回顾、现状及展望 [J]. 黑龙江高教研究, 2017 (10): 74-77.
6. 魏晖. “一带一路”与语言互通 [J]. 云南师范大学学报(哲学社会科学版), 2015 (04): 43-47.



UDK:82.09

Солиха АНОРБОЕВА,
Ўзбекистон давлат тилшунослик университети ўқитувчиси,
E-mail: s.anorboeva@uzswlu.uz

По отзыву профессора Узгумя, Д.Бахронова

СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА

Аннотация

В данной статье предполагается, что описание элементов, составляющих переводческую компетентность, является полезным инструментом подготовки переводчиков, поскольку позволяет установить как глобальные цели и задачи, так и конкретные задачи программ обучения переводу. Компетентность – это совокупность свойств и характеристик личности. Компетентность характеризует способность студента реализовать потенциал человека в образовательной деятельности. Под компетентностью понимается интегрированное качество личности, которое проявляется в общей способности и готовности к деятельности, основанной на знаниях и опыте, приобретенных в ходе обучения и социализации, то есть образования, и ориентированной на самостоятельное и успешное участие в деятельности. Компетентностный подход подразумевает постепенную переориентацию профессии.

Ключевые слова: Переводчик, компетентность, переводческая компетентность, программа, испанский язык, преподавание, методика.

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТА’ЛИМ MASKANLARIDA TARJIMONLAR TAYYORLASH TIZIMLARI VA PROFESSIONAL TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINING YANGI MODELI

Аннотация

Ushbu maqolada tarjima kompetentsiyasini tashkil etuvchi elementlarning tavsifi tarjimonlarni tayyorlash uchun foydali vosita ekanligini ko'rsatadi, chunki u bizga global maqsad va vazifalarni, shuningdek, tarjima o'qitish dasturlarining aniq vazifalarini belgilash imkonini beradi. Kompetensiya - bu shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir. Kompetensiya o'quvchining ta'lim faoliyatida inson salohiyatini ro'yobga chiqarish qobiliyatini tavsiflaydi. Kompetensiya deganda shaxsning yaxlit sifati tushuniladi, u o'qitish va sotsializatsiya jarayonida olingan bilim va tajribaga asoslangan faoliyatga umumiy qobiliyat va tayyorlikda namoyon bo'ladi, ya'ni. ta'lim, faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga qaratilgan. Kompetensiya yondashuvi kasbni bosqichma-bosqich asosiy kasbga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Tarjimon, kompetensiya, tarjima kompetensiyasi, dastur, ispan tili, o'qitish, metodika.

SYSTEMS OF TRANSLATOR TRAINING IN UZBEKISTAN UNIVERSITIES AND A MODERN MODEL OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TRANSLATOR

Annotation

This article suggests that the description of the elements that make up translation competence is a useful tool for training translators, since it allows us to establish both global goals and objectives, as well as specific tasks of translation training programs. Competence is a set of personality traits and characteristics. Competence characterizes a student's ability to realize human potential in educational activities. Competence is understood as an integrated quality of personality, which is manifested in the general ability and readiness for activity based on knowledge and experience acquired in the course of training and socialization, i.e. education, and oriented towards independent and successful participation in the activity. The competence approach implies a gradual reorientation of the profession to the main one.

Key words: Translator, competence, translation competence, program, Spanish language, teaching, methodology.

Введение. Компетентность – это совокупность свойств и характеристик личности. Компетентность характеризует способность студента реализовать потенциал человека в образовательной деятельности. Под компетентностью понимается интегрированное качество личности, которое проявляется в общей способности и готовности к деятельности, основанной на знаниях и опыте, приобретенных в ходе обучения и социализации, то есть образования, и ориентированной на самостоятельное и успешное участие в деятельности. “Компетентностный подход предполагает постепенную переориентацию деятельности путем перевода первичных знаний на создание условий для усвоения комплексом компетенций учащегося. Причем все они направлены на активизацию самостоятельной учебной деятельности обучающихся и ориентированы на развитие основных

характеристик творческого мышления (беглость, гибкость, оригинальность мышления, способность к развитию идеи, а также расширение познавательных интересов, мотивационной сферы и развитие навыков самостоятельной работы)” [1].

Обзор научной литературы. “Современные педагогические технологии обучения – это поиск неизведанного, новых знаний [2]. И эти технологии требуют меньших затрат времени. Ко всему вышесказанному необходимо добавить еще одно очень важное обстоятельство, влияющее на развитие обучающегося как творческой личности. “Освоение коммуникативной компетентности предполагает овладение иноязычным общением во всех его функциях: информационной, регулятивной, эмоционально-оценочной и этикетной. В ходе реализации этих функций

решаются определенные коммуникативные задачи и формируются основные коммуникативные навыки. Целью исследования до и после исследования было оценить влияние многогранного вмешательства на знания, навыки, отношения и поведение смежных медицинских работников” [6].

“Определение термина “переводческая компетентность” и полезность этого понятия. Термин “переводческая компетентность” используется разными авторами, некоторых из которых мы рассмотрим ниже, для описания набора способностей, навыков, знаний и даже взглядов, которыми обладают профессиональные переводчики, и которые вмешиваются в перевод как экспертную деятельность, то есть в целом отличают профессионала от непрофессионала, эксперта от неэксперта или “переводчика-носителя” Тури” [3]. Мы считаем полезным, прежде чем комментировать существующие описания, кратко рассмотреть, для чего используются понятие и описание переводческой компетентности в области переводоведения. “Кэмпбелл [4] предлагает три возможных применения концепции переводческой компетентности в исследованиях перевода, которые, в свою очередь, определяют направленность проектной работы, а также результирующую модель:

а) разработка психологических моделей переводческого процесса;

б) суммативная оценка качества переводов как продуктов (Кэмпбелл очень критично относится к проведенной работе с этой точки зрения), инструмент профессиональной аккредитации;

в) педагогика перевода.

Метод исследования. Модели, описывающие компетентность успешного профессионала, представляются нам очень полезными для разработки дидактических подходов, поскольку определение переводческой компетенции помогает нам точно установить, каковы общие глобальные цели обучения. что его подразделение на подкомпетенции или частичные компетенции помогает нам ставить менее глобальные, более конкретные цели. Работа преподавателя будет заключаться именно в разработке мероприятий, которые помогут развить каждую из этих субкомпетенций для достижения глобальной цели, составляющей переводческую компетентность в целом. Определение четких и ясных целей также составит основу систем оценки, соответствующих содержанию и методологии занятий, и может помочь смягчить общее недовольство существующими системами оценки подготовки переводчиков, основанными на их большей части в оценках продуктов.

Некоторые существующие описания переводческой компетенции. Поскольку модель, которую мы представляем в этой работе, очевидно, в большей или меньшей степени опирается на них, мы сначала остановимся, чтобы кратко рассмотреть, как некоторые авторы описывают переводческую компетентность. Этот обзор не претендует на исчерпывающий характер, хотя мы постарались собрать примеры из разных подходов, традиций и школ перевода.

Интересно отметить, что лишь немногие работы определяют переводческую компетентность как центральную тему: большинство моделей предлагаются в качестве предварительного шага к анализу других вопросов, часто связанных с подготовкой переводчиков. Изложение ведем в хронологическом порядке, что позволяет увидеть определенную эволюцию подходов, а также (иначе и не могло быть) очевидные взаимовлияния.

Целью настоящей статьи является постановка формирования профессиональной компетентности будущих специалистов.

Сегодня к ведущим методическим принципам коммуникативности, обеспечивающим практическую направленность занятий с упором на овладение речевой деятельностью в выбранной сфере общения, можно отнести следующие принципы обучения: “Дидактические принципы отражают основные положения теории воспитания и обучения, разработанные в дидактике. Они используются при преподавании различных дисциплин и не зависят от предмета обучения. В то же время применение дидактических принципов в каждой конкретной дисциплине имеет свои особенности, отражающие специфику изучаемого предмета” [7].

“Дидактические принципы обучения были впервые сформулированы Коменским [4]. Названия многих из них сохранились до сих пор, хотя содержание менялось в связи с развитием педагогики и смежных с педагогикой дисциплин”.

Принцип сознательности входит в число ведущих дидактических принципов, реализуемых на занятиях по языку. Следование этому принципу предполагает понимание обучающимися содержания иноязычной речи, понимание речевых единиц, способов употребления таких единиц. Известный методист Беляев подчеркивал, что навыки и умения развиваются гораздо быстрее в тех процессах, когда образование подвергается суждению в процессе освоения языка. Путь овладения языком с осознанием свойств и особенностей языковых единиц, правил и особенностей, функционирующих в речи, для практического применения в ходе речевой деятельности определяется как “путь сверху” и рассматривается как наиболее предпочтительный [8]. Принцип осознанности при реализации обучения означает также отношение обучаемого к обучению, что предполагает овладение студентом самостоятельной работой, а для студента как будущего специалиста - понимание и прием, которые использует преподаватель во время занятия. Такие приемы обеспечивают профессиональную ориентацию учебного процесса в вузе” [5]. “В любом случае, для цели, которую мы перед собой поставили, а именно служить основой для разработки учебных программ, такие исключительные случаи, похоже, не делают модель недействительной” [9].

Мы считаем, что в случае учебных программ по письменному и устному переводу в испанских университетах существует общий консенсус вокруг двух основных целей. Важно отметить, что эти две цели не исключают друг друга, а, скорее, дополняют друг друга, поэтому, на наш взгляд, всем студентам бакалавриата целесообразно заканчивать обучение с минимальной подготовкой по обоим аспектам.

Анализ и результаты. В заключение и начиная с отправной точки, которую мы поставили перед собой для разбивки общих целей, связанных с первой целью обучения, модели переводческой компетентности, представленной выше, мы представляем ниже список общих целей, сгруппированных по заголовкам, которые соответствуют различным описанным субкомпетенциям.

Коммуникативная и текстовая субкомпетентность как минимум в двух языках и культурах

– Развивать способность понимать и анализировать тексты (письменные и устные) различных типов и областей, созданные на родном языке (язык А или испанский), на первом иностранном языке (язык Б) и, на более позднем этапе обучения.

– Развивать способность создавать тексты (письменные и устные) разных типов и областей на языке А и языке Б.

– Раскрыть характеристики и условности основных текстовых жанров и поджанров, присутствующих на рынке профессионального письменного и устного перевода в различных культурах, в которых говорят на языках А, В и С.

Культурная субкомпетенция

– Освещать основные институты культур языков А, В и С в их историческом и социальном контексте.

– Распространять общие ценности, мифы, представления и убеждения, которые определяют поведение представителей различных культур языков А, В и С.

– Понять существующие взаимоотношения между культурами и их текстами. Тематическая подкомпетенция.

Профессиональная инструментальная субкомпетентность

– Приготовьтесь узнать, как идентифицировать, оценить надежность и использовать различные источники документации для письменного и устного перевода.

– Подготовиться знать, как организовать и осуществлять поиск терминологии, а также оценивать достоверность и управлять терминологическими ресурсами.

– Познакомить и подготовиться к использованию основных компьютерных приложений, полезных для письменного и устного перевода.

Психологическая субкомпетентность

– Развивать самооценку переводчика.

– Обеспечьте достаточный уровень доверия.

– Содействовать автоматизации наиболее распространенных задач письменного и устного перевода.

Межличностная субкомпетенция

– Расскажите о различных межличностных отношениях, которые участвуют в процессе перевода или устного перевода.

– Приготовьтесь узнать, как работать в команде с различными профессионалами, участвующими в письменном или устном переводе (рецензентами, режиссерами-документалистами, терминологами).

Стратегическая субкомпетенция

– Развивать умение организовывать свою работу, а также работать в команде.

– Развивать способность выявлять проблемы

– Развивать способность искать и оценивать различные решения проблем, выявленных в широком контексте задания на письменный или устный перевод [10].

Принцип долговечности обеспечивает сохранение учебного материала в памяти учащегося и возможность его применения в личных ситуациях общения.

“Принцип доступности и целесообразности предполагает, что с первого занятия материал подается в соответствии с возрастом и интеллектуальными

возможностями учащегося, и его усвоение не вызывает непреодолимых затруднений” [5].

Принцип межкультурного взаимодействия предполагает такую организацию учебно-воспитательного процесса, при которой педагог учитывает национальные и культурные особенности учащегося в условиях межкультурного взаимодействия с носителями языка. “Факт влияния межкультурного взаимодействия на учебно-воспитательный процесс огромен, поэтому выделение принципа межкультурного взаимодействия в качестве самостоятельного дидактического принципа представляется вполне обоснованным и получило поддержку среди исследователей как зарубежных так и наших ученых. Учет данного принципа в учебно-воспитательном процессе способствует формированию межкультурной компетентности, а уровень сформированности позволяет судить о достижениях учащегося в освоении изучаемого языка на социокультурном уровне” [7].

По результатам проведенных нами научно-практических исследований по определению психолого-педагогических основ формирования коммуникативной компетентности, которая включает понимание ситуации нового спроса, разработку стратегических основ, рассчитанных на эту новую состоятельность, в том числе разработку опережающих моделей изменившейся профессиональной деятельности и пересмотр содержания образовательного процесса. В совокупности перечисленное обеспечивает перевод сознания и деятельности от спонтанного выбора образа к проекции желаемого или будущего изменения.

Заключение. В заключении можно сказать, что компетентностный подход в решении проблем общества рассматривается как диалектическая альтернатива традиционному подходу, ориентированному на нормирование содержательных единиц, аналогичному идеям образовательного стандарта.

Мы приводили доводы в пользу полезности концепции переводческой компетентности и различных моделей, которые пытаются описать ее как основу для формулирования общих целей университетской подготовки переводчиков. С этой целью и после краткого обзора некоторых существующих моделей мы представили нашу собственную модель, которая хотя и отвергает некоторые концепции предыдущих моделей, но включает многие из них, добавляет элементы, не рассмотренные до сих пор, и структурирует их аналогично иерархической пирамидальной форме. Отталкиваясь от этой модели, мы разбиваем глобальные цели программы подготовки переводчиков бакалавриата.

Мы считаем, что та же самая процедура может быть применена к конкретным целям различных предметов, составляющих планы обучения, каждый из которых находится в пределах своей компетенции или соответствующей сферы деятельности. Кроме того, на следующем этапе мы считаем, что эта модель может служить основой как для диагностической, формативной, так и для итоговой оценки в рамках программ обучения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Анорбоева, С. 2023. Формирование профессиональной компетентности переводчика // Научно-инновационный журнал. Т.
2. Анорбоева, С. 2023. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) // Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки. Т.
3. Анорбоева, С. 2023 Развитие переводческой компетентности на курсах испанского языка методом “шадвинг”. журнал исследований и инноваций. Т.
4. Анорбоева, С. 2023 Развитие переводческой компетенции студентов на курсах испанского языка. эффективное образование и устойчивые инновации. Т.
5. Бринклекс, К. М. 2004. Страхи переводчика. Разрушение. Жизненно важные линии связи. Армейские времена. М.

6. Катан, Д. 2004. Перевод культур. – Манчестер: Сент-Джером.
7. Комиссаров, В.Н. 2000. Современное переводоведение. Курс лекций. М.
8. Тухтасинов, И.М. 2018. Развитие профессиональной компетентности на основе эквивалентности при подготовке проводников: автореф. дис. ...доктор педагогических наук (DSc). Т.
9. Уоттс, Р. 2000. Перевод культуры: чтение паратекстов. М.
10. Швейцер А.Д. Теория перевода. – М., 1988. – 154 с. В Дубкова О.В., Колышкина С.С. Теория и практика перевода иностранных текстов: восточные языки, Новосибирск, 2017.



UDK:159.9.316.6

Suhrabxon AHROROV,

Toshkent xalqaro oliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: suxrob1977@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, dotsent R.Dushanov taqrizi asosida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL MEDIA ADDICTION

Annotation

This article is dedicated to the study of the socio-psychological factors of social media addiction. The main aspects of addiction among adolescents and adults, gender differences in addiction manifestations, as well as the influence of the social media on psychological health, particularly the development of depressive and anxiety disorders, are considered.

Key words: Social media addiction, psychological addiction, gender differences, adolescence, adulthood, self-esteem, depression, anxiety, social comparison, emotional instability, social norms.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию социально-психологических факторов проявления зависимости от социальных сетей. Рассмотрены основные аспекты зависимости среди подростков и взрослых, гендерные различия в проявлениях зависимости, а также влияние социальных сетей на психологическое здоровье, в частности, на развитие депрессивных и тревожных расстройств.

Ключевые слова: Зависимость от социальных сетей, психологическая зависимость, гендерные различия, подростки, взрослые, самооценка, депрессия, тревога, социальное сравнение, эмоциональная нестабильность, социальные нормы.

IJTIMOYIY TARMOQLARGA QARAMLIK NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Аннотация

Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etishga bag'ishlangan. O'smirlar va kattalar o'rtasidagi qaramlikning asosiy jihatlari, qaramlikning namoyon bo'lishidagi gender farqlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning psixologik salomatlikka, xususan, depressiya va xavotir buzilishlarining rivojlanishiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlari: Ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, psixologik tobelik, gender tafovutlar, o'smirlar, kattalar, o'z-o'zini baholash, depressiya, xavotirlanish, ijtimoiy taqqoslash, hissiy beqarorlik, ijtimoiy me'yorlar.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ularning ommalashish darajasi yildan-yilga oshib, turli yosh va ijtimoiy guruhlariga mansub insonlarni o'ziga jalb etmoqda. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilayotgan vaqtning ko'payishi bilan bu platformalardan haddan tashqari foydalanish va ularga qaramlik muammosi yuzaga kelmoqda. Jamiyatning raqamlashuvi, internet va mobil quрилmalardan keng foydalanish sharoitida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Muammoning jiddiyligi shundaki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy faollikni susaytiradi va kognitiv qobiliyatlarining yomonlashuviga olib keladi. O'z navbatida muammoning ko'lamini va namoyon bo'lishi omillarini anglash qaramlik profilaktikasining chora-tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (social media addiction) muammosi ko'plab olimlar, jumladan, Andreassen C. S., Pallesen S., Griffiths M.D. [1], Carr N. [2], Casale S., Fioravanti G., Rugai L. [3], Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L. R., Halliwell E. [4], Hampton K.N. [5], Kross E., Verduyn P., Demiralp E., Park J., Lee D.S., Lin N., Ybarra O. [6], Lemola S., Perkinson-Gloor N., Brand S., Dewald-Kaufmann J. F., Grob A. [7], Lenhart A., Purcell K., Smith A., Zickuhr K. [8], Levenson J.C., Shensa A., Sidani J.E., Colditz J.B., Primack B.A. [9], McAndrew F.T., Jeong H.S. [10], Nesi J., Prinstein

M.J. [11], Rosen L.D., Carrier L.M., Cheever N.A. [12], Turel O., Bechara A. [13], Twenge J.M., Martin G.N., Spitzberg B.H. [14], Vogel E.A., Rose J.P., Roberts L.R., Eckles K. [15], Woods H.C., Scott H. [16], Young K.S. [17], Suler, J.R. [18], Davis R.A. [19] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu olimlar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik mexanizmlarini turli ilmiy nuqtayi nazardan o'rganib, uni tushunishga katta hissa qo'shdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (social media addiction) turli yosh va gender guruhlarini qamrab oluvchi global muammodir. Ushbu masalaga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, ayniqsa, o'smirlar va yoshlarning psixik salomatligiga sezilarli ta'sir o'tkazayotganligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, uning yosh va jinsiy xususiyatlari hamda psixik salomatlikka ta'siri bo'yicha tadqiqotlar tahlili mazkur muammo profilaktikasini samarali tashkil etishga doir ilmiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. O'smirlar va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchilari bo'lib, bu ularda qaramlik namoyon bo'lishi ehtimolini oshiradi. O'smirlar psixologik va ijtimoiy jihatdan yetarlicha himoyalanganligi sababli ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolishga ko'proq moyil bo'ladilar. Ular ko'pincha ijtimoiy muhitga qo'shilish va o'zini namoyon etish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Bu esa ularni ijtimoiy taqqoslash va boshqalarning ma'qullashiga ehtiyoj sezishga nisbatan yanada

zaif qilib qo'yadi. Masalan, AQSh va Yevropada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra ijtimoiy tarmoqlarga faol ravishda kirib turuvchi o'smirlar ko'pincha o'zini past baholash va hissiy beqarorlik kabi muammolarga duch kelishar ekan [8]. Twenge J.M va hammualiflari (2018) tadqiqoti o'smirlar ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazib, ulardan ijtimoiy aloqalar o'rnatish, muloqot qilish va ko'ngil yozish maqsadida foydalanayotganlarini aniqlagan. Biroq, ijtimoiy platformalardan tez-tez foydalanish o'z navbatida, o'smirlarda xavotirlanish, tushkunlik va o'zgaralar bilan taqqoslash sababli o'zini past baholash yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda [14].

Qaramlikning yuzaga kelishida ijtimoiy ma'qullash kutilmalari (layklar, sharhlar va obunachilar soni va sh. k.) ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu omillar ko'pincha ijtimoiy muvaffaqiyat o'lchovi sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar ma'qullash madaniyatini yaratib, foydalanuvchilar o'z onlayn hamjamiyatlarining talablariga javob berishga intiladilar.

Kattalarda ham ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik namoyon bo'lib, lekin ulardan foydalanish xarakteri turilligi bilan farqlanishadi. Xususan, Andreassen C.S. (2017) tadqiqotlariga ko'ra, kattalar ijtimoiy tarmoqlardan ko'proq ish faoliyati, yangiliklardan xabardorlik, do'stlari va hamkasblari bilan aloqada bo'lish uchun foydalanishib, ularda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik faoliyat mahsuldorligining susayishi va kundalik vazifalarga e'tiborning pasayishi bilan kuzatilib, ayniqsa 30-50 yoshda, vaqtni boshqarish hamda onlayn va oflayn hayot o'rntasidagi muvozanatni saqlash muammolariga duch kelishlari mumkin [1].

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning namoyon bo'lishida sezilarli gender farqlar mavjudligi kuzatilmoqda. Tadqiqotchilar F.T. McAndrew va H.S. Jeong (2012) o'tkazgan tadqiqotlarda ayollar ijtimoiy tarmoqlardan ko'proq ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish, hissiy qo'llab-quvvatlashga erishish, shuningdek o'zlarini ifoda etish hamda do'stlari va oila a'zolari bilan muloqot qilish maqsadida foydalanishlari qayd etilgan [10]. Ushbu ma'lumotlar Fardouly J., Diedrichs P. C., Vartanian L. R., va E.Halliwellning (2015) tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, ayollar ijtimoiy taqqoslashlarga ko'proq moyil bo'lishi ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi va ularda xavotirning kuchayishi kuzatilib ta'kidlangan [4]. Casale S., Fioravanti G. va Rugai L. (2016) ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning gender xususiyatlarini tadqiq etishar ekan, erkaklar ko'proq ijtimoiy tarmoqlardan video tomosha qilish yoki onlayn o'yinlarda ishtirok etish uchun foydalanishlarini ko'rsatib o'tishgan. Erkaklarda ijtimoiy tarmoqlarga hissiy qaramlik belgilari kamroq kuzatilsa-da, ular texnologiyadan tez-tez foydalanish bilan bog'liq qaramlikka ko'proq moyil bo'lishlari mumkin [3].

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bilan bog'liq asosiy muammolardan biri uning psixologik salomatlikka ta'siri hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanish depressiya va xavotirlanish darajasining oshishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, J. Nesi va M.J. Prinstein (2015) o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt sarflaydigan o'smirlar doimiy ijtimoiy taqqoslash va "muhim narsani o'tkazib yuborishdan qo'rqish" (inglizcha "fear of missing out" yoki qisqacha FOMO) tufayli depressiya va xavotir alomatlarini boshdan kechirishadi [11].

Ijtimoiy taqqoslashlar ham ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy platformalar orqali boshqalarning hayotini muntazam kuzatish ko'pincha hasad, o'ziga ishonchsizlik va boshqalar bilan taqqoslashlar sabab shaxsiy hayotdan qoniqmaslik tuyg'ularini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida o'zini past baholash va tushkunlik alomatlarining

kuchayishiga olib keladi. Jumladan, E.A.Vogel, J.P. Rose, L.R. Roberts, K. Eckles (2014) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, ijtimoiy tarmoqlar o'zini past baholaydigan va hissiy beqaror bo'lgan odamlarning mavjud psixologik muammolarini yanada kuchaytirishi mumkin [15]. Emotsional beqarorlik yoki kayfiyatning tez-tez o'zgarishi va yuqori darajadagi xavotirga moyillik ham qaramlikning rivojlanishiga turki beruvchi omillar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik inson hayotining ko'plab jabhalariga, jumladan, ijtimoiy munosabatlarga, aqliy qobiliyatlarga va jismoniy salomatlikka ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt va nazoratsiz foydalanish bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy muloqotga bo'lgan ehtiyoj haqiqiy ijtimoiy aloqalar sifatini pasaytirishi mumkin, chunki foydalanuvchilar ko'pincha o'z yaqinlariga emas, balki qurilmalariga ko'proq e'tibor qaratishadi. Kross E. va hammualiflarining (2013) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish begonashuv, ijtimoiy yakkalanish hamda oilaviy va do'stona munosabatlarning yomonlashishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda [6]. Ko'pchilik foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda muloqot sifatiga emas, balki "do'stlar" va obunachilarning soniga e'tibor qaratadi, bu esa ijtimoiy o'zaro ta'sirdan qoniqishning pasayishiga olib keladi. O'z navbatida, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zaro munosabatlar muloqot ko'nikmalarini va hissiy hamdardlikni rivojlantirishda ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin [5].

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning muhokama qilinadigan oqibatlaridan yana biri diqqat va konsratsiya kabi kognitiv funksiyalarning yomonlashuvidir. Tadqiqotlar (Rosen va boshqalar, 2013) shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p vazifalilik va turli ijtimoiy platformalar o'rntasidagi uzluksiz almashinuv bitta vazifaga e'tibor qaratish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu hodisa diqqat hajmining qisqarishi va chalg'ishning kuchayishi bilan bog'liq [12]. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik teran fikrlash va ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini ham pasaytirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa, tez almashinadigan xabar va yangiliklarning doimiy oqimi kognitiv moslashuvchanlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, bu esa oqibatda insonning murakkab g'oyalarni o'ylab topishga sarflaydigan vaqtini kamaytiradi [2].

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jismoniy salomatlik uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, C.S. Andreassen va hammualiflarining (2017) tadqiqotiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik depressiya va xavotirlanish kabi psixik buzilishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda, faoliyat samaradorligining pasayishiga va jismoniy salomatlikning yomonlashishiga (masalan, uyquning buzilishiga) olib kelishi mumkin [1]. Uxlashdan oldin smartfon va boshqa qurilmalardan faol foydalanish odati tufayli yuzaga keluvchi uyqusizlik va uyquning buzilishi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ekranlardan chiqayotgan ko'k yorug'lik uyquni tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan melatonin gormonining ishlab chiqarilishini kamaytiradi, bu esa uyqu kechikishiga va uyqu davomiylikning qisqarishiga olib keladi [9]. Bundan tashqari Woods H.C., Scott H. (2016) izlanishlari ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik surunkali uyqusizlikni keltirib chiqarishi mumkinligini, bu esa kayfiyatning yomonlashishiga va jismoniy charchoqqa olib kelishini qayd etadi [16].

Ekran qarshisida uzoq muddat vaqt o'tkazish bilan bog'liq kam harakatli hayot tarzi tufayli ham jismoniy salomatlik aziyat chekishi mumkin. Bu semizlik, yurak-qon tomir va boshqa surunkali kasalliklar xavfini oshirib, o'z navbatida kam harakatlilik yashash tarzi va jismoniy faollikning ozligi bilan yanada kuchayadi [13]. Shuningdek, Lemola S. va hamkasblari (2015) tadqiqotlarida uxlashdan

oldin ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uyqu buzilishi va charchoq tufayli ertasi kungi diqqat va konsentratsiyaga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan [7].

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni o'rganishda uning namoyon bo'lishining neyrobiologik omillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishdagi yondashuvlardan biri mukofot va dofamin mexanizmlari (Meshi D., Morawetz C., Heekeren H.R.) masalalarini tadqiq etish hisoblanadi [16]. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikka oid neyrobiologik yondashuvda asosiy tushunchalardan biri miyani mukofotlash tizimi bilan bog'liq bo'lgan neyromediator dofaminning roli hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qimor o'yinlari yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilish kabi xulq-atvoriga qaramlikning boshqa turlari bilan bir xil dofamin tizimini faollashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro ta'sir, jumladan, layklar va sharhlar olish miyaning mezolimbik tizimida dofamin faolligini rag'batlantiradi.

Mavjud ma'lumotlarning katta hajmiga qaramay, uzoq muddatli ta'sirlar, kross-madaniy xususiyatlar va yangi platformalarning ta'siri yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlarning asosiy vazifasi qaramlik xavfini kamaytirish va uning oqibatlarini haqida xabardorlikni oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'lib, bu oxir-oqibat ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining

hayot-faoliyati sifatini yaxshilash, psixologik farovonligini (psychological well-being) oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik foydalanuvchilar hayotining turli jabhalariga ta'sir qiluvchi murakkab hodisadir. U shaxs xususiyatlari, ijtimoiy, psixologik, jismoniy omillar, yosh va gender xususiyatlariga bog'liq holda namoyon bo'lib, turli ijtimoiy-psixologik muammolarga olib keladi. Bugungi kunda mazkur yo'nalishda psixologik ma'rifat, o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy salomatlikka salbiy ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan strategiyalarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlar zarur bo'lmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganish fanlararo yondashuvni talab qiladi. Psixologik, sotsiologik, jismoniy va neyrobiologik omillar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, tobe xulq-atvor rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ayniqsa, yoshlarning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu esa psixologiya sohasidagi mutaxassislarning yanada faol aralashuvini talab qiladi. Ushbu muammoning uzoq muddatli oqibatlarini tushunish va profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish uchun fanlararo yondashuv asosida tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Andreassen, C. S., Pallesen, S., & Griffiths, M. D. (2017). The relationship between addictive use of social media, narcissism, and self-esteem: Findings from a large national survey. *Addictive Behaviors*, 64, 287-293. <https://doi.org/10.1016/j.addbeh.2016.03.006>.
2. Carr, N. (2010). *The Shallows: What the Internet is Doing to Our Brains*. New York: W.W. Norton & Company.
3. Casale, S., Fioravanti, G., & Rugai, L. (2016). Grandiose and vulnerable narcissists: Who is at higher risk for social networking addiction? *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 19(8), 510-515. <https://doi.org/10.1089/cyber.2016.0189>.
4. Fardouly, J., Diedrichs, P. C., Vartanian, L. R., & Halliwell, E. (2015). Social comparisons on social media: The impact of Facebook on young women's body image concerns and mood. *Body Image*, 13, 38-45. <https://doi.org/10.1016/j.bodyim.2014.12.002>.
5. Hampton, K. N. (2016). Persistent and pervasive community: New communication technologies and the future of community. *American Behavioral Scientist*, 60(1), 101-124. <https://doi.org/10.1177/0002764215601714>.
6. Kross, E., Verduyn, P., Demiralp, E., Park, J., Lee, D. S., Lin, N., ... & Ybarra, O. (2013). Facebook use predicts declines in subjective well-being in young adults. *PLOS One*, 8(8), e69841. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0069841>.
7. Lemola, S., Perkinson-Gloor, N., Brand, S., Dewald-Kaufmann, J. F., & Grob, A. (2015). Adolescents' electronic media use at night, sleep disturbance, and depressive symptoms in the smartphone age. *Journal of Youth and Adolescence*, 44(2), 405-418. <https://doi.org/10.1007/s10964-014-0176-x>.
8. Lenhart, A., Purcell, K., Smith, A., & Zickuhr, K. (2010). *Social Media & Mobile Internet Use among Teens and Young Adults*. Millennials. <https://www.sbbihelp.org/files/social-media-young-adults.pdf>.
9. Levenson, J. C., Shensa, A., Sidani, J. E., Colditz, J. B., & Primack, B. A. (2017). Social Media Use Before Bed and Sleep Disturbance Among Young Adults in the United States: A Nationally Representative Study. *Sleep*, 40(9), zsx113. <https://doi.org/10.1093/sleep/zsx113>.
10. McAndrew, F. T., & Jeong, H. S. (2012). Who does what on Facebook? Age, sex, and relationship status as predictors of Facebook use. *Computers in Human Behavior*, 28(6), 2359-2365. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2012.07.007>.
11. Nesi, J., & Prinstein, M. J. (2015). Using social media for social comparison and feedback-seeking: Gender and popularity moderate associations with depressive symptoms. *Journal of Abnormal Child Psychology*, 43(8), 1427-1438. <https://doi.org/10.1007/s10802-015-0020-0>.
12. Rosen, L. D., Carrier, L. M., & Cheever, N. A. (2013). Facebook and texting made me do it: Media-induced task-switching while studying. *Computers in Human Behavior*, 29(3), 948-958. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2012.12.001>.
13. Turel, O., & Bechara, A. (2016). Social networking site use while driving: ADHD and the mediating roles of stress, self-esteem and craving. *Frontiers in Psychology*, 7, 455. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2016.00455>.
14. Twenge, J. M., Martin, G. N., & Spitzberg, B. H. (2018). Trends in U.S. adolescents' media use, 1976-2016: The rise of digital media, the decline of TV, and the (near) demise of print. *Psychology of Popular Media Culture*, 7(3), 201-213. <https://doi.org/10.1037/ppm0000203>.
15. Vogel, E. A., Rose, J. P., Roberts, L. R., & Eckles, K. (2014). Social comparison, social media, and self-esteem. *Psychology of Popular Media Culture*, 3(4), 206-222. <https://doi.org/10.1037/ppm0000047>.
16. Woods, H. C., & Scott, H. (2016). #Sleepyteens: Social media use in adolescence is associated with poor sleep quality, anxiety, depression and low self-esteem. *Journal of Adolescence*, 51, 41-49. <https://doi.org/10.1016/j.adolescence.2016.05.008>.
17. Young, K.S. (1996). Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder. *Cyberpsychology Behav. Soc. Netw.*, 1, 237-244. <https://doi.org/10.1089/cpb.1998.1.237>.
18. Suler, J.R. (1999). To Get What You Need: Healthy and Pathological Internet Use, February 1999 *Cyberpsychology & behavior: the impact of the Internet, multimedia and virtual reality on behavior and society* 2(5):385-93 2(5):385-93 DOI:10.1089/cpb.1999.2.385.
19. Davis R.A. A cognitive-behavioral model of pathological Internet use, *Computers in Human Behavior*, Volume 17, Issue 2, 2001, P. 187-195, ISSN 0747-5632, [https://doi.org/10.1016/S0747-5632\(00\)00041-8](https://doi.org/10.1016/S0747-5632(00)00041-8).



UDK:111.130.2;17

Oybek BERKINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: oybekberkinov98@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, DSc, G.G'. G'affarova taqrizi asosida

ONTOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CYBERSPACE

Annotation

This article explores the emergence of the concept of cyberontology and the philosophical and technical approaches of various scientists. The characteristics of "anonymity (secrecy)", "presence of virtual names in individuals", "expression of feelings" of cyberspace as a means of communication are analyzed separately. Cyberspace subject, cyberspace object, cyberspace platform and cyberspace activities are represented as structural elements of cyberspace anthology.

Key words: Cyber space, cyber anthology, virtual reality, anonymity, consciousness.

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИБЕРПРОСТРАНСТВА

Аннотация

В этой статье исследуется возникновение концепции киберонтологии и философские и технические подходы различных ученых. Отдельно проанализированы особенности киберпространства как средства коммуникации "анонимность (анонимность)", "наличие виртуальных имен у индивидов", "выражение чувств". В качестве структурных элементов антологии киберпространства выступают субъект киберпространства, объект киберпространства, платформа киберпространства и деятельность киберпространства.

Ключевые слова: Киберпространство, киберонтология, виртуальная реальность, анонимность, сознание.

KIBERMAKONNING ONTOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kiberontologiya tushunchasining paydo bo'lishi va turli olimlarning falsafiy va texnik jihatdan yondashuvlari o'rganilgan. Kibermakonning muloqot vositasi sifatida "anonimlik(yashirinlik)", "shaxslarda virtual ismlarning mavjudligi", "his-tuyg'ularni ifoda etish" xususiyatlari alohida tahlil qilingan. Kibermakon antologiyasi tarkibiy elementlari sifatida kibermakon subyekti, kibermakon obyekt, kibermakon platformasi va kibermakon faoliyati namoyon etiladi.

Kalit so'zlar: Kibermakon, kiberontologiya, virtual haqiqat, anonimlik, ong.

Kirish. Bugungi kunda insonning real hayoti bilan parallel ravishda uning tarmoqdagi hayoti ham mavjuddir. Kibermakon insonga zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yangi imkoniyatlarni, yo'llarni va usullarni ochib beradi. Insoniyatning klassik ehtiyojlari bo'lgan aloqa o'rnatish, muloqot qilish, yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, mehnat qilish, yangi usullarni topish kabi ko'plab ehtiyojlarni qoplash maydoniga aylandi. Shu nuqtai nazardan insonning hayoti "parallel" ravishda kibermakonda ham kechishi zamonaviy inson sivilizatsiyasining muqobil ontologiyasi – kiberontologiyaning tadbiiq etilishligiga turtki bermoqda. Kiberontologiya tushunchasi ilmiy termin sifatida rus olimi V.A.Pleshakov tomonidan ishlatilgan bo'lib, kiberontologiya – o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasi va shaxsning motivatsion ehtiyoj sohasi, shuningdek, ijtimoiylashuvchi muhitning obyektiv va subyektiv mikro, makro, mezo va megafaktorlari majmuasi bilan belgilanadigan kibermakonning innovatsion muqobil haqiqatida insonning mavjudligi yoki hayotiy faoliyatidir[1], deyiladi. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, insonning kibermakondagi hayoti uning faolligi va ijtimoiy ehtiyojlarini qay darajada qondira olayotganligi qobiliyati bilan belgilanmoqda. Insonlarning "Ikkinchi parallel" dunyosidagi barcha harakatlar kibermakonda kechganligi tufayli ayrim olimlar uni "kibermakon ontologiyasi" deb ham atashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Kibermakon ontologiyasi" atamasi amerikalik faylasuf D.Kapsel tomonidan 2000-yilda "Kibermakon ontologiyasi: falsafa, huquq va kelajak intellektual mulk" asarida qo'llanilgan[2].

Biz funksional jihatdan mohiyati bir bo'lganligi uchun kiberontologiya va kibermakon ontologiyasini bir ma'noda qo'llashni va umumiy qilib "kibermakonning ontologik xususiyatlari" deb atashni taklif qilamiz.

Bir narsani ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bugunga qadar kibermakonning ontologik jihatlari deyarli yoritilmagan. Faqatgina yuqorida biz sanab o'tgan D.Kapsel asarlarida va Mihael Heyimning The Metaphysics of Virtual Reality(Virtual haqiqat metafizikasi) nomli asarida uchratishimiz mumkin. Mihael Heyimning asarida kibermakon virtual haqiqat sifatida talqin qilinadi. Lekin, kibermakon va virtual haqiqat tushunchalari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ontologik jihatdan kibermakonni borliqdagi muloqot vositasi sifatida talqin qilishligimiz mumkin. Muloqot inson va jamiyat hayoti va faoliyatining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Muloqot orqali inson atrof-muhit bilan, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Muloqot barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning, jumladan, psixologiya va falsafaning o'rganish obyektlari hisoblanadi. Muloqot o'zida kuchli emotsional va psixologik ta'sirni mujassamlashtirgan vosita sifatida murabbiy(ustoz, tarbiya beruvchi, rahbar...) va tarbiyalanuvchi(bolalar, o'quvchilar, talabalar, fuqarolar...) o'rtasida muayyan ruhiy ko'nikma va muhitni(aura, atmosfera) vujudga keltiradi va natijada, ular o'rtasida o'zaro ruhiy-ma'naviy yaqinlik, birdamlik, o'zaro bir-birini tushunish kabi sog'lom sharoit yuzaga keladi[3]. Muloqot vujudga kelishligi uchun subyektlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi lozim. Madaniy hosila sifatida muloqot falsafiy asoslarga ega

bo'lib, ko'p qirrali va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy va ilmiy haqiqatlarni paydo qiladi[4].

Tarixan olib qaralganda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muloqot markaziy omil hisoblanadi. Kishilarni ijtimoiy ehtiyoj sifatida bir-biriga bo'g'laydi. Inson o'z ehtiyojlarini bir o'zi qondira olmaydi. Kishilarning muloqotga kirishi natijasida jamiyat elementlari yuzaga keladi[5]. Qadimdan muloqotning asosiy vositasi sifatida til katta ahamiyatga kasb etgan va ming yillab o'z pozitsiyasini saqlagan. Bugungi kunda ham kundalik turmushda ham muloqot vositasi hisoblanadi. Fan-texnika rivojlanishi, yangi ixtirolarning paydo bo'lishi natijasida muloqotning yangi vositalari ham paydo bo'ldi. Yozuvning paydo bo'lishi, qog'ozning ixtiro qilinishi kabi hodisalar insonlarga turli zamonlar va makonlar oralig'ida muloqotning yangi ko'rinishlari vujudga keltirdi. XX asr oxiriga kelib yangi texnologiyalarning vujudga kelishi natijasida muloqotning 2 turga ajralishiga sabab bo'ldi. Bular: bevosita muloqot va bilvosita muloqotlardir. Bevositada muloqot bu – insonlar o'rtasida yuzma-yuz kechadigan, asosan, his-tuyg'ular, so'zlashuvlar va imo-ishoralar orqali kechadigan muloqotdir. Bilvosita muloqot esa aloqa vositalari, ya'ni telefon, kompyuterlar, dasturlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli saytlar orqali kechadigan suxbatlardan iboratdir. Bilvosita muloqotda asosiy obyekt – kibermakon hisoblanadi. Kibermakondagi muloqot o'zining keng qamrovligi, tezkorligi, makon va zamon osha harakat qilishi bilan ajralib turadi. Misol uchun ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kunimizni tasavvur qilish qiyin. Har qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalardan suxbat davrasi funksiyasini bajarib kelmoqda.

Muloqot usuliga ko'ra, internet ham bilvosita aloqadir, chunki u texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Axborotni uzatish va idrok etishga ko'ra, kompyuter aloqasi actual(haqiqiy odamlar bilan aloqa) va virtual(noma'lum, xayoliy suhbatdoshlar bilan aloqa)ga bo'linadi[6]. Birgina Telegramm ijtimoiy tarmog'ini oladigan bo'lsak, kundalik aloqalarimizda eng asosiy vositalardan biriga aylanib ulguramiz. Demandsage.com sayti 2024-yilda 18-yanvar sanasi bilan Telegramm haqidagi statistik ma'lumotlarni e'lon qildi:

telegramning har oyda 800 million faol foydalanuvchisi bor va 2024-yil oxirigacha uning foydalanuvchilar soni 1 milliardga yetishi kutilmoqda;

telegramdan har kuni 55,2 million kishi foydalanadi;

telegram orqali har kuni 15 milliarddan ortiq habar yuboriladi;

telegram ilovasi shu kungacha 1 milliard martadan ortiq yuklab olinagan;

telegram foydalanuvchisi har oyda o'rtacha 2,9 soat vaqt sarflaydi[7].

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, birgina tarmoqning o'zi millionlab insonlarning muloqot maydoniga aylanib ulguramiz. Har birimiz tan olishimiz kerak, biz ham ushbu tarmoqda “qarindoshlar gruppasi”, “do'stlar gruppasi”, “kursdoshlar gruppasi” kabi davralarning a'zosimiz va bunda har birimizning o'z pozitsiyamiz mavjud.

Kibermakondagi muloqotning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

Anonimlik (yashirinlik). Inson yuzma-yuz muloqotga kirishar ekan, ayrim holatlarda fikrini to'la ifoda eta olmaslik, nutqiy noqislik, psixologik depressiya, hijolat bo'lish kabi muammolarga duch keladi. Bu muammolar tufayli qarshisidagi subyektga yetarli darajada ta'sir o'tkaza olmaydi yoki o'z ijtimoiy ehtiyojlarini to'la qondira olmaydi. Anonimlik muloqotchiga o'z hissiyotlarini yashirish va to'g'ri fikr yuritishi uchun yetarli bo'lgan muhitni bera oladi.

N.N.Bogolomova ommaviy kommunikatsiyaning quyidagi: muloqotda texnik vositalardan foydalanish, katta ijtimoiy guruhlarning jalb qilinishi, qayta aloqa javobining

majburiy emasligi, kommunikatsiyalarning real hayotda notanish, anonim qolgan holda bir-biridan ayrologi kabi asosiy xususiyatlarini ajratadi[8].

E.V.Ivanov kibermakon muloqotda anonimlikning muhimligini ta'minlash mushkul, chunki, anonimlik muloqotga kirishganlarga o'zini erkin his qilishi, o'zining his tuyg'u va fikrlaridan uyalmaslikni ta'minlaydi[9], deydi. Lekin, bir narsaga e'tibor berish kerakki, anonimlik ortida insonlar sha'niga, qadr-qimmatiga, obrusiga qaratilgan tajovuzlar ham paydo bo'lmoqda. Jamiyat barqarorligiga rahna solish, davlat siyosatiga qarshi chiqish, yovuzlikka targ'ibot qilish kabi harakatlarga ham aynan anonimlik “homiylilik” qilmoqda desak ham bo'ladi. Anonimlik natijasida aloqa jarayonida psixologik va ijtimoiy xavfning pasayishi bilan bog'liq yana bir xususiyat – aloqa ishtirokchilarining affektiv qulligi, g'ayritabiyligi va mas'uliyatsizligi tarmoqda manoyon bo'ladi. Muloqot o'zini ifoda etish va xatti-harakatlarning katta erkinligini ko'rsatadi, chunki boshqalar tomonidan ta'sir qilish va shaxsiy salbiy baholash xavfi minimaldir. Bundan tashqari his-tuyg'ularni nafaqat ifoda etish, balki yashirish ham mumkin[10]. Anonim qiyofadagi tajovuzlardan jamiyat a'zolarini himoya qilish vazifasi quyidagi usullar yordamida: insonlar tafakkur darajasi va muloqot madaniyatini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Shaxslarda virtual ismlarning mavjudligi. Ism insonga tug'ilganidan beriladigan, jamiyatda o'rni bildiradigan, shaxsini tasdiqlaydigan va boshqalarning murojaatlari uchun vosita vazifasini bajaradigan ijtimoiy kategoriyadir.

His-tuyg'ularni ifoda etish. Kibermakondagi muloqotlarda ham tuyg'ular muhim ahamiyatga egadir. Suhbatdoshlar bir-biriga ta'sir etishda his-tuyg'ular va tarmoq imkoniyatlarini integratsiyalashtiradilar. Tarmoq imkoniyatlari sifatida ovoqli chatlar, video qo'ng'iroqlar, emotsional stikerlar, giflar kabi tuyg'uni ifodalashga yordam beruvchi vositalarni olishligimiz mumkin. Har qanday kommunikativ jarayonning hissiy konteksti uning mazmunini tashkil qiladi, ammo u aloqa jarayonining o'zi bilan bir xil emas, balki unga reaksiya. Muloqotning hissiy omilining ahamiyati insonning subyektiv dunyosi bilan bog'liq[11]. Real hayotdagi tafakkur va tuyg'u virtual his-tuyg'ularni boshqaradi.

Tahlil va natijalar. Ontologik jihatdan kibermakon ong bilan bo'liq bo'lgan transformatsion hodisadir. Professor Matbua Ahmedova ongga quyidagicha ta'rif beradi: ong – falsafaning subyektiv reallikni ifodalovchi kategoriyasidir; odamning, uning miyyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma'naviy dunyosidir, o'zining dunyoda borligini anglab yetishidir; uning tashqi dunyoga munosabatidir[12]. Kibermakon inson ongi orqali uning turmush tarzi, hayollari kechadigan makon, tashqi dunyoni ko'rsatadigan va ehtiyojlarini qoplaydigan vosita, ruhiy ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lgan qurol vazifasini ham bajarimoqda. Insonlar yangilik yaratish, ixtiro qilish va ma'lumot(aql) ishlab chiqarish uchun ongi orqali o'zlarining donoligidan foydalanadilar. Garchi odam bo'lmagan organizmlar ham tarmoqlar yaratadilar. Misol uchun o'rgimchak to'ri, chumoli uyasi, qushlarning sinxron harakati, ekotizim kabilarni o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan tarmoq desak bo'ladi. Lekin, ular ong, donolik va bilimdan iborat bo'lgan axborotni yaratishga qodir emas. Insonning boshqa mavjudotlardan farqlab turuvchi xususiyati bo'lgan ong haqida gapirar ekanmiz, al-Farobiyning fikrlariga yuzlanamiz: “Inson o'zining alohida xususiyatlari bilan barcha hayvonlardan farq qiladi, chunki unda jon bor, unda tana a'zolari vositasida ta'sir etuvchi kuchlar paydo bo'ladi, bundan tashqari, unda tana a'zolarining vositasiz ta'sir etuvchi kuch ham bor. Bu kuch – aqlidir”[13].

Xitoylik Hongrui Zhao kibernetologiyaning mohiyati kibermakonning elementlari majmuasidan iborat ekanligini ta'kidlaydi: kibernetologiya – bu kibermakonning tabiati va


jismoniy mavjudligini umumlashtirish va tavsiflash, ya'ni kibermakonning umumiy elementlarini tavsiflash orqali uning jismoniy ko'rinishini har tomonlama idrok etish va umumiy ma'noda "kibermakon nima?", "kibermakonda qanday tartib mavjud?", "kibermakon va an'anaviy suverenitet o'rtasidagi bog'liqlik qanday?" va "agar u mavjud bo'lsa, uni himoya qilish mumkin bo'lsa, uning asosiy elementlari nimalardan iborat?" kabi savollarga javob berishdir[14]. Kibermakon ontologiyasining o'ziga xos xususiyatlari uning tarkibiy elementlar yig'indisining mazmuni bilan belgilanishi haqida ham nazariyalar mavjud. Hongrui Zhao kibermakon antalogiyasining tarkibiy elementlarini quyidagi 4 elementdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: kibermakon subyekti, kibermakon obyekti, kibermakon platformasi va kibermakon faoliyati.

Kibermakon subyekti. Kibermakon subyekti – tarmoqda harakat qiluvchi, axborot izlovchi, uzatuvchi, tahlil qiluvchi, qabul qiluvchi, foydalanuvchi shaxslardir. Subyektlar kibermakon muallifligiga ham da'vogarlik qiladilar. Chunki, barcha raqamli tarmoqlarning ijodkori, shakllantiruvchisi va yo'q qiluvchisi inson hisoblanadi. Kibermakon imkoniyatlari inson imkoniyatlaridan foydalanishning mahsulidir.

Kibermakon obyekti. Kibermakon obyekti – insonlar tomonidan kibermakonda yaratiladigan va foydalaniladigan jismoniy tashuvchilar tomonidan olib boriladigan axborotlar tushuniladi. Ular insonlarning e'tiborida bo'lgan, bir-biri bilan aloqa qiladigan va ma'lumot almashadigan bilim ontologiyasidir. Obyektsiz kibermakon bo'la olmaydi. Kibermakonning barcha funksiyalari obyekt bilan subyekt o'rtasida munosabat qurishga qaratiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kibermakon platformasi. Kibermakon platformasi – odamlar tomonidan ixtiro qilingan, yaratilgan, ishlab chiqarilgan turli ko'rinishga ega tarmoq uskunalari, dasturiy ta'minotlar, dasturlar, infratuzilmalar, kommunikatsiyalar, aloqa stansiyalarning jamlanmasidir. Kibermakon subyektlari kibermakonda harakatlashi uchun foydalanadigan telefonlar, komyuterlar, gadjetlar, sensor qurilmalar va barcha protsessorlar ham obyekt sifatida e'tirof etiladi.

Kibermakon faoliyati. Kibermakon faoliyati – subyektlarning o'zaro bir-birlari bilan aloqa qurishlari, ma'lumot almashish, ma'lumot joylash, tahrirlar va qabul qilish kabi jarayonlardir. Bugun dunyo aholisining katta qismi kibermakonda faoliyat yuritayotganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.



Kibermakon ontologiyasini Xitoylik faylasuflar Qadimgi Xitoy Tayji diogrammasiga qiyoslaydilar. Bu diogramma 4 raqamni o'z ichiga oladi: haqiqiy fazada bir, ikki, uch, to'rt, ya'ni yin va yang S shaklidagi bo'linuvchi chiziq va aylana kiber elementlarning aloqasini anglatadi[15].

1-rasm. Kibermakonning to'rt elementdan iborat Tayji diogrammasi

Tasvirdan ko'rinish turibiki, kibermakon murakkab va bir-biriga bog'liq bo'lgan harakatlar tizimidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib kibermakonning ontologik xususiyatlari sifatida quyidagi xulosalarga kelamiz.

Kibermakon – bu ramziy voqelik va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan, odamlarning aqliy faoliyatini osonlashtiradigan va sezilarli darajada tezlashtiradigan proyeksion madaniyat makonining yangi turidir.

Kompyuter yordamida kibermakonning ramziy tartibi voqelikni va uni idrok etishimizni muvofiqlashtirishni kafolatlaydi, shu bilan birga uning vositachilik rolini yashiradi. Shu sababli, subyektning kompyuter virtual haqiqatining voqealar seriyasiga nisbatan masofasi kibermakonn idrok etishning o'ziga xos ijobiy shartidir.

Kibermakon virtual haqiqat texnologiyalari orqali ijtimoiy vaqt bilan bilvosita bog'liqdir. Har bir texnologiya qisman prognostik funksiyani bajaradi, shuningdek yaqin kelajakning ba'zi mafkuraviy tasavvurlarini o'zida mujassam

etadi. Kibermakonning o'zi texnologiyaga emas, balki uning ijtimoiy rejimiga bog'liq.

Bo'sh kibermakon statik sohadir, shuning uchun u ijtimoiy vaqt bilan hech qanday aloqasi yo'q. Kiber fazoda ijtimoiy utopiya yoki distopiyaga xos xususiyatlar mavjud emas.

Shunday qilib, biz ushbu tadqiqotning asosiy muammosini hal qilishga yaqinlashdik. Kibermakonda yagona ideal, subyektlararo makon sifatida tasavvur qilish, unda individual virtual haqiqatlar ochiladi, paydo bo'ladi va yo'qoladi. "Kibermakon" va "virtual haqiqat" tushunchalari qisman bir-biriga mos keladi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan kibermakonning ontologik modellari faqat mavzu darajasini o'z ichiga oladi. Ushbu modellarda ontologik kontekstning o'zi muammoli emas, buning natijasida kibermakonning ehtimoli shartlarini oldindan aks ettirish ham amalga oshirilmagan.

Aytganlarning barchasini umumlashtirib, umumiy xulosa chiqaramiz: kibermakon – bu topologiyasida yangi, rizomatik, semiotik makonning bir turi bo'lib, unda belgilar bilan operatsiyalar odamlarning aqliy faoliyatini osonlashtiradigan va sezilarli darajada tezlashtiradigan zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Kibermakon umuminsoniy maqsadlarga erishishning yangi usullarini aniqlash va tushunish imkoniyatlarini izlash vositasi sifatida ishlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Плешаков В.А. Киберонтология и психология безопасности информационной сферы: аспект киберсоциализации человека в социальных сетях интернет-среды // Вестник Православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. Серия IV. Педагогика. Психология. 2010. № 4 (19). С. 131–141.
2. Koepsell D. The Ontology of Cyberspace: Philosophy, Law, and the Future of Intellectual Property. Open Court, 2000. 160 c

3. Холмўминов Ж. Маданиятлараро мулоқотнинг ижтимоий-фалсафий факторлари. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/337655867>
4. Хуршид Улмасжонович Саматов. Мулоқот: Ижтимоий-фалсафий таҳлил. Eurasian journal of academic research. <https://zenodo.org/records/5759481>
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.1993. 193 bet.
6. Галичкина, Е.Н. Характеристика компьютерного дискурса // Вестник ОГУ [Электронный ресурс]. — Режим доступа: http://www.vestnik.osu.ru/2004_10/9.pdf. — Дата доступа: 20.12.2016.
7. <https://www.demandsage.com/telegram-statistics/#:~:text=Telegram%20has%20800%20million%20monthly,by%20the%20end%20of%202024>.
8. Богомолова, Н. Н. Массовая коммуникация и общение / Н. Н. Бого-молова. – М.: Знание, 1988. – 80 с.
9. Иванов, В. Е. Интернет в формировании диалогического простран-ства в социокультурной среде // Мир психологии. – 2000. – № 2. – С. 52–56
10. Паршуков И.В., Евтюгина А.А., Особенности общения в популярных социальных сетях. https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/13262/1/apr_2013_039.pdf
11. Первушина В.Н., Савушкин Л.М. Особенности коммуникации в киберпространстве. <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/phylosophy/2017/01/2017-01-05.pdf>
12. Falsafa: Darslik/[M.A.Ahmedova, V.S.Xan, D.A.Alimova va boshq.]; M.A.Ahmedova umumiy tahriri ostida: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -496-b.
13. Фараби. Существо вопросов // Антология мировой философии. М., 1969. Т.1. 4.2. 728-б.
14. Hongrui Zhao (Harbin Institute of Technology, China). Cyberspace & Sovereignty. February.2022 https://doi.org/10.1142/9789811227790_others01open_in_new
15. Zhong, J. Ch. (2015). Internet falsafasi (III, 14-19-betlar). Pekin: Elektron sanoat nashriyoti.
16. Berkinov O.T. Kiber atamasining mazmun-mohiyati: tarixi va bugun // NAMDU ilmiy axborotnomasi, [2024-6]. – 270-273 bet.
17. Berkinov O. Kibermakonda yoshlar ma'naviy hayoti. Monografiya. – Chirchiq: “Zebo prints”, 2023. – 108 bet.



UDK: 159.99

Rustam DUSHANOV,

Toshkent xalqaro oliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti professori, DSc

E-mail: turgunov3103@gmail.com

ISSUES OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation

There are noticed about specific qualities of increasing the psychological competention of teacher at the system military (militarian) higher education and thought-meditations about it's developing factors in this story.

Key words: Psychological competention, pedagogical erudation, striving to object, practical think, pedagogical-psychological tact, professional observation, communication, psychological-pedagogical reflection.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье были изложены мнения и взгляды в целях повышения специфических качеств и факторов влияющих на развития психолого-педагогической компетентности преподавателя в выше учебной системе

Ключевые слова: Психолого-педагогическая компетентность, педагогическая эрудиция, мыслить иррационально, педагогическо – психологический такт, профессиональная наблюдательность, ком-муникативность, педагогическо – психологическая рефлексия.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASH TIRISH MASALALARI

Аннотасија

Maqolada oliy ta'lim tizimida o'qituvchining pedagogik-psixologik kopetentligini oshirishning o'ziga xos sifatleri va uni rivojlantirish omillariga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlari: Psixologik va pedagogik kompetentlik, pedagogik erudisiya, maqsadga intilish, amaliy fikrlash, pedagogik-psixologik takt, kasbiy kuzatuvchanlik, kommunikativlik, psixologik-pedagogik refleksiya.

Kirish. XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

Ijtimoiy jamiyatda pedagogning tutgan o'rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, ma'lumotli qilish va o'qitish (ta'lim berish) kabi murakkab vazifani bajaradi.

Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Tarbiyachi turli vositalar va usullar orqali muayyan maqsadni ko'zlagan holda tarbiyalanuvchilarda ma'lum ijobiy xislatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida pedagogik – psixologik qarashlar paydo bo'la boshlaydi.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi barkamol komil insonni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida (2020y) ta'limning davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilinishi pedagog zimmasiga juda katta mas'uliyat, ulug'vor vazifalarni yukladi. Jumladan, boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni hozirgi zamon ruhi, talabi bilan uyg'unlashtirish, faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etib qolmasdan, umumjahon

ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmogda.

Shu ma'noda, ta'lim-tarbiya masalasi insoniyat taraqqiyotida hayot mamot masalasi sifatida qaralib kelingan. Xavfsizlik masalasi ham ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Shu bois dunyo mamlakatlari bu masalaga milliy masala sifatida qarab kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bir qator olimlar [1] o'qituvchining eng muhim kasbiy psixologik sifatleri ro'yxatini pedagogik erudisiya, maqsadga intilish, amaliy fikrlash, pedagogik-psixologik takt, kasbiy kuzatuvchanlik, tinglay bilish qobiliyati, turli nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish, psixologik bashorat qilish va psixologik-pedagogik refleksiya kabilar bilan to'ldiradi. O'qituvchining mazkur sifatleri unda pedagogik faoliyatga nisbatan psixologik va pedagogik kompetentlikka ega bo'lish bilan birga uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar berish, ularda umumta'lim va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, bilish qobiliyatini va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayondir.

Tarbiya–muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-avtori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayon hisoblanadi

Shu nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya bu-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, ko'zlagan oliy maqsad-ozod

va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda mustaqillik bois ta'lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'limning milliy modeli yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagı ma'ruzasida «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» [7] degan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning yeng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hych qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'timishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberal-lashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi «Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-4958-son farmoni ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari samaradorligini oshirishning psixologik omillariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur murakkab va muhim vazifalarni amalga oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, ta'lim oluvchilar jamoasini boshqarish va ularga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga bog'liq. Chunki «... pedagog va professor – o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur» [6].

Shu ma'noda, mutaxassisning pedagogik-psixologik kompetentligi shaxsning o'ziga xos individual-psixologik tuzilmasi bo'lib, u «inson-inson» tizimidagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. U kognitiv (bilish) va amaliy tarkibiy qismlar, psixologik bilimlar, kasbiy tafakkur, shaxslararo aloqa o'rnatish va psixologik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma hamda malakalardan tashkil topgan.

Amaliy psixologiya lug'atida kompetentlik «chuqur bilimga asoslanganlik va shaxslararo munosabat tizimida atrofıdagi insonlar bilan samarali munosabatda bo'lish qobiliyati» - deb ta'riflanadi [4].

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchida refleksivlik, kommunikativlik va hamkorlik qilish kabi shaxsiy sifatlar muhim va zarurdir [5].

Psixologik kompetentlikning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ichki (subyektiv) va tashqi (obyektiv) tuzilma-larining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. O'qituvchining psixologik va pedagogik kompetentligi:

har bir ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari, temperamenti, qobiliyati, xarakteriga xos kuchli va kuchsiz tomonlari, tarbiyalanganlik darajasi, faoliyatdagi yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshi bilishi, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi;

shaxsga ta'lim berishning eng qulay va zamonaviy metodlaridan xabardor bo'lish, ulardan samarali foydalana olish, ta'lim jarayoniga yangi innovasion texnologiyalarini tadbıq etish borasida malakaga ega bo'lish, o'z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini psixologik tahlil qilish, o'z faoliyati

sifati va samaradorligini oshirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, kasbiy bilimlarini oshirish hamda o'z ustida ishlashning eng qulay usullarini yuqori darajada o'zlashtira olishni taqozo etadi.

Pedagogning psixologik kopotentligi faqatgina uning ta'lim oluvchilarga munosabatidagina ifodalanib qolmay, shaxsiy pedagogik faoliyatini tashkil etishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'z psixologik xususiyatlarini bilmaslik tufayli, pedagog hamkasblari tajribasidan nusxa ko'chiradi, ularga taqlid qila boshlaydi.

Shu ma'noda, ta'lim jarayonida o'qituvchining psixologik va pedagogik kopotentligini oshirishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan;

o'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish, psixik jarayonlari (kasbiy xotira, diqqat, sezgi, mantiqiy tafakkur va boshq.)ni rivojlantirish, kasbiy bilim va qobiliyatlari hamda ko'nikmalarini shakllantirish, zo'riqishlardan xalos bo'lishning psixologik usullarini o'zlashtirish masalasida ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish;

kasbiy faoliyatga aloqador masalalar (o'zlashtirishning sustligi, guruhdagi nizoli vaziyatlar)ni hamkorlikda hal etish maqsadida psixologik vaziyatlarni tahlil qilish;

pedagogning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida "yosh pedagoglar mahoratini oshirish maktabi"da o'qish;

o'qituvchining kasbiy faoliyatida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishi uchun muhim bo'lgan shaxsiy sifatlar (o'zining pedagogik faoliyatini tahlil qilish, "aqliy trening", aqliy xujum" kabi ko'nikmalar)ni takomillashtirish.

Psixologik kompetentning rivojlanishida yetakchi omillardan biri birinchidan, pedagogning mutaxassis sifatida o'zini - o'zi shakllantirishi bo'lsa, ikkinchidan, shaxs sifatida esa o'zini-o'zi anglashidir.

O'qituvchining psixologik va pedagogik kopotentligi bir maromda emas, balki butun kasbiy faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Mazkur dinamik jarayonni monitor qilish, uni adekvat (mos) baholash, rivojlanishini va o'qituvchi shaxsining taraqqiyotini bashorat qilish imkonini beradi. O'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatleri uning psixologik kompetentligi bilan uyg'unlashib ketadi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

Pedagoglik ixtisosining bu xususiyatlari uning profессиogrammasida ifodalanadi.

O'qituvchining kasbiy profессиogrammasi quyidagılarda o'z ifodasini topadi:

o'qituvchi shaxsining psixologik xususiyatlari;

o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;

maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;

ixtisosligiga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'z navbatida o'qituvchi shaxsining psixologik kompetentlari quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi. Jumladan;

G'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarini chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagoglik kasbi sohasida: ta'lim oluvchilarni hurmat qilish va ular bilan ishlashga bo'lgan motivasiya, pedagogik faoliyatiga bo'lgan qiziqish, ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, samimiylik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish; vazminlik; o'zini tuta bilish; kasbiy layoqatlilik.

Kognitiv (bilish) sohasiga esa keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish kiradi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim:

- Bilish qobiliyati;
- O'quv materiallarini tushuntira olish qobiliyati;
- Kuzatuvchanlik qobiliyati;
- Nutq qobiliyati;
- Tashkilotchilik qobiliyati;
- Obro' ortira olish qobiliyati;
- To'g'ri muomala qila olish qobiliyati;
- Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati;
- Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Shu ma'noda o'qituvchining psixologik va pedagogik kompetentligini shakllantirish maqsadida turli psixodiagnostik usullardan foydalanish lozim. Psixodiagnostik ma'lumotlardan olingan natijalarga ko'ra o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyat talablariga qanday moslashib borayotganligini anglashi va

shunga muvofiq tarzda o'zining pedagogik qobiliyatini yanada oshirishi zarur.

O'qituvchining obru e'tibori avvalo o'z kasbiga bo'lgan sadoqatida namoyon bo'ladi. Shundagina o'qituvchi o'z amaliy faoliyati bilan ta'lim oluvchilarga ibrat bo'la oladi hamda ularni o'ziga nisbatan ishonch uyg'otadi. Bu fazilatlar yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligida muhim omil hisoblanadi. Zero, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini uyg'otish, Vatanni sajdagoh kabi ardoqlash, yon atrofga daxldorlik hissi bilan yashashga o'rgatish har bir o'qituvchining muqaddas burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi» [6].

ADABIYOTLAR

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi. Toshkent. 2011y. 66 b.
2. Azizzujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. ToshDPU bosmaxonasi. Toshkent 2013. 36 b.
3. Давлетшин М.Г. Национальная программа подготовки кадров и основные задачи психологической науки. – Т., 1998. – С. 3-7.
4. Карпенко Л.В. Психология. Словарь. М., 2004.
5. Лукьянов Н. И. Как подготовить профессионального педагога. М. 2012. С.17.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., 2017. 45 – b.
7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma'ruzasi T., 2016 yil 7 dekabr.
8. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М., Международный гуманитарный фонд. “Знание”. 2006. – 308. С.15.
9. Shodiyeva. K. Bo'lajak o'qituvchining innovasion faoliyatini shakllantirish. T.: «Istiqlol» 2016. – 73 b.



UDK. 303, 303.7, 303.73, 303.732, 303.732.3

Gulbanbegim JAMOLOVA,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM dotsenti v.b
E-mail: gulbanbegimjamolova@gmail.com

Shaxrisabz davlat pedagogika universiteti professori P.Jalolova taqrizi asosida

TALABALARDA MILLIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Zamonaviy ilm-fanda iqtidor konsepsiyasini yaratish sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari amaliy psixologik hamda pedagogik izlanishlar shu bilan birga zamonaviy ta'lim amaliyotida keng foydalanilmoqda. Talabalarda iqtidorning rivojlanganligini tashxis etishning diagnostik vositalarini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Pedagogika, ta'lim amaliyotida taklif etilgan nazariy modellarga tayanib, turli yosh davrlarida iqtidorni rivojlantirishning qonuniyatlarini aniqlashtirish, mazmuni, tashkiliy shakl, metod hamda vositalarini yaratish bo'yicha davlatimizda qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Maqsadimiz o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning iqtidorini rivojlantirish mazmuni, tashkiliy shakl, metod hamda vositalarini tavsiflashdan iborat.

Kalit so'zlar: Shakl, metod, tavsif, vosita, intellekt, psixologik muammolar, qobiliyat, fikr, daraja.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF NATIONAL IDENTITY DEVELOPMENT IN STUDENTS

Annotation

Modern educational practice heavily draws on the findings of practical psychological and pedagogical research, as well as scientific and theoretical study pertaining to the development of the notion of talent in modern science. Research is underway to create diagnostic instruments for evaluating pupils' talent development. In our nation, a number of scientific studies are being carried out based on theoretical models put out in pedagogy and educational practice to ascertain the patterns of talent development at various age periods, the creation of content, organizational forms, methods, and instruments. Our objective is to provide an overview of the methods, techniques, material, and organizational structure used in the educational process to foster students' talents.

Key words: Form, method, description, tool, intelligence, psychological problems, abilities, thought, degree.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

Результаты научно-теоретических исследований в области создания концепции таланта в современной науке, а также практических психологических и педагогических исследований широко используются в современной образовательной практике. Проводится серия исследований для разработки диагностических инструментов оценки развития талантов у студентов. На основе теоретических моделей, предложенных в педагогике и образовательной практике, в нашей стране проводятся ряд научных исследований для определения закономерностей развития талантов в разные возрастные периоды, создания содержания, организационных форм, методов и инструментов. Наша цель — описать содержание, организационную форму, метод и средства развития талантов студентов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Форма, метод, описание, инструмент, интеллект, психологические проблемы, способности, мысль, степень.

Kirish. «Intellekt» lotin tilidan olingan bo'lib, aql, idrok, zehn ma'nolarini anglatadi. Intellekt insonning bilish qobiliyati, mustaqil mantiqiy fikrlash, anglash, ijodiy tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi. U ma'naviyatga yaqin bo'lib, insonning ruxiy-hissiy tuyg'usi, bilish qobiliyati va aql-zakovati, aqliy yetukligi va yuksaklikka intilishi bilan uyg'ulashadi.

Bundan tashqari iqtidorli talabalarni o'qitish hamda ulardagi mavjud iqtidorni takomillashtirish metodikasini yaratishda, ta'lim berish turlarini, har bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak

Asosiy qism. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, o'qitish, tarbiyalash hamda ularning intellektual qobiliyatlarini yanada takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ma'lum doirada ilmiy-nazariy, amaliy natijalar olinmoqda. Biroq, bunday talabalar bilan ishlash jarayonida iqtidor turlarining rang-barangligi, bir-biriga zid yondashuvlar,

tamoyillar va qonuniyatlar, shuningdek iqtidorli talabalar bilan ishlovchi maxsus tayyorgarlikga ega mutaxassislarning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha pedagogik va psixologik muammolar haligacha to'liq o'zining pedagogik yechimini topmagan[1].

Psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda iqtidor – bu anglash, bilish, his-hayajon, jo'shqinlik, ma'suliyatlilik iroda, serg'ayratlilik kabi ruhiy holat va jismoniy munosabatlar hamda ular bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qobiliyatlar majmuasidir. Shu bilan birga iqtidor turli ko'rinishlarga ega bo'lib, u bir shaxsni yoshiga ko'ra ikkinchisidan ajratuvchi har xil qobiliyatlar orqali aniqlanadi. Iqtidor xususiyatlariga qarab quyidagi shartli belgilar bilan farqlanadi [3]:

namoyon bo'lish tezligiga qarab – iqtidorli, ilm-fanga chanqoqlik, o'ta iqtidorli, yuqori iqtidorli;

ruhiy rivojlanishining tezligiga qarab – yoshiga monand iqtidor yoki yoshidan sezilarli darajada ilgari ketgan iqtidor;

namoyon bo'lishining kengligiga qarab – umumiy - maxsus iqtidor;

namoyon bo'lishining ko'rinishiga qarab – ochiq yoki yashirin;

yosh xususiyatlariga qarab – barqaror, o'tuvchi, shaxsiy, irsiy, nasl-nasabi va boshqa xususiyatlariga ko'ra.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsning yosh xususiyatiga doir iqtidor mavzusiga oid anchagina nazariy va amaliy manbalar to'plangan, masalan D.B.Bogoyavlenskaya, N.F.Vishnyakov, V.A.Kruteskiy, O.V.Kondrateva, T.U.O'tapov, N.N.Alimov, F.T.Exsonova, G.N.Ibragimova, D.Gilford, Dj.Renzulli, Dj.Raven va boshqalar.

V.A.Kruteskiyning ilmiy mehnatlarida uzoq vaqtlar davomida ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan ta'lim oluvchilarning matematik qobiliyatlarini shakllantirish, uning xarakteri va tuzilishi haqidagi nazariy ma'lumotlarni ilmiy-uslubiy asoslab, tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda hali yakuniy qoniqarli javob olinmagan va hanuzgacha dolzarb muammo bo'lib qolgan matematikaga oid qobiliyatlar haqida muammoning ko'plab qiyin va munozarali nazariy savollari muhokama qilingan [4].

E.P.Ilinning ilmiy mehnatida shaxs qobiliyatlarini aniqlashda quyidagi masalalar: qobiliyatli shaxs kim?; iqtidor deganda nimani tushunamiz?; qobiliyat degan nima?; daholik; umumiy hamda maxsus qobiliyat, iqtidor to'g'risida; iqtidorning turlari; qandaydir ijodiy qobiliyatga iqtidorning bog'liqligi; iqtidorning ko'p qirraliligi, mazmuni, iqtidorli ijodiy shaxsni baholash metodlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar bayon etilgan [6].

K.K.Platonovning ta'kidlaganidek: «qobiliyatlarni aniqlash to'g'risidagi ta'limotning individual-psixologik hodisalar sifatida rivojlanish tarixi qadimdan boshlanadi». Qobiliyatlar tushunchasi fanga birinchi bo'lib Platon (miloddan avvalgi 428-348) tomonidan kiritilgan. Uning fikriga ko'ra: «hamma ham bir xil qobiliyatli emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlariga ko'ra har xil to'yfaga tegishli bo'ladi: ayrimlari jamiyatni yaxshi boshqarish uchun, boshqalari atrofda insonlarga yordam berish uchun, boshqalari qishloq xo'jaligi, qurilish va hunarmandchilik, musiqa va sanaat uchun tug'ilgan». Aynan Platonning tug'ma qobiliyat to'g'risidagi g'oyasidan insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy mutunosibligi kelib chiqadi, u inson tabiati bir vaqtning o'zida ikkita yoki bir nechta kasb-hunarni, ikkita ilmni ko'ngildegidek bajara olmaydi, deb aytgan.

Inson qobiliyatlarini o'rganishning yangi bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmida, psixologik testlar paydo bo'lishi bilan birga individual intellektual farqlar psixologiyasi yangi ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishidan boshlanadi [6].

Ingliz olimi Frensis Galton 1896 yildan boshlab iqtidor psixologiyasiga oid bir nechta ilmiy asarlarini nashr etadi (masalan, «Tug'ma daho» asari), unda u shaxs qobiliyatlarining ota-onalardan bolalarga o'tishi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. U selektiv tanlash orqali ingliz millatini yaxshilash uchun aqliy qobiliyatlarni samarali oshirish

yo'llarini ishlab chiqish kerak degan xulosaga keladi. 1883 yilga kelib uning bu ilmiy g'oyasi «evgenika» deb nomlangan. Shu yilning o'zida F.Galton qobiliyatlarining individual farqlari bo'yicha birinchi ilmiy ish hisoblangan «Inson qobiliyatlarini tadqiq qilish va uning rivojlanishi» nomli ilmiy asarini nashr etadi. Ammo, F.Galton o'z g'oyalarini isbotlash uchun psixologik jihatdan unchalik samarador bo'lmagan testlar va ko'rsatkichlarni tanlagan edi, natijada uning g'oyalari ko'p utmay muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Tadqiqot va natijalar. Shaxsning iqtidoriga bo'lgan kuchli e'tibor ko'plab muammo va savollarni keltirib chiqardi. Ulardan bir nechtasini qo'yida ko'rib chiqamiz:

1. Iqtidorli shaxsni g'ayritabiiy inson deb hisoblash mumkin. Sababi u boshqalardan intellektual salohiyati, tez fikrlashi va aniq maqsadi bilan ajralib turadi. U nostandart va g'ayrioddiy fikrlashi bilan o'qituvchi uchun noqulay ta'lim ob'ekti bo'lib hisoblanadi [9].

2. Ta'lim muassasalari o'quv rejasi, davlat ta'lim standartlari, malaka talablariga mos keladigan reproduktiv mashqlar iqtidorli talabalarning intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi, aksincha, ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Iqtidor nazariyasi hamda pedagogik ta'lim amaliyoti takomillashuvining bugungi bosqichida iqtidorni rivojlantirish to'g'risida emas, balki uni ta'lim hamda tarbiyaning turli strategiyalari, texnologiyalari doirasida qo'llab-quvvatlash to'g'risida fikrlash mumkin. Afsuski, bugungi kunda talabaning oliy ta'lim muassasasi devorlaridan tashqarida erishgan ilmiy-uslubiy yutuqlarini saqlab qolishni ta'minlamaydi.

4. Ta'lim dargohida iqtidorli talabani tarbiyalash, aniqlash hamda samarali o'qitishda, ularning individual xususiyatlariga qaratilgan o'quv dasturlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Iqtidorlilik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradigan qobiliyatlarni ifodalashning yuqori darajasi.


Iste'dod – insonga har qanday turdagi murakkab faoliyatni (o'quv, amaliy, mustaqil kasbiy) muvaffaqiyatli, mustaqil, noyob yo'llar bilan amalga oshirish imkoniyatini bera oladigan qobiliyatlar yig'indisidir.

Iqtidorlilik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradigan qobiliyatlarni ifodalashning yuqori darajasi.

Qobiliyatlarni ifodalashning keyingi darajasi «iste'dod» tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Iste'dod – insonga har qanday turdagi murakkab faoliyatni (o'quv, amaliy, mustaqil kasbiy) muvaffaqiyatli, mustaqil, noyob yo'llar bilan amalga oshirish imkoniyatini bera oladigan qobiliyatlar yig'indisidir.

Bizning nazarimizda, talabalardagi iqtidorni takomillashtirishning yana bir muhim jihati, bu ulardagi talab darajasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarning paydo bo'lganligidir. Chunki, mazkur omillar ularning o'z ustida mustaqil ishlashi, ijodiy faoliyat bilan doimiy shug'ullanishi, sohaga oid iqtidorlikning rivojlanishiga ta'sir etadi (1-rasm).



1-rasm. Shaxs iqtidorining tarkibiy tuzilishi.

Shuningdek, ilmish ishlarmizda o'quvchi-talabalarda o'ziga xos jihatlarni ochib berishga olib keluvchi ijtimoiy vaziyatlar, hodisalarni bilishning jarayonlarining ilmiy

tomonlari, dialektik, uzviq hamda maqsadli yondashuvlarga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. Iqtidor nazariyasi hamda ta'lim amaliyoti takomillashuvining bugungi bosqichida iqtidorni rivojlantirish to'g'risida emas, balki uni ta'lim-tarbiyaning

turli strategiyalari hamda samarador texnologiyalari doirasida qo'llab-quvvatlash to'g'risida uylash mumkin. Afsuski, tadqiqotimizda bugungi kunda talabning oliy ta'lim muassasasi devorlaridan tashqarida erishgan ilmiy-uslubiy yutuqlarini saqlab qolish ta'minlamay o'tirganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Jamolova G.M. Понятие об электрическом заряде, расчет электрических цепей постоянного тока. Web of Semantics : Journal of Interdisciplinary Science (2024) <https://wom.semanticjournals.org>.
2. Jamolova G.M. Parallel tebranish konturlarini tadqiq etish. Ozbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2023. 1/9/1. Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi.
3. Musurmanova O. "Ta'lim menejerining kasbiy kompetentligi va kreativligi" modulining o'quv-uslubiy majmuasi. – Toshkent: BIIM, 2015. -288b.
4. Ochilov M. O'qituvchi odobi va nazokati. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. –B.43.
5. Ro'zieva D., Usmonbaeva Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma). –Toshkent: TDPU. 2013 - 116b.
6. Safarova R.G. Istiqboldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. –Toshkent: Fan, 2009. – 240 b.
7. Sharipov Sh.S., Aripov M., Begimqulov U.Sh. va boshqalar. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Fan, 2011. –B.72.
8. Tojiev M., Alimov A.Ya., quchqarov D.U. Pedagogik texnologiya-ta'lim jarayoniga tatbig'I (Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi fani darslarining loyihasi). –Toshkent: "Tafakkur", 2010. -148b.
9. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Brok class servis, 2018. –B. 22-27.



UDK:796.332:796.08

Obidjon IGAMBERDIYEV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: obidjoni117@gmail.com

PhD, dotsent L.Xolmurodov taqrizi asosida

KO'P YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDA FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA DOMINANT OMILLARNING AHAMIYATINI O'RGANISH

Аннотация

Maqolada ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlash, musobaqa faoliyatini baholash va tayyorgarligini belgilovchi omillarni o'rganish muammolari bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar o'rganilgan va atroflicha tahlil qilingan. Futbolchilarning maydondagi harakat samaradorligini baholovchi dominant omillar – texnik-taktik harakatlar, ularning yosh va tayyorgarlik turlarini rejalashtirish kabi ishlar tajriba asosida tadqiq qilingan. Tadqiqotda 8 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan futbolchilarning o'yinlarini tahlil qilish orqali musobaqa faoliyatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar va tayyorgarlikning dominant omillari aniqlangan. Olingan natijalarga asosan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Yosh xususiyatlari, musobaqa faoliyati, harakat faoliyati, texnik-taktik harakatlar, harakatlar samaradorligi, tayyorgarlik turlari, asosiy ko'rsatkichlar.

ИЗУЧЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ ДОМИНИРУЮЩИХ ФАКТОРОВ В ПОДГОТОВКЕ ФУТБОЛИСТОВ НА ЭТАПАХ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация

В статье изучаются и всесторонне анализируются научные работы по проблемам подготовки футболистов на этапах многолетней подготовки, оценки соревновательной деятельности и изучения факторов, определяющих их подготовленность. На основе опыта исследованы доминантные факторы, оценивающие результативность игроков на поле, - технико-тактические действия, планирование их возраста и виды тренировок. В ходе исследования путем анализа игр игроков от 8 до 17 лет были определены основные показатели, оценивающие активность соревнований, и доминирующие факторы подготовки. На основании полученных результатов сделаны выводы.

Ключевые слова: Возрастные особенности, соревновательная деятельность, двигательная активность, технико-тактические движения, эффективность движений, виды подготовки, основные показатели.

STUDYING THE IMPORTANCE OF DOMINANT FACTORS IN THE TRAINING OF FOOTBALL PLAYERS AT THE STAGES OF LONG-TERM TRAINING

Annotation

The article studies and comprehensively analyzes scientific works on the problems of training football players at the stages of long-term training, evaluation of competitive activity and study of factors determining their readiness. Based on experience, the dominant factors evaluating the effectiveness of players on the field are studied – technical and tactical actions, planning their age and types of training. During the study, by analyzing the games of players from 8 to 17 years old, the main indicators evaluating the activity of competitions and the dominant factors of preparation were determined. Based on the results obtained, conclusions are made.

Key words: Age characteristics, competitive activity, motor activity, technical and tactical movements, efficiency of movements, types of training, main indicators.

Kirish. Yurtimizda bolalar futboli va professional futbolni rivojlantirish tizimini yanada yaxshilash, xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini yaratish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni saralab olish (seleksiya) tizimini yo'lga qo'yish, bolalar va o'smirlarda futbol bilan shug'ullanish qobiliyatini erta aniqlash va ularda futbolga bo'lgan barqaror qiziqishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2023-yilning 3-noyabrida mamlakatimiz prezidenti tomonidan qabul qilingan "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-355 sonli qarorda mamlakatimiz futbolini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ilg'or xorij tajribasini o'zlashtirish hamda futbolchilarni zamonaviy, innovasion metodikalar, ilmiy-tahliliy yondashuv asosida tayyorlash, futbolchilar tayyorlash bosqichlarini raqamlashtirish orqali shaffof saralashni tashkil etish, saralab

olingan eng iqtidorli va yuqori mahoratga ega futbolchilarni terma jamoalarga yetkazish, yoshlarni zamonaviy futbolga mos usul va falsafa asosida professional tayyorlash va futbol bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali sohani yanada yuqoriga ko'tarish kabi masalalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Bugungi kunda futbolchilarni tayyorlash 7-8 yoshdan boshlanadi va 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu paytda bolalar va o'smirlar organizmining rivojlanishida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ladi, shu sababli o'qitishda yetilishning yoshga doir o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shu sababli barcha organlar va tizimlarning ishlashining shiddatli qayta qurilishi sodir bo'ladi. Tananing uzunligi va og'irligi sezilarli darajada ortadi. Tananing o'sishi yiliga o'rtacha 6-8 sm ni, massaning ortishi 4-5 kg ni, ko'krak qafasi aylanasing ortishi 2-5 sm ni tashkil qiladi. Mushak massasining ortishi sababli mushaklarning kuchi ham ortadi, bunda kuchning ortishining maksimumi tana massasining eng katta ortishidan

bir yil o'tgandan keyin kuzatiladi. Skeletning shakllanish jarayonlari davom etadi, umurtqa pog'onasining egriligi qaror topadi, mushak-pay apparati kattalarnikiga yaqinlashadi. Yurak-qontomir va nafas tizimlarining ishlashi takomillashadi, 14 yoshga kelib yurak qisqarish soni (YQS) tinch holatda 70-78 zarba/daq. ga, o'pkaning tiriklik sig'imi esa 3000 ml ga yetadi [4].

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltirilishicha yosh futbolchilarni tayyorlashda ular tayyorgarligini belgilovchi asosiy omillar metodologik jihatdan o'rganish va alohida yondashuvni talab qiladi bu esa bevosita dominantlik tamoyillari bilan bog'liq. Ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashni muvaffaqiyatli tashkil etish va ular mahoratini rivojlantirishda dominant omillarning ahamiyati katta, ularni aniqlamay turib mashg'ulotlarning foydali ish koeffitsientini oshirish qiyin. Ko'pchilik olimlarning tadqiqotlariga ko'ra dominant omillarning aniqlashda sportchilarni shug'ullanlik darajasini ahamiyati yuqori. Futbolchilarni shug'ullantirishda ularni yoshini inobatga olish – sensitiv davrlarni hisobga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilgan. Ularga ko'ra futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashda qaysidir asosiy jismoniy sifatning jadal rivojlanishi shug'ullanuvchilarni yoshiga bog'liq [3].

1-jadval

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini tashkil qiluvchi asosiy texnik-taktik harakatlar tahlili (foizlarda) (n 20)

№		Shug'ullanuvchilar yoshi				
		8-9	10-11	12-13	14-15	16-17
To'p uzatishlar						
1	Qisqa va o'rta masofaga	13	11	12	10	20
2	Orqaga va yonga Oldinga	13	19	18	19	19
3	Harakatdagi o'yinchiga	0,2	2	3	3	3
4	Uzoq masofaga	0	0	2	3	2
5	Kesib uzatish	3	4	3	4	3
Yakka kurashlarda						
6	Yuqorida	1,3	2	2	2	2
7	Pastda	5	4	6	4,4	3
8	Bosh bilan o'ynash	2	2	3	3	3
Darvoza tomon zarbalar						
9	Oyoq bilan	4	2,4	3	3	3
10	Bosh bilan	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2
To'pga egalik qilish						
11	To'pni olib yurish	17	16	15	16	17
12	Aldab o'tish	14	9	8	8	7
13	To'pni olib qo'yish	11	13	11	11	7,3
14	To'pga raqibdan oldin egalik qilish	11,4	11,4	10,4	10	8
15	To'pni yo'qotish	5	4	3,4	3,4	2,4
16	JAMI %	100	100	100	100	100

Olib borilgan tahlillarga ko'ra turli yoshda texnik-taktik harakatlar bajarilishi turlicha. 8 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan futbolchilarni maydondagi bajaradigan harakatlari deyarli bir xil. Ularni bajaradigan texnik-taktik harakatlarini katta qismini qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar va to'pni olib yurishni tashkil qilar ekan. Shuningdek, bu yoshdagi futbolchilar uzoq masofaga to'p uzatishlar va bosh bilan o'ynash kabi texnik harakatlarni juda kam miqdorda foydalanishar ekan. Maydonda bajarilgan har bir harakatlar futbolchilarning faoliyat samaradorligini belgilaydi. 8-11 yoshli futbolchilarni musobaqa faoliyati samaradorligini baholashda o'rganilgan kriteriyalar ularning faoliyat samaradorligini tashkil etadigan texnik-taktik harakatlarni har birini o'yin natijasiga ta'sir etishini ham alohida ta'kidlash zarur. Bunda darvozaga berilgan zarbalarining ahamiyati katta. 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'yinchilarni musobaqalarda bajaradigan texnik-taktik harakatlarini tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, uzoq masofaga to'p uzatish hamda yakka kurashlardagi bajarilgan texnik-taktik harakatlari

2-jadval

Futbolchilar tayyorlashda yoshga doir dominant omillari

№	Ko'rsatkichlar	Shug'ullanuvchilar yoshi				
		8-9	10-11	12-13	14-15	16-17
1	Og'irligi	+				

Tadqiqotning maqsadi ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashda ularni musobaqa faoliyatini tahlil qilish orqali tayyorgarligini baholovchi dominant omillarni aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish va sport zaxiralarini tayyorlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish.

2. Futbolchilarni musobaqa faoliyatini tahlil qilish (turli yoshlar miqyosida);

3. Ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashda dominant omillarni aniqlash.

Biz tadqiqotimizni Toshkent futbol akademiyasi (TFA) da olib bordik. Tadqiqotda ushbu akademiyaning 8 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan futbolchilarini musobaqa faoliyatlari o'rganilgan. Har bir yoshdagi guruh futbolchilarini musobaqalardagi (jami 20 tadan uchrashuv kuzatilgan) ishtiroki, erishgan natijalari va faoliyat samaradorligi tahlil qilindi. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida tarbiyalanuvchi futbolchilarni har bir yoshi bo'yicha alohida o'rganishdan asosiy maqsad – ularni yoshiga qarab qaysi texnik-taktik harakatlarni bajarish ko'lamini va samaradorligini o'rganishdir. O'yinlar mamlakat birinchiliklari va turli norasmiy uchrashuvlardagi ishtiroklarini videotahlillar orqali o'rganib chiqildi (1-jadval).


hajmi oshgan. Bajarilgan texnik-taktik harakatlarni ayrimlarining foizlari kamaygan bo'lsada, taktik jihatdan o'ylanib olib bajarilganidir. Bu yoshga kelib futbolchilar faoliyatida taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar ko'lamini ortgani uchun ortga va yonga to'p uzatishlar foizi ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Ko'p yillik tayyorgarlikning oxirgi bosqichlarida taxsil olayotgan 16-17 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyati professional futbolchilarni bajaradigan texnik-taktik harakatlariga yaqinlashib qoladi. Bu yoshda oldingi yoshdagilarga qaraganda to'pni harakatdagi o'yinchiga uzatish texnik-taktik harakatining hajmini oshganligini kuzatdik. To'pni yo'qotish esa oldingi yillarga qaraganda sezilarli kamaygan. Bu yoshdagi futbolchilarni maydondagi texnik-taktik harakatlarini o'rganishda shunga ahamiyat qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri o'yin natijalariga katta e'tibor beriladi. Shu bois qaysidir texnik-taktik harakatlarni hajmi oshgan yoki kamayganligi katta ahamiyat kasb etmasligi mumkin.


2	Bo'yi (uzunligi)				+		+
3	Ish qobiliyati	+			+	+	+
4	Psixologik tayyorgarlik	+					+
5	Tezlik qobiliyatlari				+	+	+
6	Kuch qobiliyatlari					+	+
7	Tezkor-kuch qobiliyatlari	+					+
8	Texnik-taktik harakatlar	+	+		+	+	+
9	Texnik-taktik harakatlar samaradorligi					+	+
10	Musobaqa faoliyati samaradorligi					+	+
11	Texnik tayyorgarlik	+	+		+	+	+
12	Taktik tayyorgarlik				+	+	+

Izoh: "+"belgisi yuqorihamiyatligini bildiradi.

Futbolchilarning musobaqa faoliyati va tayyorgarligini baholashning dominantlarini belgilash malakali futbolchilarda yuqori o'rinlarda bo'lmada, ko'p yillik tayyorgarlikning quyi va o'rta bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi (1- va 2-rasm).



1-rasm. 8-17 yoshli futbolchilarni bir o'yin davomida bajaradigan o'rtacha texnik-taktik harakatlari (TTH)



2-rasm. 8-17 yoshdagi futbolchilarni TTH larni bajarishlaridagi xatolari dinamikasi

Olib borib tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, miqdor va sifat ko'rsatkichlari turlicha. Yosh futbolchilarda texnik-taktik harakatlarning (TTH) xarakterli xususiyatlari yoshga qarab farqlanadi. O'rganilgan tadqiqotlardan 8 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan TTH hajmi 89,7% ga yetadi, harakatlari faoliyatining samaradorligi esa 39,3% ni tashkil qiladi. 8-9 yoshli yosh futbolchilar har bir o'yinda o'rtacha $410 \pm 13,3$ TTH bajarishadi, xatolar soni esa $39,1 \pm 1,1\%$ ni tashkil qildi. 10-11 yoshdagilarda esa $455 \pm 13,6$ TTH soni va xatolari $39,2 \pm 1,3\%$ ni tashkil qildi. 12-13 yoshli futbolchilarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda $544 \pm 11,4$ TTH va $37,010,9\%$ xatolikni tashkil qiladi. TTH hajmi 14-15 yoshli futbolchilarda $592 \pm 28,8$, xatolar esa $33,2 \pm 1,1\%$ tashkil qildi. 16-17 yoshli futbolchilar har bir o'yinda o'rtacha $853 \pm 35,7$ TTH ni tashkil qilsa ularni xatolari $28,0\%$ ni tashkil qildi.

Xulosa. O'rganilgan adabiyotlar tahliliga tayanib shunday fikrlash mumkinki, ko'p yillik tayyorgarlik

bosqichlarida futbolchilar harakat faoliyati samaradorligini baholash va tayyorgarligini belgilovchi omillarni aniqlashda bevosita ularning maydonda bajaradigan texnik-taktik harakatlarning ko'lami va ularning yoshi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Turli yoshdagi futbolchilarni musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari o'ziga xos. Yoshi ortib borgani sari futbolchilarning bir o'yin davomida bajaradigan texnik-taktik harakatlari soni ortib boradi. Shu sababli ularni sonini emas, bajarilgan texnik-taktik harakatlarni foizini o'rganish maqsadga muvofiq. Ko'p yillik tayyorgarlikning ayrim yoshidagilar yakkakurashlarga ahamiyat qaratsa, boshqalari to'p uzatish va to'pni olib yurish kabi texnik-taktik harakatlarni amalga oshiradilar. Ulardagi tayyorgarlikni baholovchi va belgilovchi dominant omil sifatida biz tavsiya etgan jadvaldek rejalashtirilsa ko'rsatkichlarni asosiy baholovchi va dominant omillar sifatida qabul qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-115-sonli qarori. <http://Lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yilning 3-noyabridagi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-355 sonli qarori. <http://Lex.uz>.
3. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilar musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining texnik tayyorgarlik samaradorligi bilan o'zaro bog'liqligi: avtoref. dis. ... ped.fan.nomzodi. -T., 2011.-24 s.

4. Armstrong N, Barker AR. Endurance training and elite young athletes. In: The Elite Young Athlete. Armstrong N, McManus AM, eds. Basel, Switzerland: Karger, 2011. pp. 59–83.
5. Balsevich V.K. Новые теоретические подходы к изучению возможностей человека в спорте высших достижений/ Теория и практика физ. культуры. — 2008. —№ 5. — S. 57.
6. Bernshteyn N.A Fiziologiya dvizheniy i tochnost - M.: Nauka, 1990.-496 s.
7. Bozorov S.R. O'quv mashg'ulot guruhi futbolchilarini texnik usullarga o'rgatishda sensitiv davrlarning ahamiyatini o'rganish. // Sportda ilmiy tadqiqotlar ilmiy nazariy jurnal №3/2023: -B.76-80.
8. Gujalovskiy A.A. Etapnost razvitiya fizicheskix (dvigatelnyx) kachestv i problema optimizatsii fizicheskoy podgotovlennosti detey shkolnogo vozrasta: Avtoref. diss. ... d-ra ped. nauk. - M., 1979. –26 s.
9. Gadjiyev G.M. Struktura sorevnovatelnoy deyatelnosti kak osnova kompleksnogo kontrolya i planirovaniya podgotovki futbolistov vysokoy kvalifikatsii: avtoref. dis. ...kand.pyed. nauk. –M., 1984.-24 s.
10. Igamberdiyev O.R. Ko'p yillik tayyorgarlikning yuqori bosqichlarida futbolchilarni saralab olish tizimlari. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023/2. 12-16-b.
11. Igamberdiyev O.R. Ko'p yillik tayyorgarlik tizimida futbolchilarni saralab olish modelining ilmiy-nazariy asoslari. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023/3. 72-76-b.
12. Igamberdiyev O.R. Umumta'lim maktablaridagi 11-12 yoshli o'quvchilarni futbol bilan shug'ullantirish orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish. Avtoref. diss. PhD -Chirchiq. 2022.–58 b;
13. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida T.: «Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti”. 2015. - 364 b.
14. Shustin B.N. Modelnyye xarakteristiki sorevnovatelnoy deyatelnosti. / Sovremennaya sistema sportivnoy podgotovki. - M.: SAAM, 1995. - S. 50-73.



UDK: 378:54:371.3

Aybek ISKANDAROV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

O‘zMU professori, k.f.d Z.Smanova taqrizi asosida

CLASSIFICATION OF CHEMICAL ISSUES BY DIDACTIC PURPOSE

Annotation

This article analyzes the possibilities of classifying chemicals for didactic purposes. It pays special attention to highlighting the types and specific aspects of chemical problems related to structure and content. This is based on the fact that focusing on specific aspects of chemical issues is important to achieve a didactic goal.

Key words: Thinking technique, didactic goal, models, symbolic language, graphic method, experimental question.

КЛАССИФИКАЦИЯ ХИМИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ ПО ДИДАКТИЧЕСКОЙ ЦЕЛИ

Аннотация

В этой статье анализируются возможности классификации химических веществ в дидактических целях. В нем особое внимание уделяется освещению типов и конкретных аспектов химических проблем, связанных со структурой, содержанием. Это основано на том факте, что сосредоточение внимания на конкретных аспектах химических вопросов важно для достижения дидактической цели.

Ключевые слова: Техника мышления, дидактическая цель, модели, символический язык, графический метод, экспериментальный вопрос.

DIDAKTIK MAQSADGA KO‘RA KIMYOVIY MASALALARNING KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada didaktik maqsadga ko‘ra kimyoviy masalalarning klassifikatsiyalash imkoniyatlari tahlil bayon etilgan. Unda kimyoviy masalalarni tuzilishi, mazmuniga oid turlari va o‘ziga xos jihatlarni yoritishga urg‘u berilgan. Kimyoviy masalalarning o‘ziga xos jihatlarga e‘tibor qaratish didaktik maqsadga erishishda ahamiyatli ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Fikrlash texnikasi, didaktik maqsad, modellar, ramziy til, grafik usuli, eksperimental masala.

Kirish. Jahonda keng miqiyosda tizimli tahlil asoslarining nazariy va metodologik tamoyillarini ta‘lim-tarbiya, ilm-fan vazifalarini yechish, kimyo ta‘limi sohalarida ham tizimli tahlilni qo‘llashning ilmiy-nazariy asosini yaratish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kimyodan masalalar yechishni o‘rganish va ko‘nikmalar hosil qilish yetarlicha uzoq vaqt talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Bu vaqtni qisqartirish va jarayonni soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga kundan kunga masala turlarining shakllanishi va mazmunan boyib borishi oqibatida hamda umumiy o‘qitish uslublariga yangicha yondoshuvlar kirib kelishi natijasida, kimyodan masalalar yechish jarayonida ham yangi o‘ziga xos yondoshuvlarga, oson hamda qisqa vaqt talab etuvchi uslublarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Kimyodan masalalar yechish metodikasini tizimli tahlil asosida takomillashtirish mavjud bir qancha muammolarga yechim bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda kimyo o‘qitish metodikasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha masalalar yechish sohasiga bilvosita aloqadorlikda: E.Eshchanov, Sh.A.Mamajanov, Sh.B.Formanova, M.A.Kuchkarov kabi tadqiqotchilar faoliyat olib borgan. Pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, ta‘lim istiqbollarini belgilashning konseptual asoslari M.Tojiyev, Z.Muxammadov, R.Samarov, T.Alimardonov, N.Abdullayev, U.Axororova, S.Jo‘rayev, S.Turg‘unov, B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyeva, D.Yunusova, M.Keldiyorova, N.Abdullayev, V.Karimova, G.G‘afurova, Sh.Turdiyeva, N.Muslimov, F.Ravshanov, N.Berdiyev, S.Jo‘rayev, A.Radjabov, E.G‘.G‘oziyev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagogik tizimli tahlilning nazariy asoslarini o‘rganish, tizimli tahlil asoslarining nazariy va metodologik

tamoyillarini ta‘lim-tarbiyaga, ilm-fanda murakkab vazifalarni yechishga, tizimli loyihalarni rivojlantirishga, kimyodan masalalar yechishda tizimli tahlilni qo‘llash, texnika va fan talablari, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar talablari asosida ta‘lim jarayoniga qo‘llash hamda bu boradagi yondashuvlarni zamonaviylashtirish mazkur sohaga doir maxsus ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kimyodan masalalar ma‘lum bir kimyoviy jarayonni aks ettiruvchi muammoli vaziyatlar bo‘lib, natija aniq javobni talab qiladi. Kimyoviy masalalar didaktik maqsadiga ko‘ra, kimyoning miqdoriy va sifat xususiyatlarining yaxlitligini bilish, bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash vositasidir. Kimyodan masalalarni yechish o‘quvchilarga qiziqarli bo‘lishi kerak va natijaga erishganda esa qoniqish hosil bo‘lishi, o‘quvchilarda yana yangi masalalar yechimini topishga qiziqtirishi kerak. Kimyo darslariga masalalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va faolligini ta‘minlaydi, darsda olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Olgan bilimlarini hayot bilan bog‘lash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi [1]. Kimyodan masalani yechish o‘quvchilarda muammolarni tizimli ravishda hal qilishni o‘rgatadi. Shu bilan birga ularni kasbga yo‘naltirishda ham muhim rol o‘naydi. O‘quvchilarda masala yechishni o‘rgatish uchun doimo tizimli ravishda uzluksiz shug‘ullanish talab qilinadi. Ular masala ishlash davrida chuqur aqliy faoliyat olib borish bilan birga chuqur tafakkur yuritadi, natija ko‘nikma va malaka shakllanadi. Bilim va ko‘nikmalarning o‘zaro ta‘siri turli xil fikrlash texnikasini shakllantirish uchun asosdir. Masalalar yechish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi. Biz yosh avlodni bilimli, dono, aqilli qilib tarbiyalashda barcha tarbiyachilar va fan o‘qituvchilari qatori

kimyo o'qituvchilari ham o'z xissamizni qo'shishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlatimiz davlat ta'lim standartlari maktab oldiga qo'ygan vazifalardan biri universal ta'lim faoliyatini shakllantirishdir. Maktab o'quvchilarimiz matnni tushunish, matn bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish, matndagi asosiy mohiyatni anglash, muammo ketma-ketligini aniqlash, matndagi ma'lumotlardan jarayonni aniqlash, ularni umumlashtirish va izohlashga o'rgatish. Bularning barchasi faoliyatning istalgan sohasida bilim olish uchun zarurdir [3]. Kimyo darslarida o'quvchilar kimyoning ramziy tilni o'rganishlari kerak.

Tabiiy ilmiy bilish usulining asosiy komponenti obyektlar va hodisalarni tasvirlash uchun modellardan foydalanish hisoblanadi. Kimyoviy jarayonlarning modellari, grafiklari, o'zgarishlar zanjirlari bilan ishlashni o'rganadilar, yana o'quvchilarga kimyoviy belgi, modda formulalari, kimyoviy jarayon reaksiya tenglamalarini oson o'rganish va amalda foydalanish imkoni beradi. O'quvchilarga mavzuni yengil o'zlashtirish kimyoviy hodisalarning mohiyatini, ketma-ketligini aniqlash va shuningdek vaqtdan unumli foydalanishni o'rganadi. Maktab kimyo kursi o'quvchilarga turli mavzular bo'yicha bunday masalalarni yechish imkonini beradi. Maktabda kimyodan barcha turdagi masalalar o'zlashtirilishi kerak. Hozirgi vaqtda kimyo fanini o'rganishga sarflanadigan soatlar qisqarganligi sababli, ba'zan darslarda muammolarni hal qilish minimal darajaga tushirildi. Bu nazariyani rasmiy o'rganishga olib keladi, o'quvchilar kimyo fanidan bilimlarning amaliy ahamiyatini ko'rmaydilar, sanoatda, qishloq xo'jaligida, iqtisodiyotdagi, tibbiyotdagi, kundalik hayotdagi kimyoviy jarayonlarning mohiyatiga chuqur yetmaydilar. Shuning uchun o'quvchilar kimyoviy hodisalar orasidagi qanday mantiqiy bog'lanishlar bog'liqliklar o'rnatishni bilishmaydi. Kimyodan masalalar yechishdan foydalanish bu muammolarni xal qilishga yordam beradi [5]. Endi bu yerda vaqt talab qilinadi, buning uchun albatta to'garaklardan, mustaqil ta'limdan unumli foydalanish mumkin.

Kimyo darslarida foydalaniladigan masalalarga umumiy tavsif.

1. Kimyoviy masalalar tizimi. Kimyodan masalalar yechishni bilish bu kimyo fani asoslarini chuqur o'zlashtirganligining bir ko'rinishidir. O'quv jarayoniga kimyodan masalalar yechishni qo'llash o'qitishda quyidagiquyidagi didaktik prinsiplarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi:

o'quvchilar aktivligini, mustaqil bo'lishini ta'minlaydi;

bilim va ko'nikmalar mustaxkamligiga erishadi;

ta'limning hayotiylikini amalga oshiradi;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Kimyodan masalalar yechish o'quvchilarda ko'nikma va malakalar hosil qiladi, amalda bajargan tajribalar hisobini tez va oson amalga oshiradi, hamda bajarilgan ish mohiyatini tez va aniq tushunib yetadi. Kimyodan masalalar yechish jarayoni o'quvchilar fikrlashini rivojlantiruvchi muhim omildir. O'quvchilarda kimyodan masalalar yechish davomida mehnatsevarlik, ma'suliyatlilik, maqsadga erishish uchun astoydil mehat qilish kabi qobiliyatlar shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga fanlararo bog'liqliklar, tabiatning yagonaligini anglagan holda chuqur dunyoqarash shakllanadi. Kimyodan masalalar yechish o'quvchilarda rivojlantiruvchi funkstiyaga ega bo'lib, o'quvchilarda fikrlashning ijobiy tamonlarini shakllantiradi. Yuzaki bilim olishni yo'q qiladi, o'z o'zini boshqarish ko'nikmalarini, mustaqil bo'lishni rivojlantiradi. Kimyodan masalalar yechishning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u kimyoni miqdoriy hisoblashlar asosida aniq fan ekanligini o'zida kashf qiladi. Masala yechish

natijasida olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan qo'llaydi, shu bilan birga moddalar va kimyoviy o'zgarishlarga doir bilimlar rivojlanadi, mustaxkamlanadi. Kimyo darslarida muammoli ta'limni masala yechish asosida osongina amalga oshirish mumkin. Kimyodan masalalar yechish davomida o'quvchi chuqur fikr yuritib, bor bilimini yuzaga chiqaradi va shu bilimlarni amalda qo'llaydi. Bilim va uni amalda qo'llashning o'zaro to'qnashishi o'quvchida fikrlashning turli ko'rinishlarini yuzaga chiqaradi, masalalan qaror qbul qilish, fikrni yakunlash, dalillar asosida isbotlash. Masala yechish davomidagiqo'llaniladigan bilimlarni ikkita qismga ajratishimiz mumkin:

masala shartini taxlil qilishga yetarli bilimlar;

muammoni hal etish uchun zarur bilimlar.

Bunda o'quvchi o'rgangan barcha bilimlar deganda darsda o'rgangan nazariya va qonunlar, turli kimyoviy tushinchalar, moddalarning fizik va kimyoviy xossalari, kimyoviy formulalar, kimyoviy reaksiya tenglamalari, molyar massa, modda miqdori va boshqa. Kimyodan masalalar yechish bu o'qituvchi yoki o'quvchining o'zmaqsadi emas, balki bilimlarni mustaxkamlashga yo'naltirilgan o'qitish vositasidir. Mavzulashtirilgan masalalar boblarga ajratilib yaxlitbitta fanni qamrab oladigan masalalar to'plamini hosil qilish kerak. Ushbu masalalar tizimi o'quv jarayonini natijadorligini ta'minlovchi asosiy omildir. Tayyorlangan to'plam o'quv jarayonining natijadorligini ta'minlovchi asosiy omildir. To'plamda barcha nazariy ma'lumotlarni qamrab olingan masalalar bo'lishi maqsadga muvofiq. To'plam quyidagi shartlarga javob berishi kerak.

Keng qamrovli bo'lishi, masalalar barcha mavzularni qamrab olgan bo'lishi va muammoli vaziyatlarni o'z ichiga olganligi.

Mavzuga doir asosiy vazifalar mavjudligi, soddadan murakkablashgan, natija mavzuni o'zlashtirishga olib keluvchi masalalar.

Mavzulararo bog'lovchi masalalar, bunday masalalarda muammo yechimini topish uchun oldingi o'tilgan mavzular bilan bevosita bog'lanish kerak bo'ladi.

Oddiydan murakkablashib borishga doir, kimyodan masalalar soddadan murakkabga qarab boradi, bir necha sodda masalalarni o'z ichiga olgan va birlashib murakkab yechim topadigan masalalar.

Maqsadga yo'naltirilgan masalalar, ularni darsning qaysi qismida ishlatilishda aniqlab qo'yiladi.

Mavzulashtirilgan masalalar, bunday masalalar bobga tegishli bo'lib, sinfda, yuda, mustaqil ishlash uchun ajratiladi. Bunday masalalar o'quvchilarni izlanuvchanlik qobiliyatini oshiradi.

Masalaning o'rganilayotgan mavzuga, o'quvchining yosh xususiyatlariga mosligi. Bunda o'qituvchining savodxonligi va bilimdonligi muhim bo'lib, bunda og'zaki yozma, grafik, hisoblashga oid masalalar bo'lishi mumkin.

Kimyodan masalalar mavzu yoki bo'lim doirasida bo'lib ular miqdoriy hamda hisoblanadigan, og'zaki, yozma, eksperimental bo'lishi mumkin. Kimyo o'qituvchisining bunday masalalarni tanlashi, ketma-ket qo'yishi va uni yechish tartibini ifodalashi juda muhim, shuningdek yuda muvofiq yechish uchun beriladigan masalalarni doimo nazorat qilish kerak bo'ladi. Kamchilikalar muhokama qilinishi kerak. Masalalar yechish davomida o'quvchilarni zeriktirmaslikka va charchashga olib keluvchi xolatlardan cheklanish kerak, buning uchun juda qiyin va masala shartining hajmi juda katta bo'lmasligi kerak. Masalalar aniq natijaga ega bo'lishi, xisoblashda butun va yaxlit raqamlar chiqadigan bo'lishi kerak.

Kimyo asoslarini chuqur o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri masalalar yechish hisoblanadi. Ilm fan kundan kunga rivojlanayotgan davrda ushbu sohada hamrivojlanish juda ilg'or. Shunday ekan kimyodan masalalar turlari, ularning

kombinatsiyasi juda ko'payib bormoqda, shuning uchun ularni bitta tizimga solish juda murakkab holat. Ushbu kunlarda yagona bir tizim kimyodan masalalar uchun mavjud emas. Adabiyotlarda bu borada har xil ko'rinishdagi yondashuvlar berilgan. Umumiy ko'rinishda kimyodan masalalar sifat tarkibiga doir masalalar, miqdoriy tarkibiga doir masalalar bo'lib ular og'zaki, yozma, eksperimental masalalarga ajratiladi. Hisoblashga doir masalalarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin.

Kimyoviy formula asosida yoki moddalarning kimyoviy formulasini hisoblab topishga doir.

Kimyovi reaksiya tenglamalar asosida hisoblanadigan masalalar.

Eritmalarga doir masalalar.

Sodda hisobli masalalar.

Kimyovi formulalar asosida xisoblashlar:

Moddada elementlar massa nisbati asosida hisoblanadigan masalalar, modda formulasi asosida massa ulushi va massa ulushi asosida formula chiqarishga doir, massa va modda miqdori bog'liqligi asosida, hajm va modda miqdori bog'liqligi asosida, gazlarning nisbiy zichligiga doir, moddaning oddiy formulasini keltirib chiqarishga doir xulosalar, moddaning xaqiqiy formulasini xisoblashlarga doir masalalar, Avagadro doimiysi asosida hisoblashlar, eritmalarga doir hisoblashlar, aralashmalarga doir hisoblashlar.

II. Kimyoviy reaksiya tenglamalari asosida hisoblashlar.

Massa ma'lum bo'lganda noma'lum modda massasini hisoblash, massa va modda miqdori(mol) bog'liqligini reaksiya tenglama asosida hisoblash, hajm va modda miqdori(mol) bog'liqligini reaksiya tenglama asosida hisoblash, mo'l miqdorda olingan modda bo'lganda hisoblash, reaksiyaga kirishuvchi biror modda tarkibida qo'shimcha saqlovchi holatga doir hisoblashlar, mahsulot chiqish unumiga doir hioblashlar, kimyoviy formula topishga doir hisoblashlar, eritmada boradigan kimyoviy o'zgarishlarga doir hisoblashlar, aralashmalarga doir hisoblashlar.

Ushbu turdagi masalalar ham bir necha yana turlarga bo'linishi mumkin.

Kimyodan masalalarning didaktik sinflanishi.

I. O'quvchilar fizik kattaliklarni to'g'ri o'zlashtirishlari uchun:

O'qituvchi o'rgatishi uchun;

O'quvchilar mustaqil o'rganishlari uchun.

II. O'rganiladigan ob'ektning miqdoriy xususiyatlarini o'zlashtirish.

Mavzu qismlariga doir, mavzu bo'yicha, bo'limlar bo'yicha, to'liq kurs bo'yicha.

III. Nazorat qilish.

Joriy nazorat, mavzu bo'yicha, bo'limlar bo'yicha, kurs bo'yicha.

Kimyodan masala yechishda asosan arifmetik hisoblashlar, proporsiya hamda tenglamalar sistemasidan foydalaniladi. Kimyodan masalalar yechishda kimyoviy bilimlarsiz faqat matematik hisoblashlar hisobiga yechiladigan masalalar kimyo o'qitishda muhim ahamiyatga ega emas. Bunday masalalar matematika darslarida yechiladi.

Aralash masalalar o'quvchilarda mustaqil bilim olishlarida, mustahkamlashda, nazorat ishlarini olishda muhim ahamiyatga ega. Bunday masalalar o'quvchilar fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarda masala yechish davomida intensiv aqliy faoliyat yuritib tahlil va sintez qiladi, o'xshash va farqli tamonalar taqqoslanadi. Mavhumlikdan konkretlashish tamonga bo'lgan aqliy operatsiyalar bajariladi.

Masalalar shartiga qarab to'g'ri va teskari topshiriqlar, oddiy yoki murakkab, umumlashgan xolatda bo'lishi mumkin. Kimyodan masalalarning oddiy va murakkab turlari mavjud. Oddiy masalar o'quvchilar o'zlashtirishi oson, shu bilan birga mavzuni yengil o'zlashtirishga ham sababchi bo'ladi. Sinfda oson masalarni ishlay oladigan o'quvchilar soni ancha ko'p bo'ladi, bu esa ayni muddao. O'qituvchi shu tariqa natijaga erishadi. Bir qancha nazariy bilimlarga tayangan, hamda chuqur ijodiy fikrlash orqali natijaga erishiladigan masalalarga murakkab masala deysish mumkin. Qiyin masalalar mustaqil yechish uchun iqtidorli o'quvchilarga berish tavsiya qilinadi. Sinfda bunday masalalar muhokama qilish travsiya qilinmaydi, balki kimyo to'garaklarida, turli fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda kimyodan masalalar yechishni shakillantirishda dastlab o'qituvchi o'quvchilarga bir nechta masalalarni doskada yechimi bilan tushintirib beradi. Qiyin masalalar ham xuddi shunday tarzda o'quvchilarga o'qituvchi na'muna tarzida ishlab ko'rsatib beradi. Buning uchun kimyo o'qituvchilarimizdan masala yechishni va uning metodikasini chuqur egallagan bo'lishi kerak albatta. Shunday bo'lmasa yaxshi natijalarga erishish qiyin bo'ladi. Kimyodan masalar yechish davomida masalaning matematik tamoni bilan cheklanib qolmasdan, masalaning kimyoviy tamoniga ko'proq ahamiyat berish kerak. Kimyodan masalalar yechishda miqdoriy va sifat o'zgarishlari bo'lgani uchun, unda kimyoviy va matematik qismlarga ajratish mumkin [7]. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish davomida o'qituvchi o'quvchilar uchun kimyodan masalalarni tanlashda bir qator shartlarni nazarda tutishi lozim:

masala yechish davomida kimyoviy qonuniyatlar, moddaning xossalari, modda formulalari va kimyoviy o'zgarishlarning reaksiya tenglamalarini qamrab olishi kerak; masalani yechish usuliga ahamiyat berish kerak; masala yechish davomida qanday aqliy faoliyat turlari rivojlanishiga ahamiyat berish kerak [8].

Tahlil va natijalar. Berilgan kimyoviy masalalar didaktik vazifalari nimalardan iborat. Masala sharti ma'nosini chuqur anglab olish uchun bir necha marta qayta qayta o'qish kerak, zarurat bo'lsa o'qituvchi tamonidan izoxlab beriladi. Masalani yechish shartini yozib olishdan boshlanadi, yechilish yo'li aniqlanadi, buing uchun zarur bilimlarga tayangan xolatda chuqur fikrlash jarayonidan o'tiladi. Fanlararo va mavzulararo bog'liqlik amalga oshiriladi, bu o'quvchidan o'tilgan mavzularni chuqur bilishni talab qiladi. Zarur bo'lsa mavzuni takrorlashga to'g'ri keladi. Natijada mavzu takrorlanadi, mustaxkamlanadi, mustaqil ta'lim amalga oshadi va amaliy ko'nikmalar hosil bo'ladi. O'quvchilar masala yechishda dastlab matematika, geometriya va fizika fanlaridan masala ishlaydi, bunda u qanday ish tartibini o'rgangan bo'lsa, shu tartibni qo'llashga xarakat qiladi. Masalaning yechimi yozilish ketma ketligi juda tartibli bo'lishi kerak. Quyida kimyodan masalalar yechish tartibini keltiramiz, bu keltirilgan tartib vaqt o'tishi bilan takomillashib boradi, biroq masala yechishning rivojlantiruvchi funksiyasi o'z vazifasini a'lo darajada bajaraveradi.

Xulosa. Kimyo ta'limida masalalar yechishdan foydalanish o'quvchilarning kimyo fanini chuqur egallashlariga, olgan bilimlaridan mustaqil foydalana olish imkonini beradi. Kimyodan masala yechish davomida o'quvchilarda kimyoviy qonuniyatlar, kimyoviy jarayonlar xaqidagi tushunchalar va bilimlarni takrorlashga, mustaxkamlashga yordam beradi, shu bilan birga xar bir xarakatning ma'nosini chuqur anglab yetishni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Iskandarov A.Yu., Maxmudov Yu. Ideal gaz qonunlariga doir fanlararo masalalar yechish// TDPU Ilmiy Axborotnoma. – Toshkent, 2019. - №2. -B.17-21.

2. Rahmatullayev N.F., Iskandarov A.Yu. "Eritmalar" mavzusi bo'yicha o'quvchilarning masalalar yechish tafakkurini rivojlantirish // Pedagogik ta'lim. –Toshkent, 2006. - №1. –B. 43-47.
3. Kuchkarov M.A., Iskandarov A.I. Kimyoviy masalalarning mazmuni va ularning yechimiga doir yondashuvlar //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2022. - №1. – B. 4-8.
4. Shernazarov I.E., Iskandarov O.Yu., Xasanova S.G'. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun kimyo fanidan PISA kontekst topshiriqlar to'plami. -T.: LESSON PRESS, 2021. -320 b.
5. Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. (2023). Eksperimental tajribalar yordamida o'quvchilarda tadqiqotchilik, amaliy va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5), 59-67.
6. Кучкаров М.А. Об использовании электронной таблицы в химических вычислениях. // Химия в школе. –Москва, 2011. -№4. –С.53-54.
7. Трухина М.Д. Графические задания по химии как средство проверки и источник информации для получение новых знаний. // МПГУ. –Москва, 2018. -С.142-143.
8. Злотников Э. Графические тесты по химии. <https://him.1sept.ru/article.php?ID=200403702>.



UDK: 796.431.2:015.26:31

Farrux KARIMOV,

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: yengilatlet@mail.ru

O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi bosh kotibi, PhD., K.Ruzamuxamedov taqrizi asosida

PROBLEMS IN PLANNING ANNUAL TRAINING FOR LONG JUMPERS AT THE INITIAL PREPARATION STAGE

Annotation

This article extensively covers the planning of the training process for long jumpers in the initial preparatory group of sports schools, the effectiveness of applying means and methods aimed at increasing the efficiency of results, and the problems affecting their outcomes.

Key words: Athletics, long jump, physical preparation, technique, tactics, weekly microcycle, physical load, recovery activities, physical development, motor skills, training tools.

ПРОБЛЕМЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ГОДИЧНЫХ ТРЕНИРОВОК ПРЫГУНОВ В ДЛИНУ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация

В данной статье подробно освещены вопросы планирования тренировочного процесса прыгунов в длину в группах начальной подготовки спортивных школ, эффективность применения средств и методов, направленных на повышение результативности, а также проблемы, влияющие на их результаты.

Ключевые слова: Легкая атлетика, прыжки в длину, физическая подготовка, техника, тактика, недельный микроцикл, физическая нагрузка, восстановительные мероприятия, физическое развитие, двигательные способности, средства подготовки.

BOSHLANG‘ICH TAYYORLOV BOSQICHIDAGI UZUNLIKKA SAKROVCHILARNI YILLIK MASHG‘ULOTLARINI REJALASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola sport maktablarining boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi uzunlikka sakrovchilarining mashg‘ulotlar jarayonini rejalashtirish, natijalar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan vosita, usullarni qo‘llash samaradorligi va ularning natijalariga ta‘sir qiluvchi muammolar haqida keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, uzunlikka sakrash, jismoniy tayyorgarlik, texnika, taktika, haftalik mikrosikil, jismoniy yuklama, tiklanish tadbirlari, jismoniy rivojlanish, harakat qobiliyati, tayyorgarlik vositalari.

Kirish. Dunyo olimlari tomonidan ilmiy asoslangan sport mashg‘ulotlari rejasini tuzish, barcha sport turlari kabi yengil atletika mashg‘ulotlarining yuqori samaradorligiga va sport natijalarining o‘shishiga zamin yaratuvchi eng muhim omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari hajmi va jadalligi sezilarli darajada oshganligi tufayli, uzunlikka sakrovchi sportchilarning mashg‘ulotlar jarayonida harakat imkoniyatlari darajasida yaqqol ifodalanuvchi funksional tizimlarning yuklamalari ham keskin ortmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jismoniy tayyorgarlik sport xaziralari tayyorlash jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Yuqori sport natijalariga erishish uchun jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega bo‘lish zarur, bu esa birinchi navbatda, uzunlikka sakrovchilarda mushak tizimining kuch ko‘rsatkichlari va aerob imkoniyatlarni rivojlanish darajasiga bilan belgilanadi.

Mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda o‘g‘il bolalarga qaraganda birmuncha boshqacha kechadigan qizlar organizmining moslashish reaksiyalarini inobatga olish lozim. Ayniqsa 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilarda, balog‘at yoshi va funksional tizimlarning shakllanish jarayoni yakunlanayotgan davrda kattaligi va yo‘nalishi bo‘yicha xilma-xil yuklamalar ustidan nazorat o‘rnatish muhim ahamiyatga egadir.

Ba‘zi mutaxassislar zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda, uzunlikka sakrovchi yosh o‘g‘il qizlarning jismoniy tayyorgarlik tizimida aynan ularning jismoniy qobiliyatlariga tayanish orqali tezkorlik, kuchlilik, sakrovchanlik, egiluvchanlik, chidamlilikka yo‘naltirilgan yuklamalar hajmini oshirish taklifini ilgari surmoqdalar. Bizning nazarimizda, mazkur yondoshuv 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilar bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ilmiy izlanishlar aynan shu yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak, chunki mazkur ishning dolzarbligi oydin va ravshandir.

Tadqiqotning maqsadi. Uzunlikka sakrovchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yillik mashg‘ulotlarini rejalashtirish tahlilini o‘tkazishdan hamda rejalashtirishdagi muammolarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning uslublari va tashkil etilishi. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish maqsadida yillik siklda o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonini rejalashtirish bo‘yicha pedagogik tahlillar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. O‘zbekiston yengil atletika Federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan sport maktablari uchun Dasturda 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilar uchun alohida rejalashtirilgan yillik saotlar hajmi mavjud emas. Shu sababli 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilari bilan faoliyat olib borayotgan murabbiylar uchun

ishlab chiqilgan Dastur qoidalariga amal qiladilar. 1-jadvalda 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilarda tayyorgarlik turlari

bo'yicha yillik soatlar hajmining taqsimoti va mazmuni taqdim etilgan.

1-jadval

Yengil atletikaning uzunlikka sakrash turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi bo'yicha yillik (52 haftalik) o'quv-mashg'ulotlarining rejasi

T/r	Tayyorgarlik bo'limlari	Birinci o'qitish yili	Bir yildan ko'p o'qitish
1.	Nazariy tayyorgarlik	6	8
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	78	100
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	94	116
4.	Texnik tayyorgarlik	108	158
5.	Psixologik tayyorgarlik	10	12
6.	Nazorat sinovlari	2	6
7.	Hakamlik va yo'riqchilik amaliyoti	-	-
8.	Musobaqalarda ishtirok etish	Ommaviy sport tadbirlari taqvim rejasi bo'yicha	
9.	Tiklanish tadbirlari	14	16
Jami		312	416

Asosiy mashg'ulot uslublari: o'yin, bir tekis, o'zgaruvchan, aylanma, takroriy.

Mashg'ulot vositalari: harakatli va sport o'yinlari, gimnastika mashqlari, kross yugurish, maxsus yugurish mashqlari, o'z-o'zini ehtiyotlash, o'quv-mashg'ulot bellashuvlari.

Ushbu bosqichda uzunlikka sakrovchilar taktik tayyorgarlik usullari bilan asosiy usullar guruhini o'rganishlari lozim. Biroq shug'ullanuvchining harakat texnikasini barqarorlashtirishga urinmaslik kerak.

Uzunlikka sakrovchilarda musobaqa usullarini, odatda, trener bevosita ko'rsatib va tushuntirib berganidan so'ng yaxshi o'zlashtiradilar. Shuning uchun trener juda ko'p miqdorda usullarni egallagan bo'lishi lozim.

O'tilgan texnik harakatni yaxshi mustahkamlash uchun bolalarga usullarni ko'rsatib berish yoki uning bajarilishini tushuntirib berish taklif qilinadi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida usullarga o'rgatish paytida usullarni

2-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhida sport mashg'ulotlarining musobaqaoldi tayyorgarligi siklidagi o'quv yuklamalari vazifalari va hajmi

T/r	Tayyorgarlik bo'limlari	Oylar												Jami
		9	10	11	12	1	2	3	4	5	6	7	8	
1.	Nazariy tayyorgarlik		1		1	1		1				1	1	6
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	7	8	7	6	6	6	6	7	8	6	6	5	78
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	5	6	8	10	11	10	7	6	4	6	10	11	94
4.	Texnik tayyorgarlik	12	12	7	8	5	6	10	11	12	12	7	6	108
5.	Psixologik tayyorgarlik			1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	10
6.	Nazorat sinovlari	1											1	2
7.	Hakamlik va yo'riqchilik amaliyoti													
8.	Musobaqalarda ishtirok etish	Ommaviy sport tadbirlari taqvim rejasi bo'yicha												
9.	Tiklanish tadbirlari	1	1	1	2	2	1	1	1	1	1	1	1	16
	Oylik yuklama	26	28	24	28	26	24	26	26	26	26	26	26	312

Ushbu bosqichda mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda tiklanish tadbirlarini ham ko'zda tutish lozim. Ularga mashg'ulotdan keyingi suv muolajalari, chiniqishlar, suzish, hammom va mashg'ulotlarni toza havoda o'tkazish kiradi.

3-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi uzunlikka sakrovchilarining ikkinchi yili uchun o'quv soatlari taqsimotining jadvali

T/r	Tayyorgarlik bo'limlari	Oylar												Jami
		9	10	11	12	1	2	3	4	5	6	7	8	
1.	Nazariy tayyorgarlik	1		1		1		1		1		1		6
2.	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	21	21	23	23	20	23	23	18	18	16	20	22	248
3.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	36
4.	Texnik-taktik tayyorgarlik	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	96
5.	Sport va harakatli o'yinlar	6	6	8	8	8	8	8	8	8	6	6	8	88
6.	Psixologik tayyorgarlik		1	1	1			1	1	1	1			8
7.	Nazorat sinovlari		1	1	1			1	1	1	1			8
8.	Hakamlik va yo'riqchilik amaliyoti													
9.	Musobaqalarda ishtirok etish	Ommaviy sport tadbirlari taqvim rejasi bo'yicha												
10.	Tiklanish tadbirlari	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	16
	Oylik yuklama	34	35	38	37	33	37	38	32	33	30	34	35	416

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi uzunlikka sakrovchilarining ikkinchi yili uchun rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlarida nazariy, umumiy va maxsus jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik, sport va harakatli o'yinlar, psixologik tayyorgarlik, nazorat sinovlari, hakamlik va yo'riqchilik amaliyoti, musobaqalarda ishtirok etish hamda tiklanish tadbirlari nazarda tutilgan bo'lib, bu orqali tayyorgarlikning ushbu bosqichi tashkil etiladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yosh uzunlikka sakrovchilarning tezkorlik, kuchlilik, sakrovchanlik, egiluvchanlik, chidamlilik tayyorgarligiga alohida e'tibor bergan holda, harakat ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan uzunlikka sakrovchilar tomonidan harakatlaning ma'lum kinematik va dinamik tavsiflariga erishilganligi bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarga tayandik. Bir qator sport turlari kabi yengil atletika sport turida ham harakat ko'nikmalarini shakllantirish va texnikaning murakkab elementlarini o'zlashtirilishi uzunlikka sakrovchilarning harakat qobiliyatlarini rivojlanish darajasi, xususan, tezkorlik, kuchlilik, sakrovchanlik, egiluvchanlik, chidamlilik ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi tasdiqlangan juda ko'p tadqiqotlar mavjud. Tezkorlik, kuchlilik, sakrovchanlik, egiluvchanlik, chidamlilik ko'rsatkichlarini rivojlantirish hisobiga yosh uzunlikka sakrovchilarning harakatlanish tezligi ham oshadi.

Yengil atletikada uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligini rejalashtirishda jismoniy tayyorgarlik vositalari va uslublarini oqilona individuallashtirish tamoyilini inobatga olish zarur. Mazkur tamoyil uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligini rejalashtirishda mashg'ulot yuklamalarini ham yosh bo'yicha, ham tayyorgarlik darajasi bo'yicha bo'lishni nazarda tutadi. Yosh uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligini rejalashtirishda, mashg'ulot yuklamalari bir tomondan murabbiy tomondan tanlangan mashg'ulot modeliga maksimal yaqinlashtirilgan va boshqa tomondan uzunlikka sakrovchilarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Afsuski, yosh uzunlikka

sakrovchilar tayyorgarligida ushbu tamoyil inobatga olinmaydi. Murabbiy yosh uzunlikka sakrovchilar uchun yuklama kattaligi va yo'nalishini tavsiya qilingan yuklamalarga muvofiq ravishda rejalashtiradi.

Tayyorgarlikni rejalashtirishda 10-12 yoshda reproduktiv vazifalarning kuchayishi, morfofunktsional tizimlar va harakat vazifalarining shakllanishi bilan kuzatiladigan yosh uzunlikka sakrovchilarning organizmda gormonal qayta qurilishlar sodir bo'ladigan holatlarni ham inobatga olish zarur. Bu davrga kelib yosh sportchilar yurak qisqarish chastotasining ortishi, qonning sistolik va daqiqali hajmini kamayishi qayd qilinadi, bu esa ularning aerob imkoniyatlarida ahamiyatli darajada ifodalanadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, 10-12 yoshda yosh uzunlikka sakrovchilarga mashg'ulot usullarini tez va aniq bajarish hali qiyin bo'lsa ham, diqqat hajmi ortadi, diqqatni jamlash va taqsimlash mahorati ishlab chiqiladi. Shu sababli, yosh uzunlikka sakrovchilarning jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish mazkur yosh davrida amalga oshiriladigan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosalar. 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligi bo'yicha rejalashtirishni chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish, sport maktablari shug'ullanuvchilari uchun Dastur ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash zarur. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh uzunlikka sakrovchilarning tezkorlik, kuchlilik, sakrovchanlik, egiluvchanlik, chidamlilikka yo'naltirilgan yillik yuklamalar hajmini oshirish. 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchilarning tayyorgarlik darajasini to'g'ri nazorat qilish uchun natijalari bo'yicha xilma-xil tayyorgarlik turlarini rejalashtirish mumkin bo'lgan pedagogik testlashga qaratilgan kompleks dasturni ishlab chiqish. Ommaviylikni oshirish hisobiga yoshlar orasida yengil atletikani uzunlikka sakrash turini targ'ib qilish vositalaridan keng foydalanish, 10-12 yoshli uzunlikka sakrovchi yoshlarni umumta'lim maktablaridagi hamda sport maktablaridagi to'garaklarida shug'ullanishga jalb qilish.

ADABIYOTLAR

1. Солиев И. Р. и др. Ўрта масофага югурувчиларни мусобақаларга тайёрлаш технологияси //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 100-109.
2. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. Kichik razryadli o'rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – C. 270-274.
3. Ziyayev F. C. et al. Yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o'rta t'alim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – C. 348-355.
4. Ортиқов М. и др. Биатлончиларни мусобақаларга тайёрлашда машғулот юкламалари воситаларининг оптималлаштириш //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – C. 156-163.
5. Каримов Ф. М. и др. Бошланғич ихтисослик гуруҳидаги узунликка сакровчи қизларнинг депсиниш кучини ривожлантириш //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.
6. Ziyayev F. C. et al. O'rta masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarni musobaqa oldi tayyorgarligi samaradorligini oshirish //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – C. 78-90.
7. Ch Z. F. Yengil atletikachilarni uzunlikka sakrovchanligini maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 18. – №. 1. – C. 183-185.
8. Karimov F. M. Uzunlikka sakrovchilarni chidamlilik sifatini rivojlantirish me'zonlari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1 SPECIAL. – C. 269-273.
9. Karimov F. M. Uzunlikka sakrovchilarni chidamlilik sifatini rivojlantirish me'zonlari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1 SPECIAL. – C. 269-273.
10. Ziyayev F. C. et al. Bosqon oloqtiruvchi sportchilarni tayyorlashda modellashtirish orqali samaradorligini aniqlash //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 280-285.
11. Yusupov I. A. et al. O'zbekistonda yengil atletika bo'yicha yopiq inshootlarda o'tkazilgan 2021-2022-yildagi O'zbekiston chempionati musobaqalarining tahlili //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 293-300.
12. Ғанибоев И. Д. и др. Мактабгача таълим муассасаларида енгил атлетика машқларини ўзида мужассамлаштирган ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш орқали болаларни жисмоний сифатларни тарбиялаш //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 286-293.

13. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. Aholi o'rtasida ommaviy yugurishning ahamiyati //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 120-125.
14. G'aniboyev I. D. et al. Uzunlikka sakrovchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 725-729.
15. G'aniboyev I. D. et al. Yosh yengil atletikachi sportchilarni uzunlikka sakrash turiga saralashda jismoniy sifatlarini rivojlantirish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 736-741.
16. G'aniboyev I. D. et al. Qisqa masofaga yugurish texnikasini boshlang 'ich tayyorgarlik bosqichi sportchilariga o'rgatish samaradorligi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 730-735.
17. G'aniboyev I. D. et al. G'ovlar osha yuguruvchilarni musoboqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 718-724.
18. Muxiddin o'g'li K. F. Modern Methods of Organizing Track and Long Jumpers at the Initial Preparatory Stage //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 34-38.



UDK:091

Feruzbek QILICHEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa doktori, PhD
E-mail: qilichevferuzbek@gmail.com

F.f.d O‘.Tilovov taqrizi asosida

HOZIRGI DAVRDA DINIY EKOLOGIK QADRIYATLAR TRANSFORMATSIIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada diniy ekologik qadriyatlar transformatsiyasi tahlil qilingan. Ekologik qadriyatlar transformatsiyasida din ijtimoiy hayotda konservativ kuch sifatida, progressiv kuch sifatida ham muayyan rol o‘ynashi tabiiy ekanligi, ba’zi davrlarda diniy qarashlar va amaliyotlarning ko‘pchilik shakllari o‘zgarishlar yo‘lida to‘siq bo‘lib qolganiga qaramay, diniy e‘tiqodlar-qadriyatlar ko‘pincha jamiyatda o‘zgarishlar yaratish uchun yordam berganligi ilmiy jihatda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik qadriyat, ekologik madaniyat, diniy qadriyat, din, ekologiya, shaxs ekologik madaniyati.

TRANSFORMATION RELIGIOUS ECOLOGICAL VALUES IN THE PRESENT PERIOD

Annotation

This article analyzes the transformation of religious ecological values. In the transformation of ecological values, it is natural that religion plays a certain role in social life as a conservative force and as a progressive force. It has been scientifically analyzed that beliefs and values often help to create changes in society.

Key words: Ecological value, ecological culture, religious value, religion, ecology, personal ecological culture.

TRANSFORMATSIIYA RELIGIOZNO-EKOLOGICHESKIKH TSENNOSTEY V SOVREMENNYIY PERIOD

Аннотация

В данной статье анализируется трансформация религиозных экологических ценностей. В трансформации экологических ценностей естественно, что религия играет определенную роль в общественной жизни как консервативная сила и как прогрессивная сила. Научно проанализировано, что убеждения и ценности часто помогают создавать изменения в обществе.

Ключевые слова: Экологическая ценность, экологическая культура, религиозная ценность, религия, экология, личная экологическая культура.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat avvalgilardan farqli ko‘rinishdagi muammolar bilan to‘qnash kelgani sir emas. Endilikda ularning ta‘siridan qutilish va bu borada turli yechimlar topish asrimizning eng dolzarb masalasiga aylandi. XX asrning birinchi yarmida ko‘p asrlar mobaynida davom etib kelgan davlatlararo va fuqarolik urushlariga barham berib, azaliy orzu – tinchlikka erishish insoniyat uchun birlamchi maqsad hisoblangan bo‘lsa, ikkinchi jahon urushidan so‘ng aholi tabiiy o‘shining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlari yo‘lida foydalanish ortidan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy muammolarni tug‘ilishi bilan bir vaqtda qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani yanada chigallashtirib yubordi. Buning oqibatida kishilarning yashash tarzi, sihat-salamatligi va ijtimoiy-madaniy hayotida tub o‘zgarishlar kuzatila boshlandi. Xullas, sotsiologlar ta‘biri bilan aytganda, insoniyat “hozir hatto, so‘nggi ikki yuz yilliklar standarti bo‘yicha qaralgan vaqtda ham, undan ko‘ra og‘irroq dramatik ijtimoiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda[1].”

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Diniy qadriyatlar rivojlanish dinamikasida ikki jihat-ularning mazmunan va tarkiban murakkablashuvi, yangidan-yangi qadriyatlar vujudga kelishi –differensiasiya va integratsiya jarayonlariga moyillik ko‘zga tashlanadi. Sharq jamiyatlarida binar tendensiyaning muayyan tomoniga moyillik diniy qadriyatlar taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo‘lsa ham, ammo u yoki bu davrda ulardan birida ustuvor bo‘lgan va muayyan maqsadlarga xizmat qilgan. Diniy qadriyatlarni shaxs faoliyatida ekologik qadriyatlarga ijobiy munosabatning

shakllanishi, uning ta‘sir imkoniyatlarini ilmiy o‘rganish asosida turli diniy konfessiyalar o‘rtasidagi aloqadorlik va mavjud farqlarni aniqlab, bir tizimga keltirish mumkin. Shuningdek, turli diniy ekoqadriyatlarni ekologik xavf-xatarni real idrok etish, baholash va ularning yechimi yo‘llarini ifodalash imkoniyatlari jihatidan ham turkumlashtirish mumkin. Masalan, diniy dogmatlarni formal mantiq qonunlariga ko‘ra asoslaydigan teologiya, diniy falsafa ekologik voqelikni qandaydir quruq mushohadaviylik orqali emas, balki dunyoviy fanlarning empirik bazasiga tayangan holda yondashadi. Shu jihatdan ekoteologiya yoki din ham falsafiy tafakkurning ajralmas tarkibiy qismidir. Bunda diniy qadriyatlar falsafiy madaniyat darajasida asoslanishi uning ta‘sir samaradorligini oshirish omilidir.

Har bir diniy qadriyat ob‘ektiv voqelikning muayyan in‘ikosi sifatida o‘zining ob‘ektiv xarakterda rivojlanuvchi ichki “ekodunyo”siga ega. Shu sababli turli diniy muqaddas bitiklarda insonning tabiat boyliklarini asrash, atrof-muhitni himoya qilish lozimligi haqidagi ideallar, qadriyatlar shaxs ongini abadiy ahamiyatga ega ekologik g‘oyalar, diniy “qobiq” bilan cheklanishi mumkin bo‘lmagan insoniy ideallar bilan boyitadi. Demak, shaxsning tabiiy borliq haqidagi ekologik tafakkuri va faoliyatidagi qadriyaviy mo‘ljallar tanlovda diniy qadriyatlar hamda ularni rasional asoslovchi diniy-falsafiy sistemalarning ma‘naviy-psixologik ahamiyati va ma‘rifiy roli kattadir. Shu bilan birga diniy qadriyatlar taraqqiyotining mustaqilligi qonuniyati ham namoyon bo‘ladi [2].

Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlar gumanistik roli baholanganida esa uni “ijobiy”

yoki "salbiy", "primitiv" yoki "murakkab" sifatida baholash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda diniy qadriyatlarining roli samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin. Chunki har qanday diniy qadriyatlarining funksional mazmuni ijtimoiy hayot ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqadi. Darhaqiqat, ibtidoiy insonning hayot faoliyatini tasvirlovchi toshlarga o'yib tushirilgan ekologik mazmundagi rasmlaridan boshlab hozirgi davrdagi diniy konfessiyalarning tabiatni asrash bo'yicha dolzarb muammolarni ko'tarib chiqishi va ularning ekologik harakatlar bilan birgalikdagi faoliyati, o'z navbatida, diniy qadriyatlarining shaxs ekologik madaniyati shakllanishidagi rolini real namoyon qila oladi. Zero, har qanday diniy konfessiyalar kishilarga, avvalo, qadriyatlar orqali ta'sir qilishi bilan o'z manfaatlarini yo'lida faoliyat yurgizadi.

Zamonaviy ekomadaniyatning strukturasi diniy qadriyatlar o'z pozitsiyasini saqlab kelayotganligi ekoxavfsizlik omillari va shaxs motivatsiyalaridan biridir. Shu jihatdan hozirgi davrda gumanistik kontekstda diniy qadriyatlarining rivoji uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi orqali shaxs ekologik madaniyati mazmunan boyiydi va chuqurlashadi.

Diniy qadriyatlar hali barqaror rivojlanmagan davrlarda ekologik tematika afsonaviy, mifologik usullarda ifodalangan. Insonning tabiat bilan munosabatini mifologik tafakkur asosida tushunish ekologik borliqni anglashning maxsus shakli hisoblanadi. Miflarda insonning tabiat kuchlari oldidagi zaifligi, o'zligi aks etib, unda shaxsning tabiatga munosabati sodda ekologik qoidalar orqali tartibga solingan.

Diniy qadriyatlarining ilk mifologik ko'rinishlari, mazmunan, amaliy-pragmatik jihatlari bilan ajralib turadi, ya'ni kundalik-maishiy hayot ehtiyojlari qondirilishiga qaratilgan. Bu dinning dastlabki shakli bo'lgan magiyada, animatizm va animizmda aniq ifodalangan. Masalan, qadimgi odamlar yovvoyi hayvonlarni kamon o'qi bilan otib ovlashini tasvirlash orqali o'zlarining ovda erishgan zafarini namoyish etganlar. Bu diniy obrazning sof "tashqi" mazmunini tashkil qiladi. Vaholanki, "yovvoyi-faylasuf" – shaman, kohin aynan shu orqali insonning tabiatga munosabatidagi vahshiylikni qoralayotgan bo'lishi mumkin.

Qadimgi dunyo moddiy yodgorliklari orqali dastlabki avstarolopiteklarning tabiatga oqilona munosabati ruhlar, hayvonlar, o'simliklar, turli jonli va jonsiz narsalar ob'ekt qilib olinganligini, ular turli usullarda ifodalanganligini kuzatish mumkin. Garchand ibtidoiy jamiyatning qadriyaviy asoslari keyingi davrlarga nisbatan sodda, mifologik refleksiyalarga qurilgan bo'lsa ham, insonning tabiatga munosabati ikkilamchi tabiatga qaratilgan madaniy tizimini yaratishgan. Diniy-mifologik qadriyatlar tarixiy transformatsiyada turli vositalar yordamida (ijtimoiy xotira, rituallar, marosimlar, tasvirlar, naqshlar, an'analar) avloddan-avlodga o'tib, saqlanib va takomillashib kelgan. Ularda turli tarixiy davrlardagi ekologik bilimlar va tajriba mujassamlashgan.

Diniy ekoqadriyatlarining animistik shakllarida ham zamonaviy ekologik obrazlarning ko'p umumiy belgilari va xususiyatlari namoyon bo'lib, tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish funksiyalari mavjud bo'lgan. Ibtidoiy odamlar hayotida qulay tabiiy sharoitlarni yaratish maqsadida birlashishi va ekologik xatti-harakatlarining turli diniy rituallar, marosimlarda ifodalanishi qadimgi odamlarning ichki borlig'ini o'ziga xos tarzda namoyon qilgan.

Eng muhimi ekologik voqelikni diniy qadriyatlarida ifodalashda differensiasiyalashish tendensiyasi kuchaydi, ya'ni diniy qadriyatlarida ekologik tematika yetakchi mavqega ega bo'lib bormoqda. Boshqacha aytganda, diniy qadriyatlarida ekologiyalashish shaxs faoliyati ekologiyalashishi tendensiyasiga mutanosib ravishda rivojlanmoqda. Asrlar davomida aksariyat dinlarning muqaddas yozuvlari inson

zotining mohiyatan bir ekanligini o'rgatib keldi. Inson zoti birligining bunday transsendental tushunilishi o'tmishga oid, ammo uni hali qayta tiklash mumkin. Buning ishonchli isboti o'zaro bog'liqlikning mavjudligidir, shuningdek, axloqiy falsafa mantig'i ham buni tasdiqlaydiki, bunday tushunish xalqaro plyuralizmning realliklari bilan to'liq mos keladi.

Diniy qadriyatlarida ifodalangan ekologik obraz konkret axloqiy mazmuniga ega bo'lmasa pedagogik-didaktik ahamiyatga ega emas. Jahondagi asosiy ustuvor diniy qadriyatlarida shaxs ekologik madaniyatining o'ziga xos normativ etalonlari ishlab chiqilgan. Diniy qadriyatlarida ifodalangan shaxs ekologik sifatleri ideal xarakterda bo'lsa ham shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi texnologiya asrda shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarining zamon talablariga real javob berishi – eng muhim funksional mezondir. Xususan, diniy ekoqadriyatlarining asosiy manbalari bo'lgan Vedalar, Tora, Tavrot, Injil, Qur'on va Hadislarda tabiatga, insonga gumanistik munosabat konkret-amaliy yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, yoga ta'limoti zamonaviy psixoterapiya vujudga kelishida qanchalik muhim rol o'ynagan kabi hadislarda ham alohida tib bobi bo'lib, unda inson salomatligini saqlashda ilmiy isbotlari topib kelinayotgan bir qator davolash usullari yoritilgan[3].

Mazkur dinlar orasida paydo bo'lishi jihatidan dastlabki yahudiylikda ekologik madaniyat borasida quyidagi ikki prinsip markaziy o'rin egallaydi: tirik mavjudotga aziyat yetkazmaslik va halok qilmaslik. Yahudiylikka ko'ra, tirik mavjudotga aziyat yetkazmaslik qoidasi insoniyatni hayvonot dunyosiga nisbatan shafqat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydigan muhim prinsip hisoblanib, bu masalaning ahamiyati yuqoriligi Tavrot oyatlarida ham aks etgandir: "O'sha (Shabbat) kuni o'zlarinigiz, o'g'illaringiz yoki qizlaringiz, qullaringiz yoki cho'rilarinigiz, hayvonlaringiz, shahringizdagi musofirlar hech qanday ish qilmang" (Chiqish 20:10). Boshqa oyatda esa atrof-muhit, jumladan, hayvonot olamiga g'amxo'rlik ko'rsatishga undashdan maqsad ular odamzot uchun tirikchilik vositasi qilib berilganligi ta'kidlanadi: "O't va sabzavotni sizlarga yemish qilib berganim singari hamma tirik jonzotlarni ham sizlarga yemish qilib beraman" (Ibtido 9:3). Shuningdek, yahudiylik ta'limotiga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida belgilangan ikkinchi qoida – "vayron qilmaslik" tabiiy borliq va undagi tirik mavjudotlar (o'simlik va hayvonot dunyosi, hatto, insonlar)ga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lishni ta'qiqlovchi prinsip sanaladi. Bu to'g'risida kelgan Tavrot oyatida hatto, biror shaharni uzoq vaqt qamal qilish davrida ham u yerdagi daraxtlarni vayron etishdan qaytarilib, balki, ulardan foydalanishga buyuriladi[4].

Diniy qadriyatlar avvalo ijtimoiy hodisadir va insonning psixologik-ruhiy olamini namoyon etadi.

Shuning uchun ham diniy qadriyatlar ma'naviy hayot san'ati bo'lib, shaxslararo muloqotni talab etadi va dunyoqarashda namoyon bo'ladi. Zero, insonning tabiatga nisbatan ezguligi va yovuzligini diniy qadriyatlar orqali baholanishi insonni insoniylikka, rahm-shafqatga, kamolotga tabiiy borliqni Yaratguvchining mulki sifatida asrashga da'vat etadi. Hozirgi davrda esa ushbu kompleks-sistemali xarakterdagi vazifalar samaradorligi diniy qadriyatlarining boshqa umuminsoniy qadriyatlar, xususan, demokratik tamoyillar bilan integratsiyasiga bog'liqdir.

Bugungi kunda diniy qadriyatlar mavqeyini mustahkamlaydigan muhim omillardan biri – bu diniy ibodatlar, marosimlar, an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlarning ekologik jihatlarni o'rganish, ularni targ'ib etishdir.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada katolisizm hukmronligi sharoitlarida shaxs faoliyatiga, jumladan, ekologik xatti-harakatiga muqaddas kitoblar, Papa bullalari, cherkov inkvizitsiyalari, badiiy adabiyot, san'atdan tashqari, hattoki,

asosiy vazifasi sxolastikaga "dastyorlik" qilishdan iborat bo'lgan ilm-fan, xususan, falsafa orqali ham kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazib kelingan. Katolisizm o'z hukmronligi yo'lida intellektual sohalarining barchasidan keng foydalangan. Ammo bundan bir tomonlama salbiy xulosa ham chiqmaslik kerak.

Sivilizasiyaning hozirgi bosqichida ekologik muammolar keskinlashishi bilan dinning ma'rifiy, aksiologik funksiyasining ahamiyati oshmoqda. Masalan, Qur'oni Karimda barcha muqaddas kitoblar e'tirof etiladi, unda yahudiy va xristianlarning muqaddas kitoblari yig'indisi bo'lgan Bibliyadagi nomlar: Moisey (Muso) – 128, Avraam (Ibrohim) – 63, Iisus (Iso) – 49, Noy (Nuh) – 42, Mariya (Maryam) – 34 marta takrorlanadi. Qur'onda 3-sura "Ol-i Imron", 19-sura esa "Maryam" deb nomlanadi va 5: 46 (50) oyatda iudaizmning muqaddas kitobi – Tavrot va xristianlarning muqaddas kitobi – Injil Alloh tomonidan yuborilganligi xususida so'z yuritiladi[5]. Ya'ni Qur'oni Karim oxirgi kitob sifatida nafaqat o'zidan oldingilarni tasdiqlaydi, balki ularni himoya ham qiladi. Xuddi shunday holatni, insoniyat tarixidagi birinchi din hisoblangan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" va hind "Veda"larida ham kuzatish, ular bitta umumiy manbaga egaligi xususida xulosaga kelish mumkin[6].

Umuman olganda, nafaqat jahon dinlari, balki milliy dinlarning barchasi ham o'zaro o'xshashdir. Zero, insoniyat uchun yagona maqsad komillikka intilishdir.

Umuman, diniy qadriyatlarining shaxs ekologik madaniyatiga ta'sirini shu tarzda turkumlashtirish mutlaqo shartli va nisbiy xarakterda bo'lsa ham, bir tomondan, har ikki holda ham ma'naviy madaniyatni o'rganishga ob'ekti va uslubi nuqtai nazaridan daxldordir. Shuning uchun ham diniy qadriyatlar shaxsning ekologik begonlashuvini bartaraf qilishdagi samarali vositalardan biridir.

Turli konfessiyalarda ekologik qadriyatlar turlicha ifodalinishiga kelinsa, ular o'rtasidagi farq, e'tiqodlar nuqtai nazaridan nisbiy va shartli xarakter kasb etadi.

Ekologik bilim va madaniyatni belgilovchi fazilatlar yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda asosiy urg'u o'quvchi va talabalarning o'zi yashab turgan xonadoni, mahallasi, shahriga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini, ya'ni vatanparvarlik ruhini, tabiatga nisbatan axloqiy qadriyatlarini, tabiat uchun shaxsiy mas'uliyat hissini, unga qiziquvchanlik va uni asrab-avaylashni, teran bilimlilikni shakllantirishga qaratilgan. Bu fazilatlar o'zbek xalqining ekologik qadriyatlarining boy mazmunini o'rganish, tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlash va e'zozlash, diniy qadriyatlarni hurmat qilish asosida kuchaytiriladi.

Xulosa. Ekologik bilim va madaniyat insonning ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitishga va shakllantirishga imkon beruvchi yo'nalishlardan biridir. Tabiatga, o'simliklar, hayvonlar va odamga bo'lgan mehr-muhabbat o'quvchi va yoshlar qalbida shaxsga, insonga xos bo'lgan ezgulik, mehribonlik tuyg'ularini yanada rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Giddens E. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Tarj. N. Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002. – 847 b.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. – Б. 126.
3. Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти. – Б. 14-38
4. Deep ecology and world religions : new essays on sacred ground / Edited by David Landis Barnhill and Roger S. Gottlieb. – N.Y.: State University of New York, 2001. – 291 p.
5. Курьони Карим. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 544 б.
6. Бойс М. Зароастрийцы: верования и обычаи. – М.: Наука, 1989; Исхаков В.И.,
7. Исхакова Т.Н. Древо мудрости и здоровья. – Тошкент: Фан, 1991. – 143 с. – С. 144.

Yer, suv, havo, o'simlik va hayvonlarni, hayot manbalarini, yashash vositalarini ehtiyotkorona saqlash, e'zozlash ma'naviyat mezoni hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik madaniyat uchun daslabki qadam qo'yiladi va bu madaniyat stixiyali ko'rinishga ega bo'ladi hamda tabiatga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bunda bolada ozodalik, atrof muhitni idroklash, qiyoslash kabi daslabki fazilatlar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi yoshlar jonli va jonsiz tabiat to'g'risida daslabki bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, tabiat va inson munosabatlarda oqilonalikka erishishga fundament qo'yiladi. Umumiy o'rta ta'lim bosqichida bilim oluvchi o'quvchilarga o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi ularning biologik funksiyalarini aniqlashga yordam beradi.. Shu bilan birga ularda ekologik madaniyatni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratiladi. Sayllar va hasharlarda ishtirok etish orqali ekologik fazilatlar shakllantiriladi. Bu fazilatlar asosan, axloqiy ekologik ongliklik, ekologik qadriyatlarini ardoqlash va mehnatsevarlik kabilardan iborat.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida ekologik bilimlarni dialektik dunyoqarash asosida o'rganish bilan birga ularda ekologik madaniyatning asosiy fazilatlarini shakllantiriladi. Bunda, avvalo, huquqiy ekologik tarbiyaga alohida ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasining tegishli moddalaridagi atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi masalalar va davlatimizning yer, suv, havo, o'simliklar, hayvonlar va tabiat resurslarini muhofaza qilish bilan bog'liq qonunlarini o'rganish – ekologik tarbiyani to'laqonli amalga oshirishga imkon yaratadi. O'quvchilarning darsda va mustaqil ishlash jarayonida tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishi ularda go'zallik, mehr-muhabbat, tabiatga nisbatan mas'uliyatlilik tuyg'usining shakllanishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim bosqichlarida ekologik muhitni yanada yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratiladi. Noyob turlarni ko'paytirish va kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular rivojlantiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi bosqichda uzluksiz ekologik ta'limni yangi metod va ishlanmalar bilan ta'minlashga, global, hududiy va mahalliy muammolar to'g'risida haqqoniy ma'lumotlar to'plash, atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq fazilatlariga e'tibor qaratiladi.

Taklif etilayotgan fazilatlarini shakllantirish bosqichlari va ularni rivojlantirishning asosiy xususiyati zamonaviy shaxs ekologik madaniyat va dunyoqarashini tarbiyalashdan iboratdir.



UDK 744:371:126.371.3

Ozodxon QO'ZIBOEVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti, g.f.d

E-mail: ozodaqoziboyeva@gmail.com

Muhabbat XABUBULLAYEVA,

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Qo'qon davlat pedagogika instituti professori, biologiya fanlari doktori V.Isoqov taqrizi asosida

GEOGRAFIYA TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARGA MILLIY MEROS VA QADRIYATLARNING O'QITILISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Geografiya ta'limida o'quvchilarga ilmiy meros va qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni, o'quvchilarni vatanga bo'lgan muhabbatlarini oshirish, o'z vatanida etishib chiqqan allomalarni geografiya darslari o'qitilishining metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ilmiy meros, qadriyatlar, hikmatlar, rivoyatlar, maqollar.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ И ЦЕННОСТЕЙ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Освещается роль географического образования в формировании у учащихся научного наследия и ценностей, воспитании у учащихся любви к Родине, методики преподавания уроков географии ученым, выросшим на родине.

Ключевые слова: Научное наследие, ценности, пословицы, поговорки, пословицы.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE DISCHARGE OF NATIONAL HERITAGE AND VALUES TO STUDENTS IN THE PROCESS OF GEOGRAPHY EDUCATION

Annotation

In geography education, the role of students in the formation of scientific heritage and values is highlighted, the methodology of teaching students geography lessons to increase their love for the motherland, allomas grown in their homeland.

Key words: Scientific heritage, values, Proverbs, narratives, Proverbs.

Kirish. Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsulidir. Boshqacha aytganimizda, har qanday qadriyatlar ajdodlar tomonidan yaratiladi, ular yaratgan qadriyatlar boshqa avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimuly beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni ham o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham, qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda aniq tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni pedagogik nuqtai-nazardan o'rganish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish borasida O.Musurmonova, N.Oripova, M.Quronov; qadriyatlar, ularning turlari, milliy, umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi va mushtarakligini ta'minlash muammolarini yoritishda A.Valiev, E.Yusupov, J.To'lenov, A.Jalolov, Q.Nazarov; maktab geografiya darslarida badiiy ijod namunalari foydalanish g'oyasi A. Sobirxonov, H. Boboyev; ijodkor o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo'yicha H.Xasanov, P.Musayev, T.B.Abdullayeva, R.Qurboniyozov, M.Yunusova, F.R.Saydamatov, F.Xamroyeva, M.Ergasheva; geografik madaniyat va uni shakllantirishning ayrim nazariy jihatlari A.G.Abdullaev, S.X.Matsaidova B.M.Abduraxmonovlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Qadriyatlar insonning orzu-istaklari, niyatlari, umidlari, bir so'z bilan aytganda, "ideal"i sifatida namoyon bo'ladi. Faylasuflar ta'kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon ob'ektga ham, sub'ektga ham bog'lik bo'lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma'naviy xazinasini bo'lgan qadriyatlar hech qachon o'zgaribmaydi, balki insonning qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o'zgaradi

Bugungi kunda milliy va madaniy qadriyatlarni inson va jamiyat hayotida ahamiyatini yuksalib borishi, yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Milliy-ma'naviy, madaniy ta'lim – tarbiyaning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sirini, yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini tushintirib bermog'imiz zarur.

Milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o'ziga xos urf-odatlarini, ularning yuksak ahloqiy xislatlari - ma'naviyatimiz beshigidir. Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, o'zligimizni anglash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, bugungi kunlarda internet tarmoqlarining rivojlanishi, yoshlarimiz qo'llarida turli-xil mobil telefonlar bo'lishi, ularning ta'lim-tarbiyasiga, ongiga yot g'oyalarni kirib kelishiga sabab bo'layotganiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Bizning, ayniqsa, pedagoglarning vazifasi bunday yot g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singishiga yo'l qo'ymaslik, ota-bobolarimizdan qolgan buyuk ma'naviy merosimizga sodiq talaba-yoshlar, komil inson qilib tarbiyalashni asosiy maqsadimizga aylantirishimiz shart. Ayniqsa, geografiya fanining qiziq tomoni bu butun dunyo

mamlakatlarining dinini, ularning tarqalishini ham o'rganib boradi. Shuningdek xalqlarning sivilizatsiyasida ham dinlar muhim rol o'ynashini ochib beradi. Masalan, eng rivojlangan mamlakatlar: Yaponiyada sintoizm dini, Xitoyda konfutsiylik, Amerika qit'asida xristian dinining katolik mazhabi, Yevropa mamlakatlarida xristianlik dinining provaslav va protestantlik mazhabi keng tarqalganini yoritib beradi. Shuningdek, Afrika va Braziliya o'rmonlarida, Okeaniyaning ba'zi bir orollarida, Avstraliya cho'llarida, Shimoliy qutb atrofida yashab kelayotgan xalqlarda hali ham o'zlarining mahalliy dinlari borligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoning xech bir joyi yo'qki, o'ziga xos dini va madaniyati shakllanmagan bo'lsa.

Xalqimiz qadim zamonlardan oq milliy-madaniy qadriyatlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirib kelganlar. Bugungi kunda bir necha yillar davomida unutilib borayotgan Muqaddas kitoblarimiz, unutilgan bayramlarimiz, urf-odatlarimiz qayta tiklandi. Ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ilmiy meroslarimizdan hikmatlar, rivoyatlar, maqollar, ularning o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan. Bu borada tadqiqotchi V.N.Teliyaning ta'kidlashicha "Maqollar xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq madaniy qadriyatlarining asrlar davomida an'anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ulkan manbaidir".

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Bir bolaga yetti mahalla –ham ota, ham ona"-degan so'zlari o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashida, komil inson bo'lib tarbiya topishida o'rni beqiyosdir. Maqollar- ilmiy meros sifatida qadrlanib, milliy, madaniy qadriyatlarining yuzaga kelishi, albatta, har bir xalqning minglab yillik tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda ajdodlarimizning dunyoqarashlari aks etgan. Maqollarni ilmiy meros sifatida talqin etar ekanman, ularni bir necha turlarga ajratishim mumkin. Masalan: farzand tarbiyasiga oid maqollar. Bularga "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", "Bola go'zal, odobi undan go'zal" "Til yugurigi boshga, qo'l yugurigi oshga", "Katta tishlasang ham katta gapirma", "Beshikdan to qabrgacha ilm izla"

Mexntkashlik borasidagi maqollar; "Yer xaydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda", "Ko'z qo'rqoq, qo'l botir", "Mehnat-mehnatning tagi rohat", "Ishlasang tishlaysan", "Ish ishtaha ochar- dangasa ishdan qochar", "Ahil ishlasang, ish unar, har mushkul oson bo'lar", "Qo'pdan quyon qochib qutilmas",

Milliy-madaniy qadriyatlarimiz ulug'langan maqollar: "Andishaning otini qo'rqoq qo'yma", "Bolali uy bozor –bolasiz uy mozor", "Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi", "Maslahatli to'y tarqamas", "Er-xotin urushi, doka ro'molning qurishi",

Vatanni madh etish borasidagi maqollar "Bulbul chamanni sevar-odam vatanni", "Yomg'ir bilan yer ko'karar- duo bilan el ko'karar", "Vatanni sevish iymondan", "O'zga yurttda shoh bo'lguncha o'z yurttingda gado bo'l". Hamjihatlik to'g'risidagi maqollar "Hamjihatlik davlat-yolg'izlik kulfat", "Ayrilganni ayiq yeydi, bo'linganni bo'ri", "Birikkan kuch-birikmagan puch", "Ko'p bilan kengash-ma'quliga ergash".

Maqollardan foydalanish orqali yoshlarimizni vatanni sevishga, o'zi yashib turgan joyini e'zozlashga chaqira olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Kuziboeva O. "Nargiza Homidova Farqona vodiysini tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirishi. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari 3.1 (2022).
2. Qo'ziboyeva O. and U.Isakova. "Landschaftlar dinamikasi va rivojlanishni tadqiq etishning ilmiy-amaliy masalalari." UzMU xabarlari 3.1.1 (2024): 257-260.

Xalqimizni milliy madaniyatini, dunyoqarashini, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy fazilatlarini o'zida aks ettirgan maqollarimiz juda ko'p topiladi. Yoshlarimizda fidokorlikni, mehnatkashlik, halollik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini namoyon etish uchun ma'naviy muhit, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarini o'rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlarimiz quyidagilardan tarkib topadi deyishimiz mumkin

Ijtimoiy fazilatlar – ona tabiatga bo'lgan munosabati, bunyodkorligi, vatanparvarlik, ahloqiy normalarga munosabatida ko'rinadi.

Jamoaviy fazilatlar – mahalla, oila, jamoadoshlari orasida bir-biriga nisbatan hurmat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, vataniga va xalqiga nisbatan sodiqligi, an'ana va urf-odatlarini qadrlashi, keksalarni e'zozlash va kichiklarga xurmatda bo'lishida namoyon bo'ladi;

Ahloqiy fazilatlar – rostgo'ylik, ibo-hayosi, sabr-toqatliligi, mehmondo'stligi, vijdonliligi, shukronalilik, halol va haromni farqlay olishlarida namoyon bo'ladi;

Xulosa va takliflar. Xalqimizga xos bo'lgan fazilatlar ichida, ayniqsa, Vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarimizga singdirib borish muhim hisoblanadi. Vatani so'zi arabcha bo'lib – ona yurt degan ma'noni anglatadi. Vatani –bu insonlarni tug'ilib o'sgan joyi, kindik qoni to'kilgan ulug' maskanidir. Bekorga xalqimiz "Vatanni sevmoqi" deb ta'kidlamagan. Vatanni sevish har bir insonni oilasidan boshlanadi. Agar biz yoshlarimizga Vatanni sevish, uni ardoqlash va har bir joyini muqaddas ekanligini tushuntirib borsak, kelgusida yoshlarimiz biz hozirgi kunda oldimizga qo'yayotgan har bir talabimizga javob bera oladigan komil inson bo'lib tarbiya topadi. Vatanni sevish, uni o'rganish kabi masalalar, ayniqsa, geografiya darslarida mukammal tarzda olib boriladi. Geografiya darslarida biz o'sib kelayotgan yosh avlodga 5-sinf dan tortib 10-sinf gacha bo'lgan dasturlarimizda o'rnatib boramiz. Vatanimizni geografiya tushlarida tuproqlaridan tortib, zilol suvlari-yu, ko'rkam bog'lari, iqlimi va hayvonot dunyosigacha bo'lgan barcha unsurlarini o'rgatamiz va ularni asrab – avaylash, tejab-tergash, kelajak avlodga yetkazish kabi masalalarga ham e'tibor qaratib o'tamiz.

Masalan, Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi darsligida ota-bobolarimiz, buyuk mutaffakirlarimiz tomonidan bunyod etilgan haritalar, globuslar to'g'risida so'z boradi. Quvonarli tomoni shuki, shimoliy yarim sharning birinchi globusi Abu Rayhon Beruniy tomonidan ishlangan. Globusda O'rta Osiyo, Shimoliy Osiyo, Hindiston, Orol (Xurdod) ko'li va Kaspiy dengizlari tasvirlangan.

Shuningdek, G'arbiy (Atlantika) okeani va shimolni o'rab turuvchi okean, janubni o'rab turuvchi okean, skiflar va massagetlar yeri ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek Beruniy o'sha davrlardayoq yerning narigi tomonida ham quruqlik borligini aytgan.

Tabiiy geografyaning boshlang'ich kursi darsligida Al-Xorazmiyning ilmiy merosi ham keltirilib o'tilgan. U birinchilardan bo'lib yerning shar shaklida ekanligini isbotlagan. Shu bilan birga darslikda Zahreddin Muhammad Bobur, Ibn-Sino kabi allomalarimizning ham ishlari keltirilib o'tilgan.



УДК 364.658:159.9:364.2:316.6.

Нодира ЛАТИПОВА,

Заведующая кафедрой Социальная работа Национального университета Узбекистана, д.с.н. (DsC), профессор

E-mail: n.latipova@nuu.uz

Нодира МУХАММАДИЕВА,

Соискатель кафедры Социальная работа Национального университета Узбекистана

Рецензент: Алексеева Виктория Сергеевна и.о. профессора кафедры, Социальная работа Национального университета Узбекистана, доктор философии по социологическим наукам (PhD)

БЛАГОПОЛУЧИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ИНДИКАТОР НЕЗАВИСИМОЙ ЖИЗНИ У ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

В статье рассмотрены психологические индикаторы измерения независимой жизни у лиц с инвалидностью, направление на оценку их способности жить автономно, справляться с повседневными задачами, а также участвовать в социальной жизни. Анализируются понятия, связанные с данными индикаторами, которые оцениваются в рамках различных областей, связанных с личностным развитием, социальной адаптацией и психологическим благополучием.

Ключевые слова: Люди с инвалидностью, независимая жизнь, контроль, участие, безбарьерная среда, компоненты, доступность, самостоятельность, образ жизни, качество жизни.

NOGIRONLIGI BO'LGAN ODAMLARDA MUSTAQIL HAYOTNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK KO'RSATKICHI SIFATIDA FAROVONLIK

Аннотация

Maqolada nogironligi bo'lgan odamlarda mustaqil hayotni o'lchashning psixologik ko'rsatkichlari, ularning avtonom yashash qobiliyatini baholash, kundalik vazifalarni bajarish, shuningdek ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'nalishi ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlar bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinadi, ular shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va psixologik farovonlik bilan bog'liq turli sohalarda baholanadi.

Kalit so'zlar: Nogironligi bo'lgan odamlar, mustaqil hayot, nazorat, ishtirok etish, to'siqsiz muhit, komponentlar, mavjudlik, mustaqillik, turmush tarzi, hayot sifati.

WELL-BEING AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL INDICATOR OF AN INDEPENDENT LIFE FOR PEOPLE WITH DISABILITIES

Annotation

The article examines the psychological indicators of measuring independent life in people with disabilities, the direction to assess their ability to live autonomously, cope with everyday tasks, as well as participate in social life. The concepts associated with these indicators are analyzed, which are evaluated within the framework of various areas related to personal development, social adaptation and psychological well-being.

Key words: People with disabilities, independent life, control, participation, barrier-free environment, components, accessibility, independence, lifestyle, quality of life.

Независимая жизнь – это возможность самому определять и выбирать, принимать решения и управлять жизненными ситуациями. Независимая жизнь во всем мире определяется как возможность полностью контролировать свою жизнь на основе приемлемого выбора, который сводит к минимуму зависимость от других людей в принятии решений и осуществлении повседневной деятельности. Это понятие включает в себя контроль над собственными делами, участие в повседневной жизни общества, исполнение целого ряда социальных ролей и принятие решений, ведущих к самоопределению и уменьшению психологической или физической зависимости от других [1].

Конвенция Организации Объединенных Наций о правах инвалидов [2] и факультативный протокол обращает особое внимание на концепцию независимой жизни. Несколько статей Концепции ООН закрепляют право на независимость и выбор.

Например, статья 5 гарантирует равенство перед законом. Статья 18 гарантирует свободу передвижения и свободу выбора места жительства наравне с другими, а

статья 19, в частности, подчеркивает право инвалидов: выбирать место жительства, где и с кем они живут, наравне с другими, иметь доступ к целому ряду услуг внутридомовой, в интернатных учреждениях и другой общественной поддержки, включая личную помощь, иметь доступ к общественным услугам и объектам для населения в целом.

Но вместе с тем, анализ показал, что в Конвенции ООН о правах инвалидов нет термина «самостоятельная жизнь», но «для инвалидов важна личная самостоятельность и независимость, включая свободу делать свой собственный выбор» более того включая свободу собственного выбора и независимости [3]. Необходимо отметить, что самостоятельный образ жизни – это не вести полностью независимую жизнь без людей. В данном случае можно говорить о включении социальной модели инвалидности, которая предполагает наличие физических и психологических ограничений в обществе.

Социально-психологические компоненты независимой жизни людей с инвалидностью включают

несколько ключевых элементов, которые способствуют успешной адаптации и независимой жизни. Эти компоненты охватывают как внутренние (личностные и психологические), так и внешние (социальные и средовые) аспекты.

Основные компоненты независимой жизни людей с инвалидностью включают – благополучие, самооценка и уверенность, самостоятельность и ответственность, социальная поддержка, социальная интеграция, управление стрессом и эмоциональная устойчивость, когнитивные и коммуникативные навыки, способность эффективно взаимодействовать с окружающими, а также навыки решения проблем и принятия решений играют важную роль в независимой жизни. мотивация к независимости, доступность среды.

Совокупность социально-психологических компонентов определяет благополучие независимой жизни людей с инвалидностью и опирается на междисциплинарный подход, который разрабатывался в рамках психологии, социологии, медицины и др. наук. Данное понятие используется для оценки благополучия с точки зрения здоровья, социальных и экономических индикаторов и психологических показателей. А уровень инвалидности служит индикатором потребности в уходе, способности оставаться независимым в обществе и характером участия в общественной жизни. Инвалидность обычно измеряется на основе субъективного подхода через саморефлексию или оценку поведения основных и инструментальных действий в повседневной жизни.

Анализ литературы по данному вопросу.

Философия независимой жизни вдохновила на создание схем личной помощи и денежных расчетов в Швеции и Великобритании, а затем и в других странах Европы [4]. Концепция Независимой жизни (Г.Делонг, Ж.Деджон, Д.Макдональд) – это идея, выдвинутая людьми с инвалидностью. Она предусматривает создание системы оказания поддержки и поддержки людей с особыми потребностями прямо на месте, а не в специализированных международных организациях.

Парадигма независимого образа жизни разработана Г.Деджон в конце 1970-х годов [5]. Эта концепция предлагает переход от медицинской модели к модели независимого образа жизни. Он заявил, что социальные барьеры и установки – это проблемы, с которыми сталкиваются люди с инвалидностью. Разрешение проблем можно решить путем «исправления» общества, а не людей с инвалидностью. И самое главное решение должен принимать сам человек, а не врач или социальный работник.

В частности, в зарубежной психологии такие авторы как М.Аргайл, Э.Динер, А.Кэмпбелл, Р.Лукас, Р.Венховен и др. в качестве характеристик благополучной жизни рассматриваются экстраверсия, внутренний контроль, высокая самооценка, самоуважение, самопринятие, оптимизм, жизнелюбие и умение планировать время [6].

В исследовании «благополучия» с психологической точки зрения составляют работы К.Роджерса, А.Маслоу [7].

Исследования благополучия как социально-психологического феномена охватывают множество авторов из различных научных направлений. К.Риф [8] посвятила свои работы по психологическому благополучию. Ее модель включает шесть ключевых аспектов благополучия: автономия, личностный рост, позитивные отношения с окружающими, жизненная цель, самопринятие и экологическая компетентность. М.Селигман [9] основатель позитивной психологии. Его теория благополучия в рамках модели PERMA (Positive

Emotion, Engagement, Relationships, Meaning, Accomplishment) подчеркивает важность позитивных эмоций, вовлеченности, качественных отношений, смысла жизни и достижений. Эти аспекты важны для понимания благополучия людей с инвалидностью, особенно в контексте их социальной адаптации.

По мнению российских авторов «качество жизни» – это отдельная характеристика, а не уровень жизни, образ жизни или благосостояние. Можно сделать вывод, что дефиниция «качество жизни» можно сопоставить с благополучием. А благополучие рассматривать через степень удовлетворенности материальных, социальных и культурных потребностей [10].

Методология исследования. Благополучие как социально-психологический индикатор независимой жизни у лиц с инвалидностью включает в себя совокупность физических, эмоциональных, социальных и психологических факторов, которые влияют на качество их жизни и способность быть самостоятельными.

В социологической и психологической науке состояние благополучия связывают с переживаниями человеком процессов и событий происходящий в его жизни или окружающей его действительности, с особенностями его внутреннего мира, которые определяются его переживаниями с позитивным восприятием состояние с окружающими людьми, личностным ростом, самоидентификацией, ощущением счастья.

В частности, когда люди с инвалидностью получают возможности, ведущие к социальному благополучию через позитивные социальные роли в обществе, меняются не только отношенческие позиции со стороны сообщества, но и положение человека с инвалидностью. Например, успешное зачисление ребенка с инвалидностью в школу или взрослого с инвалидностью на работу может стать мощным средством изменения отношения общества к ним. Некоторые вещи могут быть полезны: помогать людям с инвалидностью улучшать свои навыки и способности, продвигать людей с инвалидностью в общество и бороться с негативным отношением.

Социально-экономическое благополучие людей с инвалидностью определяется уровнем создания условий для полной реализации трудового, социального, интеллектуального потенциала, достижения финансовой стабильности, качества жизни.

Основными аспектами благополучия является:

1. Эмоциональное благополучие. Включает в себя состояние внутренней гармонии, удовлетворенности жизнью и эмоциональной устойчивости. Лица с инвалидностью, ощущающие поддержку и понимание от общества и близких, имеют более высокие шансы на успешную интеграцию и самостоятельную жизнь.

2. Физическое благополучие. Физическое здоровье, доступ к медицинским услугам и возможность самообслуживания являются важными компонентами независимой жизни. Лица с инвалидностью, имеющие доступ к необходимой медицинской помощи и реабилитационным программам, ощущают себя более уверенными в своих возможностях для самостоятельного существования.

3. Социальное благополучие. Этот аспект связан с включенностью в общественные отношения и социальной поддержкой.

Анализ и результаты. Показатели оценки социально-экономического благополучия людей с инвалидностью целесообразно анализировать с точки зрения качества жизни. Концепция качества жизни предполагает высокое качество жизни, составляющими

которого являются следующие показатели: демографические показатели, состояние здоровья, система социальной защиты, уровень образования, правовая защита, доступ к здравоохранению, условия досуга.

Зарубежные авторы выделяют шесть факторов благополучия - физическое и психическое здоровье, свобода и самоопределение, хорошая работа, удовлетворительные межличностные отношения, материальное благополучие, знание и понимание мира [11].

Социальное участие людей с инвалидностью может быть ограничено из-за широкого спектра барьеров. Например, люди с инвалидностью могут иметь низкую самооценку и считать, что они не заслуживают или не могут участвовать в мероприятиях. Члены семьи могут чувствовать стыд за то, что у них есть член семьи с инвалидностью, поэтому они не поощряют и не разрешают члену семьи участвовать в общественной жизни.

Недоступный транспорт и здания, такие как общественные центры, спортивные центры и кинотеатры, являются физическими барьерами для участия в социальной жизни. Люди с инвалидностью, проживающие в обществе, сталкиваются с множеством социальных проблем. Трудно решить сложную задачу улучшения качества жизни людей с различными степенями инвалидности. Опрос, проведенный ПРООН показал, что 77% опрошенных лиц с инвалидностью оценивают доступность как неудовлетворительную. Анализ показал, что 85% зданий и объектов социальной инфраструктуры в городе Ташкенте не приспособлены для использования лицами с инвалидностью, несмотря на то, что там проживают 70 000 лиц с инвалидностью и еще 300 000 пожилых людей [12].

Социальные барьеры связаны с условиями, в которых люди рождаются, растут, живут, учатся и стареют – или социальными детерминантами здоровья, которые могут способствовать ухудшению функционирования людей с инвалидностью. К примеру, в настоящее время стабильную работу (работают не менее четырех месяцев в году) имеют 28 % инвалидов трудоспособного возраста. Принимаемые меры рассчитаны, как минимум, на увеличение их доли до 50 %

к 2025 году. Обзор Всемирного банка описывает множество проблем, с которыми приходится сталкиваться лицам с инвалидностью в Узбекистане, одна из которых – проблема трудоустройства.

«У лиц с инвалидностью примерно в 4 раза меньше шансов найти работу, чем у людей без инвалидности. В 2019 году были официально трудоустроены только 8,9% мужчин и 4,4% женщин с инвалидностью в возрасте 16-59 лет и 16-54 лет соответственно, или всего 7,1% лиц с инвалидностью. В сельской местности этот процент был еще ниже – 5,8%» [13]. Положительным является то, что, начиная с 2018 года лицам с инвалидностью I группы и II группы была предоставлена дополнительная 2-процентная квота на поступление в национальные университеты страны [14].

Концепция независимой жизни инвалидов заключается в том, что инвалидность представляет собой ограничения в возможностях, вызванные физическими, психологическими, сенсорными, культурными, законодательными и другими препятствиями, которые мешают человеку, имеющему инвалидность, интегрироваться в общество так же, как и другие люди.

Резюме и предложения. Таким образом, создание благополучия для людей с инвалидностью требует комплексного подхода, который включает в себя как психологическую, так и социальную поддержку. Для улучшения качества жизни людей с инвалидностью и обеспечения благополучия выводы позволили сделать некоторые рекомендации.

Во-первых, создание инклюзивного общества помогает снизить изоляцию и стигматизацию. Во-вторых, обеспечение физической доступности и инфраструктуры. Доступ к безбарьерной среде, включая адаптированные здания, транспорт и общественные места, улучшает независимость людей с инвалидностью. В-третьих, образование и общественная осведомленность по вопросам инвалидности помогают разрушать стереотипы и формировать уважительное отношение к людям с инвалидностью. Это способствует их активному включению в общественную жизнь, повышению и улучшению благополучия. Благополучие и независимость людей с инвалидностью, обеспечивая их активное участие в социальной жизни и улучшая качество их жизни.

ЛИТЕРАТУРА

1. К независимой жизни: пособие для инвалидов. – Москва: РООИ «Перспектива», 2001.
2. Конвенция о правах инвалидов. Принята резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи от 13 декабря 2006 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml. (Дата обращения 23.01.2024.)
3. Конвенция о правах инвалидов. Принят резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи от 13 декабря 2006 года. Ст. 3. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml.
4. Ratzka, A. (1993) The user cooperative model in personal assistance: The example of STIL, the Stockholm Cooperative for Independent Living. Stockholm: Independent Living Institute. Available at: <http://www.independentliving.org/docs5/razka199301.html> [Accessed 20 May 2021].
5. DeJong, Gerben. "Independent Living: From Social Movement to Analytic Paradigm," Archives of Physical Medicine and Rehabilitation 60, October 1979.
6. Argyle, M. (1987). The psychology of happiness. London: Methuen, Diener, E. (2016). Happiness is a virtue -- Good for you and good for the world! In R. J. Sternberg, S.T. Fiske, & D. J. Foss (Eds.), Scientists making a difference: One-hundred eminent behavioral and brain scientists talk about their most important contributions. – PP. 345-348. Cambridge, UK: Cambridge University Press.; Diener, E., Heintzelman, S. J., Kushlev, K., Tay, L., Wirtz, D., Lutes, L. D., & Oishi, S. (2016, October 6). Findings All Psychologists Should Know from the New Science on Subjective Well-Being. Canadian Psychology/Psychologie canadienne. Advance online publication. <http://dx.doi.org/10.1037/cap0000063>.; Veenhoven R. What We Have Learnt About Happiness https://www.researchgate.net/publication/300332706_What_We_Have_Learnt_About_Happiness.
7. Роджерс К. Становление личности. Взгляд на психотерапию. – Москва: ИОИ. – 258 с.; Маслоу А. М31 Мотивация и личность. 3-е изд. / Пер. с англ. — СПб.: Питер, 2019. — 400 с. — (Серия «Мастера психологии»).
8. Ryff C. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being//J. of Personality and Social Psychology. 1989. Vol. 57. P. 1069-1081.
9. Селигман М. Путь к процветанию. Новое понимание счастья и благополучия. – Москва: МИФ, 2013. – 440 с.

10. Бурковский Г.В., Левченко Е.В., Беркман А.М. Об исследованиях здоровья и качества жизни // Обозрение психиатрии и медицинской психологии имени В.М. Бехтерева. – СПб., 2004. – № 1. – С. 27-28.
11. Галияхметова Л.И. Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворенность жизнью: проблема взаимосвязи // Вестник Башкирского университета. 2015. Т. 20. – № 3. – С. 11-15.
12. Общественный совет при хокимияте города Ташкента. Дата публикации отсутствует. Проект «Город для всех». <https://gorod.uz/projects/5.htm>
13. Страновой обзор «Инклюзия лиц с инвалидностью». 2019. [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curated/en/099415012202113860/pdf/P1569620fed8da09c0b06c09f8bbe48eaf.pdf](https://documents1.worldbank.org/curated/en/099415012202113860/pdf/P1569620fed8da09c0b06c09f8bbe48eaf.pdf). (Дата обращения 08.02.2024)
14. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью» № УП-5270 от 01.12.2017 г. <https://lex.uz/docs/3436196>.



Alisher MADRAHIMOV,
Central Asian medical university o'qituvchisi, PhD
E-mail: alishermadrakhimov.85@gmail.com

O'zR Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti sotsiologiya fanlari nomzodi dotsent A.Yunusov taqrizi asosida

MAKTABLARDAGI ZO'RAVONLIK (BULLING) HODISASINING TUZILMAVIY TAHLILI

Anotatsiya

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida zo'rvonlik ijtimoiy fanlarning aksariyatida u yoki bu nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Xususan, insonlararo munosabatlarning ko'rinishlaridan biri sifatida sotsiologiya sohasi vakillarini ham, "zo'rvonlik" tushunchasi qiziqtirib keladi. Shu sababli so'nggi yillarda ushbu tushunchani ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida tez-tez uchramoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biri sifatida yuzaga kelgan zo'rvonlik masalalari yoritiladi. Maktab o'quvchilarining bir-birlariga nisbatan zo'rvonlik hodisasi tobora kuchayib borar ekan, uning sabablarini aniqlash va ularni oldini olishni tashkil qilish bo'yicha ishlarni kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratish talab etiladi. Ayniqsa uning nazariy jihatlarini o'rganish orqali ushbu tushunchaga sotsiologik yondoshilib, ushbu hodisani mazmun mohiyatini ochib-berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Zo'rvonlik, jamiyat, tuzilma, yoshlar, bulling, bullir, jabrlanish, o'smir, tajavuzkorlik, huquqbuzar, viktim xulq, konformistik ruh, tahdid, shantaj, haqorat, kamsitish.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ БУЛЛИНГА В ШКОЛАХ

Аннотация

Насилие как социальное явление, характерное для всех периодов человеческого развития, так или иначе изучается в большинстве социальных наук. В частности, понятие «насилие» представляет интерес для социологов как одно из проявлений человеческих отношений. По этой причине в последние годы данное понятие стало более распространенным в исследованиях многих зарубежных и отечественных ученых. В этой статье обсуждаются проблемы насилия, которые на сегодняшний день стали одной из самых острых проблем в системе образования. Поскольку феномен насилия школьников друг против друга усиливается, необходимо уделять внимание усилению работы по выявлению его причин и организации их предотвращения. В частности, путем изучения его теоретических аспектов, социологического подхода к этой концепции была предпринята попытка раскрыть сущность содержания этого явления.

Ключевые слова: Насилие, общества, структура, молодое поколения, буллинг, страдание юноши, нападение, правонарушения, виктомная право, комфромистическая дух, угроза, шантаж, оскорбление, унижение.

STRUCTURAL ANALYSIS OF BULLING IN SCHOOLS

Annotation

Violence as a social phenomenon specific to all periods of human development has been studied in one way or another in most of the social sciences. In particular, the concept of "violence" is of interest to sociologists as one of the manifestations of human relations. Therefore, in recent years, this concept has become more common in the research of many foreign and domestic scientists. This article discusses the issues of violence that have emerged as one of the most pressing issues in the education system today. As the phenomenon of violence against each other by schoolchildren increases, attention needs to be paid to strengthening the work on identifying its causes and organizing their prevention. Especially through the study of its theoretical aspects, a sociological approach to this concept was attempted to reveal the essence of the content of this phenomenon.

Key words: Violence, society, youth, bullying, bullying, victimization, teenager, aggression, offender, victim behavior, conformist spirit, threat, blackmail, insult, discrimination.

Kirish. Bullyng hodisasi garchi zo'rvonlikning bir ko'rinishi bo'lsa-da, farqli jihatlar va o'ziga xosliklari mavjud. Aslida zo'rvonlik (bulling) tushunchalarini chuqurroq tadqiq etishda va ularning ichki murakkab tuzilmasini ijtimoiy hodisa sifatida tuzilmaviy tahlil qilib qiyosiy taqqoslash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan sotsiologiyada "tuzilma" (lotincha "structura") deganda, obyektning yaxlitligi va o'ziga xosligi, uning har xil ichki va tashqi o'zgarishlar sharoitida asosiy xususiyatlarining saqlanib qolishini ta'minlovchi barqaror aloqalar majmui tushuniladi [1].

Ushbu tushunchani fanga garchi G.Spenser kiritgan bo'lsa-da, O.Kont, K.Marks, E.Dyurkgeymmlar asarlarida ham tadqiq etilgan. Biroq tuzilmaviy yondashuv XX asrda Klod Levi-Strauss, T.Parsons va R.Merton tomonidan alohida uslubiy yondashuv sifatida takomillashirilgan. Xususan,

R.Merton jamiyatni tuzilmaviy tahlil qilib, uning elementlarini qotib qolgan, ya'ni statik model sifatida emas, balki turli o'zgaruvchan munosabatlar – hamkorlikdan tortib, ziddiyatlargacha kuzatiladigan, elementlari turlicha o'rnlarni egallagan va mavqeidan kelib chiqqan holda muloqotga kirishadigan, bularning barchasi esa madaniy omillar ta'siri ostida yuz beradigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Zo'rvonlikning asosiy ko'rinishlari sifatida esa ilmiy adabiyotlarda amalga oshish shakliga ko'ra, jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy, foydalanish turlari ajratib ko'rsatilgan [3]. O'zbek sotsiologlari T. Narbayeva maishiy, ya'ni oilalardagi zo'rvonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy, psixologik va iqtisodiy ko'rinishlarini farqlagan bo'lsa [4]. X.Ziyayeva esa shunga o'xshash klassifikatsiya o'z tadqiqotida ajratgan [5]. Rus olimlari

E.Volkova va A.Grishinalar maktabdagi zo'raonlikni institutsional zo'raonlikning bir ko'rinishi, deb ta'riflashgan [6]. Zo'raonlik bolaga nisbatan jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan tashkiliy ta'sir ko'rsatish bo'lib, uning ma'naviy, ruhiy (axloqiy, kommunikativ) va hayotiy (huquqiy va ijtimoiy) maqomini zaiflashtiradi. Natijada bolaning jismoniy, ruhiy va ma'naviy azoblanishiga sabab bo'ladi yoki azoblanish ehtimolini keltirib chiqaradi. Boshqa mutaxassisning fikricha, maktabdagi zo'raonlik boshqalarda o'ziga nisbatan alohida qiziqish uyg'otadigan shaxsga nisbatan ham, butun guruhga nisbatan ham qarshi qaratilgan bo'lishi mumkin [7]. Bulling ko'rinishlarining ilmiy tahlillarida asosan shunday yondashuv mavjud. Bulling hodisasini ilmiy o'rganishni boshlab bergan, norvegiyalik olim D.Olveus bullingni 9 ta turga ajratgan: 1) verbal bulling; 2) yakalab qo'yish yoki ijtimoiy izolyatsiya; 3) jismoniy bulling; 4) yolg'on yoki yolg'on mish-mishlar bilan bulling; 5) pul yoki boshqa narsalarni olib qo'yish; 6) biron-bir harakatni amalga oshirishga tahdid qilish yoki majburlash; 7) irqiy bulling; 8) jinsiy bulling; 9) kiberhujum [8]. Zo'raonlik holatida uning asosiy ishtirokchisi bo'lgan bullirni aniqlash qiyin emas. Amerikalik mutaxassislar R.Beron va D.Richardsonlar bunday shaxslar umumiy tajovuzkorlikning yuqori potensialiga ega bo'lishini qayd etishgan. Zo'raonning boshqalar ustidan hukmronlik qilishga yuqori intilishi va jabrlanuvchilarga nisbatan rahm-shafqatning yetishmasligi namoyon bo'ladi. Bullirda o'zgalarni boshqarish va ularning bo'ysunuvidan lazzatlanish hissi nihoyatda kuchli hisoblanadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Bulling hodisasi esa – bu uyushgan yoki uyushmagan yoshlar hamjamiyatida mazax qilinadigan yoki zulm ko'radigan bolaga nisbatan zo'raonlik hodisasi tizimidir. Ushbu tizim huquqbuzar (zolim)lar, jabrlanuvchi(lar) va tashqi kuzatuvchilar, ya'ni kattalar va bolalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, bullingni o'rganigan mutaxassislarning deyarli barchasi bunda ko'proq zo'raonlar va qurbonlar haqida to'xtalishgan. Ya'ni, har bir bulling holatida bir vaqtning o'zida 2 ta paradigma kuzatiladi: zo'raonlik (zo'raon taraf) va jabrlanish (jabrlanuvchi tomon). “Bunda, deviant xulq-atvorning barcha ko'rinishi o'smirlarda yaqqol namoyon bo'lib, birinchi navbatda, yoshlarning ruhiy va fiziologik xususiyatlari sabab bo'ladi” [10].


Jumladan, bulling hodisasi ham o'smirlar davrida paydo bo'lish ehtimoli yuqori bo'lib, ayni paytda og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. O'smirlar o'rtasida bulling paydo bo'lishining 2 ta asosiy guruhi mavjud:

1. Individual, ya'ni tajovuzkor, jabrlanuvchi va boshqalar ta'siriga beriluvchanlik.

2. Guruhli, ya'ni noijtimoiy guruh faoliyati, to'liq shakllanmagan guruh a'zolari guruh ichidagi o'z o'rnini aniq bilmasligi, guruhdagi noqulay ijtimoiy-ruhiy muhit.

1-rasm

Maktablardagi zo'raonlik (bulling) ishtirokchilari sxemasi



Boshqacha aytganda, o'smirlarga xos bullingdagi deviant holatlarni aynan sinfxonada amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi. Bunda o'smirlar bullingida deviantlikning tajovuzkorlik (agressiv), jabrlanish (viktim) va ergashish (konform) turlari namoyon bo'ladi. Ya'ni o'smir bullingda 3 ta maqomda tajovuzkor, jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida ishtirok etadi. Bunda:

1) tajavuzkor bullirning maqsadi – guruhda yuqori mavqega erishish, jabrlanuvchining moddiy buyumlariga ega bo'lish, xizmatidan va shu bilan bog'liq imtiyozlaridan foydalanish, tajovuzkorona xulqini namoyish qilish orqali huquqbuzarlikni amalga oshirish;

2) jabrlanuvchi (bullir uchun tajovuzkorlik harakatlarining obyektining maqsadi zo'raonlikdan qochish, o'smir shaxsi uchun qulay bo'lgan ijtimoiy mavqeyini saqlashga urinish. Bunda bullingdan jabrlangan xulqida namoyon bo'ladi);

3) guvoh (bullingni kuzatib turadi, o'quvchilar o'rtasida zo'raonlik holatlari mavjudligini bilganning maqsadi tajovuzkorning xatti-harakatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblashi. Ikkala holatda ham guvoh(lar) bullingga aralashmay, tomoshabin sifatida faqat o'zlarining ergashuvchi xulqlari bilan zo'raonlik holatini kuzatib boradi).

Bullingda 3 xil tomoshabin sifatida – faol, passiv yoki befarqlik bilan ishtirok etayotgan individ “mavjud tartibotni shaxs tomonidan tanqidsiz qabul qilishi, unga moslashishi, o'z mavqeyini namoyon qilishdan bosh tortishi, fikrlash tarzi va xulq-atvor turiga, umumiy, ijtimoiy yoki guruh standartlari va stereotiplariga passiv rioya qilish orqali ifodalab, konform xulqni namoyon qilayotgan “guvoh o'quvchi” [11] lar xulqida keyinchalik salbiy o'zgarishlar kuzatish hech gap emas. Bunday passiv pozitsiya o'quvchilarni keyinchalik konform shaxs bo'lib shakllanishi, jamiyatda oxir-oqibat konformistik ruh kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi bulling holatini jamiyat rivojiga salbiy to'siq sifatida qarash muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Bullingni sodir etuvchi kimsalar ko'pincha quyidagi muhitda shakllangan bo'ladi:

- o'ta hissiyotli, jahldor va tez g'azablanadigan;
- boshqalarni bo'ysundirish, ularni o'z maqsadlariga erishishda vosita sifatida ishlatish istagi kuchli bo'lgan;
- ota-onalar, o'qituvchilar, kattalar va boshqalarga nisbatan raqobatchilik pozitsiyasi va dushmanona kayfiyatda harakatlanadigan;
- oilasida o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash, ijobiy muhit mavjud bo'lmagan;
- agar ular o'g'il bolalar bo'lsa, o'zlarini boshqalardan hamma jabhada ustunroq, deb hisoblaydigan o'smirlar orasidan chiqadi.

Bullir o'zining tashqi belgilari: bo'yi, vazni, yurishi, sochi, terining rangi bilan boshqalardan farq qiluvchi jihatlarining o'rnini to'ldirish uchun ham boshqalarni kamsitishga harakat qiladi [12].

Demak, bulling hodisasini har tomonlama tushunishda, eng avvalo, uning namoyon bo'lish shakllari muhim ahamiyatga ega. Bullingning klassifikatsiyasi, uning turlari: ochiq va yopiq ko'rinish orqali farqlanadi [13]. Ochiq bulling – bevosita jismoniy, psixologik yoki jinsiy ko'rinishdagi zo'ravonliklarni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, ochiq bulling 5 ta omilga bo'linadi:

1) verbal, ya'ni nutq vosita sifatida ishlatiladi, masalan, laqab, ismni buzib aytish, so'kish va boshqalar;

2) noverbal, ya'ni imo-ishoralar turli xatti-harakatlar, masalan, tupurish, behayo belgilar va boshqalar;


3) qo'rqitish, ya'ni tajovuzkor tomonidan intonatsiya, keskin xatti-harakatlar, bunda so'zlar ishlatilgandan keyin jabrlanuvchi muayyan topshiriqlarni bajarishga majburlanadi;

4) tovlamachilik, ya'ni tajovuzkor har qanday narsani talab qilishi mumkin, masalan, oziq-ovqat, pul, turli buyumlar, narsalarni olib qo'yish hamda tajovuzkor buyurgan ishlarni bajarish;

5) mol-mulk bilan bog'liq harakatlar, ya'ni zarar yetkazish, o'g'irlik qilish, narsalarni yashirish va boshqalar.

Yashirin bulling ko'rinishlari sifatida – e'tiborsizlik, qarshi chiqmoq (boykot), qasddan mish-mishlar yaratish va ularni tarqatish, tuhmat kabilarni kiritish mumkin.

2-rasm



Aksariyat tadqiqotchilar esa bullingda guruhning boshqa a'zolarini ishtirokchi, deb hisoblashmaydi. Bunda bullir va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga jiddiy e'tibor berib, bulling bu bullingning jabrlanuvchiga nisbatan zo'ravonlik harakati sifatida talqin etishgan. Ko'pgina holatda, tashqi kuzatuvchilar prinsipial ravishda ko'rib chiqilmaydi yoki bilvosita ishtirokchilar sifatida qabul qilinadi. Biroq, bu talqin to'liq to'g'ri emas, aslida, ular ta'qib qiluvchining tajovuzkor xatti-harakatlarini bilvosita qurbonlari yoki uni yanada va kuchaytiruvchilari hisoblanadi. Buning sababi R.Beron va D.Richardsonlarning fikriga ko'ra, bezorining xatti-harakatlari atrofdagilar tomonidan munosib baholanmaydi va bullingni yanada kuchaytiradi, ya'ni tajovuzkorlik darajasini oshiradi [14]. Boshqacha aytganda, kuchaytirish tomoshabin-sinfdozlarning borligi bilan bog'liq bo'lib, ularning o'sha holatga ta'siri 2 xil bo'ladi: birinchidan, zo'ravon (bullir) oldin tomoshabinlarda uyg'otgan dahshatli taassurotni oshirishni xohlasa, ikkinchi tomondan esa boshqalarning jim qo'llab-quvvatlashiga erishishga intiladi.

Demak, bullir har doim o'zining noijtimoiy xatti-harakatlariga atrofdagilarni ham tortishga intiladi. Norvegiyalik olim D.Olveus bullingda 8 ta ishtirok etuvchilar doirasini qayd etgan [15]:

Masxara qilayotgan o'quvchi;

Masxara qiluvchi (bullir)lar – masxara qilishni boshlab beradi va o'zgalarni ham boshqaradi.

Bullirga ergashuvchilar – bullingga ijobiy munosabatda bo'lib, unda faol ishtirok etishadi, biroq odatda, uni boshlashmaydi, ya'ni yetakchi rol o'ynashmaydi.

Tarafdorlar yoki passiv ergashuvchilar – bullingni faol va ochiqchasiga qo'llab-quvvatlashadi, masalan, kulish yoki vaziyatga e'tibor qaratishlari mumkin, biroq o'zlari ishtirok etishmaydi.

Passiv tarafdorlar yoki bullingning ehtimoliy ishtirokchilari – ushbu o'quvchilar bezorilikdan zavqlanishsa-da, biroq, ular aniq qo'llab-quvvatlovchi harakatlarni amalga oshirishmaydi.

Befarq kuzatuvchilar – holatga aralashishmaydi va o'z pozitsiyasini namoyon qilishmaydi.

Potensial himoyachilar – zo'ravonlikni yoqtirishmaydi, jabrdiydalarga yordam berish kerak, deb hisoblashsa-da, biroq, hech narsa qilishmaydi.

Himoyachilar – bullingni yoqtirishmaydi va jabrlanuvchi(lar)ga yordam berishadi yoki yordam berishga harakat qilishadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktablarda yuz beradigan bulling hodisasi tuzilmasida 3 ta asosiy ishtirokchi, ya'ni elementlardan iborat ekanligi kuzatildi. Bular: tajovuzkor (bullir yoki agressiv), jabrlanuvchi hamda bulling guvohlarida namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, bugungi kunda bullingning zamonaviy ko'rinishlari ham keng tarqalmoqda. Xususan, hozirda maktablarda kuzatilayotgan quyidagi 3 ta bulling ko'rinishini qayd etish mumkin:

1) kiberhujum (internet va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy xabarlardan yoki jamoaviy kanallardan foydalangan holda haqorat, tahdid, ayblov va shantajni o'z ichiga olgan psixologik zo'ravonlik);

2) mobbing (jabrlanuvchini sinfdan, maktabdan chetlatish maqsadida uni ommaviy ta'qib qilish ko'rinishidagi psixologik zo'ravonlik);

3) trolling (har qanday provokatsion va gij-gijlovchi muloqot, tuhmat, aldash, janjal va nizolarni sun'iy qo'zg'atish, yetarli asosga ega bo'lmagan holda buzg'unchi harakatlar va muloqot uslubini qo'llashga undash).

ADABIYOTLAR

1. Большой толковый социологический словарь. https://gufo.me/дист/социал_дист/Структура
2. Мертон Р.К. Социальная теория и социальная структура / Пер. с англ. Э.Н. Эгоровой и др. – М.: АСТ, Хранитель, 2006. –С 873.
3. Афанасьева О. Понятие и содержание криминального насилия // Уголовное право. 2014, №5. –С.13-15;
4. Голубов И.И. Виды насилия в преступлениях против правосудия: классификация, понятие, квалификация // Российский следователь. 2012. №24, –С. 36-39.

5. Narbaeva T.K. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli (sotsiodiskursiv tahlil). Monografiya. – Toshkent: “Tasvir”, 2020. -B. 115–116.
6. Ziyaeva X.O. Maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirish mexanizmlari. Sots. f.f.d. (PhD)..... diss. – Toshkent: 2021. -B. 23–24.
7. Волкова Э.Н., Гришина А.В. Отсенка распространенности насилия в образовательной среде школы // Психологическая наука и образование. 2013. № 6. -С. 19–27.
8. Быковская Э. Ф. Педагогическое насилие: теория и практика // Философия образования. 2006. №1. -С. 221–229.
9. Петросянц В.Р. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость. Автореф. Дисс..... канд. псих.наук. – Санкт-Петербург: 2011. -С. 11.
10. Романова Э.Н. Опыт использования европейскими странами программ профилактики насилия в школах // Научные проблемы гуманитарных исследований. 2011. № 9. С. 212–218.
11. Мудрик А.В., Петрина М.Г. Социально-педагогическая виктимология как отрасль знания // Вестник ПСТГУ ИВ: Педагогика. Психология. 2016. - Вып.№1 (40). -С. 38–45.
12. Yunusov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari. Sots.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: O'zMU, 2004.;
13. Tojibaev B. O'zbekiston o'quvchi-yoshlarida deviantlik profilaktik omillarining sotsiologik tahlili. Sots.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DBA, 2019.
14. Клачкова О.А. Структурная организация виктимной личности. Дисс.... канд. псих.наук. – Санкт-Петербург: -С. 155.
15. Olweus D. Bullying at school: What we know what we can do. – New York: “Wiley-Black – well”, 1993. -P....



UDK: 681.142:371.126

Gulnaz MAMUTOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti v.v.b
E-mail: gulnaz.mamutova88@mail.ru

Nukus innovatsiya instituti dotsent, p.f.n G.Izetaeva taqrizi asosida

METHODOLOGICAL FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL THINKING AND ABILITIES OF TEACHERS

Annotation

This article covers thoughts on methodological factors for the development of Mathematical Thinking and abilities of future teachers. Also, these methodological foundations are in line with the requirements of a democratic society, where principles such as humanity and efficiency are expressed in the education of an individual.

Key words: Future mathematics teacher, mathematical thinking, mathematical ability, pedagogical heritage, interactive technologies.

O‘QITUVCHILARNING MATEMATIK TAFAKKUR VA QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning matematik tafakkur va qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik omillari haqida fikrlar yoritilgan. shuningdek, bu metodologik asoslar demokratik jamiyat talablariga mos bo‘lib, ularda shaxsga ta‘lim-tarbiya berishda insonparvarlik va samaradorlik kabi tamoyillar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak matematika o‘qituvchisi, matematik tafakkur, matematik qobiliyat, pedagogik meros, interfaol texnologiyalar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье рассмотрены методологические факторы развития математического мышления и способностей будущих учителей. Также эти методологические основы соответствовали требованиям демократического общества, в которых нашли свое выражение такие принципы, как гуманность и эффективность в воспитании личности.

Ключевые слова: Будущий учитель математики, математическое мышление, математические способности, педагогическое наследие, интерактивные технологии.

Kirish. Respublikamizda yosh avlodni matematikaga o‘rgatish tizimini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy qilish orqali matematik tafakkuri va qobiliyatlari rivojlangan mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratildi. Bo‘lajak mutaxassislar uchun jahon tivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqatni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» da davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, matematikaga oid fanlarni chuqur o‘rganish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida o‘qituvchilarini matematik tafakkuri va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun mazkur masalaning metodologik asoslarini ishlab chiqish taqozga etiladi.

Matematik olim V.A. Kruteskiy ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida matematik qobiliyatlar tuzilishida quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

➤ matematik materialni formalashtirib idrok qilish, ya‘ni aniq masalada uning matematik formasini tezgina sezib ola bilish;

➤ matematik ob‘ektlarni, nisbatlarni va amallarni tez va keng ravishda umumlashtirish;

➤ matematik mulohaza jarayonini va tegishli amallar sistemasini «ixchamlash», ya‘ni mulohazaning bazi oraliq guruhlarini o‘z-o‘zidan ma‘lum faraz qilib tashlab ketish;


➤ matematik masalalarni echishda fikrlash jarayonining uyg‘unligi;

➤ to‘g‘ri fikrlashdan teskari fikrlashga tez o‘ta bilish imkoniyati;

➤ aqliy zo‘riqishni o‘ziga xos tejashga harakat qilish – matematik masalalarni, aniq algoritim bo‘yicha bosqichma-bosqich echishga intilish;

➤ matematik xotira.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagog olimlarning ta‘rifiga ko‘ra, metodologiya – tadqiqot usullari va asoslari bo‘lib, unda tahlil, sintez, umumlashtirish va modellashtirish kabilar amalga oshiriladi. Shu ma‘noda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida matematika o‘qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish asoslari, vositalari va usullarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Asosiy metodologik omillar.

Bu metodologik asoslar demokratik jamiyat talablariga mos bo'lib, ularda shaxsga ta'lim-tarbiya berishda va ularning tafakkurini shakllantirishda insonparvarlik, demokratik, yo'naltiruvchanlik, samaradorlik kabi tamoyillar o'z ifodasini topgan. Bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish aynan mana shu jihatlarni metodologik asos sifatida qabul qiladi va unda «shaxs ongini» boshqarish emas, aksincha, uning matematik tafakkurini boyitish, yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish birlamchi g'oya hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishning muhim metodologik asoslaridir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bir necha normalar belgilanganki, ular asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak matematika o'qituvchilarining matematik tafakkurini me'yoriy va huquqiy asoslarini shakllantirish mumkin. «Har kim bilim olish huquqiga ega», demak bo'lajak matematika o'qituvchilariga matematika asoslari bo'yicha bilim berish taqozo etiladi. Bunday bilim matematik tafakkurning asosiy tushunchalari bilan chuqur tanishtirish, matematik bilimning nazariy va amaliy vositalari bilan qurollantirishga asoslanadi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari kabi me'yoriy hujjatlarda ham bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishning metodologik omillari mavjud. Chunonchi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga binoan matematik tafakkurni rivojlantirishda quyidagilarni asosiy maqsad sifatida belgilash mumkin:

- matematik tafakkurni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya berishga asoslanishi;
- matematik tafakkurni rivojlantirishni uzluksiz va izchil amalga oshirishi;
- matematik tafakkurda bilimli bo'lishga erishish.

Ma'lum bo'ladiki, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkur asoslarini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar etarli darajada o'z ifodasini topgan. Bu omillar muhim tayanch vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Ajdodlarimiz bizga inson mehnatining minglab ajoyib namunalari, san'at, fan, adabiyotga doir jahonga mashhur asarlarini qoldirganlar. Ular azaldan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini o'zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko'rganlar. Asrlar mobaynida insonga ta'lim-tarbiya berishning asosiy tamoyillarini hisobga olgan xalq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo'nalashlaridan biri bo'lgan.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik meros muhim metodologik omillardan hisoblanadi. Chunki ulkan pedagogik merosimizdan yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan barkamol voyaga

etkazish tajribasi mujassam bo'lgan. Mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish muhimdir:

1) Muso Xorazmiy, Axmat Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Ibn Iroqning matematika, algebra, astronomiya va trigonometriya fanlaridan erishgan ilmiy yutuqlari matematik tafakkurni rivojlantirish ishining ilmiy asoslari va faktlari bilan ta'minlaydi.

2) Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy ijtimoiy qarashlari matematik tafakkurni rivojlantirish ishining amaliy omili hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, pedagogik merosimiz bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni shakllantirishning muhim pedagogik asoslaridir[1].

Bo'lajak matematika o'qituvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirishning muhim metodologik asoslaridan yana biri – bu zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Pedagog olimlarimiz bu borada butunlay yangicha texnologiyalarni asoslab bermoqdalar. Pedagogik texnologiyalar bo'lajak matematika o'qituvchilarini quyidagilar bilan qurollantiradi:

- matematik tafakkurning didaktik asoslarini chuqur bilish;
- matematik tafakkurni rivojlantirishning optimal vositalari va metodlarini talab darajasida o'zlashtirish;
- matematik tafakkurni rivojlantirish uchun innovatsion, media ta'lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni egallash;
- matematik tafakkurning pedagogik ko'nikma, malaka va tajribalari bilan qurollantirish va h.k.

E'tibor berilsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar matematik tafakkurni shakllantirish uchun butunlay yangi pedagogik tajriba bilan qurollanish imkonini beradi.

O'rta asrlar qomusiy olimi Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida o'quvchilarning yakka-yakka emas, jamoa bo'lib, birgalikda o'qitish tarafdori bo'lgan. Ibn Sino o'quvchilarni birgalikda, jam bo'lib o'qishga yo'naltirgan. Bunday hamkorlikda o'qitish ularda o'zlashtirishga intilishni kuchaytirishga, har bir o'quvchining o'zaro musobaqalashish istakalari rivojlanishiga, mavjud iqtidorni ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning yaxshi o'qishini, ijodiy fikrlashini ta'minlashga zamin yaratadi. O'quvchilar ijodiy va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilmasa, o'quv jarayonida faol shaxsga aylanmasa, hech qachon ularni ongli o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ta'limda ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishlari uchun har bir pedagog zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovatsion pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lishi va ulardan dars jarayonida samarali foydalana olishlari zarur. Interfaol metodlar aynan talabalarning yuqorida e'tirof etilgan sifatlarini tarbiyalashda, ijodkorlikka, matematik tafakkuri va qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirish borasidagi eng samarali usullar jamlanmasidir.

Innovatsion ta'lim muhitida yangicha tafakkur tarzi mujassamlashgan bo'lib, u insonni aqliy faoliyatining o'zga

hos bir tarzda iqtisodiy va madaniy jarayonlar, maishiy yoki ijtimoiy, xususiy-kasbiy muammolarga doir munosabatda bo'lishda ilm-fan va texnika yutuqlari hamda ishlab shaxsiy tajribaga tanyagan holda yo'l tutishida o'z aksini topadi. A.Adams, A.Maslou, F.Taylor va boshqlarning ishlarida, bu «yangilikni kiritish» deya ko'rsatiladi. Chunki bu jarayon, o'ziga xos aqliy operatsiya hisoblanib, mutaxassisdan idrok, tasavvur, xotira va diqqat darajalarini rivojlanganligiga, ularning faoliyatini natijasiga tayanishni taqozo etadi [2].

Innovatsion ta'lim muhitida birinchi navbatda professor-o'qituvchilar va talabalarining hamkorligi, ta'limni tashkil etishga ishtirok etayotganlarning kompetentligi, jamiyatda ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni namoyon bo'lishi, ilmiy tadqiqotlar natijasini amaliyotga joriy etish tezligi, ishlab chiqarish va fan-texnikaning aloqadorligi kabilarning ta'siri muhim hisoblanishi kerak.

Dars jarayonida innovatsion usullardan kam foydalanish, dastur va darsliklarda muayyan topshiriqlar, maxsus metodikaning ishlab chiqilmaganligi natijasida masala echimi ijobiy hal qilinmayotganligi aniqlangan. Demak, bugungi kunda bilimlari, mahoratli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga innovatsion ta'lim texnologiyalarning samarali yo'llarini topish, ularda bilish motivlarini rag'batlantirish hamda o'qitishning shakl va mazmunini boyitgan holda erishish mumkin.

Davrning o'ta dolzarb ushbu talabidan kelib chiqqan holda respublika miqyosida oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga innovatsion ta'lim texnologiyalarni tatbiq etish borasida bir qator quyidagi ijobiy ishlarni amalga oshirish lozim:

- bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalar mohiyatidan xabardor etish imkonini yaratuvchi o'quv manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnoma, metodik tavsiyanoma hamda risolalar)ning yaratilishiga alohida e'tibor berish;

- ularni innovatsion ta'lim texnologiyalar asoslari xususidagi bilimlardan xabardor etish maqsadida ularning kasbiy malakalarini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;

- bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda tashabbuskor pedagoglarning innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llash borasidagi ilg'or ish tajribalarini keng ommalashtirish.

Xulosa va takliflar. Matematikada mantiqiy tafakkur rivojlanishi inson uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamonlardan oq ma'lum edi. Tafakkurning matematik usuli haqida, har qanday ixtisosdagi mutaxassislarning uni bilishi kerakli haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy tafakkurning yuqori sifatli: aniqlik, qisqalik, tartiblanganlik, hatto kichkina bo'lsa ham soxtalikka yo'l qo'yimaslik, to'la dalil keltirish va hokazolara tushiniladi. Albatta har bir fan o'qituvchisining aqliy kuchini rivojlantirish kerak. Lekin, mantiqiy tafakkurning shakllanishida matematika so'zsiz birinchi darajali ahamiyatga egadir, chunki u, sohta da'volar

bilan uzviy kelisha olmaydi, u soxta fikrlarni haqiqatga o'xshatib ko'rsatishdan ko'ra rad qilishni afzal ko'radigan noyob fanlardan biridir. Ana shuning uchun ham matematika o'qituvchisining jamiyat oldida mas'uliyati juda kattadir, chunki tafakkur stili ko'p jihatdan o'qitish stilliga bog'liqdir.

Matematik tafakkurni egallashning muhimligi haqida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim o'qituvchilari bilan o'tkazilgan davra-suhbatlarida ko'pincha:

«Matematikaga qobiliyati yo'q» - degan gaplarni eshitamiz.

Matematik qobiliyat nima? Uni rivojlantirish mumkinmi?

Matematik qobiliyatni quyidagicha ifodalash mumkin:

- hisoblash qobiliyati, bu, murakkab algebraik shakllarni almashtira bilish bilan xarakterlanadi;

- mantiqiy tafakkur qobiliyati – izchil, to'g'ri qismlarga ajratilgan mantiqiy mulohaza san'ati;

- fazoviy tasavvur yoki geometrik intuitsiya.

Matematik qobiliyatning turli tomonlari turli kombinatsiyalarda uchrashi mumkin, bunda hatto bulardan yolg'iz bittasining rivojlanishi ham ba'zan ajoyib natijalarga va kashfiyotlarga olib kelishi mumkin. shuni ham aytish mumkinki, matematikaning turli tadbirlari ham bu qobiliyatlarning bir xilda rivojlanishini talab qilmaydi, bir sohada hisoblash uchun yaxshi algoritmi topish muhimroq bo'lsa, boshqa sohalar uchun mantiqiy fikrlab bilish muhimdir. Shu sababli professor-o'qituvchi bo'lajak matematika o'qituvchilarining turli matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berishi kerak [3,12].

Matematik qobiliyatlar murakkab, ya'ni tarkibiy qismlardan iboratdir. Masalan, mantiqiy fikrlash qobiliyati ko'p komponentlarni o'z ichiga oladi: bular analiz qilish, umumlashtirish, abstraksiyalash va shunga o'xshash qobiliyatlardan iboratdir.

Bu masalani hal qilish uchun guruhdagi butun o'quv ishlarini «o'rtacha» biladigan talabaga moslashtirish yaramaydi, bu bilan qobiliyatli va kam qobiliyatli talabalarga zarar etkaziladi. Ravshanki, guruhda mustaqil ishlarga ham katta ahamiyat berish kerak. Bunda ular matematik tafakkurning kuchli yoki kuchsiz tomonlariga moslab ish olib borishlari lozim. bundan, matematikaga doir didaktik materiallar (tarqatma topshiriqlar, daftarlar, bosma varaqlar va boshqalar)da dastur materiallarini o'zlashtirishnigina emas, balki maxsus matematik qobiliyatlarni rivojlantirishni nazarda tutish ham lozimligi kelib chiqadi. Aniqroq qilib aytganda, matematik tafakkur va qobiliyat matematikadan umumiy o'rta va oliy ta'lim kursi dasturining butun bo'limlarini o'rganish davomida rivojlantirilishi kerak. Bu hol matematik haqiqatga erishishga, ular bilan bog'liq bo'lgan izlanishlarga, sinashlar, xatolarga, aqliy mehnat usullarini anglashga alohida e'tibor berishga majbur qiladi. O'qituvchining barcha ishlar metodikasi ana shu qoidalarga asosan tuzilishi kerak deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: «Innovatsiya-Xiyoy», 2019. – 276 b.
2. Davies J.Ch. Maslow and Theory of Political Development. Getting to Fundamentals // Political Psychology. 1991. Vol. 12. N 3. –P. 416-417.
3. Mamutova, G. S. (2022). Practical technological system for the development of information communicative competence of future teachers based on digital technologies. *NeuroQuantology*, 20(22), 1586.
4. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2007. –Б.5.
5. Tolipov O'. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: «Innovatsiya-Xiyoy», 2019. – 276 b.



UDK:358.31

Abduxamid MANNABOV,
Erkin tadqiqotchi

Oliy harbiy bilim yurti dotsenti, PhD M. Sherov taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF DESIGN, PROGRAMMING AND PLANNING TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MODERN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

In the article, the author highlighted the influence of other people, the importance of grandparents, and various socio-economic factors affecting the stability of modern families. Concepts such as big family, small family, complex family, nuclear family are analyzed in detail in the article, and the many thousand-year-old historical views of our ancestors dedicated to the strength of the family, socio-economic life, culture, spirituality and values of families for the peace of the state are analyzed in the article.

Key words: Big family, nuclear family, marginality, third party intervention, Intergenerational relations, economic saturation, Avicenna, Globalization, national identity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОЕКТИРОВАНИЯ, ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННЫХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В статье автор выделил влияние других людей, значение бабушек и дедушек, а также различные социально-экономические факторы, влияющие на стабильность современной семьи. В статье подробно анализируются такие понятия, как большая семья, малая семья, сложная семья, нуклеарная семья, а также многотысячелетние исторические воззрения наших предков, посвященные прочности семьи, социально-экономической жизни, культуры, В статье анализируются духовность и ценности семьи для мира государства.

Ключевые слова: Большая семья, нуклеарная семья, маргинальность, вмешательство третьей стороны, Отношения между поколениями, экономическое насыщение, Авиценна, Глобализация, национальная идентичность.

ZAMONAVIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARINING O'QUV JARAYONIDA LOYIHALASH, DASTURLASH VA REJALASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada muallif zamonaviy oilalar mustahkamligida boshqa shaxslarning aralashuvi, bobo va buvilarning ahamiyati hamda oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy iqtisodiy omillarni yoritib bergan. Maqolada katta oila, kichik oila, murakkab oila, nuklear oila kabi tushunchalar batafsil to'xtalinib tahlil etilgan va maqolada oila mustahkamligiga bag'ishlangan ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixiy qarashlari, davlat tinchligi uchun oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatleri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Katta oila, nuklear oila, marginallik, uchinchi shaxs aralashuvi, Avlodlarga munosabatlar, iqtisodiy to'kinlik, Avisena, Globallashuv, milliy xoslik.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda dunyoda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda. Turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to'qnashuvlar yuz bermoqda, shuningdek, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'tgan 2022 yilning fevral oyidan buyon davom etayotgan Rossiya-Ukraina urushi, Isroil va Falastin o'rtasida kechayotgan jangovar harakatlar dunyo hamjamiyatini chuqur tashvishga solmoqda. Bunda Qurolli Kuchlarimiz barcha toifadagi bo'linmalarining jangovar shayligini kuchaytirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytilish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyevning "albatta, bizning Qurolli Kuchlarimiz faqat tinchlik maqsadlariga Vatanimiz mudofaasiga xizmat qiladi. Lekin, bugungi keskin va tahlikali vaziyatda biz turli tahdidlarga munosib javob berishga doimo tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini muntazam oshirib borishimiz zarur"[1] – deya ta'kidlaganligi, shuningdek "Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun

kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim" – degan fikrlari[2] harbiy pedagogikaning o'rni va dolzarbligini belgilab beradi.

Aytish joizki, yurtimizda barcha bosqichdagi ta'lim jarayonini innovasion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo'llash metodlarini takomillashtirish bo'yicha AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini modernizatsiyalash, innovasion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoniga chet el armiyasi tajribalari keng qo'llab kelinmoqda. Bunda asosan, jangovar tayyorgarlik yo'nalishida hamkor davlatlar bilan o'tkaziladigan o'quvlar, trening kurslari va mahorat darslarining ahamiyati kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatimiz xavfsizligini ta'minlash sifatini belgilab beradigan asosiy omillardan biri harbiy xizmatchilarning o'z sohasi bo'yicha mukammal ta'lim olganligi va uni amaliyotda qo'llay olishi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak xislatlarning rivojlantirilganlik darajasi bilan bog'liq.

Ushbu jarayonda asosiy o'rin tutadigan, har bir harbiy pedagog o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatini bilishi, ta'lim jarayonini tashkil etuvchilar, ta'lim usullari, shakllari, vositalari, pedagogik jarayon ishtirokchilari, mashg'ulot turlari va ularni to'g'ri tashkil qilish qonun-qoidalarini va qonuniyatlarini bilishi, pedagogika asoslaridan unumli va samarali foydalana olishi lozim.

Ushbu maqsadda, muallif tomonidan, harbiy ta'lim muassasalari o'quv tarbiya jarayonida pedagogik menejmentning samaradorligini oshirish mavzusida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida muallif tomonidan zamonaviy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida loyihalash, dasturlash va rejalashtirish texnologiyalarini takomillashtirish choralari ishlab chiqish maqsad etib belgilangan.

Pedagogik menejmentning eng muhim funksiyasi bu rejalashtirish funksiyasidir. Ta'lim muassasalarida rejalashtirish deganda avvalo o'quv, metodik va ilmiy faoliyat sohasidagi resurslarni to'g'ri foydalangan holda maqsadli taqsimlash tushuniladi. Rejalashtirish bu yerda o'quv jarayonini, ilmiy faoliyatni va ta'lim muassasasi xodimlarini boshqarish metodi sifatida qo'llaniladi.

Vaqt nuqtai nazaridan rejalashtirish ta'lim muassasasining strategik (perspektiv) va joriy boshqaruv vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham uni rejalashtirishni strategik, joriy va operativga bo'lish mumkin.

Strategik rejalashtirishni uzoq muddatga (3-5 yil va undan uzoq) ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday rejalashtirish o'zida to'g'ri va keng qamrovli prognozlarga asoslangan holda ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha murakkab va yuqori professional faoliyatni ifoda etadi. "Ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida, muassasaning

Jadval

"Reja", "prognoz", "dastur" tushunchalarini solishtirish

t/r	Terminlarni aniqlash			Mualliflar
	Reja	Prognoz	Dastur	
1	Belgilangan maqsadga erishish uchun ma'lum bir tartiblangan tizim yoki harakatlar ketma-ketligi	Kelajak haqida juda aniq bayonot, odatda atrofda sharoitlarning o'zgarishligi yoki ularning sekin o'zgarishi taxminiga asoslanadi	Maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan g'oyalar, rejalar va loyihalar ro'yxati	R. Eyres
2	Ma'lum yoki taxmin qilingan holatida vaziyatni o'zgartirishga yo'naltirilgan tizimning maqsad va vazifalarini, vositalarni qayd etish	Rejalashtirishdan oldin bo'lgan kelajak tasviri, ya'ni asosiy maqsadni tanlash va maqsad va vazifalarni iyerarxiyaga yoyish	Bitta bosh maqsadga yoki bitta bosh yo'nalishga erishishga qaratilgan iqtisodiy, loyihalash, ijtimoiy, texnik, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot tadbirlar kompleksini rejalashtirish	G. Pospelov, V. Irikov
3	Ishning tartibi, ketma-ketligi va vaqtini ta'minlaydigan oldindan rejalashtirilgan tadbirlar tizimi	Biror narsaning kelajakdagi rivojlanishi va natijasi haqidagi maxsus tadqiqotga asoslangan xulosa	Faoliyat va ishlar rejasini.	M.Pereverzev, N.Shaydenko, L.Basovskiy

Tushunchalarning har biri muassasa rivojlanishining ma'lum bir modelini ifodalaydi. Shu bilan birga, amaliyotda bu tushunchalar bitta tizim sifatida umumiylikda va o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi. Ular ta'lim muassasasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli dastur loyihasi shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

prognoz tizim (tashkilot) imkoniyatlarini o'rganish vositasidir, shuning uchun uni birinchi navbatda ishlab chiqish kerak;

reja – bu vazifa maqsadi va unga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlashni ifodalaydigan formal hujjatdir;

dastur – bu belgilangan bosh maqsadlarga erishish usullarini yorituvchi va buning uchun amaldagi tizimlardan yangi tizimlarning tuzilishini belgilovchi hujjatlar to'plami.

Shunday qilib, harbiy ta'lim muassasalarining maqsadli majmuaviy dasturi deganda, vaqt va makon

rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmasdan turib uning o'quv jarayonini rejalashtirish maqsadga muvofiq emasdir" deb ta'kidlaydi Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Harbiy universitet o'qituvchisi O.V.Kolnoshenko[3] Boshqaruv strategiya deganda – uzoq muddatli maqsadlar va harakatlarga qaratilgan boshqaruv funksiyasi, shuningdek, raqobatchilarga nisbatan shaxs yoki shaxslar guruhining yashovchanligi va qudratini yaxshilash bo'yicha uzoq muddatli chora-tadbirlar va yondashuvlar kompleksi tushuniladi. Odatda boshqaruv strategiyasi deganda tashkilotning uzoq muddatli siyosati yoki uning katta va muhim vazifasini hal qilishga qaratilgan siyosat tushuniladi[4].

Tahlil va natijalar. Harbiy ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati strategiyasini ishlab chiqish jarayoni quyidagi tartiblarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Prognozlash va loyihalash:

- tashqi muhitda (mamlakatda, Qurolli Kuchlarda va boshqalar) yuzaga keladigan istiqbolli tendensiyalarni baholashni;

- ta'lim muassasasi uchun tashqi muhitdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash va baholashni;

- ta'lim muassasasining potensialini va uni faoliyatning eng istiqbolli yo'nalishlarida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashni.

2. Ta'lim muassasasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategik maqsad va vazifalarini (loyihalar) ishlab chiqish:

- ta'lim muassasasining rivojlantirish strategiyasini (konsepsiyasini) ishlab chiqish;

- ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati uchun perspektiv rejalarini ishlab chiqish.

3. Zarur resurslar bilan ta'minlangan ssenariylar va yo'l xaritalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, muassasaning ta'lim faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun loyihalash, rejalashtirish va dasturlash bo'yicha bir qator savollarni (muammolarni) hal etish talab etiladi.

Menejment bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ushbu asosiy tushunchalarni tushinishga turli xil yondashuvlar mavjud (jadval).

bo'yicha loyihalashtirilgan, ushbu ta'lim tizimining maqsad yoki maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan, resurslar bo'yicha muvofiqlashtirilgan, tashkilot faoliyatining alohida konseptual mafkurasiga asoslangan markazlashgan boshqaruv ostida ijrochilar yordamida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

O.V. Kolnoshenkoning oliy ta'lim muassasalarida olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, maqsadli kompleks dastur tashkilotlardagi oddiy muvofiqlashtirishlarga nisbatan ko'proq muhim natijalarni olishni ta'minlaydi, shuning uchun ham unda quyidagilar erishiladi[3]:

maqsadni realizatsiya qilish jarayonini vaqt va mavjud resurslar bo'yicha optimallashtirish;

ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga (maqsadlariga) erishish uchun maqbul alternativani loyihalash, taqqoslash va tanlash;

boshqaruv mexanizmi va strukturalari yakuniy (bosh) maqsadni amalga oshirish vazifalariga bo'ysunishi;

muassasani boshqarish uchun oqilona tashkiliy tuzilmani yaratish.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, harbiy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va dasturlashga ilmiy yondashuvlarni tatbiq etish pedagogik menejmentni takomillashtirish uchun asosiy yo'nalish hisoblanmoqda. Harbiy ta'lim tizimini isloh qilishda uning uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish, u asosda harbiy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatini ilmiy asoslangan

strategiyasi va maqsadli dasturini ishlab chiqish muhim masala bo'lib hisoblanmoqda.

Perspektiv va joriy rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishning asosiy instrumenti hisoblanmoqda. Bu borada, harbiy ta'lim muassasasining boshqaruv organlarining faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirilganligini, resurlarni optimal foydalanishini, yuqori tashkilotchilikni, muassasaning barcha uchastkasining faoliyatini muvofiqlashtirilishini ta'minlovchi ilmiy prinsiplarini tatbiq etish bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020. – Б. 130.
2. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 30 йиллиги ва Ватан химоячилари куни муносабати билан байрам табригида // Халқ сўзи газетаси, 2022, № 9 (8071). – Б. 1.
3. Колношенко О.В. Повышение эффективности педагогического менеджмента образовательного процесса в военном вузе: Диссертация. – Москва., 2008. – Б. 189.
4. М.П. Переверзев, Н.А. Шайденко, Л.Е. Басовский, Дарслик, 2-нашр, қўшимча ва қайта ишланган, Москва ИНФРА-М 2008, Б.-85.



UO‘K: 159.9.316.8

Dilfuza MAHKAMOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi “Xodimlar bilan ishlash” boshqarmasi boshlig‘i

DSc, dotsent X. Abdusamatov taqrizi asosida

XOTIN-QIZLARNING DAVLAT XIZMATLARIGA IJTIMOY MOSLASHUVINING PSIXOSOTSIAL DETERMINANTLARI

Аннотация

Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga moslashishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni tadqiq etish bugungi kunda ayollarning faol mehnat “rentabilligi” elementlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tashkilot muhitiga moslashish deganda biz yangi tayinlangan xodim va uning intellektual faoliyati va xulq-atvori mehnat muhiti qoidalari va talablariga muvofiq shaxsiy rivojlanishini nazarda tutuvchi professional muhit o‘rtasida faol va uyg‘un o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishni tushunamiz. Maqola ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy moslashuv, gender farqlar, rentabillik, professional stress, stereotip, subyektiv nazorat, kasbiy kompetentlik.

ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ЖЕНЩИН К ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация

Адаптация женщин к государственной службе – многогранный процесс, исследование которого имеет сегодня большое значение при определении элементов активной трудовой «рентабельности» женщин. Под адаптацией к организационной среде мы понимаем установление активных и гармоничных взаимоотношений между вновь назначенным работником и профессиональной средой, что предполагает личностное развитие его интеллектуальной деятельности и поведения в соответствии с правилами и требованиями трудовой деятельности. среда. В статье анализируются результаты эмпирических исследований по данной проблеме.

Ключевые слова: Социальная адаптация, гендерные различия, рентабельность, профессиональный стресс, стереотип, субъективный контроль, профессиональная компетентность.

PSYCHOSOCIAL DETERMINANTS OF THE SOCIAL ADAPTATION OF WOMEN TO PUBLIC SERVICES

Annotation

Adaptation of women to public services is a multifaceted process, the research of which is of great importance today in determining the elements of active labor “profitability” of women. By adapting to the organizational environment, we understand the establishment of an active and harmonious relationship between the newly appointed employee and the professional environment, which implies the personal development of his intellectual activity and behavior in accordance with the rules and requirements of the working environment. The article analyzes the results of empirical research on this problem.

Key words: Social adaptation, gender differences, profitability, professional stress, stereotype, subjective control, professional competence.

Kirish. Patriarxal mafkura foydasiga ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilishi allaqachon oiladagi salbiy oqibatlariga, onalik instinktining yo‘q qilinishiga, axloqning pasayishiga, axloqiy odobsizlikka olib kelganligi haqidagi asosiy dalildir. Bu mafkura tarafdorlarining asosiy qismi aholining erkaklar qismidir [3]. Erkaklar ko‘pincha ijtimoiy tengsizlikni e‘tiborsiz qoldirib, ayol uchun xayoliy tashvish bilan ayollar muammolarini baholashda o‘zlarining konservativizmini yashirishadi. Xodimlarni boshqarishning mavjud amaliyotida ish beruvchilar uchun eng muhim vazifalardan biri bu tashkilot xodimlarini keyinchalik ularni jamoaga eng samarali kiritish uchun moslashtirish bilan tanlashdir[4]. Yangi ish joyiga moslashish muammosi insonning o‘zi uchun ham dolzarb bo‘lib, har bir inson mehnat qilish va yangi jamoaga qo‘shilish ehtiyojiga duch kelishi bilan tavsiflanadi.

Ayollarning jamiyatdagi mavqeyi doimo ilmiy jamoatchilik e‘tiborini tortadi. Xotin-qizlarning bugungi jamiyatdagi mavqei va roli haqidagi qizg‘in muhokamalar asosan ikki mafkura: patriarxal va tenglik mafkurasi atrofida jamlangan[1]. Birinchisining tarafdorlari dunyo “tabiiy

asoslar” ustida turishidan kelib chiqadilar. Ularning yo‘q qilinishi jamiyatning yo‘q qilinishiga olib keladi. “Tabiiy asoslar” deganda oila va jamiyatdagi funksiyalarning taqsimlanishi tushuniladi. Shu bilan birga, ayol-ona, ma’shuqa, qo‘rg‘on qo‘riqchisi haqidagi mashhur tezis olg‘a suriladi, shundan kelib chiqadiki, uy – ayol dunyosi. Erkak – boquvchi, oilani jamiyat bilan bog‘lovchi jamoat arbobi. Funksiyalarning bunday taqsimoti ular tomonidan tabiiy deb hisoblanadi, chunki jinsga asoslangan farqlar individual, shaxsiy farqlarga qaraganda muhimroqdir [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Egalitar mafkura tarafdorlari patriarxal nuqtayi nazarni tanqid qilib, funksiyalarning “tabiiy” taqsimlanishini yaratilgan ijtimoiy sharoitlar yaratgan ijtimoiy illyuziya deb ataydilar. Rollar o‘rtasidagi tenglik munosabatlari oilada va jamiyatda ayollar va erkaklarning shaxsiy bir-birini to‘ldirishiga asoslanadi [5].

Ushbu mafkura tarafdorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan asosiy tezis quyidagilardan iborat: tabiat ayolga faqat tug‘ish funksiyasini yuklagan, qolgan hamma narsani ayollar ham, erkaklar ham bajarishi va har bir kishi erkin tanlov maydoniga ega bo‘lishi kerak [6]. Yuqorida aytib

o'tganimizdek, ayollarning moslashuvining muvaffaqiyati (muvaffaqiyatsizligi) ko'plab omillarga va xususan, ayolning jamiyatdagi mavqei belgilovchi ajralmas ko'rsatkich bo'lgan ijtimoiy mavqega bog'liq.

Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining psixologik omillarini o'rganish barobarida ko'proq faol moslashuvga ta'sir etadigan sababiy jihatlarni ham inobatga olish muammoning tub o'zagini yanada yaxshiroq ochishga imkon beradi. Shu boisdan, tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning yosh ko'rsatkichlari hamda oilaviy turmush stajlari ham moslashuv faktorlaridan biri bo'lish mumkin degan farazlarni surishga undaydi.

1-jadval

Ijtimoiy moslashuvchanlikni aniqlash (Daymond-Rodgers) so'rovnomasining tafovutlari

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik ko'rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Adaptatsiya	163,30	187,41	12796	0,026*
Dezadaptatsiya	182,53	163,31	13214,5	0,076
Yolg'on	184,73	160,56	12790,5	0,026*
Aldash	185,18	159,99	12703,5	0,020*
O'z-o'zini qabul qilish	146,19	208,85	9494	0,000**
O'z-o'zini qabul qilmaslik	142,99	212,86	8876,5	0,000**
Boshqalarni qabul qilish	146,38	208,62	9530	0,000**
Boshqalarni qabul qilmaslik	177,63	169,45	14161	0,449
Emotsional komfort	155,44	197,26	11279	0,000**
Emotsional diskomfort	184,66	160,64	12803,5	0,026*
Ichki nazorat	193,34	149,76	11127,5	0,000**
Tashqi nazorat	207,66	131,81	8364,5	0,000**
Boshqarish	168,72	180,61	13842,5	0,271
Boshqarilish	189,71	154,31	11828,5	0,001**
Eskapizm	167,81	181,75	13667	0,197

Izoh: * - p<0.05, ** - p<0.01

Xususiy hamda davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarning ijtimoiy moslashuvchanligi qiyosiy tahlil qilinganda adaptatsiya shkalasi bo'yicha xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 163,30 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 187,41 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar mavjudligi kuzatildi (U=12796; p<0,05). Bundan ma'lum bo'ladiki davlat xizmatlarida ishlovchi ayollar ish muhitiga tezroq moslashar ekan. Mazkur jihatni ulardagi "och qornim tinch qulog'im" maqoliga monand ravishda davlat tarafidan ishni yo'qotib qo'yimaslik uchun xodimga yaratiladigan sharoit, faoliyat muhitining turg'un saqlanib qolish kafolati mavjudligi bilan ta'kidlash mumkin.

Dezadaptatsiya, ya'ni ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashmaslik, ko'nikish mobaynida ma'lum qiyinchiliklarni boshdan kechirish jihatidan ham farqli natijalar qayd etilib, xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 182,53 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 163,31 ni tashkil etdi (U=13214,5; p>0,05). Ko'rinadiki, xususiy tashkilot tarafidan yaratilgan sharoit, ish muhiti doim ham ayollarda moslashishga yordam bermasligi mumkin. Ba'zida ish jamoasining ta'sirida ham xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda moslashish og'irlashib, qiyin kechishi oydinlashadi. Xususiy tashkilotda ishlovchi ayollar moslashmaslikka moyil bo'ladi, degan fikrlar paydo bo'ladi.

Yolg'on shkalasida xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 184,73 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 160,56 ni tashkil etdi (U=12790,5; p<0,05). Ahamiyatli jihati xususiy tashkilotda ishlovchi ayollar oson moslashish, jamoaga tez kirishib ketish uchun ham ba'zida yolg'on ishlatib turishar ekan. Ayollarning yolg'on ishlatishlari ko'pincha mulozamat, hamkasbning "ko'ngliga tegmaslik" shaklida yuzaga chiqishi bilan xarakterlidir. Aldash jihatidan ham natijalar solishtirilganda xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 185,18 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 159,99 ni (U=12703,5; p<0,05) oldi. Bu jihatdan ham ustunlik xususiy sektor vakillarida kuzatilib, ularda belgilangan ish vazifasini ba'zida bajarishdan bosh tortish, yuklatilgan topshiriqlarni

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, taqdim etilgan ishlar moslashuv tushunchasini shaxsdan mustaqil ravishda o'zgarib turadigan muhitga moslashish sifatida ilgari shakllangan tushuncha aniq tor ekanligini va yangi muhitda inson xatti-harakatlarining cheklangan shakllarini tushuntirib berishini tasdiqladi. Shu sababli, so'nggi yillarda psixoaanalitiklar, shuningdek, kognitiv psixologiya vakillarining asarlarida tasvirlangan shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir paradigmasi ortib borayotgan tushuntirish kuchiga ega bo'lib, moslashish jarayonida nafaqat insonning o'zi o'zgarishini ko'rsatadi, balki uning bevosita ta'siri ostidagi muhit ham inson o'z hayotining haqiqiy ijodkori, transformatoriga aylanadi.

kechishtirish paytida "bahonalar" izlash orqali vaziyatdan "ustamonlik" bilan chiqib ketish qobiliyati davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarga qaraganda yaxshiroq shakllangan bo'ladi, mazmunidagi izohlarga olib keladi.

O'z-o'zini qabul qilish ayollarda "men"likni tan olgan holda ish yuritish, imkoniyatlarni hamda qobiliyatlarini tan olish, boricha ish tutishni ifoda etib shkalasida xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 146,19 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 208,85 ni tashkil etdi (U=9494; p<0,01). Davlat xizmatida ishlovchi ayollarda o'ziga bo'lgan baho hamda potentsiallarini realizatsiya qilish jihatidan anglangan karyera motivining shakllanishi ko'proq qo'rqmasdan o'zlarini yuqori tashkilotlarda sinab ko'rishga undashi bilan ahamiyatni tortadi. Ushbu ko'rsatkichga qarama-qarshi qutb sifatida ta'riflanadigan o'z-o'zini qabul qilmaslik borasida xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 142,99 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 212,86 ni ifodaladi (U=8876,5; p<0,01). Davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarda o'ziga bo'lgan talabning yuqori bo'lishi ba'zida o'zidan qoniqmaslik, ko'proq narsalarga qodirlikni "ich-ichidan" his qilishga undab, har bir bajarayotgan harakatidan nolishni faoliyat jarayonlarida shakllanib qolishiga yo'l ochadi. Ushbu jihatdan kollegial hamkorlikda nizolarni yoki manipulyatsion harakatlar sodir bo'lish xavfining ortishiga imkon beradi.


Boshqalarni qabul qilish o'zida shaxsning qirralarini, individualligini tan olish, u bilan munosabatlarga kirishganda xato va kamchiliklariga ko'z yumishni ham ifoda etadi. Mazkur jihatda xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 146,38 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 208,62 ni ifodaladi (U=9530; p<0,01). Davlat xizmatlarida ishlovchi ayollar o'zlaridan qaysidir jihatdan ustun bo'lganlarni qabul qiladi, tan oladi, muhitni, ish sharoitini boricha qabul qilishga intiladi. Munosabatlar dinamikasida doim o'zgaruvchan ko'rsatkichlar tomon intilib ish tutadi. Boshqalarni qabul qilmaslik yuqorida keltirilgan ta'rifga qarama-qarshi shaklni ifodalab, xato va kamchiliklar, qobiliyatlar hamda o'zgalarning qadriyatlariga nisbatan "ayovsiz" munosabatni yuzaga keltiradi. Mazkur

shkalada xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarda o'rtacha rang 177,63 ni, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda o'rtacha rang 169,45 ni tashkil qildi ($U=14161$; $p>0,05$). Metodika natijalariga ko'ra ham xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarda boshqalarni qabul qilmaslikka intilish, o'z vazifasidan tashqari majburiyatlarni bajaraslikka urinish ulardagi jamoaga moslashib ketish indeksining pasayishiga yo'l ochishi mumkin ekan.

Emotsional komfort shkalasida ham ahamiyatli farqlar aniqlangan bo'lib ($U=11279$, $p<0,01$), davlat xizmatidagi ayollarda ko'proq ishidan qoniqish hosil qilish, erkinlik jihatdan ustunliklar bo'lishi ulardagi ish jarayoniga tez moslashish, yaxshi, keng ko'lamli munosabatlar o'rnatish motivlarining "kurtak" yoyishiga xizmat qilishi mumkinligi bilan ham e'tiborni tortadi. Emotsional discomfort ko'rsatichida esa ustunlik xususiy sektorda ishlovchi ayollarda kuzatildi ($U=12803,5$, $p<0,05$). Mazkur farqlarni ko'pincha

xususiy sektordagi ayollarda moddiy motiv baland bo'lishiga qaramasdan ularda ichki xotirjamlik, hissiy qulaylikning yetarli darajada namoyon bo'lmasligi kabi sabablar bilan bog'lashimiz mumkin.

Ichki nazorat ko'rsatkichida xususiy sektor vakillarida ham ustunliklar mavjud bo'lib, o'zini ichki boshqarish, faoliyat samaradorligiga erishishga harakat qilishda qat'iyatlikni namoyon qilish biroq regulyativ-kompensatorlik ko'rinishida bo'lishi aniqlandi ($U=11127,5$, $p<0,01$). Davlat xizmatlarida faoliyat yuritishni boshlagan ayollarda esa holat aksincha bo'lib, ichki nazorat ularda muvaffaqiyatli karyera qilishda to'siqlarga duchor bo'lishga undashi mumkinligi bilan e'tiborni tortadi. Ya'ni o'z qobig'iga o'zi o'ralib olishlik, haddan tashqari ichki resurslarni sarflamasdan rigid tipda turishlik ularda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining kuchayib siklik ko'rinishida aks etishiga ko'maklashar ekan.



1-rasm. Moslashish ko'rsatkichining namoyon bo'lishidagi farqlar

Tashqi nazorat ko'rsatkichi jihatidan ham ustunliklar xususiy sektorda faoliyat olib boruvchi ayollarning moslashish komponentlarida yaqqol namoyon bo'ldi ($U=8364,5$, $p<0,01$). Ushbu farqlarni biz ko'pincha "yemoqning qusmog'i bor" maqoliga monand ravishda xususiy faoliyatda ishlovchi shaxslarda har bir ish xatti-harakatining tubdan nazorat qilishini, ish samaradorligi doim tashqi ta'sirlar hamohangligida birga kechishi bilan izohlashimiz mumkin. Shuningdek, davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda moslashish komponenti sifatida tashqi nazoratning faoliyatda ustuvorlik kasb etmasligi ko'pincha, bir maromda ishlash orqali yuksalish effektini inqirozlarisiz boshdan kechirish kafolati sifatida qarashlar stigmatik tarzda rivojlanayotganligi bilan tushuntirishimiz mumkin.

Boshqarish ko'rsatkichida ikkila guruh vakillarida ham sezilarni tafovutlar kuzatilmadi ($U=13842,5$, $p>0,05$). Ma'lum bo'ladiki, tashkilot boshqaruvining shaklidan qat'iy nazar ayollarda moslashish darajasiga ularni boshqarish bir xil ritmda ta'sir ko'rsatar ekan. Boshqarishni biz ko'pincha shaxsning o'z his-tuyg'ularini, xohish hamda ehtiyojlarini ongli ravishda regulyatsiya qilishini tushunamiz. Bunda ayollarda ish jarayonida yuzaga keluvchi o'nqir-cho'nqir vaziyatlarga bir xil rekasiya bildirib, o'zini nizoli vaziyatlardan "tiyib" turish mexanizmi deyarli bir xil shaklda ishlaydi. Boshqarilish ko'rsatkichida esa ustunlik xususiy sektor vakillarida qayd etildi ($U=11828,5$, $p<0,01$). Moslashish jarayonida ularga yo'l-yo'riqning ko'rsatilishi, yangi sharoitlar bilan tanishtirish kabi holatlar ayollarda ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish, jamoa bilan til topishib ketish uchun muhimlik darajasi yuqori bo'lganligi sababidan ham ko'rsatmaviy xarakter stimulyativ regulyatsiya shaklida yuzaga chiqishi ma'lum bo'ladi.

Eskapizmni muammo yoki shaxsning o'zi uchun ko'ngilsiz holatdan qochishi sifatida baholar ekanmiz, mazkur ko'rsatkichda ishonchli farqlar aniqlanmaganini guvohi bo'lishimiz mumkin ($U=13667$, $p>0,05$). Bu jihat esa bizda ayollarning ish faoliyatida tashkilotning turidan qat'iy nazar

ko'ngilsiz vaziyatlarga tushib qolmaslik, o'zini avaylagan holda ehtiyotkorlik bilan muammolarga munosabat bildirish, ekstremal vaziyatlardan ogoh bo'lib turish kabi holatlar deyarli bir xil ko'rinishda reaksiya bildiradi, degan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqotdan o'rin olgan navbatdagi tahlil korxonada xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini anqilashga qarajilgan bo'lib, mavjud ko'rsatkichlarning aksariyatida ishonchli farqlar qayd etilmadi. Xususan, guruhga munosabat ($U=13433,5$, $p>0,05$), xodimlardagi munosabatlar ($U=13153$, $p>0,05$), o'z pozitsiyasidan qoniqish ($U=14736$, $p>0,05$), mehnatga munosabat ($U=13600$, $p>0,05$), mehnat sharoitlariga munosabat ($U=14369,5$, $p>0,05$), kichik guruhga munosabat ($U=13788$, $p>0,05$), ishda o'zidan qoniqish ($U=13486$, $p>0,05$), rahbarga munosabat ($U=14788,5$, $p>0,05$) hamda yolg'on shkalasi ($U=14312,5$, $p>0,05$). Guruhga, xodimlarga munosabat hamda o'z pozitsiyasini saqlash kabi moslashish elementlarida davlat xizmatida ish faoliyatini boshlagan ayollar yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Bu esa, bizda davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarning ish jarayoniga kirishib ketishlarida o'zlarining guruh hamda unda faoliyat olib boruvchi xodimlar bilan munosabatlar va o'z egallab turgan o'rinlaridan qoniqish hosil qilish ehtiyojlari ijtimoiy moslashishga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi indikativ belgilar bo'lishi haqida xulosalarni vujudga keltiradi.

Xulosa va takliflar. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuv jarayonini tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan o'rganishning asosiy natijalari, bir tomondan, psixik jarayonlar va ruhiy holatlar o'rtasidagi murakkab dialektik aloqani aniqlash, ikkinchi tomondan, faoliyat samaradorligi va shaxsiy xususiyatlar omilini inobatga olishni taqozo qiladi.

Xususiy tashkilotda ishlovchi ayollar oson moslashish, jamoaga tez kirishib ketish uchun ham ba'zida yolg'on ishlatib turishar ekan. Ayollarning yolg'on ishlatishlari ko'pincha mulozamat, hamkasbning "ko'ngliga tegmaslik" shaklida yuzaga chiqishi bilan xarakterlidir.

Ayollarning ish faoliyatida tashkilotning turidan qat'iy nazar ko'ngilsiz vaziyatlarga tushib qolmaslik, o'zini avaylagan holda ehtiyotkorlik bilan muammolarga munosabat bildirish, ekstremal vaziyatlardan ogoh bo'lib turish kabi holatlar deyarli bir xil ko'rinishda reaksiya bildiradi.

Rahbarga bo'lgan munosabatning nostabil tus olishi ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xodimda negativ

immunitet va ustnaovkani ishga nisbatan shakllanishiga turtki bo'ladi. Ishda o'zidan qoniqish hissini hosil qilish orqali ayollar martabaga nisbatan ishonchni orttiradi va ko'proq o'z pozitsiyasini mustahkamlab borish uchun «jon-jahdi» bilan harakat qilishni real anglay boshlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности //Вестник СПбГУ. Сер. Экономика, философии, психологии, права. 2005. № 3. С. 74-79.
2. Психология менеджмента / Под ред. Г. С. Никифорова. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2007.
3. Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. № 1. С. 83-88.
4. Lay C.H., Edwards J.M., Parker James D.A., Endler N.S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an examination period // Eur. J. Pers. 2009. №3.
5. Rogers C.R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W. G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003
6. Абульханова-Славская К.А. Личностные типы мышления личности // Когнитивная психология. М.: Наука, 2006. С. 154-172.
7. Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. М.: Изд-во МГУ, 2014. С. 111- 126.
8. Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. — 2007. — №31.



UDK:314.5.062

Jaxongir MIRZASOLIYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mjahongir@mail.ru

ISFT Xalqaro instituti dotsenti, f.f.d. U.Abdusamatov taqrizi asosida

VIEWS OF OUR PAST ANCESTORS ON FAMILY AND MARRIAGE ISSUES

Annotation

In the article, the author highlighted the interference of other people in the stability of modern families, the importance of grandparents, and various socio-economic factors that affect the stability of the family. Concepts such as big family, small family, complex family, nuclear family are analyzed in detail in the article, and the many thousand-year-old historical views of our ancestors dedicated to the strength of the family, socio-economic life, culture, spirituality and values of families for the peace of the state are analyzed in the article.

Key words: Big family, nuclear family, marginality, third party intervention, Intergenerational relations, economic saturation, Avicenna, Globalization, national identity.

ВЗГЛЯДЫ НАШИХ ПРОШЛЫХ ПРЕДКОВ НА ВОПРОСЫ СЕМЬИ И БРАКА

Аннотация

В статье автор выделил вмешательство других людей в стабильность современной семьи, значение бабушек и дедушек, а также различные социально-экономические факторы, влияющие на стабильность семьи. В статье подробно анализируются такие понятия, как большая семья, малая семья, сложная семья, нуклеарная семья, а также многотысячелетние исторические воззрения наших предков, посвященные прочности семьи, социально-экономической жизни, культуры. В статье анализируются духовность и ценности семьи для мира государства.

Ключевые слова: Большая семья, нуклеарная семья, маргинальность, вмешательство третьей стороны, Отношения между поколениями, экономическое насыщение, Авиценна, Глобализация, национальная идентичность.

OILA VA NIKOH MASALALARIGA O'TMISH AJDODLARIMIZNING QARASHLARI

Annotatsiya

Maqolada muallif zamonaviy oilalar mustahkamligida boshqa shaxslarning aralashuvi, bobo va buvilarning ahamiyati hamda oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy iqtisodiy omillarni yoritib bergan. Maqolada katta oila, kichik oila, murakkab oila, nuklear oila kabi tushunchalar batafsil to'xtalib tahlil etilgan va maqolada oila mustahkamligiga bag'ishlangan ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixiy qarashlari, davlat tinchligi uchun oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Katta oila, nuklear oila, marginallik, uchinchi shaxs aralashuvi, Avlodlari munosabatlar, iqtisodiy to'kinlik, Avisena, Globallashuv, milliy xoslik.

Kirish. Dunyo yaralibdiki, o'tmishda yashab o'tgan allomalar, donishmandlar, olimlar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovuslar oila va nikoh masalalariga e'tibor qaratib kelgan bo'lsa, buyuk podshohlar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalar tomonidan millatimizning milliy qadriyatlariga tayangan holda harbiy yurushlarda askarlarning oilalariga g'amxo'rlik qilish va ularning turmush sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratib, o'z asarlarida ko'plab mazmunli fikrlarni qoldirib ketganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarida o'z ta'sirini qoldirgan zardushtiylik dinida ham jamiyatning ilk kurtagi bo'lmish oila munosabatlariga katta ahamiyat qaratilgan. Xususan, "Avesto"da aka-singil o'rtasidagi mehr-oqibat, akalik mas'uliyati haqida gapirilib, shunday deyiladi: "Don ekilgan bug'doyzorni bosib o'tish faqat bir kishi uchun -singlisini ko'rgani borayotgan aka uchun kechiriladi" [10]. Keltirib o'tilgan misollardan ko'rinib turibdiki, xalqimizda qadim-qadimdan oilada aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi mehr-oqibat, ezgu munosabatlar yuksak qadriyat sanalgan.

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo xududlariga Islom dinini kirib kelishi natijasida, sharq allomalarining axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur'oni sharif suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar tashkil qila boshlagan va oila munosabatlarida ham bu katta ahamiyatga ega bo'lgan.

XI asrning 82-83-yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra uni bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi [9].

Ey farzand, bilg'ilkim, aql yuzasidin farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga kelturmag'il, bilg'ilki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadurlar. Har farzandki, oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdin xoli bo'lmag'usidur. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorliqda ham ish bo'lg'ay va ham farmon bo'lg'ay. Ota-onaning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoni senga yaxshilik o'rgatmoqdur. Ey farzand, shul vajdin ota-onangni sag'al ham ranjitmag'il. Ma'lumki "Qobusnoma" tarbiya borasida juda nodir asarlardan hisoblanadi. Undagi fikrlar, ko'rsatmalar ota-ona, farzandlar uchun, ayniqsa kelajakda oila

quradigan o'smirlar uchun muhim dastur vazifasini bajarishi mumkin.

Shu boisdan ham, uzoq o'tmishdan xalqimiz ota-ona va farzand munosabatlaridan keyingi o'rinda, aka-ukalik va opa-singillik munosabatlariga alohida e'tibor berib kelgan. Oilada farzandlar o'rtasida iliq munosabatlar bo'lishi va saqlanib qolishi uchun ajdodlarimiz yozma va og'zaki ijod namunalari ham keng foydalangan. Jumladan, "Onangni kaftingda tutsang, singlingni boshingda tut", "Ota -xazina, aka-uka tayanch", "Besh qo'lim pastu baland, beshovi asalu qand", "Og'a-ini totuv bo'lsa, ot ko'p, opa-singil totuv bo'lsa osh ko'p", "Og'a-ini arazli bo'lsa ham, g'arazli bo'lmas" kabi maqollar qondoshlikning inson xayotidagi o'rnini ko'rsatish bilan bir qatorda, farzandlarni o'zaro ahillikka, hamkorlikka, birodarlikka, mexr-oqibatli bo'lishga chorlagan. Zero, insoniy g'oyalar ruhida tarbiyalangan farzand nafaqat oilasining tinchligi va barqarorligi, balki butun jamiyat saodati uchun ham kurashuvchi bo'ladi [8].

Buyuk olim Abu Nasr Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Mantiqqa kirish", "Fozil shaxar odamlarining qarashlari", "Aql to'g'risida", "Urush va tinch turmush haqida kitob" kabi 160 dan ortiq mazmunli asarlarida oiladagi shaxslararo munosabatlarga alohida e'tibor qaratgan.

Abu Nasr Forobiyning, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayrligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru oqibatlari esa shu oiladagi insonlarning baxtini tashkil qiladi degan fikrlari bejizga emas. Har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular farzandlarda ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligini ta'kidlar ekan, Abu Nasr Forobiy er-xotinga ota-ona sifatida alohida talablar qo'yilishiga e'tiborni qaratadi [7]. Bu alloma asarlarida keltirilgan qimmatli fikrlar hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlaridan yana biri buyuk tafakkur egasi, g'arbda "Avisenna" nomi ila keng shuxrat qozongan olim - Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar masalalariga oid qarashlari ham o'ziga hosligi bilan farqlanib turadi. Abu Ali Ibn Sinoning asarlari mazmun jihatdan Yevropada o'rta asrlarda, Sharqda esa hozirgacha chuqur iz qoldirgan. Ibn Sino o'rta asrlarda bashariyat erishgan komil inson namunasi edi. Uning oilaga taalluqli fikrlari alohida o'rin tutadi. Ibn Sino er-xotin munosabatlarining turli tomonlarini yoritir ekan, oilada ota va onaning o'zaro rollar taqsimoti masalasiga ham alohida e'tibor qaratganligining guvohi bo'lamiz. Mutaffakir olim birinchi bo'lib, oila boshlig'i oldiga bir qator talablarni qo'yan. "Oila boshlig'i, - deb yozadi u, - ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat oilani, balki qo'shnilariga, mahalla-ko'yg'a ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, ularning birlamchi vazifasidir". Ota-onaning shaxsiy ibratini farzand tarbiyasi uchun alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlar ekan, ibn Sino ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lish kerakligini ta'kidlaydi, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim", - deb yozadi [1]. Ahloqiy tarbiyada alloma oilaning alohida o'rnini borligini ta'kidlaydi. Uning Odob Ul Manzil "Tadbiri manzil" [11] asarida oila va oilaviy munosabatlar masalasi alohida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Uning "Kitob al-qonun fit-tib" (Tib qonunlari kitobi), "Donishnoma"(Bilim kitobi), "Risolai ishq"(Axloq haqidagi risola), "Uy xo'jaligi", "Axd

risolasi" kabi bir qator asarlarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlariga doir qimmatli mulohazalar ham keltirib o'tilgan. "Oilada farzandlar axloqining shakllanishiga, - deydi ibn Sino, er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati, bir-birini xurmat qilishlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi" [6]. Ibn Sino onalarga bola tarbiyasini turli sharoitda ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish haqida maslahatlar berib, shu bilan birga u otalarning ham burch va vazifalarini belgilab beradi. Ibn Sinoning fikricha, erkak kishi oilaning boshlig'i bo'lgani uchun, u oilaning eng zarur talablarini bajarishi lozim, nimaiki va'da qilgan bo'lsa, o'z va'dasi ustidan chiqishi shart. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, hamma vaqt bolaning istagan narsasini muhayyo qilishga, istamaganini uzoqlatishga tayyor turish kerak. Maqsadga erishish uchun o'rni bilan bolalarni maqtash, joiz topilsa jazolash ham kerakligini ko'rsatib o'tgan.

Yuqoridagi fikrlardan bilish mumkinki Beruniy oila mustahkamligini ta'minlashda va bolalarni tarbiyalashda insonning turmushiga hos hulq-odob qoidalari asosiy omillardan biri ekanligiga e'tibor qaratganini ko'rishimiz mumkin.

Oiladagi turmush madaniyati sevgi muhabbat va axloq to'g'risidagi fikrlarni Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asarida ko'rish mumkin [5].

M.Sulaymonov Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asarini taxlil qilib, o'z ilmiy maqolasida shunday yozadi: Navoiy o'z ijodida individual tarbiyaning ijtimoiy asoslari hamda ularning inson ruhiy olamidagi ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilishni emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, individual hislati orqali ko'zga tashlanadigan belgilarni badiiy umumlashtiradi. Shu bois shaxs xarakterining tadjri shaxsning aktiv faoliyati jarayonida kuzatiladigan hatti-harakatlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Eng muhimi Navoiy tomonidan badiiy tasvirga olingan mansabdor shaxslar faoliyatidagi salbiy illatlar, xarakter-xususiyatlar adekvat(mos) asosli bo'lib, bu illatlar har qanday davrda va jamiyatda kuzatiladi. Zero, bu kabi xarakterning tarkib topishi muayyan psixologik qonuniyatlar ta'sirida yuzaga keladi. Ana shu nuqtai nazardan qaralganda, Navoiy merosi nafaqat badiiy jihatdan, balki psixologik, kognitologik jihatdan ham tadqiq etilmog'i lozim Muallif insonning psixologik xususiyatlari uni ishdagi va oiladagi o'rni ham belgilashga asos bo'lishiga urg'u berib o'tgan.

Tahlil va natijalar. Milliy ma'naviyatimiz dahosi, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy asarlarida oila va undagi shaxslararo munosabatlar haqidagi fikrlarining umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan muhim jihatlardan biri farzandlar tomonidan ota-onalarni xurmat hilishlari haqidagi masaladir. U ota-ona xizmatini bajo keltirish, ulardan birini ikkinchisidan ortiq - kam bilmaslik farzandlar uchun saodat keltirishini alohida ta'kidlab shunday deydi: "Tarbiyaning yana biri ota-onani xurmat kilish, buni bajarish farzand uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortik bo'lsa ham, kam deb bil [4].

Oilaviy munosabatlar va bu boradagi tizimda o'zining davlat boshqaruvi va qimmatli asarlari bilan tan olingan Zahiriddin Muhammad Boburning oilaga taalluqli fikrlari alohida o'rin tutadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hukmronligi va uning imperiyasidagi oilalar hayotini o'rganish boshqa tarixiy manbalar qatori, Bobur imperiyasidagi oilalar hayotini chuqur anglash imkonini beradi. Ijtimoiy tuzilma va iqtisodiyot Bobur imperiyasidagi jamiyatda asosan erkaklar oila boshlig'i bo'lib, oilalarini ta'minlash va himoya qilish uchun mas'ul bo'lsa, ayollar uy xo'jaligini yuritish va bolalarni tarbiyalash uchun mas'ul edilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nihoyatda nodirliqi, tili va uslubining jozibaliligi bilan o'rta asrlar O'rta Osiyo va Hindistonda yozilgan hamma tarixiy

asarlardan tubdan farq qiladi. Bobur tarixiy voqealarni bayon qilgan ekan, o'zidan ilgari o'tgan mualliflarning asarlariga befarq bo'lmagan. U hamma voqealarni o'zi ko'rgan, bilgan yoki o'z qulog'i bilan eshitgan misollar asosida, masalaga tanqidiy yondoshgan holda bayon etadi. Bu haqda Boburning o'zi shunday yozadi: "Bu bitilganlarning g'araz shikoyati emas, rost hikoyat, bitib turmen. Bu mastur bo'lg'onlardan maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqii bu edikim, tahrir etib turmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qilib turkim, har so'zining rosti bitilgay va har ishning bayoni voqini tahrir etilgay. Lojaram ota-og'adin har yaxshilik va yomonlik kim shoyi edi, tahrir qildim va qarindosh va begonadan har ayb va hunarkim bayoni voqi' edi, tahrir ayladim. O'qug'uvchi ma'zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o'tsun"[2].

"Boburnoma" asarida shunday misralar keltirib o'tilgan:

Otasi qilgan uchun taklife,

Qildi oning otiga ta'life.

Bobur ota sifatida bu asardagi ota tilidan farzandga aytilgan diniy-tasavvufiy o'g'itlarni o'z farzandlariga yetkazish uchun ushbu misrani keltirib o'tgan. Bobur - fidoyi ota. "Boburnoma" ma'lumotlaridan biz Boburni o'z ukalari, opa-singillariga gamxo'r, xola va bolalarining, tog'alarining, xullas, barcha urug'larining qadriga yetuvchi andishali inson sifatida tanimiz [3].

Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi xalq uning harbiy yurishlari va istilolari tufayli qattiq harbiylashtirilgan jamiyatni boshidan kechirgan. Barcha iqtisodiyot resurslar harbiy harakatlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan. Jaloliddin Manguberdi hukmronligida yashagan xalq yurt tinchligini himoya qilishda oila tinchligi bilan belgilanishini bilishgan.

Insoniyat tarixida eng katta imperiyalardan biri qariyb 4,4 mln kv km maydonni tashkil etgan Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki bunyotgor sifatida ham tarixda iz qoldirgan. Amir Temur zabt etgan shaxarlarda bunyodkorlikka qo'l urganligi haqida ayrim manbalarda yozilgan. Bu fikrlarni uning o'zi "qay bir joyda bir g'isht oldirsam o'n g'isht qo'ydim. Bir daraxt kestirsam, o'rninga o'nta ko'chat ekirdim" deya ifodalagan

Temuriylar davlati, uning tashkil topishi masalalariga bag'ishlangan, chet ellarda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili ham bir qator olimlarimizning kitoblarida yoritilgan. "Temur tuzuklari" ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda.

Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo'llanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko'maklashmoqda. Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya ko'p va xilma-xil bo'lib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va g'oyat mashhurligidan dalolat beradi Amir Temur o'z imperiyasida oilalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qancha siyosatlarini amalga oshirdi. Uning asosiy tashabbuslaridan biri askarlar va amaldorlar orasida nikoh va oila barqarorligini ta'minlash edi.

Temur o'z askarlarini turmush qurishga va oila hayotiga o'rnatish uchun undagan, oila qurganlarga yer berish, soliqdan ozod qilish va boshqa qulayliklar kabi imtiyozlar bergan. Nikoh va oilaviy hayotni targ'ib qilish orqali Temur o'z hukmronligini qo'llab-quvvatlovchi barqaror va sadoqatli aholini yaratishga harakat qilgan.

Umuman olganda, Amir Temurning oilalarni mustahkamlash siyosati uning harbiy yurishlarini qo'llab-quvvatlovchi va hokimiyatini saqlab qolishga yordam beradigan barqaror va yaxlit jamiyat yaratishga qaratilgan. Uning usullari ba'zida qo'pol bo'lishi mumkin bo'lsada, ular oxir-oqibat uning fuqarolari o'rtasida ijtimoiy birdamlik va sadoqatni rivojlantirishga xizmat qilgan. Amir Temur askarlarining oilalari harbiy yurishlarida ko'p qiyinchilik va mashaqqatlarga duch kelgan. Askarlar safarda bo'lganlarida, ularning oilalari o'zlarini boqish uchun qolib ketishgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki oilaviy hayot, turmush, shu qadar murakkab jarayonki, uni biror bir maqola yoki Hukumat darajasidagi birgina jiddiy qaror bilan hal etib bo'lmaydi. Aks holda, o'tgan ming yillar davomida bu masala hal etilgan bo'lar edi. Oila muammolarining to'la-to'kis hal etib bo'lmashligining o'zi ham uni hali rivojlanishda, o'sishda ekanligidan dalolat beradi.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funksiyasi oiladagi tarbiya funksiyasidir. Buni o'tmishda yashab o'tgan allomalar, donishmandlar, olimlar va sarkardalar asarlarida ko'rib chiqdik. Ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning kelajak avlodga namuna sifatida yetkazishga javobgardir. Bu esa yurt tinchligi va kelajagi uchun muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Г.Ниязметова диссертация, "Ўзбек оилаларида эр-хотинлик муносабатлари динамикасининг ижтимоий-психологик хусусиятлари", Т:- 2010 й, 163 бб.
2. "Бобурнома", Тошкент, 1960 йил, 264-бет.
3. "Бобурнома" Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи Т:- 2008. 156.
4. Бобоев Х., Гофуров З. "Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти" Янги аср авлоди Т:2001. 278 бет. <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-mutafakkirlarining-oilada-farzandlar-talim-tarbiyasi-borasi-dagi-arashlari>.
5. Навоий Алишер. Махбуб-ул-қуллуб (Қалблар севгилиси) : Адабиёт ва санъат нашр, Т:- .1983. – 111 б.
6. Мунавваров А.К."Оила педагогикаси" Т:- 1994. 44бет.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T:- 2004. 160 b.
8. Ш.Дўстмухаммедова, И.Арабов, илмий мақолала, "Шарқ мутафаккирларининг оилада фарзандлар таълим-тарбияси борасидаги қарашлари", Т:- 2021й. <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-mutafakkirlarining-oilada-farzandlar-talim-tarbiyasi-borasi-dagi-arashlari>.
9. Долимов С., Долимов У., Муҳаммад Огаҳий "Қобуснома", Т:- 94- 3 б.
10. Хасанов С."Хоразм маърифати-олам кўзгуси" Т.-1996, 47 бет.
11. Абу Али Ибн Сино, Тадбири манзил. Т.-: 1957. – 46 б.
12. Shixab ad-Din Muhammad ibn Axmad an-Nasavi. Sirat as-sultan Djalal ad-Din Mankburni: (Jizneopisanie sultana Djalal ad-Dina Mankburni). Kritich. tekst, per. s arab., predisl., komment., primech. i ukazateli Z. M. Buniyatova. M.: Izdatelskaya firma „Vostochnaya literatura“ RAN, 1996. 51s.



Kamola MURADKASIMOVA,
Uzbek State World Languages University Associate Professor
E-mail: kmuradkasimova@yahoo.com

based on review PhD, Assoc.professor B.Samatova

THE ASSESSMENT OF WRITING ABILITY: A REVIEW OF RESEARCH

Annotation

The following scientific article is based on the Action Research done among EFL teachers of Uzbek State World Languages University. The article is dedicated to the importance of giving feedback in writing classes, hence it is the most important guide for students to adapt and adjust their writing strategies. The research was carried out with the help of two data collection methods: questionnaire and rubric. The questionnaire was conducted with the aim to identify the level of assessment literacy of teachers. And, rubric was used to analyze the feedback given to students' writings. Both data helped to identify the level of giving assessment feedback. During the research experiment 68 EFL teachers and 50 students' writings were analyzed, and the results were provided in tables and charts.

Key words: Evaluating productive skills, washback, rubric, assessment literacy, constructive feedback, rater training.

ОЦЕНКА ПИСЬМЕННОГО НАВЫКА: ОБЗОР ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

Данная научная статья основана на практическом исследовании, проведенном среди преподавателей английского языка как иностранного (EFL) Узбекского государственного университета мировых языков. Статья посвящена важности предоставления обратной связи на занятиях по письму, поэтому она является важнейшим руководством для студентов по адаптации и корректировке своих стратегий письма. Исследование проводилось с помощью двух методов сбора данных: анкетирования и рубрик. Анкетирование проводилось с целью выявления уровня оценочной грамотности преподавателей. Рубрики использовались для анализа обратной связи, предоставленной на сочинения студентов. Оба типа данных помогли выявить уровень предоставления оценочной обратной связи. В ходе исследовательского эксперимента были проанализированы сочинения 68 преподавателей английского языка как иностранного (EFL) и 50 студентов, а результаты были представлены в таблицах и диаграммах.

Ключевые слова: Оценка продуктивных навыков, обратная связь, рубрика, оценочная компетенция, конструктивная обратная связь, обучение оценщиков.

YOZUV MALAKASINI BAHOLASH: ILMIY TADQIQOT SHARHI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan amaliy tadqiqot asosida yaratilgan. Maqolada yozuv malakasini baholashda qayta aloqani taqdim etish muhimligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, u o'quvchilar uchun yozish strategiyalarini moslashtirish va o'zgartirish uchun muhim qo'llanma bo'ladi. Tadqiqot ikkita tadqiqot metodlari yordamida o'tkazildi: anketalar (so'rovnomalar) va rubrikalar. So'rovnoma o'qituvchilarning baholash savodxonligi darajasini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Rubrikalar yordamida talabalarining insholari bo'yicha berilgan fikr-mulohazalar tahlil qilindi. Ikkala turdagi ma'lumotlar taqdim etilgan baholovchi fikr-mulohazalar darajasini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot eksperimentida 68 nafar ingliz tili chet tili (EFL) o'qituvchisi va 50 nafar talabani yozgan ishlari tahlil qilindi va natijalar jadval va diagrammalarda taqdim etildi.

Kalit so'zlar: Produktiv ko'nikmalarini baholash, qayta ishlash, rubrikalar, baholash kompetensiyasi, konstruktiv fikr-mulohazalar, baholovchi treningi.

Introduction. During the years of my professional development I have observed learners in my own classes and some of my colleagues' and noticed that learners are frustrated, nervous, bored or non-motivated during the examination. However, the main aim of the assessment is not to frighten students, but see their achievements. Some learners afraid of taking tests, and for some teachers it is a hard job to design them. Given that teachers begin using a new content, why not to start applying new assessment, because the aim of assessment is to see progressing evolution, and each educational stage gives a lot of possibilities to evaluate students' understanding and progress.

Starting with this period many changes have been undertaken in the field of education. New methods of teaching, new pedagogical technologies, new approaches began to be implemented. All of them were focused on developing learners' skills, so that they will be able to apply

these skills in real life situations. Also, communicative language teaching, where techniques aimed to be authentic, that means all the texts and tasks are authentic and contextualized started to be implemented. One of the biggest challenges, while improving the quality of education, is training teachers' assessment literacy, especially in evaluating productive skills (writing and speaking). In the following article I am going to present some problems that occur in assessing writing. It is obvious that, assessing productive skills always considered to be subjective; as there are some factors that may influence the process of assessment – internal and external. Studies in language testing have proved that a well-developed assessment tools and constructive feedback may impact positive washback on both teaching and learning.

Literature review. Considerations in scoring. According to The Cambridge Guide to Second Language Assessment (2012), the most important considerations in

scoring include (a) designing or selecting a rating scale or scoring rubric and (b) selecting and training people who will be doing rating. Scoring as an assessment can be either holistic or analytic (sometimes called multi-trait). That is raters can either give a single score based on their overall impression of a piece of writing or can evaluate different aspects of performance separately – for example, by giving one score for a content, another for an organization, and still another for the language use. A single score is usually preferred in situations where a large number of tests need to be scored in a short time, such as in placement testing. But, for classroom purposes, it is often more informative to give students separate scores for different aspects of writing such as content, organization, and use of language. Christine Coombe [et.al] (2012) states that for classroom assessment, of course, an instructor will ordinarily be a person who evaluates students writing, but in many language programs, such as intensive English programs where there are either several sections of the same course or levels that students need to pass through, it makes sense for tests to be scored by people other than the classroom teachers. Whoever scores the assessment must be careful to be as consistent as possible in rating, so that the rating is fair to all students. It is a common practice in large-scale assessments to have written responses scored by at least two trained raters, using a third rater if the first two raters disagree by wide margin.

In order to improve classroom writing assessment, it is important to understand some fundamental issues. These issues include the nature of writing ability, whether and when to test writing in the classroom and what the alternatives are, the qualities of good tests in general, and what research tells us about the two key elements to any writing assessment: the task (what we ask students to do) and the scoring.

Language Assessment Literacy. The knowledge based on the language assessment makes reference to the body of theoretical and practical knowledge that language teachers require in relation to aspects such as the purpose of assessment, the appropriateness of the assessment tools being used, the testing conditions, the interpretation and implications of results, ect. In the following outline proposed by Brindley (2001), Inbar-Lourie (2008) emphasized aspects such as “the reasoning or rationale for assessment (why), the description of the trait to be assessed (what), and the assessment process (how)” as the assessment knowledge dimensions language teachers require. Other authors (Popham, 2009; Schafer, 1993; Stiggins, 1999) have also attempted to define what constitutes the knowledge base assessment for teachers across various areas including EFL education. Stiggins (1999) suggested a list of seven content requirements for competencies aimed at providing a comprehensive foundation in assessment practices. These include (a) connecting assessment to clear purposes, (b) clarifying achievement expectations, (c) applying proper assessment methods, (d) developing quality assessment exercise and scoring criteria, and sampling appropriately, (e) avoiding bias in assessment, (f) communicating effectively about students’ achievement, and (g) using assessment as an instructional intervention. Herrera, L. & Macias, D. (2015) stated that training within these seven competencies will undoubtedly bring significant benefits not only to our EFL teachers, in the sense that they will have a clear picture of what students may know (declarative knowledge) and what they can do (procedural knowledge), but also to their EFL students in the sense that they may be provided with more reliable assessment instruments, practices, and conditions.

The role of assessment tools. Teachers can vary the tools of assessment. Some can be in the form of quick checks or observations, like pop-quizzes; while others – be more formal like formative and summative assessments. The aim of

any evaluation is to see what and how students have learned, (what techniques do they use), and whether they can apply these knowledge in real situation or not.

Lyle F. Bachman and Adrian S. Palmer (2002) stated that a feedback can be obtained from test takers, test administrators, and test users during test administration. Test takers can provide a feedback on their perception of and attitudes toward the test and test tasks and on their performance. Feedback, whether written or spoken, is a good guide on how your work is progressing. The issue of the effectiveness of giving a feedback in developing writing is arguable among different teachers. Several scholars argued on this issue, for example, Lee (2017) described in her work that a feedback has a pivotal role to play in the writing classroom. Much of the existing literature has highlighted its limited impact on students’ learning. Whether it is a teacher feedback, self-/peer feedback or computer-mediated feedback, there is yet no conclusive evidence about its efficacy across different contexts. It is therefore not surprising that a feedback has remained one of the most vibrant research topics in writing, which provides the impetus for this special issue on feedback in writing. Also, Cristine McMartin-Miller (2014) mentions about error treatment. He states that the duration and the length of a provided feedback plays a great role in the development of students’ writing skills. I agree with Cristine McMartin that the most important keys in providing effective feedback are appropriate duration and length.

Aim. The aim of the current study is to interview University teachers (EFL) with the purpose of identifying the current practices and conditions of assessing writing. The main aim was to find out the way of assessing and providing a feedback, whether teachers are assessment literate and what obstacles are faced by teachers.

Methods. Research context and description of participants. The report of the research is based on 68 results received from teachers with the help of research methods like questionnaire (was conducted with each teacher face to face) and rubric (analyzing classes and piece of writing) held at the University of World Languages in Tashkent. The Uzbekistan State World Languages University is the main educational establishment in the country; it is the leading and basic university in developing and implementing reforms in teaching foreign languages. All new projects and methodology is trialed, piloted and started to be implemented here. So, I also decided to choose this context and run my experiment. The major aim of the research was to enable teachers to describe their assessment procedures, especially in assessing writing. The teachers involved in the research were both assistant and senior teachers, who had different years of working experience; also they were representatives of both genders males and females.

The collected data was aimed at covering the following:

- The level of assessment literacy of teachers
- The duration and length of giving a feedback
- Intervention procedure

In order to conduct the questionnaire I asked permission from the Faculty dean and teachers. I said that the process would be anonymous, and it is not for evaluating teachers’ knowledge, but for the further development of the current situation. After getting permission, I asked my questions from each teacher during their office hours. I thought, the information would be more reliable when it is gathered by interviewing each one, rather than asking to fill in the form.

For conducting the second data collection method I asked permission from teachers to observe their “writing” classes, and to analyze some students’ writings. As teachers apply process-oriented writing, I could observe the feedback

giving process during the lesson, but more informative results I took from the students' written work.

Data collection procedure

Data collection tools are useful in qualitative research, in my case a questionnaire for teachers and a rubric for analyzing the type of a feedback; let me elicit teachers' experience, viewpoints and attitudes towards a certain social concept.

The first data collection method was questionnaire (see Appendix I for more information). According to Popper (2004), questionnaires are practical and they provide an opportunity to collect a large amount of information from a large amount of people in a short period of time. Also, he states that questionnaires can be analyzed more "scientifically" and objectively than other forms of research. Given the above, I have chosen this method to collect overall information about the current situation and the views of teachers on assessment literacy. Questionnaire was a valuable tool in my research depending on specific objectives. Questionnaires provided access to "what is inside a person's head" and made it possible to measure what a person knows (knowledge or information), what a person likes or dislikes (values and preferences) and what a person thinks (attitudes and beliefs). The questionnaire was distributed to the EFL teachers. It was designed in the form of yes/no questions and the rating scale. Thus, it was easier for me to count the same answers and make analysis.

The second type of data collection method was feedback types tally (see Appendix II for more information). I was focused on the feedback given to writing, and I used this method by observing the class and asking a piece of writing and analyzed the type of a feedback with the help of a rubric. As noted in ("Grading and Performance Rubrics", n.d) more formatively, rubrics can help the

researcher to get a clearer picture of the strengths and weaknesses of their class. By recording the component scores and tallying up the number of participants scoring below an acceptable level on each component, researchers can identify those skills or concepts that need more instructional time and effort. I have found this method useful in my research to identify whether teachers were constructive, timely and provide a meaningful feedback, as a feedback is valuable when it is received, understood and acted on. It is not a secret that, the interaction with a clear feedback brings learners to understanding on how to develop their learning. So, the aim of my research was to help my colleagues with recommendations on giving a clear feedback.

Data analysis procedure. After obtaining data with the help of two data collection methods, I started to work on the most important part of my research; analyzing collected data. In order to make easier my calculation, I designed tools in the form of yes/no, and ranking: no open ended questions. The answers of each respondent were counted and presented in the results section by ranking them, so, it was easier to see the number of respondents. Also, some results were presented in percentages, to make it easier to view the whole scope. Calculations in percentages were done based on the following formula:

$$Rp = \frac{Nr \text{ (number of respondents)}}{Np \text{ (Total number of participants)}}$$

Where,

Rp= result in percentage

Nr= number of respondents

Np= total number of participants

Findings and discussion

The results of the data collection, provided the following information. The data presented below demonstrates the results of each question in the questionnaire and rubric.

Responses	Number of respondents (rank)
Yes	56 (1)
No	12 (2)

Figure 1: Participation in language assessment programs (N=68)

Responses	Number of respondents (rank)
Assessing reading, writing, speaking and listening	18 (1)
How to make tests based on CEFR for EFL learners	15 (2)
Evaluating and criticizing language tests	6 (3=)
Rubric development	6 (3=)
Giving feedback	5 (5)
Methodology	4 (6)
Validity, reliability practicality of test designing	1 (7=)
Large scale testing	1 (7=)

Figure 2: Topics that course emphasized (N=56)

Responses	Design of a language assessment for writing	Rubric development	Giving a constructive feedback	Rater training
	Number of respondents (rank)			
Very dissatisfied	6(3)	3(3=)		5(4)
Dissatisfied		3 (3=)	11 (3)	18 (1=)
Neutral	25 (1=)	28 (1)	28 (1)	18 (1=)
Satisfied	25 (1=)	20 (2)	17 (2)	15 (3)
Very satisfied				
No response	2 (5)			

Figure 3: Assessment literacy

The obtained data demonstrates that more than .82 % of EFL teachers have attended the course on language assessment as a part of their teacher training program. However, .18% of interviewed teachers did not participate in such programs, which might cause some challenges in their professional work, especially in language testing and assessment. As was mentioned by Stiggins (1999), teachers spend 50% of their professional time in organizing assessment and testing procedure. This proves that, teachers are responsible not only for organizing lessons and teaching effectively, but also assessing students' progress. Thus, teaching and assessment should go parallel, by spending equal amount of time and effort. The research results showed that

there were some gaps in language assessment, especially in assessment of productive skills. The focus of my work was to research the level of assessing writing, and role of constructive feedback to increase students' motivation. From the Figure 3 we may see that the data gathered for "designing language assessment for writing" demonstrates the equal number of respondents with neutral and satisfied answers, which shows that teachers are mainly satisfied but still not very satisfied, they are not strongly confident in their abilities that means there is stimuli and motivation for development. Based on the data presented for "giving constructive feedback", I may conclude that .19% of teachers were dissatisfied with the way they provide it. So that means students suffer from this, they

did not obtain enough comments for further development. The most important information that caused the problems above was "rater training", and we see that the data demonstrates

absence of very satisfied teachers, which means that rater training courses or programs need to be organized. (Figure 3)




Figure 4: Efficiency of a feedback

DEVELOPMENT OF READING AND WRITING SKILLS OF 10-11 CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY

Annotation

This article describes an effective method of developing reading and writing skills in 10-11th grade students. The use of innovative technologies, strategies and methods in order to increase the independent learning potential of students at the secondary education stage was analyzed. Including. Gamification. Methods of motivating students to read and write, develop logical thinking, and creative approaches based on poster technology and integrated reading-writing tasks are discussed in detail. Also, the role of innovative evaluation technologies in evaluating and monitoring students' activities within the subject is reflected in the article.

Key words: Reading skills, writing skills, innovative technologies, Gamification, Poster technology, integrated methodology, independent education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 10-11-sinf o'quvchilari uchun bu ko'nikmalar nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida ham zarurdir. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning o'qish va yozishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil o'rganish malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan o'qish va yozuv metodlari hamda zamonaviy didaktik yondashuvlar o'quvchilarning ko'nikmalarini chuqurlashtirishda katta samaradorlik ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolada o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining mazmuni, innovatsion yondashuvlar, jumladan, Gamifikatsiya va Poster

texnologiyasining qo'llanilishi, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida foydalanish usullari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar va metodik ishlanmalar ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni samarali shakllantirishning turli yondashuvlarini o'rganishga asoslangan. Xususan, Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi o'quvchilarning yozuv va o'qish jarayonida mulqot, madaniyat va ijtimoiy aloqalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'quvchilar mustaqil o'qish va yozishni boshqalardan o'rganish orqali rivojlanadi va bilimlarni amaliyotda qo'llaydi (Vygotskiy, 1978).

Kognitiv til nazariyasi ham o'qish va yozuvning rivojlanishida asosiy tamoyillarni yoritib beradi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchilar o'qish va yozishni kognitiv jarayon sifatida anglashadi, ya'ni bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun miyaning faol ishlashi va aqliy strategiyalar qo'llanadi (Piaget, 1964). Shuningdek, bu

nazariya o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini chuqurlashtirishga katta urg'u beradi, bu esa yozuv va o'qish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda yordam beradi.

Integratsiyalashgan o'qish va yozuv metodikasi esa o'quvchilarning fikrlash va o'rganish jarayonlarini yaxlit tarzda shakllantirishga asoslanadi. Ushbu yondashuv doirasida yozish va o'qish o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, matnlarni tahlil qilish va talqin qilishga undaydi. Masalan, Shanahan va Lomax (1986) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda integratsiyalashgan o'qish-yozuv metodlari yordamida o'quvchilarning umumiy bilim olish jarayonlari sezilarli darajada yaxshilanishi ko'rsatib berilgan.

Innovatsion texnologiyalarning ta'limda joriy etilishi, xususan, Gamifikatsiya va Poster texnologiyasi o'quvchilarning o'qish va yozishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga katta hissa qo'shadi. Gamifikatsiya texnologiyasi ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilib, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi (Deterding et al., 2011). Poster texnologiyasi esa vizual o'qitish usuli sifatida o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda samarali ekanini ko'rsatadi. Bu texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Shunday qilib, o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda katta samara beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot 10-11-sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan metodlarning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy metodologik asoslari eksperimental va nazorat guruhlariga orqali o'tkazilgan tahlilga asoslangan. Ushbu yondashuv natijalarini taqqoslash imkonini berdi va har ikkala guruhda ko'nikmalar rivoji bo'yicha o'zgarishlarni kuzatishga yordam berdi.

Eksperimental guruhda Gamifikatsiya va Poster texnologiyalari kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari joriy etildi. Bu guruh o'quvchilari matnlar bilan ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrlashga undovchi interaktiv topshiriqlarni bajardilar. Nazorat guruhi esa an'anaviy ta'lim metodlari yordamida o'qitildi, bunda o'quvchilarga ko'proq passiv yondashuv orqali ma'lumot berildi.

Tadqiqot metodlaridan biri sifatida kuzatish qo'llanildi, bu orqali o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishi, topshiriqlarga bo'lgan qiziqishi, ijodiy fikrlashi va ta'lim jarayonidagi umumiy faolligi baholandi. Kuzatish davomida, har ikki guruhdagi o'quvchilarning o'qish va yozuv bo'yicha faoliyati tahlil qilindi va o'qituvchilar tomonidan qayd etildi.

So'rovnoma va intervyular orqali o'quvchilarning o'qish va yozish bo'yicha qiziqishi, innovatsion texnologiyalarga bo'lgan munosabati va umumiy motivatsiyasi o'rganildi. So'rovnoma va intervyular tadqiqotning sifat jihatlarini chuqurroq tahlil qilishga yordam berdi. Bu metod orqali o'quvchilarning ta'lim uslubiga bo'lgan munosabati, innovatsion metodlardan foydalanishdagi qiyinchiliklari va yutuqlari aniqlashtirildi.

O'quvchilarning o'qish va yozuv bo'yicha bilimlarini baholash uchun test topshiriqlari tuzildi. Testlar tadqiqot boshida va oxirida har ikki guruhda o'tkazildi, bu esa tadqiqotning obyektiv natijalarini taqqoslash imkonini berdi. Test natijalari eksperimental guruhda o'quvchilarning o'qish va yozuv ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatilganligini ko'rsatdi. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.

Natijalarni baholash uchun statistik tahlil qo'llanildi. Bu tahlil orqali eksperimental va nazorat guruhlarining

natijalari o'zaro solishtirildi va foizlar orqali ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. O'quvchilarning test natijalari, yozma topshiriqlar va dars davomida bajarilgan vazifalarini tahlil qilish natijasida innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligi an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan ta'lim jarayonining samaradorligini o'rganish imkonini berdi va eksperimental guruhda o'quvchilarning o'qish va yozuv ko'nikmalari yaxshilanganini ko'rsatdi. Bu natijalar ta'lim jarayonida interaktiv va amaliy yondashuvlardan foydalanishning ahamiyatini tasdiqlaydi va kelajakda ta'lim sifatini oshirish uchun innovatsion metodlarni keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Natija va tahlillar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan metodikalar qo'llangan eksperimental guruh o'quvchilarida o'qish va yozuv ko'nikmalari an'anaviy ta'lim metodlari asosida o'qigan guruh o'quvchilariga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi. Gamifikatsiya va Poster metodologiyasining ta'lim jarayoniga kiritilishi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirdi, bu esa ularning matni tahlil qilish va ijodiy yozish faoliyatlarida faol ishtirok etishiga olib keldi.

Eksperimental guruhda o'quvchilarning yozma topshiriqlardagi ijodiy yondashuvlari, matnlarni mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari, o'z fikrini aniq va ravon ifoda etish malakalari ortdi. Masalan, esse va insholar yozishda eksperimental guruh o'quvchilari tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini samarali qo'llab, mavzuni chuqurroq o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, an'anaviy guruh o'quvchilari o'z asarlarida mavzuga yuzaki yondashishga moyil bo'lishgan.

Shuningdek, o'qish ko'nikmalarida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Gamifikatsiya elementlari orqali o'quvchilarning o'qish jarayonidagi faolligi va ishtiroki kuchaydi. O'yin elementlari, muammoli vaziyatlar va bahslashish topshiriqlari orqali o'quvchilar matn bilan ishlashda chuqurroq fikrlashga, matni tahlil qilishga va ma'no izlashga undaldi. Bu o'z navbatida o'qish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari adabiyotlar tahlili bilan uyg'unlashgan holda innovatsion texnologiyalarning o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, matnlarni chuqur tahlil qilish, o'z fikrlarini ravon ifoda etish ko'nikmalari Gamifikatsiya va Poster texnologiyalari kabi interaktiv yondashuvlar yordamida tezroq shakllangan.

An'anaviy metodlarga tayanilgan guruhda esa o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi kamroq kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, bugungi ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning mustaqil o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar, xususan, Gamifikatsiya va Poster texnologiyasi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari 10-11-sinf o'quvchilarida o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligini tasdiqladi. Gamifikatsiya va Poster texnologiyalari kabi interaktiv metodlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini

o'shish, ularni matn bilan faol ishlashga undash, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, bu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish malakalarini ham shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

An'anaviy ta'lim metodlari bilan taqqoslaganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligini oshirishda

samaraliroq ekanligi aniqlandi. Natijalar o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki interaktiv va amaliy yondashuvlarni ham keng qo'llash zarurligini ko'rsatdi.

Kelajakda ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarning kengroq joriy etilishi o'quvchilarning o'qish va yozuv ko'nikmalarini yanada chuqurlashtiradi va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1964). Development and Learning. *Journal of Research in Science Teaching*, 2(3), 176-186.
3. Shanahan, T., & Lomax, R.G. (1986). An Analysis and Comparison of Theoretical Models of the Reading-Writing Relationship. *Journal of Educational Psychology*, 78(2), 116-123.
4. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification". In *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments* (pp. 9-15). ACM.
5. Gee, J.P. (2003). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. New York: Palgrave Macmillan.
6. Freeman, D. & Freeman, Y. (2004). *Essential Linguistics: What You Need to Know to Teach Reading, ESL, Spelling, Phonics, and Grammar*. Portsmouth, NH: Heinemann.
7. Brown, H.D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (3rd ed.). White Plains, NY: Pearson Education.
8. Tomlinson, C.A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. Alexandria, VA: ASCD.
9. Meyer, B.J.F., & Rice, G.E. (1984). The Structure of Texts*. In Pearson, P.D., Barr, R., Kamil, M.L., & Mosenthal, P. (Eds.), *Handbook of Reading Research* (pp. 319-351). New York: Longman.
10. Woolfolk, A. (2016). *Educational Psychology* (13th ed.). Boston: Pearson.



УДК: 321

Ozod NASIMOV,

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, falsafa fanlari doktori A.Q.Qodirov taqrizi asosida

THE MULTI-PARTY SYSTEM AS AN IMPORTANT INSTITUTIONAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Annotation

A multi-party system is a multifaceted political and civil society institution that represents the interests of civil society and the state, the compliance of the country's political structure with generally accepted democratic criteria, a mechanism for strengthening and improving the political system of society. This scientific article analyzes the place and role of multi-party systems and political parties in society. The history of parties, definitions of parties given to parties in the scientific literature, the creation of the legal basis for multi-partyism in Uzbekistan and its significance are discussed.

Key words: Political party, civil society, modernization, pluralism, democracy, function, structure, dualistic.

KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMI FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM INSTITUTSIONAL ASOSI SIFATIDA

Anotatsiya

Ko‘ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlarini ifoda etadigan ko‘p qirrali siyosiy va fuqarolik jamiyati instituti, mamlakat siyosiy tuzilmasining demokratik mezonlarga mos kelishi ko‘rsatkichlaridan biri, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlash va takomillashtirish mexanizmi hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada Ko‘ppartiyaviylik va siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o‘rni va roli tahlil qilinadi. Partiyalarning tarixi, ilmiy adabiyotlarda partiyalarga berilgan ta’riflar, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning huquqiy asoslarining yaratilishi va uning ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, modernizatsiya, plyuralizm, demokratiya, funktsiya, struktura, dualistik.

МНОГОПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА КАК ВАЖНАЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

Многопартийная система – многогранный политический и гражданско-общественный институт, представляющий интересы гражданского общества и государства, соответствия политического устройства страны общепринятым демократическим критериям, механизм укрепления и совершенствования политической системы общества. В данной научной статье анализируется место и роль многопартийности и политических партий в обществе. Обсуждаются история партий, определения партий, данные партиям в научной литературе, создание правовых основ многопартийности в Узбекистане и ее значение.

Ключевые слова: Политическая партия, гражданское общество, модернизация, плюрализм, демократия, функция, структура, дуалистический.

Kirish. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida ko‘ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizim muhim ahamiyatga ega. Ko‘ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlarini ifoda etadigan ko‘p qirrali siyosiy va fuqarolik jamiyati instituti, mamlakat siyosiy tuzilmasining demokratik meyorlarga mos kelishi ko‘rsatkichlaridan biri, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlash va takomillashtirish mexanizmidir.

Milliy va xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ko‘ppartiyaviylik tizimi, siyosiy partiyalar hamda fuqarolik institutlarining yetukligi va faolligi, fuqarolarning yuksak darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyati jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, ko‘ppartiyaviylik davlatning siyosiy tizimida ishtirok etadigan ikki va undan ortiq partiyalarning mavjudligi va ular o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashlar jarayoni hisoblanadi. Ayni shu tizimda jamiyat va davlat o‘rtasida ikki tomonni bog‘lovchi va fuqarolik jamiyatining eng muhim

institutlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiyalarning o‘rni o‘ziga xos hisoblanadi. Siyosiy partiyalar ko‘ppartiyaviy tizimning asosiy elementi bo‘lib, ularning jamiyat rivojidagi o‘rnini ko‘rib chiqish ko‘ppartiyaviylikning fuqarolik jamiyatining institutsional asosi sifatida o‘rganish jarayonidagi asosiy nuqtalardan hisoblanadi.

"Partiya" (lotincha pars, partio, fransuzcha parti, nemischa partei, inglizcha party - qism, guruh, bo‘lak, ajrataman)[2] atamasi siyosiy partiyalar paydo bo‘lishidan ancha oldin aholining muayyan qismining manfaatlarini ifodalovchi fuqarolar guruhlarini belgilashga va ushbu maqsadlar uchun hokimiyatga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilishda ishlatilgan.

XX asr boshlarida siyosiy partiya keng qamrovli ta’rifini bergan M.Y.Ostrogorskiyga ko‘ra: partiya bu "... siyosiy maqsadga erishish uchun birlashgan individlar guruhidir"[3].

T.Bersel esa, siyosiy partiyalar jamiyatda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi asnosida siyosiy tarmoqni shakllantiradi. Siyosiy tarmoq bu – siyosatda umumiy manfaatlar asosida birlashgan va mazkur manfaatlarni ilgari surish uchun o‘zaro resurslar almashadigan aktorlar yig‘indisi

hisoblanadi. Bunda ijtimoiy va siyosiy kooperatsiya umumiy maqsadlarga erishishning eng to'g'ri va samarali yo'li hisoblanadi,[4] deya e'tirof etadi.

1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasiga ko'ra, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashma hisoblanadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, siyosiy partiyalar demokratik institut sifatida turli xil ijtimoiy guruhlar va jamiyat segmentlarining manfaatlarini umumlashtirish, uyg'unlashtirish vazifasini o'taydi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy ishtiroki rivojlantirishga yordam beradi hamda jamoatchilik fikrini, siyosiy yo'nalishlarni, mafkuralarni shakllantiridagi ahamiyati esa nihoyatda katta.

Shuning bilan birga, zamonaviy siyosiy tizimlarda siyosiy partiyalar davlat va jamiyat hayotida bir qator muhim vazifalarni (funksiyalarni) bajaradilar. Jumladan;

- birinchidan, bu artikulyatsiya va manfaatlar yig'indisi funksiyalari. Agar turli xil bosim guruhlar artikulyatsiya funksiyasini muvaffaqiyatli bajara olsa, siyosiy partiyalar agregatsiya funksiyasini deyarli to'liq anglaydilar.

- ikkinchidan, siyosiy ijtimoiylashuv funksiyalari. Partiyalar faoliyatida (ham faol, ham passiv) ishtirok etish orqali fuqarolar tegishli siyosiy tajribaga ega bo'ladilar hamda kelajakdagi siyosiy amaliyotlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rganadilar.

- uchinchidan, siyosiy elita va siyosiy rahbarlarni yollash funksiyalari. Zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli partiyaaviy tajriba siyosiy hokimiyatga malakali kadrlarni yetkazib beradi.

- to'rtinchidan, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlash funksiyasi. Ya'ni siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy tizimidagi guruhlar va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilot sifatida fuqarolik jamiyati uchun zarur bo'lgan aloqa instituti (jamiyat va davlat o'rtasida) vazifasini ham bajaradi[6]. Agarda, fuqarolik jamiyatining tuzilishi oila, maktab, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, mustaqil matbuot, vakillik va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya institutlari, ta'lim va tarbiya tizimi, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, o'rta sinflar va barcha nodavlat tuzilmalar, muassasalar munosabatlarining garmoniyali harakatidan iborat bo'lsa, aynan shu tizimda siyosiy partiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Negaki, siyosiy partiyalar bugungi kunda demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan siyosiy xilma-xillik va ko'ppartiyaviylik tizimini shakllanishini taminlovchi fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e'tirof etiladi.

Tahlil va natijalar. Umumiy olib qaraganda, fuqarolik jamiyati uchta yo'nalishni o'z ichiga oladi: huquqiy (qonun asosidagi tenglik), siyosiy (umumiy ovoz berish) va ijtimoiy-iqtisodiy. Bu o'rinda fuqarolik jamiyatining siyosiy yo'nalishi aynan siyosiy partiyalar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Chunki inson siyosiy iroda erkinligini his qiladigan jamiyat, ya'ni fuqarolik jamiyati, o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy prinsiplarning tashuvchisidir va uning normal ishlashini siyosiy harakatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivoji siyosiy tizimning demokratik mazmunini yanada to'ldirishi, siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat hayotidagi rolining o'sib borishi, siyosiy va ijtimoiy xilma-xillikning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Siyosatshunos olim M.Qirg'izboyev, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida siyosiy

partiyalar fuqarolik jamiyatini siyosiy tizim bilan o'zaro aloqalarining doimiyligini ta'minlaydi, davlat hokimiyatining jamiyatga bog'liqligi va uning jamiyat tomonidan nazorat qilinishi ko'p hollarda siyosiy partiyalar orqali amalga oshiriladi[7], deydi.

Siyosiy partiyaning ikki tomonlama tabiati o'zining normativ o'lchoviga ega. Bir tomondan, partiyaning fuqarolik jamiyati instituti ekanligi unga barcha turdagi fuqarolik jamiyati institutlariga xos bo'lgan tashkil etish va faoliyat prinsiplarini joriy qilishni anglatadi. Boshqa tomondan, partiyaning asosiy maqsadi, uning jamiyatning siyosiy hayotidagi ishtiroki ekanligi va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan ajratib turishda namoyon bo'ladi. V.V.Lapayevaga ko'ra, "bir tomondan, partiya fuqarolik jamiyati instituti, ya'ni davlat hokimiyatidan mustaqil xususiy sektor munosabatlarining strukturaviy elementi sifatida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan, u davlat - siyosiy tizimining bir qismi sifatida ishlaydi"[8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining (siyosiy) tarkibiy qismi sifatida "dualistik"(ikki ko'lamli) tuzilishga ega bo'lgan murakkab tuzilmalardir. Ularning bir qismi jamiyat darajasida, boshqasi esa davlat darajasida (parlamentda, hukumatda) ishlaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, siyosiy partiyalarning asosiy vazifalari sifatida davlat boshqaruvida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash; o'z elektorati hamda butun jamiyat manfaatlarini ilgari surish; davlat va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan muqobil loyiha (dastur)lar ishlab chiqish kabi ko'plab funksiyalarni bajarib keladi[9].

Shuningdek, fuqarolik jamiyati tizimida siyosiy partiyalar quyidagi funksiyalarni ham bajaradilar:

Birlashtirish. Ushbu funksiyada siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatida fuqarolarning ma'lum maqsadlar atrofida birlashishini ta'minlaydi.

Transformativ. Ushbu funksiyani amalga oshirishda siyosiy partiyalar ko'plab xususiy manfaatlarini umumiy irodaga aylantiradi.

Qiyatni belgilash. Ushbu funksiya doirasida siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati subyektlarining qadr-qimmatini belgilab beradilar.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, yoshlar tashkilotlari va boshqa umumiy manfaatga yo'naltirilgan jamoat birlashmalari yordamida jamiyat o'zini o'zi shakllantiradi, siyosiy va g'oyaviy plyuralizm hamda ko'ppartiyaviylik fuqarolik jamiyatining siyosiy jihatdan institusionallashuvida muhim asos hisoblanadi[10].

Bir guruh ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining umumiy fikriga ko'ra, agarda fuqarolik jamiyati mavjud bo'lmasa, demokratik partiyaaviy tizim bo'lmaydi yoki aksincha. Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati rivojlangan davlatni partiyaaviy tizimsiz tasavvur qilish qiyin va demokratik ruhdagi partiyaaviy tizim o'z o'rnida fuqarolik jamiyatini taraqqiyotida muhim institusional omillardan biridir. Demokratik partiyaaviy tizim esa davlatning siyosiy tizimida bir nechta siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun o'zaro raqobati asosida amalga oshadigan ko'ppartiyaviylik bilan bog'liq.

"Siyosiy tizimda ko'ppartiyaviylik qaror topgan taqdirdagina davlat xalq manfaatlarini ifoda eta olishi, umummilliy manfaatlarni, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ustunligini ta'minlay olishi va jamiyatdagi barqarorlikning mustahkam negizini tashkil qila olishi mumkin"[11], – deb ta'kidgan M.Dyuverje.

Bizningcha, ko'ppartiyaviylik sharoitida fuqarolik jamiyati rivojiga hizmat qiladigan bir qator omillar shakllanadi:

- birinchidan, hokimiyatga erishish va uni boshqarish uchun tabiiy kurashning ochiq va oqilona shakli paydo bo'ladi;

- ikkinchidan, ma'lum muddatlarda o'tkaziladigan parlament va prezident saylovlarida siyosiy partiyalarning faol ishtiroki asosida hokimiyatni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlari amalga oshirilib, bunda jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hukmron elita yangilanadi va o'zgartiriladi;

- uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va islohotlar strategiyasi ishlab chiqiladi hamda eng muhimi, raqobatdosh siyosiy muhit vujudga kelib, bu hokimiyatni monopollashtirish va haddan tashqari markazlashtirish tendensiyalarini, shuningdek, har qanday suiiste'mollik holatlari va fuqarolar siyosiy begonalashuvining oldi olinadi.

Amerikalik siyosatshunos K. Lausonning ta'kidlashicha, 1970-yillarning oxirlarida dunyo bo'yicha 100 dan ortiq mamlakatlarda 500 dan ortiq partiyalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, yangi asrda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida ularning soni mingga yaqinni (Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Norvegiyada rasmiy ro'yxatdan o'tgan 20 ta, Shvetsiyada 30 ta; Fransiyada 40 ta, Chexiya Respublikasida 120 tadan ortiq partiyalar ro'yxatga olingan va bir qator harakatlar mavjud)[12] tashkil etadi. Bu o'z navbatida hozirda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'ppartiyaviylikka asoslangan tizimning mavjudligi hamda ushbu mamlakatlardagi mavjud siyosiy tizim hususida qisman fikr yuritishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan iclohotlap japyonida ciyociy paptiyalarning poli

va o'pni yanada kuchayib bopmoqda. Mamlakatimizda faoliyat olib bopayotgan O'zbekicton Libepal demokpatik paptiyaci, "Milliy tiklanish" demokpatik paptiyaci, Xalq demokpatik paptiyaci, "Adolat" cotsial demokpatik paptiyaci, "Ekologik paptiya"lapi o'z oldiga qo'ygan dactupiy maqcadlapni amalga oshipish, elektopat bilan ishlash tizimini takomillashtipish, o'zlapining caylab qo'yilgan vakillapi – deputatlik koppuci opqali qonun ijodkoplugini yanada takomillashtipishga e'tibop bepishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakatning o'ziga xos siyosiy xayotiga ko'ra bir partiyaviy, ikki partiyali va ko'p partiyali tizimlar shakllanadi. Ko'ppartiyaviylik omilining afzalligi shundaki, siyosiy partiyalar mamlakatdagi turli xil maslak, fikr, karash va manfaatlarni anglashda o'ziga xos dunyokarash, munosabat tamoyillari bilan farklanadigan ijtimoiy guruh katlamlarini birlashtirib, ularga tayangan holda mamlakat oldida turgan umumiy maksad yulida mamlakat har bir fukarosining xohish-irodasini, haq-huquqlarini, erkinliklarini ximoya kiladi.

Qolaversa biz uchun ko'ppartiyaviylik siyosiy partiyalarning mamlakatda amalga oshrilayotgan islohotlarda faol ishtirokini amalga oshirishga imkon beruvchi muhitni shakllantirish bilan bevosita bog'liq ekanligi bilan ahamiyatlidir. Aynan ko'ppartiyaviylik tizimining mavjud holati, uning taraqqiyot yo'nalishlari ko'p jhtdan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi mavqeni belgilovchi faktori bo'lib, uning tahlili esa O'zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni qanday bo'lishi. Qanday yo'nalishlarda rivojlanishi mumkinligini tushunib olishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мамадалиев Ш, Джавакова Қ. Кўппартиявийлик тизимини изчил ривожлантириш — давлат ҳокимиятини демократлаштиришнинг муҳим шarti // <http://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/767-koppartiyaviylik>
2. Словарь юридических латинских терминов и выражений [Текст] М.: 1999.— С. 86.
3. Вагина Л. С. Теоретические основы исследования деятельности политических партий как субъекта политики в современной России. http://vestnik.osu.ru/2011_5/8.pdf
4. Tanja A. Borzel. Organizing Babylon – On the Different Conceptions of Policy Networks//Public Administration. 1998, p. 253–273.
5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон
6. Ланцов С. А. Политология: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2011. —С.287.
7. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. Тошкент: Янги аср авлоди,2006. – Б. 104.
8. Лапаева В.В. Право и многопартийность в современной России. М.: Норма,1999.— С 182.
9. Саидов С.Ш. Десять индикаторов развития гражданского общества в Узбекистане. // Alma Mater (Вестник высшей школы). №11/2018. – М., – С. 118.
10. Жалилов А, Мухаммадиев У, Жўраев Қ ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма.. Тошкент. 2015.– Б.28.
11. Duverger M. Les parties politiques. – Paris, 1967. – P. 29.
12. Гришин Н.В. Партии как привилегированный субъект избирательного процесса: результаты институционального эксперимента // Политическая наука. 2015. № 1.– С. 17 (12–29).



UDK:15: 371.044.4(045)

Uzoq NURMATOV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi asosida

FEATURES OF THE TEACHING STAFF AND ITS MANAGEMENT

Annotation

The article discusses the features of the school's teaching staff and its management. The theoretical and practical aspects of this problem were described, as well as the scientific research carried out in this regard by our country and foreign psychologists. The article also provides detailed information about the content and essence of the activities of the leaders of a general secondary educational institution today, and their personal qualities.

Key words: School, leader, workforce, management, management style, abilities, personal qualities, professional qualities, socio-psychological image, social environment.

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОЛЛЕКТИВА И ЕГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности педагогического коллектива школы и его управления. Рассказывалось о теоретических и практических аспектах этой проблемы, о научных исследованиях, проводимых в этой связи нашей страной и зарубежными психологами. Также в статье представлена подробная информация о содержании и сущности деятельности руководителей общего среднего образовательного учреждения сегодня, их личных качествах.

Ключевые слова: Школа, лидер, трудовой коллектив, управленческий состав, стиль управления, способности, личностные качества, профессиональные качества, социально-психологический имидж, социальная среда.

PEDAGOGIK JAMOA VA UNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada maktab pedagogik jamoasi va uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz va xorijiy psixolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Shuningdek, maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarlarining bugungi kundagi faoliyati mazmun-mohiyati, ular shaxsiga xos bo'lgan sifat va fazilatlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, rahbar, mehnat jamoasi, boshqaruv xodimlari, boshqaruv uslubi, qobiliyat, shaxsiy fazilatlar, kasbiy sifatlar, ijtimoiy-psixologik qiyofa, ijtimoiy muhit.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ko'p jihatdan rahbarlarga, ularning boshqaruv sohasidagi professional mahoratiga bog'liq. Shuning uchun ham istiqloq yillarida davlat va jamiyat boshqaruvining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan kadrlar tizimida tub islohotlar amalga oshirildi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi, istiqboli xodimlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilib, davlat xizmatchilari malakasi munatazam oshirib borildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tilgan "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda" degan fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlash, rahbarlikka layoqati bor kishilarni tanlash, o'qitish, tarbiyalash va malakasini oshirishni tizimli tashkil etish kerakligi ko'rsatib o'tildi [1].

Bu borada davlatimiz birinchi navbatda rahbar xodimlarning, davlat xizmatchilarining fuqarolik jamiyatlari institutlari hamda odamlar bilan ishlay olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berishni, buyunuvchilarni boshqarishda zamonaviy boshqaruv uslublarini puxta egallashni, ulardan korxonalar, tashkilot va muassasalarni boshqarishda samarali foydalanishni talab etmoqda. Bugungi taraqqiyot zamonaviy rahbardan yuksak aql-farosat, katta kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni namoyon qilishini, o'z

ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlik va ishbilarmonlik sifatlariga ega bo'lishni taqozo qiladi. Shu sababli jamoani mohirlik bilan boshqarish uchun rahbar boshqarishning yangi texnologiyalari ustida tinmay izlanishi, muayyan loyihalar va proyeksiyalarni ishlab chiqishi, fan-texnika yutuqlari va xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini chuqur o'rganishi, ishlab chiqarishni boshqarishning ilg'or va yanada mukammal usullarini yaratish borasida faol ijodiy izlanishlar olib borishi, malakasini doimiy suratda oshirishi lozim.

Bugungi kunda boshqaruv sohasida olib borilayotgan tub islohotlar rahbardan zamonaviy boshqaruv uslublarini puxta egallashni, ulardan korxonalar, tashkilot va muassasalarni boshqarishda samarali foydalanishni talab etmoqda. Shu o'rinda rahbarning boshqaruv uslubi deganda, ma'muriyat va rahbariyatning o'z faoliyatida qo'llaydigan ta'sir o'tkazish usullari, yo'l-yo'riqlari majmuasi tushuniladi. Ma'lumki, rahbarning ish uslubi uning o'z qo'l ostidagilari bilan aloqasida, ular bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida tarkib topadi. Har bir rahbar o'zicha individual, ya'ni qaytarilmas bo'lib, o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishga harakat qiladi. Shuning uchun ham boshqaruv usulini rahbarning shaxsiy sifatleri yig'indisi, rahbarning bo'sunuvchilar bilan o'zaro munosabati, rahbar o'z faoliyatida qo'llayotgan usullar va yo'l-yo'riqlar yig'indisi, deb qarash ayni haqiqatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon psixologiyasi fanida liderlik va boshqaruv muammolari izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishlarda, ma'lum konsepsiyalar asosida o'rganilgan va tahlil qilingan. Jumladan, rus psixologiyasida

boshqaruv masalalari psixologik nuqtai nazardan A.L.Svensitskiy (1986), I.P.Volkov (1989), A.L. Juravlyov (1983), Y.P.Platonov (1992), V.A.Tolochek (1995), G.S.Nikiforov (1997), YE.M.Dubovskaya (1984), A.A.Rusalnova (1968), T.M.SHEglova (1987), T.L.Kryukova (1986), N.M.Komarova (1997), T.V.Bendas (1987), R.X.Shakurov (1990) va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Ularning ishlarida boshqaruv faoliyatining psixologik tavsifi, rahbar xodimlarni tanlash, ularni tarbiyalash va lavozimlarga joylashtirish, inson psixikasiga lavozim taqozo qiluvchi talablar, kasbga yo'naltirish va kasb motivatsiyasining psixologik jabhalari, jamoaviy psixikani shakllantirish yo'llari, jamoadagi ijtimoiy psixologik muhit va uni ta'minlash va boshqa masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Mustaqillik yillarida psixologiya fanining boshqaruv sohasida respublikamiz miqyosida qator ilmiy-amaliy ishlar olib borildi. O'zbekistonda boshqaruv jarayonini tashkil etishning psixologik omillari E.G'oziyev, M.Davletshin, G'.Shoumarov, V.Karimova, D.Muxamedova, I.Mahmudov, R.Toshimov, E.Sattorov, X.Alimov, M.Yo'ldoshev, F.Akramova, N.Boymurodov, O.Shamiyeva, O.Hayitov, N.Ro'ziqulov, Sh.Xoliqova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida samarali o'rganildi. Ularning ilmiy ishlarida rahbar psixologiyasi, uning boshqaruv qobiliyati, ish uslubi, shaxsiy fazilatlar, nufuzi, shaxslararo munosabatlar xarakteri va rahbar xodimlar tayyorlash masalalariga kengroq o'rin berilganligi muhim ahamiyatga ega.

Psixolog R.X.Shakurov o'z izlanishlarida maktab direktorining ijtimoiy psixologik qiyofasini tadqiq qilishga uringan. Uning ta'kidlashicha, rahbarning jamoada ruhiy muhitni vujudga keltirishidan tashqari uning ishbilarmonlik xislati, tashkilotchilik qobiliyati ham muhim ahamiyatga egadir. Rahbar va uning qo'l ostidagi jamoa a'zolari bilan o'zaro ta'sir ko'rsatishi quyidagi holatlar orqali namoyon bo'lishini maxsus ta'kidlaydi: 1) shaxsning rahbar roliga kirish jarayoni hamda rahbar bilan xodimlarning o'zaro ijtimoiy psixologik jihatdan moslashuvi; 2) boshqaruvning ijtimoiy psixologik funksiyalarini bajarishning dolzarbligi o'zgarishi; 3) rahbarning ish uslubiga nisbatan ijtimoiy psixologik talablarning dinamikasi va jamoaning shakllanish jarayonida boshqaruvning har qaysi funksiyasini bajarishda usullarga tobora yuklamaning kuchayishi. Muallif maktabni boshqarishning ijtimoiy psixologik nazariyasini yaratishga muhim hissa qo'shishga muvaffaq bo'ladi [6].

1-jadval

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv kadrlari o'rtasida lavozimni his qilish darajasining interpersonal shaxs xususiyati ko'rsatkichlariga bog'liqligi (Kruskal-Uollis N- mezon)

№	Oktantlar qutblanishi	O'rtacha ranglar			N	p
		1-darajali boshqaruv lavozimlari (n=81)	2-darajali boshqaruv lavozimlari (n=173)	3-darajali boshqaruv lavozimlari (n=289)		
1	Hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan	1517,11	1187,40	1532,79	21,88	0,000**
2	Eriki o'zida (mustaqil) bo'lgan – ustun bo'lgan	1452,12	1322,19	1349,03	5,63	0,040*
3	Dangal (rostgo'y) – tajovuzkor	1484,42	1187,53	1681,18	57,06	0,000**
4	Badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan	1339,57	1353,51	1352,66	3,33	0,042*
5	Ko'ngilchan – tortinchoq	1550,52	1363,08	1383,14	5,82	0,215
6	Tobe – itoatkor (mo'minqobil)	1424,28	1157,83	1608,18	56,07	0,000**
7	Hamkor – kelishuvchan	1522,41	1229,31	1493,31	6,33	0,994
8	Ma'suliyatli – olijanob (fe'li keng)	1397,35	1530,35	1526,36	0,47	0,778

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01

Boshqaruvning yuqori va o'ta yuqori darajasi taxminan 2-darajali boshqaruv lavozimlari (direktorning "o'quv ishlari", "o'quv-tarbiyaviy ishlari", "ma'naviy-ma'rifiy ishlari", "xo'jalik ishlari" bo'yicha o'rinbosari, uslubiy birlashma rahbari, yoshlar yetakchisi)ga tayinlangan yoki saylanganda ko'proq sodir bo'lishi mumkin. Quyi va yuqori darajalarda, ya'ni 3-darajali boshqaruv lavozimlari

K.K.Platonov o'z tadqiqotlarida rahbar qobiliyatining psixologik komponentlarini o'rgangan. U o'z tadqiqotlarida rahbar qobiliyatining tuzilishi, professional qobiliyat va talantning shart-sharoitlari, uni tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan. Muallifning ta'rificha, professional qobiliyat deganda inson shaxsining anchagina qat'iy, tabiiyki, tajriba ta'sirida o'zgaradigan individual psixologik xususiyatlarining yig'indisi tushunilib, u shaxs bir sifatining ikkinchisi bilan almashtirilishi natijasida ma'lum mehnat faoliyatiga o'rgatish, uni bajarish va unda takomillashishning samarali bo'lishini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, professional qobiliyatlar maxsus yangi sifatlar bo'lmay, balki rahbar egallayotgan vazifa uchun qulay bo'lgan psixik xususiyatlar va jarayonlarning umumiy yig'indisi hisoblanadi [5]. Rahbardagi u yoki bu qobiliyatlarni bilish uchun rahbar shaxsining turli xususiyatlarini o'rganib chiqish lozim. Shaxsning tartibli, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, o'z ishiga muhabbat va qiziqish kabi xususiyatlari har qanday rahbar uchun zaruriy sifatlardir.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz ham boshqaruv muammolarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ana shu maqsadda Liri-Sobchiklarning "Shaxslararo munosabatlar interpersonal diagnostikasi metodikasi"ga murojaat qildik. Mazkur metodika G'.B.Shoumarov tomonidan modifikatsiya qilingan. Mazkur metodika yordamida umumiy o'rta ta'lim muassasalari 1-, 2-, 3-darajali boshqaruv xodimlari faoliyatida "hamkorlik" pozitsiyasining differensial namoyon bo'lishi tufayli boshqaruvchilikning interpersonal shaxs xususiyati sifatida rivojlanishiga to'g'ri proporsional ekanligini aniqlashiruvchi tajriba-sinov ishlari olib borildi va tadqiqotda quyidagi ilmiy natijalar olindi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarida interpersonal shaxs xususiyati sifatida boshqaruvchilik namoyon bo'lish darajasining ayrim individual-tipologik xususiyatlarga bog'liqligini (1-jadvalga qarang) tahlil qilganimizda ishonchli tafovutlar mavjudligini, ya'ni "hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan" oktant ko'rsatkichi va boshqaruv darajasi ko'rsatkichlari o'rtasida ishonch darajasidagi farq mavjudligini kuzatish mumkin ($H=21,88$; $p<0,001$). Jadvaldagi raqamlarga qaraganda, respondentlarning yetakchiligi, hukmronligi qanchalik yuqori bo'lsa, boshqaruv darajasini his qilish shunchalik pasayishi kuzatilar ekan.

(o'qituvchi, sinf rahbari yoki tarbiyachi)da faoliyat yuritganda hamda 1-darajali boshqaruv lavozimlari (pedagogik kengash raisi, jamoat birlashmalari raisi)ga tayinlangan yoki saylanganda boshqaruvni his etish darajalari kamroq foizni tashkil etishini shohidi bo'lish mumkin. Respondentlarning o'ziga nisbatan munosabatini tahlil qilish metodikasi asosida olingan natijalarga ko'ra har uchchala darajali boshqaruv

xodimlari o'rtasida "hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan" ($H=21,88$; $p<0,001$), "dangal (rostgo'y) – tajovuzkor" ($H=57,06$; $p<0,001$) va "tobe – itoatkor (mo'minqobil)" ($H=57,06$; $p<0,001$) oktantlarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi.

Aniqlanilishicha "hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan" oktanti bo'yicha aynan 2-darajali boshqaruv xodim (masalan, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosar)larida ustunlikni yaqqol ko'rish mumkin. Bu ulardagi o'ziga ishonch, yaxshi maslahatchilik, peshqadam va tashkilotchi bo'la olish malakasi, hamda yetakchilik sifatlarini aniqlaydi. Shuningdek, ularda tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlashning diktat usulli, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj mavjudligi ham kuzatiladi. 3-darajali boshqaruv xodimlari sanalgan "o'qituvchilar"da esa aksincha mazkur oktant bo'yicha quyi natijani guvohi bo'lish mumkin.

"Erki o'zida (mustaqil) bo'lgan – ustun bo'lgan" ($H=3,63$; $p<0,005$) va "badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan" ($H=3,33$; $p<0,005$) oktantlarida ham sezilarli ijobiy tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda yana "o'quv ishlari" bo'yicha direktor o'rinbosarlarida har ikkala oktant bo'yicha ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni "erki o'zida (mustaqil) bo'lgan – ustun bo'lgan" oktantida ulardagi shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidagi o'zboshimchalik, atrofdegilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko'pchilik fikrlardan farqli ravishda o'z fikriga egalik an'anasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslublargacha bo'lgan jarayonni ifoda etadi.

Shuningdek navbatdagi "badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan" oktantda ham biroz farq borligi aniqlangan va bunda ustunlik yana bir bor "o'quv ishlari" bo'yicha direktor o'rinbosarlari tomonida ekanligini ko'rsatadi. YA'ni, fikrlash, faoliyat ko'lamiga ko'ra 2-darajali boshqaruv xodimlari o'ta realist, shubhalanuvchan va oqimga qarshi turuvchi "nonkonformist", ginachi va 1-, 3-darajali boshqaruv xodimlarga nisbatan ishonchsiz munosabatni ko'rsatishadi hamda no'rin tanqidchi sanalishadi.

"Hamkor – kelishuvchan" oktantidagi tafovutda aynan 3-darajadagi boshqaruv xodimlar, ya'ni "o'qituvchilar", "sinf rahbarlari yoki tarbiyachilar"dagi ustunlikni kuzatishimiz mumkin. Mazkur oktantga ko'ra yuqori bo'g'in boshqaruv xodimlarning qo'llab-quvvatlovi va ishonchiga bo'lgan yuqori darajadagi ichki ehtiyoj oqim bo'ylab yurishni xush ko'rish ("konformlik"), rahbar va boshqaruv xodimlar fikriga to'la bog'liqlik borligini tavsiflaydi.

"Tobe – itoatkor (mo'minqobil)", "ma'suliyatli – olijanob (fe'li keng)" oktantlarida tafovutlar kuzatilmadi. Bu har uchchala boshqaruv xodimlarning mazkur oktantlar

doirasida o'xshashlik xususiyatlari borligini namoyon etadi. Masalan "tobe – itoatkor (mo'minqobil)" oktanti bo'yicha shaxslararo munosabatlardagi kamtarlik, tortinchoqlik, o'zgarar mas'uliyatini o'z zimmasiga olish, shuningdek, o'ta itoatkorlik va aybdorlik tuyg'usini aks ettiradi. Mazkur shaxs sifatida boshqaruv xodimlar shaxsiga xos sanalmaydi. Ayniqsa, 2-darajali boshqaruv xodimlar (direktor o'rinbosarlari)da mazkur sifatning namoyon bo'lishi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash zarur.

Metodikaning "ko'ngilchan – tortinchoq" oktantida ham barcha darajadagi boshqaruv xodimlari natijalarida tafovut kuzatilmaydi. Ushbu oktant sifatleri ham boshqaruv xodimlariga xos xususiyat sanalmaydi. Sababi juda kam foiz boshqaruv xodimlarda bu sifatleri kuzatish mumkin. Chunki bu xususiyatning borligi boshqaruv xodimida referent guruh bilan yaqin hamkorlik, atrofdegilar bilan do'stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo'lgan munosabat uslubini ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning u yoki bu uslubining namoyon bo'lishida ortiqcha komformizm, atrofdegilar bilan haddan ziyod yaqinlashib ketish, o'zini ko'pchilikning manfaatlariga daxldor ekanini ta'kidlashga intilish ko'zga tashlanadi.

So'nggi "ma'suliyatli – olijanob (fe'li keng)" oktanti tahlilidan ko'rinadiki, 3-darajali boshqaruv xodimlarda atrofdegilarga yordam berishga tayyorlik, mas'uliyat hissi rivojlanganligi kuzatish mumkin. Ayrim hollarda bu fe'li kenglik ustanovkalari, atrofdegilar nazarda majburiy alturizmi namoyon qiladi. Ammo ishga nisbatan mas'uliyat har qanday toifadagi boshqaruv xodimga xos bo'lgan xususiyat sanaladi.

Xulosa. Umuman olganda bugungi kunda boshqaruv sohasida olib borilayotgan tub islohotlar rahbardan zamonaviy boshqaruv uslublarini puxta egallashni, ulardan korxon va tashkilotlarini boshqarishda samarali foydalanishni talab etmoqda. Ayniqsa, jamoadagi psixologik muhitning ijobiy bo'lishi, o'zaro yordam, do'stlik, o'zaro moslik, ahillik, totuvlik, o'zaro tushunuv, simpatiya singari his-tuyg'ularning barqarorligi o'ta muhim bo'lib, ular rahbar va xodimlar o'rtasida (vertikal muhit), shuningdek, xodimlarning o'zlari o'rtasida (gorizontal muhit) yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Boshqaruv jarayonida rahbardagi muomala madaniyati, tinglash va buyurish mahorati, o'zini tiya bilish, oshkorlik, samimiylik, xushmuomalalik, to'g'riso'zlik, javobgarlik, mas'uliyat va boshqa insoniy fazilatlarining bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. Rahbar shaxsidagi ana shu muhim sifat va fazilatlarining kasbiy faoliyatga qo'yiladigan boshqa talablar bilan birlashib ketishi, rahbarning jamoa ichida yuksak obro'-e'tibor qozonishiga, mansab pillapoyalaridan mavaffaqiyatli o'tib, lavozimning keyingi bosqichlariga o'tishiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>
2. Karimova V., va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. –T.: "Fan va texnologiya", 2008 y. –208 b.
3. Hayitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fan. dok-r (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – T.: TDPU, 2020. – 250 b.
4. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. -T.: O'zMU, 2001.
5. Yoziyev E.S. Boshqaruv psixologiyasi // O'quv qo'llanma. – Qarshi: "Fan va ta'lim", 2021. – 388 b.
6. Шакурров Р.С. Социально-психологические основы управления: руководитель и коллектив. -М.: Просвещение, 1990.



Aziza OLIMOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti
E-mail: a.olimova@cspu.uz

F.f.d O'.Tilovov taqrizi asosida

MODERN APPROACHES AND BASIC PRINCIPLES OF USING THE CARTOGRAPHIC METHOD IN TEACHING GEOGRAPHY

Annotation

This article describes modern approaches to the use of cartographic methods in teaching geography, in particular, interactive educational methods, systematic approach, professional competence approach, project-based teaching, distance and digital education. Also, the simplicity and accuracy of visualization, logical structure and systematicity, goal orientation, coordinated visualization, support for interactivity and active participation, reliability and accuracy of information, reflection and reasoning, the effective use of the cartography method in the educational process principles such as doing have been clarified.

Key words: Geography, cartography, professional competence, interactive educational methods, modern approaches, modern education, principle, reflection.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КАРТОГРАФИЧЕСКОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье описаны современные подходы к использованию картографических методов в обучении географии, в частности, интерактивные методы обучения, системный подход, профессионально-компетентностный подход, проектное обучение, дистанционное и цифровое образование. Также, простота и точность визуализации, логическая структура и системность, целевая ориентация, согласованная визуализация, поддержка интерактивности и активного участия, достоверность и точность информации, рефлексия и рассуждение, эффективное использование метода картографии в таких принципах образовательного процесса, как как это было уточнено.

Ключевые слова: География, картография, профессиональная компетентность, интерактивные методы обучения, современные подходы, современное образование, принцип, рефлексия.

GEOGRAFIYANI O'QITISHDA KARTOGRAFIK METODNI QO'LLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada geografiya fanini o'qitishda kartografik metodni qo'llashning zamonaviy yondashuvlari, xususan interaktiv ta'lim metodlari, tizimli yondashuv, kasbiy kompetensiyaviy yondashuv, loyiha asosida o'qitish, masofaviy va raqamli ta'limning mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, kartografiya usulini ta'lim jarayonida samarali qo'llashning vizuallashtirishning soddaligi va aniqligi, mantiqiy tuzilma va tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, muvofiqlashtirilgan vizualizatsiya, interaktivlik va faol ishtirokni qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlarning ishonchiligi va aniqligi, refleksiya va mulohaza qilish kabi tamoyillari aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya, kartografiya, kasbiy kompetensiya, interaktiv ta'lim metodlari, zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy ta'lim, tamoyil, refleksiya.

Kirish. Geografiya fanini o'qitishda kartografik usullarning qo'llanilishi nafaqat nazariy bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga yordam beradi, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Kartalar orqali ma'lumotlarni vizuallashtirish jarayoni talabalarning ko'z bilan ko'rish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirib, ularning sabab-oqibat munosabatlarini chuqurroq anglab yetishlariga yordam beradi. Masalan, geografik ma'lumotlarni kartada ko'rsatish orqali ular bir qarashda ma'lum hududdagi jarayonlarning to'liq manzarasini tushunib, ularni to'g'ri baholash imkoniga ega bo'ladilar.

Kartalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular ma'lumotlarni vizual ravishda ko'rsatib, hududiy munosabatlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Masalan, iqlim o'zgarishlari, aholi joylashuvi yoki tabiiy resurslarning taqsimotini karta orqali ko'rsatish talabalarga hududiy ma'lumotlarni oson qabul qilish va ularni chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Geografiya fanini o'qitishda kartografik usullarning qo'llash, kartalar orqali

talabalarning tahliliy ko'nikmalarini va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, kartografik metodlardan ta'lim jarayonida foydalanish masalalari mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Xususan, bunday tadqiqotlar xorijda O.A.Yevtsev Dj.Merdok, A.Tompson [4] kabilar, mamlakatimizda U.Ibragimov, N.Abdullayev, F.Rajabov, Q.Sabirov kabilarning ishlarida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Kartografiya usulini qo'llashda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish talabalarning tahliliy va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuvlar ta'lim jarayonini interaktiv, talabalarni qo'llab-quvvatlovchi va mustaqil fikrlashga undagan holda tashkil etishga asoslanadi [1]. Quyida kartografiya usulini ta'limda samarali qo'llashga yordam beruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning mazmuni keltiriladi.

1. Interaktiv ta'lim metodlari.

Interaktiv ta'lim metodlari kartografiya usulida ma'lumotlarni vizuallashtirish va tahlil qilish jarayonini talabalar uchun faol va qiziqarli qilishga qaratilgan. Interaktiv

usullar orqali talabalar kartalar bilan mustaqil ishlab, ma'lumotlarni mustaqil tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar.

Interaktiv ta'lim metodlari yordamida talabalar kartalar yoki interaktiv karta platformalari orqali ma'lumotlarni tahlil qiladilar. Masalan, interaktiv kartalardan foydalanib, ular shaharlardagi aholi joylashuvi, migratsiya jarayonlari yoki tabiiy resurslar taqsimotini mustaqil o'rganishlari mumkin. Bunday yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash va tezkor tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Tizimli yondashuv.

Tizimli yondashuv kartografiyada turli hududiy ma'lumotlar va ularning o'zaro bog'liqliklarini yaxlit tushunishga qaratilgan. Bu yondashuv ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilib, turli faktorlarning bir-biriga qanday ta'sir qilishini o'rganishga yordam beradi.

Tizimli yondashuv kartografik ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilishda qo'llaniladi. Masalan, O'zbekistondagi suv resurslari taqsimoti va ularning qishloq xo'jaligiga ta'sirini karta orqali ko'rsatish tizimli yondashuv bilan bog'liqdir. Talabalar bu jarayonda suv resurslarining taqsimoti, iqlim o'zgarishlari va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib, ularni o'z o'quv jarayonida chuqurroq anglab yetadilar.

3. Kasbiy kompetensiyaviy yondashuv.

Zamonaviy ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Kartografiya orqali geografik, ekologik va iqtisodiy ma'lumotlarni vizuallashtirish talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kartografiya orqali kasbiy kompetensiyalar shakllantirish jarayoni talabalarni kelajakdagi mutaxassis sifatida tayyorlashga yordam beradi. Masalan, tabiiy resurslarning iqtisodiyotga ta'sirini karta orqali tushuntirish yoki migratsiya jarayonlarini vizuallashtirish talabalarda tanqidiy va tizimli fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi [2].

4. Loyiha asosida o'qitish.

Loyiha asosida o'qitish usuli kartografiyaning ma'lumotlarini amaliy tadqiqotlar yoki loyihalar orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali talabalar muammolarni mustaqil o'rganib, hududiy jarayonlarni tahlil qilishadi va ularga yechim topishadi [3].

Loyiha asosida o'qitish kartografik ma'lumotlarning turli yo'nalishlarda qo'llanilishiga yordam beradi. Masalan, suv resurslarini samarali boshqarish loyihasini yaratish yoki shahar infratuzilmasini rivojlantirish uchun loyihalar tuzishda kartografik tahlillardan foydalanish mumkin. Talabalar loyihalarni amalga oshirish jarayonida turli kartalardan foydalanib, turli sohalaridagi muammolarni yechish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar.

5. Masofaviy va raqamli ta'lim.

Zamonaviy ta'limda masofaviy va raqamli yondashuvlar yordamida kartografik ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli platformalarda kartalar va ularga oid ma'lumotlar bilan interaktiv tarzda ishlash talabalarga mustaqil ravishda ma'lumotlarni o'rganish imkonini beradi.

Raqamli kartografik platformalar talabalarga turli hududiy ma'lumotlarni mustaqil o'rganish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masofaviy yondashuv yordamida talabalar interaktiv kartalar bilan ishlab, masofadan ma'lumotlarni vizuallashtirib tahlil qilishadi [5]. Masalan, O'zbekiston iqlimi va suv resurslari bo'yicha raqamli kartalardan foydalanish orqali talabalar mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar kartografiya usulini o'quv jarayonida samarali qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, ular talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv ta'lim metodlari, tizimli yondashuv va kasbiy kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlar kartografiyaning imkoniyatlarini kengroq ochib berishga xizmat qiladi. Projekt asosida o'qitish va masofaviy ta'lim kabi zamonaviy usullar orqali talabalar hududiy ma'lumotlarni chuqurroq o'zlashtirishadi va ularni amaliyotda samarali qo'llaydilar.

Kartografiya usulini qo'llashning asosiy tamoyillari. Biz tadqiqotimizda kartografiya usulini ta'lim jarayonida samarali qo'llashning tamoyillarini aniqlashtirdik. Bu tamoyillar talabalarda geografik ma'lumotlarni chuqurroq tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [6]. Quyida kartografiya usulini qo'llashdagi asosiy tamoyillar keltiriladi:

1. Vizuallashtirishning soddaligi va aniqligi tamoyili.

Kartografiyada ma'lumotlarning vizual ko'rinishda taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday karta yoki grafik vizual ko'rinishda tushunarli va sodd bo'lishi kerak. Ma'lumotlar o'quvchilar uchun oson qabul qilinishi va tushunishiga yordam berishi lozim.

Mazmuniga izoh: kartada hududiy ma'lumotlar to'g'ri va aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak, chunki noto'g'ri yoki murakkab vizual ma'lumotlar talabalarni chalg'itishi va ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, geografik hududlarning nomlari, turli xil ranglar va belgilar yordamida yorqin va tushunarli tarzda vizuallashtirilishi talab etiladi.

2. Mantiqiy tuzilma va tizimlilik tamoyili.

Kartografik ma'lumotlar mantiqiy va tizimli ravishda tashkil etilishi kerak. Bu ma'lumotlarning bir-biri bilan bog'liqligini aniqlash va ularni tushunib yetishni osonlashtiradi [7].

Mazmuniga izoh: masalan, O'zbekistonning suv resurslari yoki tabiiy resurslar taqsimoti hududlar bo'yicha to'g'ri tizimlangan bo'lishi kerak. Bunda suv manbalari va ularning qishloq xo'jaligi bilan bog'liqligi tizimli ravishda ko'rsatilib, ularning o'zaro ta'siri tushuntirilishi lozim.

3. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili.

Har bir kartografik tahlil yoki karta ma'lum bir o'quv maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu tamoyil o'quv jarayonida kartografik materiallardan qanday foydalanish kerakligini belgilaydi.

Mazmuniga izoh: masalan, O'zbekistonning tabiiy resurslari bo'yicha karta faqat tabiiy resurslarning taqsimoti haqida ma'lumot berishdan tashqari, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tushuntirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

4. Muvofiqlashtirilgan vizualizatsiya tamoyili.

Kartografik ma'lumotlar turli omillar va hududlar bo'yicha muvofiqlashtirilgan vizuallashtirishga asoslanadi. Bu turli omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib yetishga yordam beradi.

Mazmuniga izoh: masalan, iqlim o'zgarishlari va suv resurslari taqsimotini ko'rsatadigan kartalarda har bir hududdagi iqlim sharoitlari va suv resurslari bilan bog'liq ma'lumotlar bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim.

5. Interaktivlik va faol ishtirokni qo'llab-quvvatlash tamoyili.

Kartografiyadan foydalanish jarayonida talabalarning faol ishtiroki va interaktivlikni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Talabalar ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari va ularni solishtirishlari uchun interaktiv vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mazmuniga izoh: masalan, interaktiv kartalar yordamida talabalar geografik hududlarni mustaqil o'rganib,

turli omillarni o'zlarini tahlil qilishi mumkin. Bu tamoyil talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Ma'lumotlarning ishonchliligi va aniqligi tamoyili.

Kartografik ma'lumotlar ishonchli va aniq bo'lishi kerak. Ma'lumotlar real faktlar va ishonchli manbalarga asoslangan bo'lsa, talabalarning bilimlari ham to'g'ri shakllanadi.

Mazmuniga izoh: masalan, geografik ma'lumotlar rasmiy manbalardan yoki tekshirilgan tadqiqotlardan olinib, ularning ishonchliligi kafolatlanishi kerak. Bu talabalarni haqqoniy ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

7. Refleksiya va mulohaza qilish tamoyili.

Kartografik tahlillardan foydalanganda talabalar ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish va ularni mulohaza qilish qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Kartalar nafaqat vizual vosita sifatida, balki bilimni chuqur tahlil qilish uchun ham vosita sifatida qo'llanilishi lozim.

Mazmuniga izoh: masalan, axborotlarni olib, hududiy tahlil qilish orqali talabalar ma'lumotlarni chuqurroq tushunib, ularni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Xulosa va takliflar. Umuman, kartografiya usulini qo'llashdagi tamoyillar ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish va ma'lumotlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Vizuallashtirishning soddaligi, mantiqiy tuzilma, maqsadga yo'naltirilganlik va interaktivlik kabi tamoyillar orqali talabalar kartografik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilib, ularning o'zaro bog'liqligini tushunadi. Kartografiyadan samarali foydalanish yordamida talabalar tanqidiy fikrlashni, tahlil qilishni va mustaqil mulohaza yuritishni rivojlantiradilar.

Kartografiyaning amaliy va ta'limiy ahamiyati juda keng bo'lib, u talabalarda tahlil qilish, sintez qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida kartografiya talabalarga hududiy ma'lumotlarni vizuallashtirib, ularni chuqurroq tushunish va turli fanlar bilan bog'liq jarayonlarni yaxshiroq anglash imkoniyatini beradi. Kartografiyadan foydalanish ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, bu esa talabalarni mustaqil fikrlovchi, tahlilchi va tizimli mutaxassislar sifatida tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev N.R. Ta'lim jarayonida tahliliy ko'nikmalar. –Toshkent: Zebo print, 2019. 112-bet.
2. Ibragimov U.N. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kartografik kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirish. Ped. fan. bo'y. fal. dok. diss. –Samarqand: 2022. –B.47.
3. Евтесев О.А. Проектирование и составление социально-экономических карт. Учебник. –М.: МГУ.1999. -152
4. Merdok Dj. Critical Thinking in the Modern World, Oxford University Press, 2015, p. 78.
5. Piaget J. The Psychology of the Child. -New York: Basic Books. 1969. –R.154.
6. Rajabov F.T. Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. diss. – Tashkent: 2024. –B.59.
7. Thompson A. & Fascia P. Critical Thinking and Analysis, Cambridge University Press, 2012, p. 58.



UDK:091

Muxtasar OLIMOVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti v.b., f.f.d
E-mail:olimova.muxtasar0927@gmail.com

GulDU dotsenti, f.f.d N.Temirova taqrizi asosida

THE IDEOLOGICAL FACTORS AND SOCIO-PHOLOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE PROTECTION OF HUMAN INTEREST

Annotation

The article examines the content of socialization, the role of ideological factors in a person's life, freedoms, and interests. Additionally, it explores approaches to studying the process of socialization, as well as the role of ideological aspects, education, culture, social norms, and socio-moral values in the socialization of the individual.

Key words: Socialization, human, society, freedom, unity of interests, socio-cultural factors, ideological factors, socio-philosophical analyses, socio-ethical values.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЗАЩИТЫ ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье рассматривается содержание социализации, роль идеологических факторов в жизни, свободах и интересах человека.

Дополнительно исследуются подходы к изучению процесса социализации, а также роль идеологических аспектов, образования, культуры, социальных норм и социально-моральных ценностей в социализации личности.

Ключевые слова: Социализация, человек, общество, свобода, единство интересов, социокультурные факторы, идеологические факторы, социально-философский анализ, социально-этические ценности.

INSON MANFAATLARI HIMOYASINING MAFKURAVIY OMILLARI VA IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiylashuvning mazmuni, inson uning hayoti, erkinliklari va manfaatlari mafkuraviy omillarining roli o'rganilgan. Shuningdek ijtimoiylashuv jarayonini tadqiq etishdagi yondoshuvlar, shaxsning ijtimoiylashuvida mafkuraviy jihatni, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarining o'rni ham o'rganilgan.

Kalit so'zlari: Ijtimoiylashuv, inson, jamiyat, erkinlik, manfaatlar birligi, ijtimoiy madaniy omillar, mafkuraviy omillar, ijtimoiy-falsafiy taxlillar, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar.

Kirish. Inson uning hayoti, erkinliklari va manfaatlari barcha davrlarda ulug' mutafakkirlar ijodining asosiy mavzusi bo'lgan, lekin ijtimoiy boshqaruv darajasida ularga yetarli e'tibor qaratilmagan. Insonning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi uning huquq, erkinliklari va manfaatlari himoyasi turli siyosiy, mafkuraviy maqsadlar himoyasi bilan uyg'un bo'lgan. Inson manfaatlari himoyasi uning ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq ravishda takomillashib borgan. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida odamlar manfaatini teng himoya qilish taqozo qilingan, biroq davr o'tishi bilan iqtisodiy yehtiyojlarining qondirilishi-dagi tengsizlik manfaatlardagi tengsizlikning shakllanishiga sabab bo'lgan va bu jarayon barcha davrlarda amal qilgan, manfaat va ehtiyojlar dinamikasida yuksalish birlamchi ahamiyat kasb etgan.

Manfaat va ehtiyoj uyg'unligi insonning shaxs sifatidagi ichki mazmunini va hayotiy qiziqishlarini shakllantirgan. Shaxs manfaatlari genetik (nasliy), biologik-tabiyy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi bilan belgilangan. Inson manfaatlarining himoyasi uning shaxs sifatida yehtiyojlarining qondirilishiga zamin yaratgan, biroq aynan bu jarayondagi buzilish shaxslararo muammolarning shakllanishiga ta'sir etgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning dastlabki kunlaridan hozirgi davrgacha inson manfaatlari, huquq va yerkinliklarining himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, manfaatlar

himoyasi fanlararo xususiyatga ega, inson manfaati himoyasining qonuniy asoslari huquqshunoslik fanlarida, ijtimoiy jihati sotsiologiyada, siyosiy ahamiyati siyosatshunoslik, mafkuraviy ahamiyati ijtimoiy falsafa fanlarida o'rganiladi. Har bir fan doirasida manfaatning inson hayoti farovonligini ta'minlashga yo'nalganligi ular orasidagi umumiy o'zaro aloqadorlikni namoyon etadi. Biroq, har bir fan doirasida manfaatlarining mafkuraviy ahamiyati fanning maqsadlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu bois, biz manfaatlar himoyasini har bir fan nuqtai-nazaridan tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, falsafa qomusiy lug'atida "manfaat shaxsning iqtisodiy ehtiyojlari bilan belgilanadi" [10] degan baho berilgan, bizning fikrimizcha, bu ta'rifda inson manfaatlari faqat moddiy ehtiyojlar bilan baholangan.

Albatta, jamiyatning rivojlanishi, uning barqarorligi, xalq farovonligi iqtisodiy barqarorlikka bog'liq va bu barcha davrlarda o'zining ijtimoiy asosiga egadir. Zero O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Xalq bilan uzluksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart"[11] Bizning fikrimizcha, manfaat himoyasidagi iqtisodiy yondashuvning o'ziga xos xususiyat shundaki, unda, birinchi navbatda, manfaat moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali qondirilishi mumkin va bu moddiy manfaat sifatida ustivor ahamiyat kasb etadi, bunda:

- iqtisodiy manfaatlarining mohiyatini jamiyat aholisining turmush tarzi farovonligini oshirishga yo'nalgan turmush sharoitlarini qayta ishlashga bo'lgan ob'ektiv manfaat tashkil etadi. Masalan, birgina so'nggi 20 yilda dunyo aholisining turmush sharoitlari misli ko'rilmagan darajada yangilandi va bu jarayon takomillashib bormoqda;

- iqtisodiy manfaat ijtimoiy ishlab chiqarish, odamlarning maqsadli faoliyatini tashkil yetish va unga yerishishni namoyon etadi;

- iqtisodiy manfaatlar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Bunda pul ekvivalenti manfaatlarini qondirish omili va bozor munosabatlarini tartibga soluvchi vazifasini bajaradi. Q.Abdurahmonov fikricha, "Iqtisodiy manfaat inson hayotining bosh maqsadi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir"[12]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrda M.Sheler [13], E.Fromm[14], A.Shopengauer[15], N.Berdyaev[16], Pyer de Sharden[17] insonning ma'naviy qiyofasi uning xulq atvorida namoyon bo'lishini, qalb pokligi har qanday yomon xulq-atvordan asrash me'yori sifatida amal qilishini va iroda erkinligi insonning ehtiyojlarini jilovlash omili ekanligini asoslaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning fikrimizcha, bu yo'nalishlarda inson manfaatlarini himoyasi psixologik his-tuyg'ular nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi va u individual xususiyat kasb yetadi. Manfaatlar, birinchi navbatda, ma'naviy ruhiy holat- larda namoyon bo'ladi. P.A. Rudikning fikricha "Manfaat shaxsning, yehtiyoy esa tananing o'ziga xos holatidir". Bu ta'rifda manfaat tajribalar, his-tuyg'ular bilan tavsiflanadi, manfaatlarini qondirish darajasiga qarab, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Psixolog D.A. Leontev ham manfaatni holat sifatida baholaydi. U "Manfaat va yehtiyoy holatini aniqlashning iloji yo'q" deb baho beradi. "Manfaat holati – bu faqat manfaatning mavjudligini ko'rsatadigan haqiqatdir, lekin bir xil manfaat. Shu ma'noda, manfaat mohiyat, ehtiyoy yesa uning namoyon bo'lishi holati sifatida harakat qiladi". Manfaatning faoliyat motivatsiyasi bilan bog'liq jihatlari L.I. Bojovich, S.B. Kaverin ijodida ochib berilgan. "Motivga bo'lgan manfaatni qabul qilish, birinchi navbatda, insonning faolligini ko'p jihatdan tushuntirganligi sababli yuzaga keladi". S.B. Kaverinning fikricha, "Manfaat insonning ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni o'zgartirishga yo'naltiradigan faol munosabatni o'z ichiga oladi. Shuning uchun manfaat inson faoliyatining namoyon bo'lishi uchun yenergiya qaerdan kelib chiqishini tushuntiradi". Demak, "manfaat" tushunchasi "ehtiyoy", "zaruriyat", "ob'ektiv", "sub'ektiv", "faoliyat", maqsad" tushunchalari orqali tahlil qilinadi va unda jamiyatning mafkurasi o'z ifodasini topadi.

Biz manfaatlarining mafkuraviy mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun uning "zaruriyat" tushunchasi bilan aloqasini tahlil qilamiz. Agar manfaat – bu biror narsaga bo'lgan yehtiyojni qondirish jarayoni bo'lsa, u holda yehtiyojning manbaini aniqlash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai-nazardan, yehtiyoy g'oyaviy ta'sir, mafkuraviy targ'ibotlarga bog'liq bo'lishi, unda inson va jamiyatning manfaatlarini o'z ifodasini topishi mumkin. Bu manfaatni aniqlashning yagona mezonini izlashni o'z ichiga oladi. Falsafada biror narsadan manfaatdorlik mafkuraviy asosga yega bo'ladi, shu ma'noda inson manfaatlarining himoyasi har qanday jamiyatda mafkuraviy ahamiyat kasb yetadi. Mafkura manfaatlarini odam organizm uchun zarur bo'lgan va ayni paytga yetishmayotgan oqsil moddasi kabi himoya qiladi. Bunda manfaat yehtiyoy bilan uyg'unlashadi va yehtiyoy nafaqat odam va hayvonlarda, balki o'simliklarda ham tan olinadi. Shunday qilib, manfaat tushunchasi manfaat sifatida ushbu toifaning mazmunini toraytiradi, chunki manfaatning inson darajasidagi o'ziga xosligi uni ko'rib chiqish doirasidan tashqarida qoladi. Fikrimizcha, ehtiyoy – bu soddalashtirilgan manfaatdir.

Ehtiyojlarining uzoq vaqt qondirilmagligi, insonda manfaatlarining qondirilmagligi va bu yesa, uning ruhiy holatiga aks ta'sir yetishini anglatadi. Shu ma'noda, ehtiyoy tushunchasi moddiy manfaatlariga ko'proq mos keladi. Ammo bu manaviy, xususan, insoniy manfaatlariga nisbatan qo'llanilmaydi va asosan zaruriyatda o'z ifodasini topadi.

Shu ma'noda, biz manfaat tushunchasi bilan zarurat tushunchasi o'rtasidagi munosabatni tahlil qilamiz. Har qanday manfaatning negizida zaruriyat yotadi, chunki manfaatni qondirish biologik yoki ijtimoiy tizim mavjudligining shartidir. Shu bilan birga, manfaat va zaruriyat bir biridan farq qiladi. Zaruriyat – umumiy jarayonga xos bo'lgan muhim, chuqur aloqalar va munosabatlarini tavsiflovchi universal kategoriyadir. Manfaat yesa, tashqi muhit bilan bog'liq munosabatlarini ham ifodalaydi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, "manfaat" tushunchasini ijtimoiy subektning (shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat) holati sifatida aniqlash mumkin, "bu uning mavjudligini taminlashga qaratilgan muayyan obektlar, shartlar, harakatlarga bo'lgan manfaatni aks ettiradi". Bundan tashqari, manfaat doimo zarur va real, mavjud va to'g'ri, mavjudlik va orzu o'rtasidagi ziddiyatni aks yettiradi. Har bir manfaat subektning faoliyati orqali hal qilinadigan bazi bir haqiqiy ziddiyatlarning kashfiyotidir. Qarama-qarshilik manfaatning obektiv asosi, qoniqmaslik holati yesa uning subektiv ko'rinishidir. Manfaatni ijtimoiy hodisa deb hisoblasak, uning o'zgarishi va rivojlanishining ichki manbai manfaat subekti va obekti o'rtasidagi munosabatdir. Manfaat subektning obektiga, manfaat obektiga bog'liqligini ifodalaydi. Sub'ekt doimiy ravishda har xil turdagi obektlarga, ijtimoiy sharoitlarga, moddiy, manaviy nematlarga va hokazolarga muhtojdir.

Bizning fikrimizcha, manfaatli munosabatlar shaxslararo mu- nosabatlarda do'stlikni shakllantirish va aksincha do'stlikning konflikt darajasiga yetkazishi mumkin, chunki bunda manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'ladi. Manfaatli munosabatlar obekt va subekt o'rtasidagi munosabatlar shakli bo'lib, undan foydalanish birlamchi ahamiyat kasb yetadi. Manfaat munosabatlarida subektning voqelikka bog'liqligi namoyon bo'ladi. Manfaatli munosabatlar faqat moddiy nematlar yoki manaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishi shart yemas, turli vaziyatlarda ular muayyan faoliyat turlariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Manfaatli munosabatlar yehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan u yoki bu ob'ektni, xizmatni tanlashga asoslangan faoliyatda amalga oshiriladi. Manfaatli munosabatlarining tabiati sub'ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, yoshi, turmush tarzi, madaniyati va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Inson manfaatlarini himoyasining tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'likligi va uning boshqaruv shaklida namoyon bo'lishi, insonning ma'naviy kamolotga erishishi va milliy o'z-o'zini anglashiga ijtimoiy muhit ta'sirining ijtimoiy ahamiyati va mafkuraviy jihatlari ochib berilgan;

Insonning huquq va erkinligi uning burch va mas'uliyatni oshirish omili, ma'naviy kamolot mezonini sifatida vorislikka o'z ifodasini topishi, uning metodologik yondashuvlarini takomillashtirish mafkuraviy ahamiyat kasb etishi asoslangan;

Dunyo miqyosida inson manfaatlarini himoyasining mexanizmlari qiyosiy tahlil etilgan va uning ijobiy jihatlardan mamlakat aholisining manfaatlarini himoyasini ta'minlashda kreativ tafakkur imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Manaviy manfaatlarining obektlari ularning o'ziga xos xususiyati, manfaatlar obekti sifatida, istemol jarayonida yo'q bo'lib ketmaydi yoki yo'qolmaydi, balki ko'payadi, muayyan vaziyatda u odamlarning manaviy fazilatlarini va qobiliyatlariga aylanadi. Bizning fikrimizcha, manfaatlarining funksiyalarini tavsiflash fan va amaliyot uchun katta ahamiyatga yega,

chunki manfaatlar funksiyalarini hisobga olgan holda biz ularning funksional tarifini berishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, manfaat yehtiyoj bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biror narsaning kamligi yemas, balki unga yerishish istagi sifatida keng manoda tushuniladi. Biroq, manfaat va ehtiyoj bir xil jarayon yemas, chunki tananing ehtiyoji obektiv holatni aks ettiradi va shaxsning manfaati, ehtiyojini anglash va tushunish bilan bog'liq sub'ektiv jarayondir.

Shaxsning manfaatidan voz kechtirib bo'lmaydi, ehtiyojning paydo bo'lishini aks yettiruvchi va inson uchun paydo bo'lgan istakni qondirish zarurati haqida manfaat signal bo'lib xizmat qiladi. Bu holat inson uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan tashqi va ichki muhit ta'siriga tananing va shaxsning reaksiyasini namoyon yetadi.

Manfaat - inson ongida aks yetuvchi, insonning ichki ruhiy holati, yehtiyoj va biror narsaning orzusi sifatida inson

faoliyatini maqsad sari yo'naltiradi. Bu muloqot jarayonida insonning ichki va tashqi muhitga moslashishini taqozo yetadi. Har qanday inson manfaati malum bir falsafa bilan singib ketgan. Manfaati inson faoliyatining bir turi sifatida ham ko'rish mumkin, u kishilarning o'z mohiyati, tamoyillari va maqsadlari haqidagi g'oyalari asoslanadi, yani muayyan darajada inson faoliyatini boshqaradi. Manfaat iste'mol falsafasi bilan uyg'un bo'lib, u inson hayotining qadriyatlar tizimini tashkil yetadi, uning o'zagini odamlarning moddiy qadriyatlarga munosabati tashkil yetadi. Uning rivojlanishida uchta tarixiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin: ananaviy istemol falsafasi, cheksiz istemol falsafasi va global muammolar kontekstidagi istemol falsafasi. Shu bois, quyida biz aynan inson manfaatlarining istemol madaniyati bilan bog'liq jihatlarini tahlil yetishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. Otamuratov S. Milliy g'oya va milliy ma'naviy xavfsizlikning millatni asrash mas'uliyatidagi o'rni// Globallashuv millatni asrash mas'uliyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Shermuxamedova N.A. Faoliyat falsafasi// Falsafa. – Toshkent: Noshir, 2020.
4. Turg'unboev F. O'zbekistonda mehnat mentalitetining yangilanish xususiyatlari. Fals.fan.dok.diss. Avtoref – T.: 2006.
5. Agzamxo'jaeva S. Ijtimoiy ideal va O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyot muammolari. Fals. fan. dok. Diss. Ijtimoiy falsafa. T. O'zMU 2008.
6. Almond G., Verba S. The civil Culture Revisited. – Boston, Toronto, 1980.
7. Bell D. The coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y.: Basic Books, Inc., 1973. P. 344.
8. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
9. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
10. Фалсафа қомусий луғат – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 234
11. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажакит фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 234..
12. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. – Тошкент: Фан, 2015. – Б.34.
13. Шелер М. Положение человека в космосе. – М.: Наука, 19963. – 64 с
14. Фромм Э. О душе. – М.: Наука, 1996. – 456 с..
15. Шопенгауер А. Мир как воля и представление– М.: Наука, 1996. – 345 с.
16. Бердяев Н.А. Самопознание. – СПб(б): 1995.
17. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1987.



UO'K:316.42:378.015.31:574

Фахриддин ОРИПОВ,

Старший преподаватель Наманганского государственного университета

E-mail: standartnamdu@gmail.com;

По отзыву профессора НамИСИ М.Исмоилов

СУЩНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ И ФИЛОСОФИЯ НЕНАСИЛИЯ

Аннотация

В настоящее время, в период массовых разрушительных воздействий на природу, экологическое сознание человека находится под угрозой до такой степени, что он это осознает прекрасно. В прошлом термин «насилие» применялся к социальным группам и имел социальное значение. Теперь это также применяется к антропогенному взаимодействию с природными явлениями, которые в конечном итоге приводят к экологическим катастрофам.

Ключевые слова: Природа, экология, катастрофа, насилие, ненасилия, экологическая пластичность, злость, эйкос, ахимса, "Яшил макон".

EKOLOGIK MUAMMOLARNING MOHIYATI VA ZO'RLIK ISHLATMASLIK FALSAFASI

Annatsiya

Hozirgi kunda tabiatga ommaviy halokatli ta'sirlar ko'rsatilayotgan bir davrda, insonning ekologik ongi shu darajaga yetdiki, o'zi anglagan holda hatarga bormoqda. Ilgari "zo'ravonlik" atamasi ijtimoiy guruhlariga nisbatan qo'llanar edi va ijtimoiy ahamiyatga ega edi. Hozirda u, tabiiy hodisalarga nisbatan inson tomonidan sodir etilayotgan munosabatlarga ham qo'llanilmoqda, pirovard natijada ular ekologik falokatlariga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Tabiat, ekologiya, ofat, zo'ravonlik, zo'rlik ishlatmaslik, ekologik plastika, g'azab, eikos, ahimsa, "Yashil makon".

THE ESSENCE OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THE PHILOSOPHY OF NONVIOLENCE

Annotation

Currently, during a period of massive destructive impacts on nature, man's ecological consciousness is heightened to such an extent that it has become noticeable. In the past, the term "violence" was applied to social groups and had a social meaning. Now it is applied to natural phenomena, leading to environmental disasters.

Key words: Nature, ecology, disaster, violence, nonviolence, ecological plasticity, anger, eikos, ahimsa, "Green Space".

Введение. Первоначально окружающая среда имела жизненно важное значение для человека. «В настоящее время, когда природа подвергается массовым разрушительным воздействиям, экологическое сознание человека стало настолько острым, что стало отчетливым»[1, 210]. Оно стало явным, то есть открыто проявленным, из-за возникновения экологического кризиса. Пока баланс в природе был стабильным, не было места для него в структуре человеческой деятельности.

Постоянное противостояние природного и социокультурного во всей истории философии имеет объективную основу, поскольку фиксирует фундаментальное различие в человеке между природным (телом) и умственно-интеллектуальным началом, чей эйкос - общество.

Для природы экологическая пластичность человека со временем оказалась негативной. Если бы люди были более жестко привязаны к конкретной экосистеме, их социальная и экономическая деятельность исторически пошла бы в другом направлении. «Парадокс в том, что именно экологическая пластичность человека сделала его менее зависимым от окружающей среды и приблизила к экологической катастрофе»[1].

Анализ литературы по теме. В истории общества ненасилие выразилось в непротиплении, хотя оно часто воспринималось лишь как проявление подчинения, пассивности и слабости. Когда изучаем методологические аспекты исследования трудов ученых, большинство опирается на инновационные методы анализа социально-экономической и политической жизни. К их числу можно

отнести методы: исторический, индукции, логической абстракции, сравнения, описания, наблюдения и каузальный. «В двадцатом веке ненасилие стало известно как массовая социальная практика - как стратегия и техника социально-политической борьбы, разрешения конфликтов и гражданского (немилитарного) сопротивления»[3].

Наряду с законодательной отменой рабства, формированием гражданского общества и институциональным закреплением политических свобод и прав человека, распространение ненасилия как социальной практики является одним из значительных моральных достижений человечества.

Мохатма Ганди обсуждал свои принципы ненасилия и их применение к экологии и устойчивому развитию. Сатиш Кумар исследует «...идею Ганди ("Махатма Ганди для детей" (You Are, Therefore I Am: A Declaration of Dependence)) и их применение к современным экологическим вызовам, подчеркивая «важность ненасилия»[4], также он настаивал на том, что «уважение к природе должно быть в центре всех политических и социальных дебатов»[5].

Известный ученый биолог Рейчел Карсон в своей классической работе, которая разоблачает вред пестицидов и поднимает вопрос «о ненасильственном отношении к природе»[6].

Для массового сознания характерны ассоциации ненасилия с пассивностью, подчинением, непротиплением и снисходительностью. Однако последовательное

ненасилие, напротив, активно, инициативно и целенаправленно; оно противоположно насилию.

Методология исследования. В современной литературе встречаются два крайних понимания насилия. Первый подход понимает насилие как применение силы против человека (в радикальном выражении - это убийство). Второй - как любое воздействие на человека, включая психологическое и моральное, осуществляемое против его воли. Крайность второго подхода становится очевидной при попытке уточнить конкретные случаи принуждения и применения силы, его мотив и субъект.

Анализ и результаты. В философии на необходимость четкого концептуального различия между действиями, опосредованными различными видами принуждения, включая физическую силу, и именно насилием указывал И.А. Ильин [7]. Он считал "насилие" более узким явлением, чем "принуждение" или "принудительность".

Насилие представляет собой порицаемое принуждение, исходящее от злой души и направленное на зло. Не каждое принуждение, даже с применением силы, является злом. Если принуждение причиняет вред человеку, заставляет его делать зло, необоснованно уменьшает его права или несправедливо унижает его достоинство, оно является насильственным.

Ненасилие представляет собой активное сопротивление злу и несправедливости. Сопротивление именно в противоположности и безусловно - во имя добра и справедливости. Насилие всегда отрицательно как по форме, так и по содержанию действий. Но это не значит, что любое использование силы, то есть принуждение, давление на волю человека, отрицательно. Это не значит, что "добро должно иметь кулаки".

Но добро должно быть активным и эффективным; противостоять злу не только метафизически, но и практически. В нормативных, ценностных и поведенческих терминах принцип добра (или справедливости) имеет приоритет над принципом насилия.

Если такое понимание насилия и, соответственно, ненасилия соотносить с основными моральными принципами, скажем, с заповедью любви, то, конечно, насилие противопоставляется любви. Однако любить не означает просто делать то и так, как хочет другой, подчиняя свою волю воле другого. Любовь не является снисходительностью к капризам и слабостям, а тем более к злу. Ведь слабость, каприз или злость могут быть именно сокровенным самовыражением другого.

В милосердной-любовной связи предполагается и ставится возможность совершенства другого. Это любовь к совершенству, к совершенному (даже если потенциально совершенному) в человеке. Это отличает милосердную любовь от чувственной любви. Поэтому можно сказать, что любовь означает ненасилие. Но любовь не означает отказ от таких форм воздействия на человека, как принуждение и подавление.

Забота сторонников принципиального ненасилия обусловлена не только моральным пафосом, но и техническим аспектом, что ненасилие действительно может быть использовано чисто прагматично - как эффективное средство для достижения даже недостойных целей. Прагматически ненасилие очень привлекательно именно для решения таких задач. Ведь само ненасилие рассматривается как морально положительное средство борьбы. «Ненасилие – не абстрактная норма, которую остается лишь употребить в дело, не состояние, которое кем-то или когда-то может быть достигнуто. Оно прежде всего представляет собой ненасильственную, направляемую силой любви и правды борьбу против зла и несправедливости, за выправление отношений в собственной душе и в мире»[8].

В нынешних условиях молодежь может активно продвигать экологическую культуру, обучая сверстников и участвуя в проектах по охране окружающей среды. Многие исследователи хорошо знают, что философия ненасилия (Ахимса) является принципом ненасилия, укоренившимся в древнейшей индийской философии, и имеет свое огромное значение в наши дни. Она предполагает не только физическое ненасилие, но и уважение ко всем живым существам и природе в целом.

Молодежь может практиковать ахимсу, избегая причинения вреда животным, поддерживая устойчивое сельское хозяйство и заботясь о природе. Сочетание экологической культуры и философии ненасилия поможет создать более гармоничное общество, в котором человек и природа сосуществуют в равновесии.

Об этом заявил Президент Шавкат Мирзиёев в своем выступлении на совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса. "Решение проблем экологии и охраны окружающей среды, дефицита водных ресурсов будет для нас по-прежнему актуальной задачей. Мы, безусловно, сторонники обеспечения экологического баланса, чистого воздуха и воды, чистой окружающей среды. Этот вопрос чрезвычайно актуален и важен для нас.

Выводы и предложения. Ведь наш народ непосредственно испытывает последствия крупнейшей в мире экологической катастрофы - трагедии Аральского моря. Поэтому в стране реализуются масштабные программы, направленные на сохранение и укрепление бесценной экосистемы, включая национальный проект "Яшил макон." Мы продолжим эту работу ускоренными темпами"[9] - сказал он. Важно, чтобы молодежь активно продвигала экологическую культуру, обучая сверстников и участвуя в проектах по охране окружающей среды.

Сочетание экологической культуры и философии ненасилия поможет создать более гармоничное общество, в котором человек и природа сосуществуют в равновесии, «...каждая проблема поддается разрешению, если мы решительно настроены сделать закон правды и ненасилия законом жизни» [10].

ЛИТЕРАТУРА

1. Системные исследования. Методологические проблемы. Под редакцией Д. М. Гвишиани. -М.:1989. стр.330.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/nenasilie-kak-osobaya-forma-obshchestvennoy-praktiki/viewer>
3. Махатма Ганди: Моя жизнь. Перевод: Вязьмина А. М., Панфилов Е. Г., Ульяновский Р. А. Лениздат, 2012 г. -528с.
4. You Are, Therefore I Am: A Declaration of Dependence (2002), Green Books, ISBN 978-1903998182
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
6. Луиз Рейчел Карсон. "Безмолвная весна" (Silent Spring). Классическая зарубежная проза, -М.: «Прогресс»1965г. -216с.
7. Ильин И. А. О сопротивлении злу силою. Архивная копия от 7 июля 2015 на Wayback Machine. — Берлин, 1925. — 221 с.
8. Гусейнов А.А. Этика ненасилия. «Вопросы философии» журнал, Москва «Наука» 1992 г., С.- 82.
9. Мирзиёев Ш. "Мы не должны быть страной, ориентированной исключительно на сельское хозяйство" (kun.uz)
10. Мохандус Карамчанд Ганди. Моя вера в ненасилие. «Вопросы философии» журнал, Москва «Наука» 1992 г., С.- 65.



UDK:096

Baxriddin PRIMOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: baxriddinprimov57@gmail.com

International school of finance technology and science insitut dotsenti, PhD M.Aytbayev taqrizi asosida

CYBER INFORMATION IN THE INFORMATION AGE SECURITY

Annotation

Our article, based on the results of our scientific research, is aimed at highlighting the specific cyberfactors of processes occurring today in connection with the development of information technologies. On the one hand, humanity has entered the information age, and on the other hand, it is leading to the struggle against its problems. In this work, we want to focus on cyber fraud and cyber extortion.

Key words: Cyber threats, cyberterrorism, online-cyberattacks, cybercrime, cyber fraud, cyber extortion, cybersecurity, and others.

КИБЕРИНФОРМАЦИОН В ИНФОРМАЦИОННОЙ ЭРЕ БЕЗОПАСНОСТЬ

Аннотация

Наша статья, основанная на результатах наших научных исследований, заключается в освещении специфических киберфакторов процессов, происходящих сегодня в связи с развитием информационных технологий. С одной стороны, человечество вступило в век информации, а с другой - ведет к борьбе с ее проблемами. В данной работе мы хотим остановиться именно на киберфрингентах и кибервымогательстве.

Ключевые слова: Киберугрозы, кибертерроризм, онлайн-кибератаки, киберпреступность, киберфрингенты, кибер вымогательство, кибербезопасность и другие.

AXBOROT ASRIDA KIBER INFORMATSION XAVFSIZLIK

Annotatsiya

Imiy-tadqiqotlarmiz natijasi asosida berilayotgan maqolamiz bugungi kunda informatsion texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq holda amalga oshayotgan jarayonlarning o'ziga xos kiber holatlarini yoritishdan iborat. Bir tomonda insoniyat axborot asriga kirib kelagan bo'lsa, ikkinchi jihatdan uning muammolari bilan kurashishga olib kelmoqda. Ushbu ishimizda aynan, kiber fribganlar va kiber tovlamachilik haqida to'xtalmoqchimiz.

Kalit so'zlar: Kiber tahdidlar, kiber tarrorizm, onlayn-kiber xujumlar, kiber jinoyatchilik, kiber fribganlar, kiber tovlamachilik, kiber xavfsizlik va boshqalar.

Kirish. Kishilik jamiyati bugungi davrdagidek taraqqiyotning yuksak marralarini hozirgidek bunchalik ildam bosib o'tmagan. Axborot bu imkoniyatlarni amalga oshirmoqda va iformatsion texnologiyalar esa sharoit yaratib bermoqda. Axborotga to'yingan jamiyatlarda bu borada muhim tezkorlik bilan birga muammolarning paydo bo'lishiga ham olib kelmoqda. Bu esa kiber xavfsizlik choralarni kuchaytirishni talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Axborotning mohiyati to'g'risidagi turli nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, axborot atributiv va funksional xususiyatlarga ega, deb ta'kidlash mumkin. Ba'zi bir mualliflar axborotning atributivligini tan olishib, uni materiyadagi barcha moddiy obyektlarga taalluqli xususiyat sifatida ta'riflashmoqda (B.Axlibininskiy, L.Bajenov, B.Biryukov, K.Morozov, I.Novik, L.Petrushenko, A.Ursul, O.Fayzullayev, M.Abdullayeva, R.Imomaliyeva, I.Saifnazarov, S.Sanginov, B.To'rayev, B.Karimov, Sh.Qo'shoqov, N.Shermuxe'dova, G.G'affarova, E.Izzetova, A.Tulepov, M.Yoqubova, Muhammad Amin Yahyo va boshqalar). Lekin yuqorida ko'rsatilgan olimlar axborotlashgan davrda kiber xavfsizlik haqida izohlar keltirmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda global dunyo yuksak informatsion texnologiyalarni yaratish orqali insonlarni va ularning kapitallarni boshqarishga urinmoqdalar. Xalqaro maydonda bir tizimga bog'langan moliyaviy jarayonlar kapitallarni paydo bo'lishi, ko'chishi va hisob

raqamlarda paydo bo'lishi SWIFT tizimiga bevosita bog'liq. Davlat va jamiyatlarning muhim funksiyalaridan biri bu SWIFT pul o'tkazmalarini (SWIFT o'tkazmalari) o'z tizimi orqali amalga oshirishdir. Bu tizimlar ham to'la himoyalangan (germetiklangan) emas. Aynan, shunday holatlar kiber xuruj va jinoyatchiliklarning ko'payishiga olib kelmoqda. Bu bizdan shunday jarayonlarni analiz-sintez, ilmiy va metodologik jihatdan tahlil etish kerakligini ko'ratdi.

Tahlillar va natijalar. Axborot asri, deya ta'riflanayotgan XXI asrda internet tarmog'ining qulayliklari, axborot tarqatishdagi ko'lam va tezkorligini boshqa biror tizimga qiyoslab bo'lmazligini mutaxassislar etirof etmoqdalar. Internet haqiqatdan ham, mazkur tizim bugungi kunga kelib o'rgumcha to'ridek jahon axborot makonini o'rab oldi.

XXI asrga kelib mo'jazzgina kulbadan turib dunyoga tahdid solish, insoniyat taqdirini o'zgartirishi mumkin ekanini ham ana shu tizim "qulaylik"lari nomoiish etmoqda. TASS 2018 yil 25 sentyabrda yetkazgan ma'lumatga ko'ra "BMT Bosh kotibi Antonio Guterres BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasining yuqori darajadagi umumiy siyosiy munozarasining ochilishida so'zda kiber jinoyatchilik oqibatida jahon iqtisodiyotiga har yili 1,5 trllion AQSh dollaridan ko'p zarar yetkazmoqda"[1] deb ta'kitlagan. Shuningdek "Mutaxassislar tomonidan kiberjinoyatchilik zarar 2025 yilga 10,5 trllion AQSh yetadi, deb taxmin qilmoqda. Global kiberxavfsizlik xarajatlari 2022 yil 170.4 milliardga yetishi ko'rsatilgan"[2].

Ta'kidlash joizki, internet orqali uyushtirilayotgan bunday kiberhujumlardan asosan ana shu tizimdan foydalanayotgan mamlakatlar ko'proq aziyat chekmoqdalar.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoda "Internet foydalanuvchilari 5.8 milliardni ya'ni 63 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, dunyo aholisining 37 foizi yoki 2,9 mlrd odam Internetga umuman ulanish imkoniyatiga ega emas. Hozircha internetga bog'lanish imkoniyati bo'yicha AQSh 91.8 foizni tashkil etib ustunlikka ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda Buyuk Britaniya 97.8 foiz internet abanenti mavjud bo'lib dunyoda ushbu tarmoqdan foydalanish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarni esa Yevropa davlatlari egallamoqda. Ayniqsa, "ko'hna qit'a"ning ayrim mamlakatlari, xususan, Germaniyada esa 93.1 foiz, Frantsiyada 92.6 foiz, Italiyada 74,5 foiz, shuningdek, ba'zi muxim hamda aholisi ko'p davlatlarda Kanada 93.8 foiz, Rossiyada 88,2 foiz, Braziliyada 84.3 foiz, Yaponiyada 82.9 foiz, Xitoyda 73.7 foiz, Hindistonda 32,8 foiz"[3] va nihoyat O'zbekistonda 76 foiz interetdan foydalanuvchilar bo'lib, aynan, ana shu davrlarlar kiberhujum, deya atalgan balodan ko'p qiroq aziyat chekayapti;

dunyo davlatlarining kiber jinoyatchilardan ko'rgan zarari yildan yilga o'sib bormoqda. Jumladan:

□ 2022 yilda kiberjinoyatchilar qurbonlardan 8,44 trillion dollarlik mablag' yig'digan;

□ 2023 yil oxirigacha kiberjinoyatchilar qurbonlardan 11,50 trillion dollarlik mablag' yig'digan;

□ 2024 yil oxirigacha kiberjinoyatchilar qurbonlardan 14.57 trillion dollarlik mablag' ega bo'lishi taxmin etilmoqda; [4]

bu ko'rsatgichlar soni 2027 yilga kelib jamiyatgan keltirgan zararlar miqdori 23.82 trillion dollardan oshib ketishini muraxasislar ta'kidlashmoqda.

Shunidek:

* osiyo-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 26 foizi yil davomida kiberjinoyatchilik faoliyati bilan shug'ullangan;

* yevropa-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 24 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

* shimoliy Amerika-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 23 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

□ * afrika mintaqasidagi mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 14 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

□ * lotin Amerika-mintaqadagi ba'zi tashkilotlarning 13 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan [5].

Yuqorida qayd etilganidek, bu hududlardagi aholining aksariyati internetni nafaqat axborot manbai, balki kommunikatsiyaning sodda usuli, ya'ni savdo-sotiq, to'lovlarni amalga oshirish yo'li, deb ham qabul qilganlarki, bu mazkur jinoyatning chuqur ildiz otishida asosiy omil bo'lmoqda. Ma'lumki, g'arb mamlakatlari aholisining asariyati o'z jamg'armalarini banklarda saqlashadi. Bank operatsiyalarini amalga oshirishda esa onlayn banking yoki mobil-banking tizimidan foydalanadi. Kiberjinoyatchilar esa aynan ana shu nuqtalarga ko'proq zarar bermoqdalar.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda global muammolar qatorida tilga olinayotgan virtual hujum, yangi kiberjinoyatchilik virusli dasturlarini tarqatish, parollarini buzub kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag'larni talon-taroq qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo'hton, pornografik ma'lumotlarni tarqatish bilan bashariyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga keskin xavf solayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlarida ham har yili dunyoda 2 millionga yaqin shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari xakerlar tomonidan o'g'irlanayotgani va bu firibgarlar 1

milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy zarar bilan yakun topayotgani e'tirof etilmoqda. Ba'za foydalanuvchilarga "Yolg'on va'dalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali manipulyatsiya qilish va shantaj qurbonning shaxsiy va professional hayoti uchun halokatli bo'lishi mumkin"[6] aytiladi.

Bundan ham yomoni mazkur tahdid o'zidan jinoyiy iz qoldirmasligi bilan ham o'ta xavfli tus olayotgani xalqaro ekspertlarni xavotirga salayotir. Shu bois dunyo hamjamiyati, aniqrog'i, har bir mamlakat, avvalo, internet tizimiga juda mustahkam himoya tizimi o'rnatib, ushbu xavfdan xoli bo'lishga itilmoqda. Ammo, afsuski, bunday himoyalani shuning yagona tizimi hozircha mavjud emas. Shu bois global miqyosda mazkr jinoyatning qamrovi soat sayin kengayib bormoqda. Komp'yuter xavfsizlik dasturlari ishlab chiqaruvchi "Symantec" kompaniyasi ma'lumotlariga qaraganda, bir kecha-kunduzda sayyoramizda xakerlar tomonidan 100 ga yaqin kiberxujumlar sodir etilmoqda. Oqibatda, ayniqsa, yirik kompaniya va tashkilotlarning iqtisodiy mavqeiga jiddiy putur yetayapti. Yetakchi iqtisotchilarning fikricha, ana shuday kutulmagun hujumlar tufayli yetkazilgan zararni qoplash uchun jahon miqyosida "2022 yilda taxmin 8.4 trillion, 2023 yilda esa 11 trillion va bu ko'rsatgich 2026 yilga kelib 20 trillion"[7] AQSh dollariga teng mablag' sarflanishi nazarda turulgan. Bugun hatto yaxshi himoyalangan xalqaro tashkilotlar ham komp'yuter josusligidan xavotirga tushayotgani bejiz emas. Maxfiy ma'lumotlarning oshkor etilishi natijasida kompaniyalarning katta miqdorda zarar ko'rishi mumkinligi shu ma'noda barchani birdek xavotirga solayotir. Misol uchun, bundan bir necha yillar oldin xakerlar yirik "Nasdaq" birjasining yopiq internet servisini buzub, alamashiladigan ichki ishonchli ma'lumotlaridan bir qismini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lganlari ko'pchilikni xushyorlikka undagan bo'lsa kerak. Dunyodagi eng yirik kompaniyalarga qaratilayotgan bunday josusliklar tufayli 2016 yilda SWIFT xalqora pul o'tkazmalar tizimiga xakerlar hujumidan 81 million dollar zarar ko'rgan. Ular qatorida mashhur "Apple" kompaniyasi va eng katta ijtimoiy tarmoqlar, deya tan olingan "Facebook" va "Twitter", shuningdek, "The New York Times", "Wall Street Journal", "Associated Press" kabi nashrlar borligi jinoyatning mazkur turi ham qanday to'siqni ham oson zabt etishidan dalolat berayapti. Reuters axborot agentligi mantligi ma'lumotiga ko'ra, bir necha yil oldin "Apple" xodimlari komp'yuter dasturi virusi, aniqrog'i, murakkab troyan virusi ko'rinishidagi kiberhujumga duch kelishgan. Kompaniya vakillarining so'zlariga qaraganda, bunday virus komp'yuterga jiddiy zarar yetkazadi va buzg'unchilarning unga kirishi uchun imkoniyat yaratadi. "The New York Times" mutasaddilari esa mazkur kiberhujumlar ortida ma'lum bir davlatlar manfaati borligini ta'kiladilar. Bu qanchalik haqiqatga yaqinligi hozircha noma'lum.

Ana shu o'rinda ushbu jinoyatlarni qoyilmaqom tarzda bajarayotgan xaker g'alamuslar rahm-shavqat tuyg'usini unutib qo'yan shaxlar ekanini ham unitmaslik lozim. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini sohasini puxta egallagan tajribali kasb egalari o'z bilim va mahoratini yovuz maqsadalar uchun ishlatayotganini hech qaysi izox bilan oqlab bo'lmaydi. Kiber o'g'rilar uchun o'tgan asrning 80-yillari eng qulay davr bo'lganini ta'kidlash lozim. Balki shu paytda komp'yuter operatsion tizimlari boshqatdan ishlab chiqarilayotgani sabab bo'lgandir. Chunki komp'yuter operatsion tizimlarining ancha ko'p zaiflik jihatlarini borligi kiber o'g'rilar qulaylik yaratgan. Aynan shu davrda internetdagi ilk jinoyat ham aniqrog'i, bundan 30 yillar avval sodir etilganini aytilish lozim. O'sha paytda global tarmoq ARPANET deb atalardi. O'sha davr xakerlaridan biri Kevin Mitnik Pentagonning komp'yutir ma'lumotlar bazasini

o'g'irlaganlikda ayiblanib 17 yilga ozodlikdan mahrum eilgan edi.

Yildan-yilga kiberjinoatchilar tomonidan yetkazilayotgan moliyaviy zarar miqdori ko'payib bormoqda. Infarmatsion texnologiyalar rivojlangan davlatlarda kiberjinoatchilarning aksariyatini internet firibgarligi, turli yolg'on va bo'xton ma'lumotlar bilan insonlarni o'ziga jalb qiluvchi xavfli viruslar tarqatish tashkil etayotgani ta'kidlanmoqda. Ummon nargi tomonidagi bir qator mamlakatlarda, masalan, AQShning o'zi ham xakerlardan juda katta miqdorda zarar ko'rayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mutaxasislarning ta'kidlashicha, global tarmoq, ya'ni internet paydo bo'lib faoliyat ko'rsatayotgandan buyon xaker guruhlar hujumi oqibatida AQSh har yili milliardlab dollar zarar ko'radi. "Professional xakerlar zaifliklarni topish

va hujum usullarini ishlab chiqish uchun dasturiy ta'minotni tadqiq qiladi" [8] shu yo'l bilan daromat topishadi.

Bu dunyoda narkobiznesdan keladigan daromat miqdoridan ham ortiq. Darhaqiqat, bu XXI asrda insoniyat qanday xavf-xatar ro'parasida turganini ko'rsatadimoqda.

Xulosa va takliflar. Shunisi ravshanki, ijtimoiy tarmoq orqali bizga salbiy infarmatsion ta'sir o'tkazish mumkin bo'lgan, ilgari amalga oshiriliagan virtual sayi harakatlar avj olayotgani hech kimga sir emas. Bunday xavf-xatarlarga nisbatan beparvolik va loqaytlikni aslo kechirmasligiga ham guvoh bo'layotgan dunyo ahli unga qarshi kurashishning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini yana ham kuchaytirish ustida bosh qotirmog'i lozim. Shuning uchun xalqaro miqiyosda turli bitim va kelishuvlar ham imzolanmoqda. Biroq, vertual makondagi jinoyatchilik hozircha bunday qonunlarga itoat etishmayapti.

ADABIYOTLAR

1. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/5602678>
2. <https://clickfraud.ru/statistika-kiberprestuplenij-2022?action=genpdf&id=39820>
3. <https://datareportal.com/reports/digital-2023>
4. <https://earthweb.com/how-much-has-cybercrime-increased/>
5. O'sha manba. <https://earthweb.com/how-much-has-cybercrime-increased/>
6. Кевен Митник Книга: "Искусство обмана: Человек внутри машины" Год издания: 2022 Издательство: Питер
7. <https://www.antivirusguide.com/cybersecurity/cybercrime-cost-statistics/>
8. Крис Анлей и Кевин Бехл Книга "Компьютерная безопасность: Искусство защиты информации" Год издания: 2017 Издательство: Диалектика
9. Primov B. "Axborot global jarayonlarning kuchli ta'sir vositasi". NamDU ilmiy xabarnomasi. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427. 2-son 2024. B-209-214
10. Primov B. "Axborotlashgan davrda va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning kuchayishi". Tamaddinnuri ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal ISSN 2181-8258 "ADAD PLYUS" Toshkent-2024. B-180-185.
11. Primov B. "Axborotlashgan davrda global jarayonlar va madaniyatlar o'zgarishi". O'zMU xabarleri. Toshkent -2024. B-187-191
12. Primov B. "Axborotlashgan davrda axloqiy qadriyatlar" International journal of philosophical studies and social sciences issn-e: 2181-2047, issn-p: 2181-2039 <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 4, Issue 4 (2024)
13. Примов Б. "Ахборотлашган даврда оммавий ахборот воситаларининг ўрни" Фалсафа ва ҳуқуқ. 2024/1 Б-208-211



UO'K:323:070.431

Habibullo RAJABOV,
DSc, Tashkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: rhabibullo@mail.ru

F.f.d O' Tilovov taqrizi asosida

THE EVOLUTION AND FUTURE OF INFORMATION WARFARE

Annotation

The article analyzes the historical development, current state, and future prospects of information warfare. It examines the evolutionary stages of information warfare from traditional propaganda to modern digital technologies. Other means of contemporary information warfare, such as fake news, manipulative actions in social networks, and cyber attacks, are highlighted.

Key words: Information warfare, cybersecurity, fake news, social networks, digital diplomacy, media literacy, geopolitical competition, national security.

ЭВОЛЮЦИЯ И БУДУЩЕЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ВОЙН

Аннотация

В статье анализируется историческое развитие, текущее состояние и будущие перспективы информационных войн. Рассматриваются эволюционные этапы информационных войн от традиционной пропаганды до современных цифровых технологий. Показаны другие средства современных информационных войн, такие как фейковые новости, манипулятивные действия в социальных сетях и кибератаки.

Ключевые слова: Информационные войны, кибербезопасность, фейковые новости, социальные сети, цифровая дипломатия, медиаграмотность, геополитическая конкуренция, национальная безопасность.

AXBOROT URUHLARINING EVOLYUTSIYASI VA KELAJAGI

Annotatsiya

Maqolada axborot urushlarining tarixiy rivojlanishi, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qiladi. Axborot urushlarining an'anaviy targ'ibotdan to zamonaviy raqamli texnologiyalargacha bo'lgan tadrijiy bosqichlari ko'rib chiqiladi. Soxta xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ harakatlar va kiber hujumlar kabi hozirgi zamon axborot urushlarining boshqa vositalari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot urushlari, kiber xavfsizlik, soxta xabarlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli diplomatiya, media savodxonlik, geosiyosiy raqobat, milliy xavfsizlik.

Kirish. Jahonda texnik va texnologik taraqqiyotning kuchayib borishi natijasida urushlarning salmog'i, ta'sir ko'lamini ham ortib bormoqda. Dushmanga ko'proq zarar yetkazish, talofotning yuqori darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida zamonaviy qurollardan foydalanish g'alaba qozonishning birlamchi vositasi sifatida qaralmoqda. Tajribadan ma'lumki, bir muddat urushda ishtirok etgan davlat o'zining katta resurslarini yo'qotadi. Bunday resurslar sirasiga eng avvalo, inson, iqtisodiy va harbiy resurslarni keltirish mumkin. Shu sababdan, yo'qotishlarni imkon darajasida minimallashtirish, kam mablag' sarflab ko'proq natijalarga erishish, g'alaba qozonishning turli yo'llari va usullarini izlashga bo'lgan urinishlar amalda o'z natijasini bermoqda. Aytish kerakki, dunyoda barcha vositalar zamonaviylashib borgani sayin, urushda g'alaba qozonishga yordam beruvchi yangi imkoniyatlar ham yaratib kelinmoqda. Bunday yangi imkoniyatlar sirasiga kiruvchi "axborot urushlari" bugungi zamonaviy qarama-qarshiliklarning tarkibiy qismiga aylandi.

Axborot urushi deganda muayyan raqibni yengish uchun moddiy, harbiy, siyosiy yoki mafkuraviy sohalarida axborot subyektlari tomonidan bir-biriga ochiq yoki yashirin, maqsadli axborot ta'siriga aytiladi. "Axborot urushi" tushunchasining paydo bo'lish tarixi ham o'tgan asrga borib taqaladi. Ba'zi manbalarda mazkur tushuncha o'tgan asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilganligi qayd etilsa, ayrim mualliflar "axborot urushi" termini XX asrning 70 yillarida tilga olingan deb hisoblashadi.

"Axborot urushlari" atamasi ham yangi dunyoning geosiyosiy raqobat sharoitida urushning muhim vositasi sifatida ilmiy manbalarda qayd etilmoqda. Jahonda kechayotgan voqealar rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin yillarda axborot urushlari, gibrid urushlar, axborot mafkuraviy urushlar geosiyosiy raqobat kuchayib borishi sharoitida an'anaviy qurolli mojarolarning o'rnini egallaydi. Buni o'z vaqtida anglab yetgan mamlakatlar o'zining axborot-texnik va axborot mafkuraviy imkoniyatlarini mustahkamlashga doir huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilashgan. Buni ayrim rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rib chiqishni lozim topamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A. Solovyevning keltirishicha, "AQSH Prezidentining 1999 yil 30 yanvardagi PDD-68 qaroriga muvofiq, Markaziy razvedka boshqarmasi tarkibida yangi tuzilma - International Public Information Group (IPG)" [1] Xalqaro jamoatchilik axborot guruhi tashkil etilgan bo'lib, u razvedka ma'lumotlaridan foydalanish uchun mo'ljallangan. Qaror matnida xorijiy davlatlar rahbarlari, rasmiy shaxslari va boshqa alohida e'tibordagi fuqarolarining his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, fikrlashiga ta'sir o'tkazishga doir tavsiyalar berilgan. Bugungi kunda AQSH axborot urushlari yo'nalishida raqobatbardoshlik muhitini to'laqonli yaratib ulgurgan. Sohani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, axborotning texnik resurslaridan yuqori darajada foydalanishda AQSH dunyoda yetakchi mamlakat

hisoblanadi. Raqamlarga murojaat qilishning o'zi umumiy xulosalar qilish imkonini beradi. "Global Security.org veb-saytida taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2004 yil dekabr oyining oxiriga kelib, Yerga yaqin orbitada 138 ta Amerika, 61 ta Rossiya, 10 ta Xitoy va 12 ta Yevropa harbiy sun'iy yo'ldoshlari bo'lgan"[1].

"Arab bahori" deb nomlangan Shimoliy Afrikaning bir qator (Misr, Tunis, Liviya) davlatlarida 2011 yil bahorida sodir bo'lgan davlat to'ntarishlarida axborot urushlari sharoitida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynagani ma'lum. Fuqarolarda amaldagi hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otishda internetning ommaviy ta'sir imkoniyatlari sinovdan o'tkazildi. Natija ma'lum bo'lgach "Oq uy veb-saytida "T e U. S. International Strategy for Cyberspace" ya'ni AQSH diplomatiyasining maxsus tarmoq texnologiyalari yordamida axborot makonini boshqarish nomli hujjat e'lon qilindi"[2]. Ushbu hujjatga ko'ra AQSHning maxsus tarmoq texnologiyalari yordamida global axborot muhitini boshqarish bo'yicha mamlakat diplomatiyasining asosiy harakat yo'nalishlarini belgilab beradi. Axborot urushlari mavjudligi va kuchayib borishi sharoitida axborotni boshqarishning muhim elementi bu Internetdir. "2011-yil 18-mayda AQSH Davlat kotibi X.Klinton "Internet erkinligi biz uchun juda muhim ustuvor vazifadir. Biz shaxsiy daxlsizlikni yaxshiroq himoya qilish, onlayn va oflayn rejimda yig'ilish va boshqa tadbirlar o'tkazishning asosiy erkinliklarini ta'minlash uchun birgalikda ishlashni istaymiz", deya ta'kidlagan"[2].

Yevropada o'z qadriyatlarini, an'analari, harbiy va informatsion qudratini muntazam oshirib borayotgan Fransiya o'zining erishayotgan natijalarini xorijiy mamlakatlar bilan solishtirish asnosida axborot qudratini mustahkamlab bormoqda. O'tgan asr oxirlarida mamlakat hukumati tomonidan asos solingan elektron urushlarni tashkil etish va olib borish brigadasini bunga misol sifatida keltirish mumkin. "DRM (Direction du Renseignement Militaire) turli harbiy qismlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun razvedka va elektron urush brigadasi"[2] tashqi ma'lumotlarni qabul qilish, umumlashtirish, qayta ishlash va hukumatning tegishli idoralariga taqdim qilish bilan shug'ullanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirilgan ikki mamlakatning axborot urushlari ortib borishi sharoitida milliy axborot resurslarini kuchaytirishga e'tibor qaratishi, mazkur mamlakatlarni dunyoda eng qimmatbaho resurs sifatida e'tirof etilayotgan axborotga egalik qilish va uni boshqarish imkoniyatini oshiradi. Mutaxassislarining qayd etishiga ko'ra, dunyo mamlakatlari axborot urushlari fonida ikki guruhga ajralib ulguragan. Bular, axborotni sotuvchi va sotib oluvchi davlatlardir. Zero, E.To'ffler ta'kidlaganidek, "...ko'proq axborot, ma'lumotlar va bilimlar milliy chegaralar orqali oqib o'tayotganligi sababli, telekommunikatsiya tizimlari o'rtasidagi axborot urushi operatsion tizimlar o'rtasidagi urushdan ko'ra ko'proq siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi"[3]. Masalaning o'ziga xos tomoni shundaki, telekommunikatsiya tizimlari rivojlangan davlatlar axborot urushlari sharoitida ikki karra ustunlikka ega bo'ladi. Birinchisi, axborotni o'z manfaatlariga moslashtirish bo'lsa, ikkinchisi uni o'zi istagan narxda va mazmunda sotish imkonining mavjudligidir. Rastorguyev ta'biri bilan aytganda, "Bugungi axborot g'alabalari asosan axborot texnologiyalariga emas, balki avvalgi barcha urushlar singari alohida "axborot manbalari"ni sotib olish va sotishga asoslangan"[4].

Mazkur jarayonda axborotni qimmatbaho resurs sifatida tayyorlash va sotishga ixtisoslashgan davlatlarning ustunligini ortiqcha izohlashga hojat qolmaydi. Axborot makonining turli ma'lumotlar bilan to'lib borishi ushbu makonda sodir bo'layotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish strategik ahamiyat kasb etib boradi. Kerakli axborotni ko'paytirish, o'zi uchun keraksiz deb hisoblangan

axborotni esa yo'q qilish, neytrallashtirish esa tabiiy jarayon sifatida qabul qilinadi.

Aksariyat mualliflar axborotni hujum qilish quroli sifatidagi rolini e'tirof etishadi. Mualliflar D.S. Chereshekin, G.L. Smolyan, V.N. Sigichko axborotning hujumga qaratilgan texnik vositalarini quyidagicha izohlashgan:

- "kompyuter viruslari;
- mantiqiy bombalar (dasturiy ta'minot vositalari);
- telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini, davlat va harbiy boshqaruv kanallarida axborotni qalbakilashtirishni bostirish vositalari;
- test dasturlarini neytrallashtirish vositalari;
- obyektning dasturiy ta'minotiga maqsadli kiritilgan turli xil xatoliklar"[5].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rsatilgan vositalar axborot urushi sharoitida kiberxurujlarning kuch-qudratini namoyish qilish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi ixtiloflarda, xakerlar guruhining Rossiyaga qaratilgan kiber imkoniyatlarini ochiq ko'rsatib berdi. "Anonymous" xakerlar guruhi ochiqchasiga Rossiya hukumatiga qarshi "kiber urush" boshlanganini e'lon qilib, mamlakatning xalqaro maydonda axborot tarqatuvchi nufuzli "Russia Today" kanali veb-saytini buzib kirish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oldi. Shuningdek, "2022 yil 17 mart kuni xakerlar Rossiya va Belarus hukumatlari, davlat ommaviy axborot vositalari, banklar va boshqa kompaniyalarning 2500 dan ortiq veb-saytlarini buzib kirishganini da'vo qilishdi"[6].

Axborot urushlari asosan geosiyosiy raqobat natijasida mamlakatlar, siyosiy subyektlar o'rtasida sodir bo'lishi bilan bir qatorda, u o'z-o'zidan mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatga ham u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Axborot qarama-qarshiligida davlatning axborot subyektlari o'z milliy manfaatlarini himoya qila olmasa, nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki, fuqarolarda ham amaldagi hukumatga ishonchsizlikni paydo qiladi. Bu esa, jamiyatda beqarorlik, hukumat imidjining pasayishi, o'z axborot manbalari qolib, tashqi informatsion resurslarga murojaat qilish kabi xavotirli voqeilikni keltirib chiqarishi mumkin. O Melnikova "...zamonaviy dunyoda ichki va tashqi siyosat o'rtasida aniq chegaralar mavjud emasligini"[7] ta'kidlaydi. Mazkur fikrdan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatga bo'ladigan har qanday tashqi ta'sir ichki muhitga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlatning ichki muhitidagi omillar tashqi maydonda aks-sado berishi ayni haqiqat.

Axborot urushlarining eng xavfli tomoni fikrimizcha, muayyan subyektlarning o'z qarashlarini to'g'ri va o'zgarmas deya uqtirishi bilan bog'liq. Falsafiy qonuniyatga ko'ra, har qanday qarash, fikr yoki g'oya vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, o'zining aktualigini yo'qotishi tabiiy. Ammo, o'z qarashlarini mutloq haqiqat sifatida ko'rsatayotgan subyektlar, ta'sir guruhlarining xavfi global makonda bartaraf etish zarur bo'lgan birlamchi vazifalardandir.

Bugungi kunda axborot urushlari fonida yetakchilikka da'vogar mamlakatlar tomonidan eng ko'p takrorlanayotgan chaqiriqlar, dunyo yetakchiligiga da'vogarlik, xalqaro hamjamiyat xavfsizligi uchun mas'ullik, va boshqa da'volarni ko'rsatish mumkin.

O Melnikova muayyan mamlakatga qaratilgan axborot urushining quyidagi ikki ko'rinishini asoslaydi:

1) "qurol va texnik vositalar bilan ifodalangan texnologik urush (elektron bombalar, elektron razvedka, xakerlik texnologiyalari, kiberrazvedka va boshqalar);

2) dushmanning axborot maydonini va pirovardida uning ongini qayta dasturlashni maqsad qilgan axborot-psixologik ta'sirdir"[7].

Olima axborot urushining har ikki yo'nalishining bosh maqsadi mamlakatning milliy suvereniteti, hududiy

yaxlitligini barbod qilish istagi bilan yuog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, "...axborot urushi keng qamrovli yaxlit strategiya sifatida, hayotning barcha sohalarida: boshqaruv, iqtisodiyot va boshqa sohalarida axborotning tobora ortib borayotgan ahamiyati va qiymati bilan bog'liqdir"[7].

"Axborot urushining predmeti va obykti inson ongi, uning bilish imkoniyatlaridir"[7]. "Russia Today" axborot agentligi bosh muharriri M. Simonyanning qayd etishiga ko'ra, "...so'nggi yillarda olib borilgan birorta urush yo'qki, u kuchli kuchli artilleriya yordamisiz, televideniye, radio, gazeta va onlayn manbalar tomonidan aniq bombardimon qilinmasdan boshlangani yo'q"[8]. Shu jihatdan, siyosiy muloqotda qo'llaniladigan axborot ta'sirining zamonaviy usullari, shakllari va vositalarining umumiy ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish axborot urushida eng avvalo, yengilmaslikni ta'minlovchi omildir.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan dalillar, tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari, raqamlar, manbalarining umumiy ma'lumotlaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ilgari surish zarurati paydo bo'lmoqda:

Birinchidan, geosiyosiy raqobatning kuchayib borishi sharoitida axborot urushlarining ta'sir doirasiga tushmaslik, milliy axborot makonini xalqaro tajribadan foydalangan holda rivojlantirish vazifalari strategik ahamiyatga egadir;

Ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan axborot urushlarining makon va zamon chegarasidan chiqib ketishi, kommunikatsiya tizimlarining shiddat bilan rivojlanishi sharoitida muayyan davlatning axborot omilidan aniq maqsadlar yo'lida foydalanishi milliy va xalqaro auditoriyada o'z ta'sir doirasini ushlab turishi, barcha yo'nalishlardagi pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi;

Uchinchidan, global axborot makonida milliy axborot subyektlarining doimiy, aniq maqsadlarni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati natijasida, tashqi siyosiy faoliyatni

milliy manfaatlariga mos axborot bilan ta'minlash hamda, mamlakatga tashqaridan bo'ladigan axborot tahdidlarini kuchsizlantirish yoki butunlay bartaraf etishning ijobiy yechimi sifatida xizmat qiladi;

To'rtinchidan, axborot urushlarining mazmun-mohiyati, zararli oqibatlarini jamiyat a'zolariga yetkazishda milliy kommunikatsiya vositalarining imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularni eng zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash samarali axborot siyosatining ustuvorligiga erishish vositasidir;

Beshinchidan, axborotni soxtalashtirish, fuqarolar ongini manipulyatsiya qilish, milliy birlikka raxna soluvchi axborot vositalari faoliyatini cheklashga doir qonunchilikni yanada takomillashtirish, mas'ul organlarning o'zaro hamkorligini oshirish milliy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir;

Oltinchidan, shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlashda "axborotni sotib oluvchi" maqomidan uni "sotuvchi" maqomiga to'laqonli o'tishning moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy manbalarini aniqlash va rivojlantirish vazifasi davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir;

Yettinchidan, axborot tahdidlari eng ko'p uchrayotgan manbalarni (elektron axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, tele va audiokanallar) aniqlash, bartaraf etish va ularga qarshi tura oladigan milliy axborot "brend"lari soni va sifatini oshirish barqarorlikka erishish kafolatidir;

Sakkizinchidan, axborot urushlarida ustunlikka ega bo'lgan davlatlar tomonidan eng ko'p qo'llanilayotgan mexanizm va texnologiyalarning texnik va mafkuraviy yo'nalishlarini tadqiq etish, o'zlashtirish hamda milliy xususiyatlarga mos yangi texnologiyalarni yaratishni rag'batlantirish, aniq dasturlar qabul qilish axborot makonida yetakchilik qilishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Соловьёв А.В. Информационная война: понятие, содержание, перспектива. Пространство и время 2/2010. С-75.
2. https://propagandahistory.ru/books/Igor-Panarin_SMI--propaganda-i-informatsionnye-voyny/33.
3. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: Издательство АСТ, 2004. - С. 164.
4. Расторгуев С.П. Информационное оружие и проблема алгоритмической неразрешимости перспективности для информационных самообучающихся систем. <http://evartist.narod.ru/text4/58.htm>.
5. Черешкин Д.С. , Смолян Г.Л., Цыгичко В.Н. . Реалии информационной войны.//Защита информации. «Конфидент». №4, 1996.
6. <https://www.currenttime.tv/a/hakery-anonymous-vzлом-bank/31771690.html>
7. Мельникова Ольга Андреевна. Информационное обеспечение внешнеполитической деятельности современных государств (политологический анализ). Диссертация на соискание ученой степени кандидата политологических наук. Москва 2020. С-82.
8. Симоньян М.: «Ни одна война в последние годы не начиналась без поддержки прессы» // URL: <https://russian.rt.com>.



UDK:182.2.2.

Yulduz RAXIMOVA,
Samarqand shahar "Cambridge unit school" maktabi o'qituvchisi
E-mail:yraximova711@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

VOHID TURK - NAVOIY IJODI TADQIQOTCHISI

Аннотация

Ushbu maqolada Navoiy asarlarini Turkiyada tarjima qilinishi va nashr etilishiga ulkan hissa qo'shgan navoiyshunos olim Vahid Turkning fikrlari yuzasidan munosabat bildiriladi. Darhaqiqat, Turkiyada Navoiy hayoti va ijodini o'rganish yo'lida alohida o'ringa ega bo'lgan bu olim Navoiy falsafiy-axloqiy hamda badiiy jihatdan mukammal bo'lgan asari - "Mahbub ul qulub"ning turkchaga tarjima qilgan hamda uning nashr etilishida bosh-qosh bo'lgan. Olim "Mahbub ul qulub" asarini "siyosatnoma-nasihatnoma ko'rinishidagi asar" deya ta'riflaydi. Ushbu fikrlar esa Vahid Turkning Istanbulda chop etilgan "Mahbub ul kulub" kitobining kirish qismida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Falsafiy-axloqiy, diniy, Vahid Turk, monografiya, Husayn Boyqaro, siyosatnoma, nasihatnoma, "Mahbub ul qulub".

ВОХИД ТУРК – ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ТВОРЕНИЯ НАВОИ

Аннотация

В данной статье выражено мнение Вахида Тюрка, ученого-навоийца, внесшего большой вклад в перевод и публикацию произведений Навои в Турции. Фактически этот учёный, занимающий особое место в изучении жизни и творчества Навои в Турции, перевёл на турецкий язык философско-этический и художественно совершенный труд Навои – «Махбуб ул Гулуб» и был лидером по его изданию. бровь. Учёный характеризует работу «Махбуб уль-Кулуб» как «работу в форме политического совета». Эти мысли выражены во введении к изданной в Стамбуле книге Вахида Тюрка «Махбуб ул Кулуб».

Ключевые слова: Философско-этический, религиозный, Вахид Тюрк, монография, Хусейн Бойкара, программный документ, совет, «Махбуб уль-Кулуб».

VOHID TURK - RESEARCHER OF NAVOI'S CREATION

Annotation

In this article, the opinion of Vahid Turk, a Navoi scholar who made a great contribution to the translation and publication of Navoi's works in Turkey, is expressed. In fact, this scientist, who has a special place in the study of Navoi's life and work in Turkey, translated Navoi's philosophical-ethical and artistically perfect work - "Mahbub ul Qulub" into Turkish and was the leader in its publication. - there was an eyebrow. The scientist describes the work "Mahbub ul Qulub" as "a work in the form of a policy-advice". These thoughts are expressed in the introduction of Vahid Turk's book "Mahbub ul Kulub" published in Istanbul.

Key words: Philosophical-ethical, religious, Vahid Turk, monograph, Husayn Boykara, policy document, advice, "Mahbub ul Qulub".

Kirish. Sharq mumtoz adabiyoti an'anaga asoslangan, g'oyaviybadiiy an'ana zaminida o'zgarib, yuksalib borgan adabiyotdir. An'anaviy g'oya, mavzu, obraz va tasvir vositalariga tayanib faoliyat ko'rsatgan bu adabiyot dunyo badiiy tafakkurida beqiyos mavqe egallagan. Ammo bunga osonlikcha, yengil-yelpi ijodiy mehnat bilan erishilmagan, albatta. Chunki an'ana degani hammasi oson, bari ilhombaxsh va ibratli degani emas. Har qanday an'ana singari adabiy an'anada ham ijobiy, eskirmas tomonlar bilan birga vaqt o'tishi bilan qiymatini boy bergan, qaytariq yoki bir xilligi bilan o'quvchini bezdiradigan u yoki bu jihatlar bo'lgan va bo'ladi ham. Har bir ulkan san'atkor eskirgandan kechish yoki uni yangilash bilan birga, yo'qni bor etish, ya'ni ixtirochilik salohiyatini ham namoyon qiladi. Shu ma'noda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijod tajribasi tarixda nihoyat darajada siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir.

Turkiy xalqlar adabiyoti va madaniy hayotiga ulkan hissa qo'shgan Navoiy ijodi hanuzgacha barhayot. Ushbu davrgacha Navoiy asarlari ko'plab turkiy xalqlarning yuragidan munosib o'rin olishga ulguragan. Shu jumladan, qardosh turk xalqi orasida ham Alisher Navoiy ijodiga va uning lirik merosiga qiziqish juda katta. Buni Navoiy

asarlarning turk tiliga tarjima qilinishida hamda ushbu meros yuzasidan ilmiy va badiiy tadqiqotlar olib borilayotganida ko'rishimiz mumkin. "Shubhasiz, Navoiy haqida yozilgan asarlar bulardangina iborat emas.

Adabiyotlar tahlili. Fuod Ko'prulu, Ogoh Sirri Levant, Sa'diddin Nus'hat Ergun, Alaidin Guvsu, Mustafu Eson, Yusuf Chetindag' kabi tadqiqotchilarning ham Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq bir talay ishlari mavjud.

F.Ko'pruluning "Turk tili va adabiyoti haqida tadqiqotlar" nomli kitobida ham "Alisher Navoiy va ta'sirlari" mavzusidagi bir bo'lim bor. Ko'rinib turibdiki, turk madaniyati va adabiyoti uchun bunday muhim shaxs haqida Turkiyada bugunga qadar bir-biridan farqli juda ko'p ishlar qilingan [1]. Alisher Navoiyning devonlari, dostonlari va falsafiy-badiiy asarlari Turkiyada turli tadqiqotchilar tomonidan tarjima qilinib, nashr ettirilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy haqida usmonli turk tilida ko'plab navoiyshunos olimlar tomonidan turli asar va maqolalarning chop ettirilishi usmonli turklarning Navoiy ijodiyoti, asarlari va shaxsiyatiga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodiga nisbatan qiziqish Turkiyada hozir ham

shunchalik kuchliki, turk millatiga mansub ilm ahli hatto turli vebsahifa va forumlarda eski o'zbek adabiy tilining asoschilaridan birining hayoti va ijodiga doir turli ma'lumotlarni yozib, internet sahifalari orqali o'zaro fikr almashishadi. Jumladan, Ridvan Janimning "Turk madaniyati va adabiyotida Alisher Navoiy tadqiqotlari", Jenos Ekmanning "Navoiyning ilk devonlari xususida", Yusuf Chetindag'ning "Usmonli adabiyoti va Navoiy", "Alisher Navoiy va usmonli podshohlari", "Alisher Navoiy va turk she'riyati tili" kabi maqolalari shular jumlasidandir [4].

Tahlil va natijalar. Navoiyning ijodini tahlil va tadqiq qilishda jonkuyarlik qilgan turk olimlaridan biri Vahid Turk. Shuningdek, olim Navoiy asarlarining keng ko'lamda turk tiliga tarjima qilinishida ham yetakchilik qilgan. Xususan, olimning "Mahbub ul qulub" asarining turk tiliga tarjima nashrida yozgan so'zboshisida shunday fikrlar bildirgan: "...Butun hayotini Turkiy millatlar rivoji uchun xizmat qilishga baxshida etgan Alisher Navoiy o'ttizga yaqin asar yozgan va barcha asarlarining boshlanish debochasida "turkiylar ham foydalansin deya yozdim" iborasini qo'llaydi. Bu jumlar bilan turkiy xalqlar adabiyotida muhim o'rin egallagan".

Olim hazrat Alisher Navoiyni shunday so'zlar bilan ta'riflab, madh etadi: "Navoiy: boy va asil bir oilaning farzandi bo'lgan Alisher Navoiy bobosining sharofati bilan temuriylardan bo'lgan Abulqosim Bobur mirzoning himoyasiga kiradi. Sultonning marhamatiga sazovor bo'lib, uning tarafidan "o'g'lim" deb iltifot ko'rsatadi. Ayni shu himoyani ko'rgan va o'zi kabi san'atga ishqiboz bo'lgan temuriy hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning muhrdori, devonbegisi, sirdoshi bo'lish bilan bir qatorda xattot, rassom, musiqashunos va buyuk shoirdir.

Hirotda tavallud topgan Alisher Navoiy, 1499-yilda yozib tugatgan "Mukomat ul lug'atayn" asarida turkiy tilning forschadan ifoda qudrati va mukammalligi bo'yicha yanada yuqorida ekanligini bir qancha misollar bilan isbotlagan, bunga qaramay tilimiz haqidagi bu haqiqat yashirin bo'lib qolganidan layoqatsiz shoirlarimizning forschada ijod qilganidan afsuslanib, yuksak milliy ongga ega ekanini ham ko'rsatadi. Devon va xamsa asarlaridan tashqari tazkiralari, diniy va axloqiy asarlar, tarixiy va biografik asarlar yozish bilan bir qatorda, davlat idorasi boshqaruvida ham faol ishtirok etdi. Aksincha, ziyrakligi tufayli soliq muammolari tufayli qo'zgonni bostirishda yetakchilik qiladi. Sulton Husayn Boyqaro bu xizmatlari uchun Navoiyni "Ruknus saltana"(saltanat tayanchi), "umdatul mamlakat"(mamlakat tayanchi), "xoqonning davlat yordamchisi", "Muaqarrab ul hazrati sulton" (podshoh do'sti), "Nizomiddin Mir Alisher" kabi unvonlar bilan siyladi" [2].

Tadqiqotchi olim ushbu asarda ham Navoiyning hayotiga oid batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Zotan, Navoiyning tug'ilgan davridan boshlab to vafotiga qadar bo'lgan voqealarni kitobxonga batafsil yetkazib beradi. Barcha adabiyotshunoslar singari Vahid Turk ham Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlikni shunday izohlaydi: "Alisher yoshlik davrini Amir Temurning o'g'illaridan bo'lgan Umarshayx Mirzoning avlodlaridan bo'lgan Husayn Boyqaro bilan o'tkazdi, bitta ustozlardan dars oldi va do'st tutundilar. Bu ikki buyuk shaxs orasidagi yaqinlik zamonlar oshib mustahkam do'stlikka aylandi va bu do'stlik umrlari o'tib borgani sari davom etdi, zamona fitnlari avj olgan davrlarda ham bu do'stlik hech ham uzilmadi. Bu do'stlik turkiy madaniyati va sivilizatsiyasida unumli hissa qo'shdi, ular yashagan davrda madaniyat va adabiyot sohiblarining suhbatlaridan tashkil topgan "Boyqaro majlislari" nomi ostida shuhrat qozondi". Bu o'rinda olim Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o'rtasidagi dostlik nafaqat davlar rivojiga manfaatli bo'lganini aytib o'tadi, shu bilan birga adabiyot va san'at ahli ham bu do'stlikdan foyda topganliklarini aytib o'tadi.

Adabiyotshunos olim Navoiyning "Mahbub ul qulub" asari haqida shunday fikr bildiradi: "Turkiyaning turkchasiga tarjima qilganimiz "Mahbub ul qulub" Alisher Navoiy vafotidan oldin 1500/1501-yillarda yozilgan siyosatnoma-nasihatonoma ko'rinishidagi bir asardir. Asarning kirish qismidan so'ng 3 faslga bo'lingan va har bir fasl o'z ichiga tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan. Birinchi bo'lim xoqondan boshlab davlat xizmatchilari bilan maslak arboblarini mavzu qilib olingan va ijobiy va salbiy misollar bilan inson qanday bo'lish yoki bo'lmasligi kerakligini anglatadi. Asarning siyosatnoma bo'lgan bu bo'limda qirg'acha sarlavhali qirg'acha kasb vakillari tilga olingan. Ikkinchi bo'limda inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xilma-xil masalalar ta'kidlangan. So'nggi bo'lim esa 127 ta tanbehni o'z ichiga oladi. Bu tanbehlarda ham tegishli masalalarga qo'l urilgan va har bir tanbehning oxirida she'riy baytlar orqali yakun yasalgan".

Keyingi o'rinlarda esa olim tomonidan asarning adabiyot va ijtimoiy hayotimizdagi ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi: "Mahbub ul qulub" Navoiyning so'nggi asari bo'lishi bilan bir qatorda turkiy xalqlar sivilizatsiyasidagi eng manfaatli asardir. O'rxun yozuvlari va "Qutadg'u bilig" asari kabi siyosatnoma asarlar turiga kiradigan ushbu asar muallif tomonidan o'z zimmasiga olgan juda muhim davlat vazifalari yonida bevosita madaniy hayotning ichida bo'lishi, jamiyatni yaxshi bilishi, xalqning dardiga sherik bo'lganligi tufayli o'z tajribalarini aks ettiradigan bir asar sifatida taassurot qoldiradi".

Tadqiqotchi "Mahbub ul qulub" asaridagi ba'zi o'rinlarni pessimizm ko'rinishlari sifatida baholaydi. Olim fikrlarini davom ettirib: "Asarda juda hayratlanarli pessimizm bor. Ayniqsa, birinchi bo'limda yuqorida muhokama qilingan dalat amaldorlari va turli vazirlarga ta'rif berilganda ko'pincha salbiy baho beriladi. Odil bo'lmagan xoqon, vazifani sidqidildan bajarmagan vazirlar, tarbiyasiz ayollar, xalqqa zulm qilgan askarlar, riyokor shayxlar va boshqa muammolarni hal qilish va jamiyat sog'lom bo'lishi, o'z hayotini davom ettirish uchun bularni tuzatish zarurligi ta'kidlanadi. Navoiyning bu qadar pessimistik fikrlarini o'z davrining nuqtayi nazaridan tahlil qilish to'g'ri bo'ladi. Hayoti davomida davlat mansabdorlarining adolatsizliklari, haksizliklari bilan kurashdi, biroq umrining oxirida zaviyat yaxshi tarafga o'zgarishining o'rniga yanada yomonlashayotganiga, davlat qulash tomonga qarab ketayotganiga guvoh bo'lgan. Boyqaroning o'g'li va nabiralari o'rtasidagi taxt uchun kurashganliklarini ko'rdi, yoshlikdan birga o'sgan do'sti va hukmdori o'rtasidagi tushunmovchiliklar natijasida Hirotdan surgun qilindi". Olim ushbu fikrlarni pessimizm deb baholashiga sabab shundaki, Navoiy o'z davridagi o'ziga va xalqiga qilingan nohaqliklar va zulmlar haddan oshgan deb hisoblaydi. Vazirlar va davlat mansabdorlarining makr-u hiylalari ikki do'st o'rtasiga nifoq soladi, natijada vazirlar sultonning qo'li bilan "shaharni obod qilish" maqsadida Navoiyni Astrobodga surgun qiladi.

"Mahbub ul qulub" asari 1873-yilda Istanbulda chig'atoy turkchasida tarjima qilingan. Hozirga qadar ushbu asar yuzasidan lisoniy, falsafiy, adabiy jihatdan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. So'zimzni Vahid Turkning quyidagi so'zlari bilan tugatmoqchimiz: "O'zidan bir asr keyin yaratilgan tazkirada qayd etilgani kabi, biz faqirlar Navoiyning ta'rifi va tavsifi xususida so'z aytishga o'jizmiz".

"Mahbub ul-qulub"dagi nazmiy parchalar tarjimasida Vohid Turk ikki xil yo'l tanlagan. Ayrim she'riy parchalar turkchaga she'riy yo'l bilan o'girilgan, aksariyat nazmiy misralarning ma'no tarjimalari nasriy bayon etilgan. Shuni aytish joizki, she'riy tarjimalar sodda, ravon, o'quvchiga tushunarli uslubda.

Ayrim misollarga murojaat qilamiz:

Nazm Gahe topdim falakdin notavonliq,

Gahe ko'rdum zamondin komronliq,
Base issiq, sovuq ko'rdum zamonda,
Base achchiq, chuchuk toptim jahonda.
Nazm Bazen felekten zayıflık buldum,
Bazen zamandan mutluluk gördüm,
Çokça sıcak ve soğuk gördüm zamanda,
Çokça acı ve tatlı tattım cihanda.
Ruboiy Gardun gah menga jafu dunlig' qildi,
542 Baxtim kibi har ishta zabunlig' qildi,
Gah kom sari rahnamunlig' qildi,
Alqissa: base buqalamunlig' qildi.

Rubai Dünya bana bazen cefa ve açaklık etti Bahtım gibi her işimde zebunluk etti Bazen arzularıma yol göstericilik etti Velhasil pek çok dönemlik etti [5].

Hazrat Navoiy asarning 97-tanbehida quyidagi baytni keltiradilar: Ilmdan oriy ulusning johili hudkomasi, O'rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi. Ya'ni ilmdan chetda qolgan odam - xalq orasidagi qaysar, johil, o'rganishga qattiq kirishgan esa jahon allomasidir. Vohid Turk tarjimasida ushbu baytning hozirgi turk tilidagi tarjiması juda ravon, aniq

berilgan: "Bilgiden uzaklaştıkça milletlerin bencil cahilleri olunur: öğremmeyi isteyen ve çaba gösteren ise cihan bilgini olur" (Nevayı, Ali Şir, 2016. 126.) "Mahbub ul-qulub"da Hazrat Navoiy kotiblar haqida so'z yuritib, chiroyli yozish qobiliyatiga ega bo'lib, xatosi bo'lgan kotibni qattiq malomat qilgani, u noo'rin nuqta qo'yib "habib"ni "habiys"ga, muhabbatni mehnat-mashaqqatga aylantirishini eslatadi. Musannif xuddi shu o'rinda muallif, ya'ni Alisher Navoiy arab yozuvidagi nuqtalarning ahamiyatiga diqqat qaratayotganini tagmatnda beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hazrat Alisher Navoiy asarlari qaysi xalq tomonidan yoki kim tomonidan o'rganilishidan qat'iy nazar, asarlaridagi bebaho ma'no-mazmun qatlamlari yangilanaveradi. Tugamas chashma singari asarlar o'tsa ham qaytadan ko'z ochib, avlodlarning ongini, ularning ma'naviy- axloqiy olamini go'zallashtirib boraveradi. Turkiyalik muhtaram olim Vohid Turkning ushbu nashri navoiyshunoslikka qo'shilgan ulkan hissa, Hazrat Navoiy ma'naviyati, ma'rifatini turk o'quvchilariga yetkazish borasidagi qiymatli, tahsinga sazovor tadqiqotlardandir.

ADABIYOTLAR

1. Vahid Turk. Mahbub ul kulub. – Istanbul: O'tuken, 2020.
2. Vahit Türk. Türkiye'de ali şir nevâyî çalışmaları. -Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, Sayı/Issue: 52 (Güz-Spring 2021) - Ankara, Türkiye.
3. Uludağ, Süleyman. 1991. – İstanbul: Marifet Yayınları. – B. 456.
4. Sirojiddinov, Shuhrat. 2020. Amir Alisher. – T.: Adabiyot. – B. 200.
5. Vahit, Türk. 2021. Türkiyede Ali Şir Nevai çalışmaları. Ankara: Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi. 52.403-442.



UDK: 81-13

Aziza RAHIMJONOVA,
PhD Student of Namangan State University
E-mail: a_rahimjonova@gmail.com

In the basis review of PhD, associate professor of NamSU D.Sarimsakova

ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE CREDIT MODULE SYSTEM

Annotation

Currently more than 33 higher education institutions are operating in the credit-module system in our republic. The credit-module system is a complex systematic process in all aspects which focuses on two main issues in this system, such as ensuring the independent work of students and evaluating students' knowledge through rating. One of the advantages of the credit-module system is that the lessons are not only conducted based on innovative educational technologies, but the main focus is on the student's independent education. This article describes the theoretical issues of organizing independent education in the training of future specialists in HEIs in the credit module system.

Key words: Higher educational institutions, credit module system, independent education, students, independent study skills

KREDIT MUDUL TIZIMIDA OTMLARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Bugungi kunda respublikamizda 33 dan ortiq OTMLar kredit-modul tizimida faoliyat olib bormoqda. Kredit-modul tizimi har tomonlama murakkab tizimli jarayon bo'lib, ushbu tizimda ikki asosiy masalaga ahamiyat beriladi, ya'ni talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimni reyting orqali baholashdir. Kredit-modul tizimining afzallik tomonlaridan biri shuki, dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki asosiy e'tibor talabani mustaqil ta'lim olishiga qaratilgandigidir. Ushbu maqolada kredit modul tizimida OTMLarda bo'lajak mutahassislarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasalari, kredit modul tizimi, mustaqil ta'lim, talabalar, mustaqil ta'lim ko'nikmalari.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В настоящее время в нашей республике по кредитно-модульной системе обучения работают более 33 высших учебных заведений. Кредитно-модульная система представляет собой сложный системный процесс во всех аспектах, который фокусируется на двух основных вопросах в этой системе, таких как обеспечение самостоятельной работы студентов и оценка знаний студентов посредством рейтинга. Одним из преимуществ кредитно-модульной системы является то, что занятия не только проводятся на основе инновационных образовательных технологий, но и основной акцент делается на самостоятельном обучении студента. В данной статье изложены теоретические вопросы организации самостоятельного обучения при подготовке будущих специалистов в вузах по кредитно-модульной системе.

Ключевые слова: Высшие учебные заведения, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, студенты, навыки самостоятельного обучения.

Introduction. Today, the credit-module system is emerging as one of the mechanisms for integrating the higher education system of the Republic of Uzbekistan into the international educational environment (Ashurova, 2022)[2]. Currently more than 33 higher educational institution are operating in the ECTS credit-module system in our republic. ECTS is a tool for transparently implementing training and courses within the European Higher Educational Area that allows students to freely relocate across the nation while having their academic skills recognised by another higher education institution. ECTS allows students to compute credits earned at one university based on the qualifications obtained at another university. ECTS credits represent learning based on certain learning outcomes and the workload that goes with them. ECTS enhances curriculum flexibility for students. One of the system's distinguishing aspects is that it not only encourages students to learn independently, but also develops future professionals' lifetime learning and learning skills.

Literature review. The credit-module system is an educational organisation method that serves as an assessment

model using a series of module technologies and a credit measure. The credit module system is a sophisticated and methodical procedure. The credit module idea emphasises two major issues: assuring students' autonomous work and assessing student understanding through rating. The following are recognised as the primary tasks of the credit module system (Urinov, 2020)[5]:

To organize educational processes based on modules;
To determine the value of one subject, course (credit);
To assess students' knowledge based on the rating score;

To enable students to create their own study plans individually;

To promote autonomous learning;
Provide flexible educational programs to meet labour market demands (Urinov, 2020)[5].

The abovementioned tasks require not only teaching using innovative educational technologies, but also teaching students to study and learn independently, to adopt a new attitude towards independent study, to acquire the necessary

and deep theoretical knowledge independently, and to develop practical skills based on labour market demand. Thus, this approach aims to help students develop professionally and maturely. It aims to ensure student's lifelong learning and to develop human capital capable of meeting labour market based on the current criteria. At this point, we think that we should briefly discuss the module's core and credit principles.

A module is a curriculum component that covers a variety of disciplines and courses. It is a collection of disciplines (courses) designed to help students develop specific knowledge and abilities, as well as critical and logical observation. In this role, the instructor organises the educational process, delivers live, video, and audio lectures, and manages and supervises students' activity. The student examines the subject independently and completes the specified assignments.

According to foreign experiences, the educational process in the credit-module system consists of 2-4 modules per semester. The subjects included in the module are formed from easy to complex, from theoretical-methodical subjects to applied subjects and based on the principle of logical complementarity. In order for a student to become a specialist, it is necessary not only to acquire information, but also to be able to process it and put it into practice.

Credit is a unit of measurement of the educational load (time) spent on studying and mastering the subjects of a particular educational field or program (course). A credit is the minimum amount of time a student is allotted for classroom and independent study, usually one week, as determined by a regulatory document. Credit is provided to students who complete the required work in a certain course and pass the final test. Each student must acquire credits in order to obtain a certificate in his desired sector and speciality in the future. The accumulated credit will help the student upgrade his qualifications or pursue extra higher education throughout his life (Usmonov and Khabibullaev, 2020)[6].

Research of methodology. The methodical process of independent learning aims to develop theoretical knowledge, practical skills, and competencies through self-directed mastery of instructional materials, assignments of varying degrees of difficulty, and innovative and autonomous completion of practical tasks both inside and outside of the audience. Under the direction and guidance of the instructor, independent work is an active learning strategy that completes the educational tasks.

Result and analysis. Independent work is the organization and implementation of specific activities of students in connection with the set goal. Student's independent work is his activity based on high level of activity, creativity, independent analysis, initiative and timely and perfect performance of all tasks (Aripova, 2022)[1]. Independent education is characterized by the student's choice and implementation of the ways of posing, solving, self-control and evaluation (Iminakhunova, 2021)[3].

According to the requirements of the credit-module system used in higher education institutions defines how students receive credits in a particular subject and division of academic workload. One academic hour is equivalent to 25-30 hours of study load. This means that students must complete a certain amount of work in order to obtain credit in a certain topic. The workload for the bachelor's degree is 40-50% classroom hours and 50-60% independent working hours, whereas for the master's degree it is 30-40% classroom hours and 60-70% independent working hours (Urinov, 2020)[5]. In other words, for 1 hour of classroom time, a student must study independently for 1.5 hours outside the classroom, at home or in the library, and constantly research on himself (Sarimsakova, 2022)[4]. In developed foreign HEIs, a student spends an average of 10-15 hours in classroom classes and 25-

30 hours in independent work outside the classroom. The activity of professors-teachers is directed towards "learning" rather than "teaching", which encourages students to take responsibility for professional self-improvement.

One of the critical elements for organising the educational process in specialised training according to current standards is the activation of students' independent educational activities. The content of independent education serves as the foundation for the student-independent education system. The content of independent education includes independent education resources as well as instructor and student activities. Here, students receive deep and meaningful methodological instructions, criteria for independent study in the process of professional training, proper guidance to independent study, self-control, psychological-pedagogical recommendations to be able to complete and to evaluate one's self-learning in the process of personal knowledge activity.

Independent educational materials are in the form of instructional manuals, lecture texts, computer programs, audio and video materials, recommendations on the use of existing traditional textbooks, and other sources of information. Independent educational materials are characterized by several characteristics.

1. The knowledge and information from textbooks, instructional and methodical manuals, supplementary materials, sample lecture texts, and other sources, according to the description of the educational content.

2. In accordance with the amount of educational data available; the topics being studied; and the total amount of data on the academic subject.

3. The duration of usage; resources given to students for a single use; materials that are utilised repeatedly during instruction. The two most important elements in the process of independent learning are student-teacher interactions and independent learning resources. The degree to which these two elements interact contributes to the equilibrium of open learning models. It should be highlighted that a large number of students have never previously encountered the challenge of working independently using their own learning resources. Independent educational materials, unlike textbooks, educational and methodical manuals, have a complex nature in terms of structure. Many learners cannot objectively assess their ability to work with independent learning materials during their studies. These assessments are always personal in nature. A serious problem arises as to how to ensure the impartiality of this process. It is necessary to develop, define, justify, and demonstrate the use of criteria for evaluating the ability of learners to work independently with independent educational materials. Each learner chooses criteria based on his/her self-assessment and readiness to adjust or organize his/her activities (Zaripov, et.al., 2023)[7].

The student's individual work should use cutting-edge technologies. Student independent work can be completed singly, in groups, or in consultation and interactive formats. It is recommended that a student's individual work be completed in the form of a group following an established schedule that specifies the day, time, audience, and instructors for each topic. A student who has received individual advice on independent work, registers and signs a special journal for teachers' work. The department determines the volume, content and report type of the student's independent work, the volume (in hours), sequence and submission deadlines, as well as controls the quality of the completed student's independent work and reviews the reports of students and teachers on the results of the student's independent work. For this purpose, a special commission for monitoring the quality of student independent work will be established at the department level. It is organized in order to organize and plan student independent works, distribute and control the deadlines and

quality of submissions, and improve their methodological support.

The forms of student independent work are selected by the topic's instructor depending on the nature of the subject and the number of hours allotted to independent work, and they are discussed during department meetings. In general, one of the most pressing concerns in the credit-module system right now is organising students' independent work and assuring its efficacy and excellent performance.

Conclusion. In conclusion, the credit-module system is unique in that we prioritise our students' professional

growth and maturity while also providing continuous learning opportunities. This credit model system is a significant and successful step towards higher education in Uzbekistan. As the consequence of proper organization of independent learning the credit-module system in HEIs, significant improvements will be made to the efficacy of education, the skills of specialists in the field will be improved, and the establishment of the prerequisites to fortify Uzbekistan's standing in the global education arena. Our degrees will get international recognition, allowing us to eventually participate in a unified European educational environment in the future.

REFERENCES

1. Aripova, Sh. (2022). Methodological basis of development of independent learning competence of students in teaching English/ PhD thesis. p. 13.
2. Ashurova, D. (2022). The role of the credit-module system in the targeted organization of the teaching process: Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 246-252.
3. Iminakhunova, I. (2021). Theoretical foundations of the development of independent study processes of future specialists / PhD Thesis. p.12.
4. Sarimsakova, D. (2022). Technology of developing sociolinguistic competence of students in English during independent study/ PhD Thesis. p.15.
5. Urinov, V. (2020). ECTS credit-module system in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan: basic concepts and rules. Manual. In cooperation with El-Yurt Umid Foundation and the Republican Council of Higher Education.
6. Usmonov, Sh., Khabibullaev, A. (2020). Organization of the educational wound in higher education institutions in the credit-module system. Study aid. Tashkent Tafakkur Publishing House
7. Zariipov, L., Khaitov, N., Tohirov, Z. (2023). Organization of independent education of students: methodical guide. Tashkent: Sano-standard Publishing House



UDK: 371. 1: 314.3

Дилноз РУЗИМОВА,

*Преподаватель Университет Янги Аср
E-mail: dilnozkurbanbayevna84@gmail.com*

Под руководством профессора УзМУ А.Ахмедова

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРАЦИИ ТЕОРИИ, ПРАКТИКИ И СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ОПЫТ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье рассматривается процесс развития профессиональных компетенций будущих учителей русского языка через призму педагогического опыта. Подчеркивается значимость качественной подготовки студентов к традиционным и инновационным аспектам преподавания. Анализируются методы и формы обучения, способствующие формированию профессиональных навыков, а также роль практической подготовки в условиях современных образовательных реалий. Обсуждаются примеры успешного применения педагогических технологий и методик, направленных на повышение эффективности учебного процесса. В заключение делается акцент на необходимости интеграции теоретических знаний и практической деятельности для подготовки высококвалифицированных специалистов, готовых к вызовам будущего в образовательной сфере.

Ключевые слова: Профессиональные компетенции, подготовка учителей, педагогическая деятельность, опыт обучения, русский язык, инновационные методики, межпредметная интеграция, образовательные технологии.

ENHANCING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE RUSSIAN LANGUAGE TEACHERS THROUGH INTEGRATION OF THEORY, PRACTICE, AND MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES: INSIGHTS FROM PEDAGOGICAL EXPERIENCE

Annotation

The article examines the process of developing professional competencies of future Russian language teachers through the prism of pedagogical experience. The importance of high-quality preparation of students for traditional and innovative aspects of teaching is emphasized. The methods and forms of training that contribute to the formation of professional skills, as well as the role of practical training in the context of modern educational realities are analyzed. Examples of the successful application of pedagogical technologies and methods aimed at improving the effectiveness of the educational process are discussed. In conclusion, emphasis is placed on the need to integrate theoretical knowledge and practical activities to train highly qualified specialists ready for the challenges of the future in the educational sphere.

Key words: Professional competencies, teacher training, pedagogical activity, teaching experience, Russian language, innovative methods, interdisciplinary integration, educational technologies.

NAZARIY, AMALIY HAMDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI ORQALI BO'LAJAK RUS TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: PEDAGOGIK TAJRIBA ASOSIDA YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik tajriba orqali o'rganilgan. Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan o'qitish usullari va shakllari, shuningdek, zamonaviy ta'lim tendensiyalari sharoitida amaliy mashg'ulotlarning o'rni tahlil qilingan. Ta'lim jarayonini samarali qilishga qaratilgan pedagogik texnologiya va usullarni muvaffaqiyatli qo'llash misollari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetensiyalar, o'qituvchilar malakasini oshirish, pedagogik faoliyat, o'qitish tajribasi, rus tili, innovatsion usullar, fanlararo integratsiya, ta'lim texnologiyalari.

Ввод. В последние годы наблюдается растущая потребность в формировании профессиональных компетенций будущих учителей, что свидетельствует о значительной трансформации образовательных стандартов и подходов в Узбекистан. Согласно Зимней, «современные образовательные практики требуют от педагогов не только глубоких знаний предмета, но и способности к адаптации к быстро меняющемуся образовательному контексту»[1]. В этой связи многие исследователи акцентируют внимание на важности интеграции теоретических знаний с практическим опытом.

Одним из ключевых аспектов формирования профессиональных компетенций является использование

инновационных методик и технологий в обучении. По мнению Рахимовой, «применение активных методов обучения не только повышает уровень усвоения материала, но и развивает критическое мышление будущих педагогов»[2]. Это подтверждает необходимость создания условий для практического применения полученных знаний в реальных образовательных ситуациях.

Важным направлением является также формирование у студентов навыков межпредметной интеграции, как подчеркивает Смирнова: «Будущие учителя должны уметь не только преподавать предмет, но и интегрировать его с другими областями знаний, что в значительной мере способствует развитию комплексного

подхода к обучению»[3]. Это подтверждает необходимость создания модели подготовки педагогов, ориентированной на мультидисциплинарный подход.

Таким образом, развитие профессиональных компетенций будущих учителей русского языка является многогранной задачей, требующей внимания со стороны исследователей и практиков. В данной статье будет рассмотрен образовательный опыт, направленный на формирование этих компетенций, с акцентом на интеграцию теории и практики в процессе подготовки будущих преподавателей.

Методология и анализ. Для изучения процесса развития профессиональных компетенций будущих учителей русского языка мы использовали качественные и количественные методы исследования, включая анкетирование, наблюдение и анализ учебных планов. Главной целью было выявление наиболее эффективных образовательных практик, способствующих формированию необходимых компетенций у будущих педагогов.

Согласно Бондаренко, «компетенции формируются на основе интеграции теории и практики, что позволяет студентам не только усваивать материалы, но и применять их в реальных условиях»[4]. Таким образом, в исследовании акцент делался на изучение образовательного опыта, который включает практические занятия, стажировки и проектную деятельность, что позволяет студентам получать ценные навыки и опыт.

Один из ключевых инструментов нашего исследования — это анкетирование студентов и преподавателей, которое помогало определить уровень удовлетворенности и восприятия образовательного процесса. Как отмечает Кузнецова, «анализ обратной связи от студентов является важным аспектом для понимания того, какие методики и подходы работают наиболее эффективно в реальных условиях»[5]. Результаты анкетирования показали, что более 75% студентов отметили высокий уровень мотивации и интереса к учебному процессу, связанному с активными методами обучения.

Анализ учебных планов различных педагогических вузов также выявил тенденцию к увеличению количества дисциплин, направленных на развитие межпредметных компетенций. По мнению Сергеева, «создание междисциплинарных курсов способствует формированию у студентов целостного взгляда на педагогическую деятельность и позволяет лучше понимать взаимосвязь различных областей знаний»[6]. Это подтверждает необходимость пересмотра существующих учебных планов с целью их адаптации к современным требованиям педагогического образования.

Использование методов активного обучения, таких как работа в группах, проектная деятельность и практические кейсы, также продемонстрировало свою эффективность в процессе подготовки студентов. Как указала Григорьева, «активное вовлечение студентов в учебный процесс положительно сказывается на их способности к критическому мышлению и творческому подходу к решению проблем» [7].

Таким образом, результаты нашего исследования подтверждают, что интеграция теории и практики, использование активных методов обучения и междисциплинарный подход являются ключевыми аспектами в развитии профессиональных компетенций будущих учителей русского языка. В следующих разделах мы дополнительно рассмотрим практические примеры успешной реализации данных методов в образовательных учреждениях.

Результаты. Исследование показало, что внедрение активных методов обучения и интеграции теории с практикой значительно влияет на развитие профессиональных компетенций будущих учителей русского языка. Анализ данных, полученных в ходе анкетирования и наблюдений, выявил следующие ключевые моменты.

Во-первых, использование проектной деятельности в процессе обучения способствовало повышению мотивации студентов и развитию их креативных навыков. Как заявляет Попова, «проектная работа создает условия для самовыражения студентов и позволяет им применять теоретические знания в практических ситуациях», что положительно сказывается на формировании профессиональных компетенций[8].

Во-вторых, результаты анкетирования указали на то, что студенты, участвуя в стажировках и набирая практический опыт в образовательных учреждениях, демонстрируют более высокий уровень уверенности в своих педагогических навыках. По мнению Семеновой, «практические стажировки являются важным элементом подготовки будущих учителей, так как они позволяют интегрировать теоретические знания с реальными образовательными процессами»[9]. Более 80% опрошенных студентов отметили, что стажировки значительно помогли им в понимании специфики работы учителя.

В-третьих, наблюдение за проведением занятий показало, что использование междисциплинарного подхода положительно сказывается на формировании комплексных компетенций. Щербаков утверждает, что «комбинирование различных предметов в рамках одного курса способствует более глубокому пониманию материала и развитию критического мышления у студентов»[10]. Это также подтверждается тем фактом, что студенты, проходившие курсы по межпредметной интеграции, отметили улучшение в восприятии взаимодействия между разными областями знаний.

Наконец, анализ письменных работ студентов показал, что активные методы обучения помогают не только в усвоении материала, но и в улучшении навыков анализа и синтеза информации. Как подчеркивает Яковлева, «использование методов коллаборативного обучения стимулирует студентов к более глубокому изучению предмета и способствует развитию аналитических навыков»[11].

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что сочетание активных методов обучения, практических стажировок и междисциплинарной интеграции в подготовке будущих учителей русского языка является эффективным способом развития профессиональных компетенций.

Обсуждение. В рамках данного исследования были проанализированы подходы к развитию профессиональных компетенций будущих учителей русского языка через интеграцию теории и практики. Исходя из полученных результатов, следует отметить несколько ключевых аспектов, которые подтвердили необходимость переосмысления традиционных методов подготовки педагогов.

Во-первых, один из наиболее значимых аспектов — это важность активного участия студентов в образовательном процессе. Как отмечает Леонова, «активные методы обучения не только повышают заинтересованность студентов в предмете, но и формируют у них навыки критического мышления и саморегуляции»[12]. Данные высказывания подтверждаются тем, что студенты, участвующие в проектной деятельности и дискуссиях, значительно лучше

усваивают материал по сравнению со своими сверстниками, обучающимися традиционными способами.

Во-вторых, необходимость практических стажировок подтверждает актуальность теории «педагогического опыта». Сразу несколько исследователей, включая Фомину, подчеркивают, что «практика позволяет студентам столкнуться с реальными ситуациями в классе, а также узнать о сложностях профессии, что в свою очередь развивает их профессиональную идентичность»[13]. Задача образовательных учреждений состоит в том, чтобы организовать такие стажировки на высоком уровне, с учетом современных требований к квалификации педагогов.

Кроме того, использование междисциплинарного подхода в педагогическом образовании выделяется как способ, который обогащает учебный процесс. Как утверждает Коваленко, «интеграция различных предметов способствует созданию целостного восприятия учебного материала и формирует у студентов навыки системного

мышления»[14]. Это согласуется с трансформацией образовательных стандартов, которая требует от будущих учителей более глубоких знаний в смежных областях.

Также стоит отметить, что успешное развитие профессиональных компетенций невозможно без формирования позитивной мотивации к обучению. По словам Сидоренко, «мотивированное обучение связано с более высоким уровнем усвоения материала и стремлением к самостоятельному поиску информации»[15]. Поэтому важно внедрять методы, которые способствуют развитию внутренней мотивации студентов, такие как геймификация и проектная деятельность.

Таким образом, результаты нашего исследования подчеркивают необходимость многогранного подхода к подготовке будущих учителей русского языка, включающего активное обучение, практические стажировки и междисциплинарные связи. Это открывает новые горизонты для исследования и практики в области педагогического образования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Зимняя, И. А. (2022). Современные образовательные практики: вызовы и перспективы. Журнал педагогических исследований, 34(2), 45-58.
2. Рахимова, Н. Т. (2021). Активные методы обучения в подготовке будущих учителей. Проблемы современного образования, 29(1), 20-32.
3. Смирнова, О. В. (2023). Межпредметная интеграция в педагогическом образовании: необходимость и возможности. Научный вестник педагогического университета, 41(3), 12-25.
4. Бондаренко, М. А. (2021). Интеграция теории и практики в подготовке будущих педагогов. Научные горизонты, 15(4), 30-42.
5. Кузнецова, И. П. (2022). Оценка образовательного процесса: методология и практика. Журнал высшего образования, 28(1), 75-86.
6. Сереев, К. В. (2023). Междисциплинарный подход в педагогическом образовании: возможности и вызовы. Педагогические исследования, 19(2), 150-162.
7. Григорьева, Н. П. (2021). Активные методы обучения в подготовке будущих учителей. Современная педагогика, 10(3), 50-63.
8. Попова, А. В. (2022). Проектная деятельность в образовательном процессе: новые горизонты. Педагогическое мастерство, 22(4), 98-110.
9. Семенова, Л. И. (2021). Значение практических стажировок в подготовке будущих педагогов. Научный вестник, 18(3), 45-59.
10. Щербаков, Р. Н. (2023). Междисциплинарный подход в высшем образовании. Образовательные исследования, 30(1), 56-72.
11. Яковлева, Е. А. (2022). Коллаборативное обучение как инструмент развития критического мышления. Современные педагогические технологии, 14(2), 76-84.
12. Леонова, Т. В. (2021). Активные методы обучения как средство формирования критического мышления. Журнал педагогических исследований, 16(2), 25-38.
13. Фомина, Е. А. (2022). Педагогический опыт как фактор профессиональной идентичности будущего учителя. Научный вестник педагогики, 10(1), 12-20.
14. Коваленко, И. С. (2023). Междисциплинарный подход в подготовке будущих учителей: теория и практика. Образование и развитие, 31(4), 100-114.
15. Сидоренко, А. П. (2021). Внутренняя мотивация как ключевой фактор успешного обучения. Психология и образование, 19(3), 45-52.



UDK:091

Nilufar TEMIROVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti, fajsafa fanlari nomzodi

PhD F.Qilichev taqrizi asosida

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF ALIENATION ITS CAUSES AND THE NEED TO ELIMINATE

Annotation

Alienation is a phenomenon or phenomenon that manifests itself in the exclusion or non-recognition of certain groups or individuals in society. Alienation can have serious consequences for people, which can negatively affect their self-esteem and opportunities in society. The article describes alienation and analyzes the history of its formation, causes and the need for elimination.

Key words: Alienation, globalization, modern values, Hellenism, living environment, natural environment, “phenomenology of the Soul”, “social waste”.

ТОЛКОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ОТЧУЖДЕНИЯ ЕГО ПРИЧИНЫ И НЕОБХОДИМОСТЬ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация

Отчуждение – это явление или явление, которое проявляется в отчуждении или непризнании определенных групп или отдельных лиц в обществе. Отчуждение может иметь серьезные последствия для людей, что может негативно сказаться на их самооценке и возможностях в обществе. В статье дается определение отчуждения и анализируется история его формирования, причины и необходимость устранения.

Ключевые слова: Отчуждение, глобализация, современные ценности, эллинизм, среда обитания, природная среда, “феноменология души”, “социальная трата”.

BEGONALASHUV TUSHUNCHASI TALQINI UNING SABABLARI VA BARTARAF ETISH ZARURATI

Annotatsiya

Begonalashuv – jamiyatdagi ayrim guruhlar yoki shaxslarning chetlanishida yoki tan olinmasligida namoyon bo‘ladigan fenomen yoki hodisadir. Begonalashuv odamlar uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, bu ularning o‘zini o‘zi qadrlashiga va jamiyatdagi imkoniyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Maqolada begonalashuvga ta‘rif berilib, uning shakllanish tarixi, sabablari va bartaraf etish zarurati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Begonalashuv, globallashuv, zamonaviy qadriyatlar, ellinizm, yashash muhiti, tabiiy muhit, “Ruh fenomenologiyasi”, “ijtimoiy chiqindi”.

Kirish. Begonalashuv falsafadan tortib iqtisodgacha, sotsiologiyadan psixologiyagacha bo‘lgan ko‘plab fanlarda keng va har xil ma‘nolarda qo‘llaniladigan tushunchadir. Shu sababli, tushunchaning ta‘rifida aniq chegara belgilanmagan bo‘lsa-da, fanlar o‘z qamrovedan kelib chiqib talqin qilishga harakat qiladi. Tushunchaning keng tarqalishining sabablaridan biri shundaki, u ijtimoiy va individual hayotda oson kuzatilishi mumkin bo‘lgan hodisalarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan tushunchadir. Yana bir sabab shundaki, jarayon individual muammolardan tortib, zamonaviy hayotdan kelib chiqadigan ijtimoiy muammolargacha bo‘lgan juda ko‘p, turli hodisalarni o‘z ichiga oladi. An‘anaviy qadriyatlardan chekinish, globallashuv va zamonaviy qadriyatlar, mexanizatsiyalashgan shaxsiy hayot va uyushgan jamiyatga o‘tish bilan bu boradagi ziddiyatlari odamlarning ongida ham, jamiyat darajasida ham muammoning ko‘lami kengayib borishiga olib keladi.

Bu boradagi tadqiqotlardan kutilayotgan amaliy natijasi sifatida xususiy va davlat sektorida band bo‘lgan odamlar va jamoalarning begonalashuv sabablari, darajasini aniqlash va unga ko‘nikma hosil qilishning keying salbiy jihatlari, ularni oldini olish, bartaraf etish ekanligini hisobga olib, biz ham shu ishlarning davomi sifatida qaralashini istar edik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Falsafiy muammolardan biri hisoblangan begonalashuv muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu muammoning dolzarbligi gnoseologik, ontologik,

ijtimoiy-madaniy omillar tufayli yuksalib bormoqda. Begonalashuv muammosi qadimgi davrdan boshlab, antik davr, o‘rta asrlar davri, yangi davr va eng yangi davr olimlari tomonidan falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik, madaniyatshunoslilik jihatidan o‘rganilib kelinmoqda.

Begonalashuvni o‘rganishda ko‘plab olim va yozuvchilarning tadqiqotlari va badiiy ijod namunalari ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, Georg Vilgelm Fridrix Xegel, Karl Marks, Alber Kamyu, Jan Bodriyar va boshqalar kabi ko‘plab olimlar va yozuvchilarni misol qilib keltirish mumkin.

So‘nggi yillarda Y.Y.Lyaxova, Y.O.Smoleva, V.Alimasov, G.B.Vil‘danova va boshqalarning ishlarida begonalashuv fenomenining mohiyati falsafiy jihatdan ochib berilgan [1]. L.I.Paxar o‘zining “Begonalashuv: jamiyatning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari” [5] nomli maqolasida zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni begonalashuv jarayoni jihatidan tahlil qilgan. Begonalashuvni jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy munosabatlarning uzilishi deb tushunib, bu jarayonni hozirgi sotsium hayotining turli sohalarida qarab chiqqan. D.V.Prokofyeva siyosiy va texnologik begonalashuvni o‘rganib, uning barcha turlarini va ularni bartaraf etish yo‘llarini tadqiq qilish murakkab muammolardan hisoblanadi, deb ta‘kidlaydi [6]. N.N.Isachenko zamonaviy jamiyatdagi begonalashuv muammosini tadqiq etib, jamiyatga kompyuterlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy qilish begonalashuvning vujudga kelishini tezlashtiradi,

deb ta'kidlaydi. Axborot-tarmoqli makonda insoniyligini yo'qotgan "noinsoniy" sub'yekt shakllanadi, u o'zining insoniylik tabiatini texnika ta'siri ostida yo'qotadi. Shuning uchun ilmiy-texnika ishlanmalariga inson tabiatini buzmaydigan insonparvarlik, ya'ni gumanistik tamoyiliga rioya qilish talablarini qo'yish zarur, deb yozadi [7]. Shuningdek, uning fikricha, begonalashuv jamiyatdagi destruktivlikning namoyon bo'lishining determinantasi sifatida vujudga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Begonalashuv insoniy fazilatlaridan va o'z-o'zini o'ziga xoslikdan ajralish deb ta'riflanadi. Bu ta'rif inson o'z hayotini shaxsning o'ziga zid bo'lgan turmush tarziga yoki inson tabiatiga to'g'ri kelmaydigan turmush tarziga aylantiradi, boshqacha qilib aytganda, inson bo'lishdan ko'ra hayoti ma'nosini yo'qqa chiqaradi yoki bir yoqlama bo'lib qolishiga torayishiga olib keladi.

Begonalashuv tushunchasining kelib chiqishi va falsafiy ildizlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Qadimgi yunon tilidagi "alloiosis" va lotinchada "alienatio" so'zlari bilan ifodalangan begonalashuv tushunchasi "o'zidan kechish, o'z-o'zidan tashqariga chiqish" ma'nosida qo'llanilgan. Ellinizm davri yoki diniy ta'limotlarda u "Xudoga yaqinlashuv" ma'nosida qo'llanilgan. Bu davrda begonalashuv ruhning o'z quyi mavjudligidan (tanadan) ko'tarilib, butun borliqning manbai bilan birlashuvi holatini ko'rsatadi.

Gegel "Begonalik" tushunchasini falsafa tarixida ilk bor falsafiy tushunchasifatida qo'llab, turli vaziyatlarda ko'rib chiqib tushuntirib berishga harakat qiladi. Gegel asarlarida begonalashuv tushunchasini ikki jihatdan yondashib o'rganishga harakat qiladi. Birinchisini ijtimoiy begonalashuv deb nom berib, o'zaro ijtimoiy munosabatlar rivoji doirasida o'rganishga harakat qilsa, ikkinchisini "Ruh fenomenologiyasi" asarida ruhning begonalashuvi sifatida ko'rib chiqib, masalaning ma'naviy jihatini ochib berishga harakat qiladi.

Masalaning muhimligi bugungi falsafiy tadqiqotlar orqali oydinlashishi bilan birga, dunyodagi globallashuv jarayonlari va ommaviy madaniyatning ta'sirida bu kabi bilimlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Har bir muammoning sabablari bo'lgani kabi begonalashuvning turli va o'ziga xos sabablari mavjud. Begonalashuv tushunchasini turli jihatlardan o'rgangan mutaxassislar uning sabablari haqida bir qancha tadqiqotlar olib borgan va nazariyalarni shakllantirishgan. Ushbu sabablarni shartli ravishda quyidagi tartibda joylashtirib ayrimlarini tahliliy ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Bular oila, yashash muhiti, ta'lim tizimi, madaniyat, e'tiqodlar, milliylik hususiyati, siyosiy tuzum, mavjud va ustuvor g'oyalalar va boshqalar. sifatida qayd etish mumkin

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Har qanday shaxsning shakllanishida, oilaviy muhit dastlabki omil sifatida qaralar ekan ekan har jihatdan sog'lom bo'lishi farzandlarning kamolotida muhim o'ringa ega bo'ladi. Chunki bu omil shaxs shakllanishida asosiy va belgilovchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, insonning ijtimoiylashuvi va shaxsiyati shakllanishiga oilaning toliqligi undagi a'zolarining o'z rollarini to'liq amalga oshirayotganliklari, undagi muammolarning bartaraf etilishi, o'zaro munosabatdagi hurmat va vazifalarning teng, to'g'ri taqsimlanganligi kabilar oilaning tarbiyadagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Demak oilaning o'z ijtimoiy vazifalarini to'liq bajara olmasligi

shaxsiyatning g'ayritabiiy rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida begonalashuv sindromidir[8]. Dunyodagi jarayonlarni kuzata turib oilaviy munosabatlarning buzilishi strukturaning darz ketishi bilan oiladan o'z a'zolarining begonalashuv jarayonini ham ko'payib borishiga guvoh bo'lamiz. Ayrim statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilaning o'zi institut sifatida xavf ostida qolayotgan bir paytda, tabiiylikning buzilishi sifatida qaralayotgan begonalashuvning kengayishini aniqroq his etish mumkin. Chunki oilaning strukturaviy buzilishi yoki yo'q bo'lishining o'zi ham bu tabiiylikning buzilishidir.

Shaxs tug'ilgandan boshlab o'z oilasi va yashash muhiti ta'sirida muayyan munosabat va xatti-harakatlarni rivojlantiradi. Shaxs har doim o'z yashash muhitidan kelib chiqib mo'ljal oladi va rivojlanadi, agar uning yashash muhiti sokin, to'q va ziyoli bo'lsa u ham muhitning bir bo'g'ini bo'lish uchun intiladi. Buning aksi bo'lib yashash muhiti kurashlarga boy, nematlar notekis taqsimlangan, qoloqlik, zo'ranonlik, johillik ustuvorlik kasb etsa jamiyat a'zosi shunga munosib bo'lishga intiladi. "Yashash muhiti — bu insonni o'rab turgan, u uchun ahamiyat kasb etib, ma'noga ega bo'lgan hamma narsadir. Tabiiy muhit esa — yashash muhitining faqat bir qismidir xolos"[9]. Agar shaxsning oila muhiti yoki yashash muhiti jamiyatga mos kelmasa, shaxsning jamiyatga qo'shila olmasligiga, e'tirof etilmasligiga ve oqibatda begonalashuviga olib keladi. Agar oilasidan va yashash muhitidan chiqib, ulardan begona bo'lgan jamiyatga qo'shilishi bilan oilasidan begonalashuvni kuzatish mumkin bo'ladi. Shu sababli, shaxsning oilasi va yashash muhiti begonalashishni his qilmaslik uchun ayniqsa muhimdir.

Shaxs shakllanishidagi yana bir omil sifatida ko'riluvchi Ta'lim omilida ham begonalashuvga olib keladigan muammolar mavjud. Bular ta'limni qay tartibda va asosan qanday maqsadda olib borilayotganligidan kelib chiqib belgilanadi. Shaxsning ijtimoiylashuv vositasi sifatida olib borilayotgan ta'lim jamiyatga ayni vaqtda kerakli bo'lgan bilimlar bilan o'z tarbiyalanuvchisini yetishtirishga va jamiyatni sevishga uning rivojiga hissa qo'shishga o'rgatishni maqsad qilgan bo'lsa, u shaxsning ijtimoiylashuvga olib kelishi mumkin. Agar ta'lim shaxsning jamiyatga moslashishi uchun emas, jamiyatning qadim e'tiqodlari, an'analari va qadriyatlariga e'tibor bergan holatda olib borilsa-yu u bugungi zamon ruhiyati bilan omuxtalantirilmasa, bu ham begonalashuv uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Demak, begonalashuv - bu insonning tabiiy hayotidan tashqariga chiqishi sifatida qaralar ekan, unda o'z navbatida salbiy ta'sirlar orqali namoyon bo'luvchi jihatlarni baholashga zarurat seziladi. Shundan kelib chiqib bo'lsa, unga qarshi tadbirlarni amalga oshirish balki immunitet hosil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Begonalashuvning yuz berishi nafaqat shaxsning individual salbiylik kasb etishi bilan balki, shu bilan birga umumjamiyat manfaatlariga ham zid bo'lishi mumkin va u taraqqiyot uchun xissa qo'shmaydigan "ijtimoiy chiqindi"ga aylanib qolishiga ham olib kelishi mumkin. Bularning barchasi natijasida ishlab chiqarishdagi xodimlarning ishdan uzoqlashishiga, ishtiyoqi pasayishiga, ishdagi stressni kuchayishi va ishdan ketishni xohlashiga va bu kayfiyatni boshqalarga ham yuqtirishiga olib keladi. Shuning uchun shaxsning kerkali jamiyat a'zosi darajasida shakllanishi uchun yuqorida sanab o'tilgan omillarning faoliyati to'liq samarali amalga oshirilishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ляхова Я. Ю. Социально-философский аспект отчуждения профессиональной деятельности // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Сер.: Гуманитарные и социальные науки. – 2015. – № 1. – С. 67–71.
2. Смолева Е.О. Социальное отчуждение: анализ теоретических подходов // Вопросы территориального развития. – Вып. 4(34). – 2016. – С.1-14.
3. Alimasov V. Begonalashuv //Tafakkur . - 2020 -. №2.- В. 29.

4. Вильданова Г.Б., Вильданов Х.С., Муслимова Л.Ф. Феномен отчуждения и пути его преодоления // Вестник ЧелГУ. Философия, социология, культурология. – 2007. – № 17. – С.14-20.
5. Пахарь Л.И. Отчуждение: современное состояние и перспективы развития общества // Философская мысль. 2021. № 5. С. 46-61.
6. Прокофьева Д.В. Отчуждение: сущность, типы, способы преодоления // Вестник Башкирского университета. – 2010. – Т.15.3. – С.751-754.
7. Исаченко Н.Н. Отчуждение как детерминанта деструктивности современного общества // Вестник ВГУ. Серия: Философия. - 2018. - №01-03. - С.25-31.
8. Eroğlu F. (2004) “Davranış Bilimleri”, İstanbul: Beta Yayınevi, 616 s.
9. Юло Вооглайд Ватандошлик дастури: илмий-оммабоп / Тошкент: “Azon kitoblari”, 2023. — 704 б.
10. Erkinovna T. N. The influence of social communications on the formation of alienation and loneliness. – 2023.
11. Erkinovna T. N. The development of sociology and its role in the life of society //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 1320-1323.



Gulnur TLEUBAYAEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filialli dotsenti, PhD
E-mail: gtleubaeva66@gmail.com

TATU Nukus filiali dotsenti, DSc, G.Abilova taqrizi asosida

THE ROLE OF TESTS IN IDENTIFYING TALENTED STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article talks about the role of tests in identifying gifted students in higher education institutions. The emergence of tests, their various features and tasks are described in detail.

The educational process is a holistic system, its effective organization, management, control, analysis of the pedagogical activity of the student in accordance with the obtained results, the theoretical knowledge and practical skills acquired by the students regarding the evaluation system. It consists of identifying typical deficiencies in practical application skills and determining ways to correct them. Taking this into account, this article describes the importance of using tests in the educational process.

Key words: Talent, ability, test, practical skills, theoretical knowledge, competence, competence, strengthening, development, improvement, assessment, didactics.

РОЛЬ ТЕСТОВ В ВЫЯВЛЕНИИ ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Аннотация

В данной статье говорится о роли тестов в выявлении одаренных студентов вузов. Подробно описано возникновение тестов, их различные особенности и задачи.

Образовательный процесс представляет собой целостную систему, его эффективная организация, управление, контроль, анализ педагогической деятельности обучающегося в соответствии с полученными результатами, теоретическими знаниями и практическими навыками, приобретенными обучающимися в отношении системы оценивания. Типичные недостатки практических навыков применения и определение путей их исправления. Учитывая это, в данной статье описывается важность использования тестов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Талант, способности, проверка, практические навыки, теоретические знания, компетентность, компетентность, закрепление, развитие, совершенствование, оценка, дидактика.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASHDA TESTLARNING O'RNI

Annotatsiya

Bu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlashda testlarning roli haqida aytilgan. Testlarning paydo bo'lishi, ularning turli korinishlari va vazifalari haqida batafsil keltirilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoni yaxlit tizim bo'lib, uning samarali tashkil etilishi, borishini boshqarish, nazorat qilish, olingan natijalarga muvofiq avvalo o'qituvchining pedagogik faoliyatini tahlil etish, baholash tizimiga doir o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda amaliyotda qo'llash malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlab olish hamda ularni korrektsiyalash yo'llarini belgilashdan iborat. Shularni e'tiborga olib ta'lim jarayonida testlardan foydalanish ahamiyati haqida bu maqolada bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, qobiliyat, test, amaliy ko'nikma, nazariy bilim, malaka, kompetentsiya, mustaxkamlash, rivojlanish, takomillashtirish, baholash, didaktika.

Kirish. Iqtidorli talabalarning o'quv rejadan o'rin olgan kurslar bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliyotda qo'llash malakasi, amaliy ko'nikma, fanga oid tayanch kompetensiya va iqtidorlarini aniqlash hamda adolatli baholashda samarali nazorat turlaridan biri har xil qiyinchilik darajasidagi test topshiriqlari sanaladi. Test iqtidor o'lchov vositasi sifatida o'ziga xos vazifalar tizimi (ko'pchilik hollarda qiyinchilik darajasi ortib boradigan), o'quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda amaliyotda qo'llash malakalari darajasini samarali aniqlash, sifatli baholash imkoniyatini bera oladi [1].

Test topshiriqlari didaktik materiallar sirasiga mansub bo'lib, quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Test topshiriqlari iqtidorli talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va amaliyotda qo'llash malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlash barobarida, ularni o'z nazariy bilimlarini orttirish maqsadida muntazam hamda tizimli fan asoslarini o'rganishga undaydi.

Test topshiriqlarining tarbiyaviy funksiyasi. Test topshiriqlari iqtidorli talabalar tomonidan to'g'ri javobni

topish mobaynida muayyan bilish qiyinchiliklarini his etishi, oldidagi muammoni hal etish maqsadida aqliy operatsiyalar sintez, tahlil, qiyoslash, umumlashtirish hamda xulosa chiqarish kabilarni bajarishi orqali ularda barkamollikka zamin yaratadigan sifatlar iroda, ongli intizom, tafakkur, muayyan o'quv masalalarini hal etishga safarbarlik, sabr-toqat, chidamlilik, buyuk yutuqlarga erishish uchun bilimi hamda intellektual kuchini sarf etishi orqali shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratib beradi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Intellekt va kreativlik testlaridan foydalanish bir qator cheklovlarga ega. Birinchi navbatda, intellekt va kreativlikni aniqlash uchun mo'ljallangan testlarning aksariyati intellektual yoki kreativlik qobiliyatni aniqlash uchun emas, balki boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan. Masalan, Vekslarning intellekt testlari aqliy zaiflikni aniqlash uchun [3], Amtxauerning testlari – yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov uchun [4], DAT testlari [5] – ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini tashxis qilish uchun mo'ljallangan. Intellektual iqtidor darajasini baholash uchun

faqat ikkita test ishlab chiqilgan. Bular Kettell testlari (C versiyasi) [6] va Raven testlari. Ammo hozirgi davrda pedagog va psixolog mutaxassislar tomonidan ularning iqtidorlik tashxisiga nisbatan qo'llanilishi ham tanqid qilinmoqda.

Ikkinchidan, ko'plab intellekt testlari o'ziga xos intellektual qobiliyatni, ya'ni aniq aqliy rivojlanishning shakllanishini o'lchaydi. Afsuski, intellektning mavjud psixometrik testlari, uning tarkibiy qismlarini aniqlab, ular orasidagi aloqalarga ta'sir qilmaydi, uning namoyon bo'lishini tushuntirmaydi.

Uchinchidan, intellektual va kreativlik sinov o'tkazish holatiga, shaxsning shu vaqtidagi hissiy holatiga ham bog'liq.

Hozirgi vaqtda yangi Testlar ma'lum bir o'quvchi «iqtidorli» yoki «iqtidorli emas» degan qaror qilishning yagona mezonini sifatidamas, balki iqtidorli o'quvchilarni aniqlash dasturi doirasida boshqa bir qancha qo'shimcha ma'lumot manbalaridan biri sifatida ko'rilishi lozim.

So'nggi yillarda ba'zi o'quv dasturlarga muvofiq iqtidorli shaxslarni har tomonlama baholash asosida aniqlanmoqda.

Masalan, Stenford-Bine shkalasi - bu 2 yoshdan boshlab va kattalardagi aqliy qobiliyatlarni o'lchashga qaratilgan individual testlar. Ushbu testlar shaxsning aqliy yoshini (MA) va IQni samarali aniqlashga imkoniyat beradi. Stenford-Bine shkalasi shaxsni iqtidorli deb bilish uchun uning IQ darajasi 124 ball yoki undan yuqori bo'lishi kerak deb taxmin qiladi [7].

Slosson testlari individual ravishda kattalar va bolalarda intellektni samarali o'lchash uchun mo'ljallangan. Odatda, barcha test topshiriqlari javoblari og'zaki qabul qilinadi. Saralash o'tish 120 bal va undan yuqori.

Tadqiqot metodologiyasi. Test topshiriqlarining takomillashtiruvchi funksiyasi. Test topshiriqlari o'quvchilarning egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, amaliyotda qo'llash malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish, erishilgan natijalarda o'zining ulushi muhim o'rin tutishini inobatga olgan holda shaxs hamda kelgusi jarayondagi mas'uliyatini anglagan holda o'z-o'zini takomillashtirishga unday oladi.

Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda, test topshiriqlari didaktik material sifatida bir qancha talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir test topshirig'i tegishli ta'lim turi bo'yicha o'quv rejadan o'rin olgan o'quv kurslari bo'yicha Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturi asosida tuzilishi lozim hamda shu asosda yaratilishi lozim.

2. Test topshirig'i berilgan fanga oid umumiy deb qabul qilingan atamalar asosida tuzib chiqilib, unda maruzadan chiqib ketgan, shu bilan birga, kam ishlatiladigan yoki ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar, belgilar, iboralar, sifatlar hamda ma'juziy ma'noni beradigan tushunchalar bo'lmasligi lozim.

3. Test topshiriqlari ilmiy asoslangan nazariy ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lishi lozim, yagona o'quv maqsad: o'quv jarayonida iqtidorli o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni ko'zda tutgan holda tuzilishi mumkin.

4. Ta'lim-tarbiya muhitidan samarali foydalaniladigan test topshirig'i to'rt qiyinchilik darajasi asosida tuzilib, har bir topshiriqning murakkablik darajasi topshiriq pasportida aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lishi lozim:

I. reproduktiv (oson) – iqtidorli talabalar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, hodisa, voqea, qonun va atamalarning mohiyatini bilishni talab qiladigan daraja;

II. produktiv (o'rta qiyin) – iqtidorli talabalardan ob'ektlarni taqqoslash, tahlil etish, sintezlash, bir nechta

qonun hamda qonuniyatlarni bir vaqtning o'zida foydalanib, umumlashtirish orqali xulosa qilishni talab qiluvchi daraja;

III. qisman-izlanishli (qiyin) – iqtidorli o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan amaliy ko'nikma, nazariy bilim, amaliyotda foydalanish malakalarini yangi kutilmagan hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanish, jarayon, ob'ektlarni tahlil etish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun hamda qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirish orqali umumiy xulosa ishlab chiqishni talab etuvchi daraja;

IV. kreativ (eng qiyin) – iqtidorli o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalarini belgilanmagan hayotiy jarayonlarda vujudga keltirilgan o'quv masalalarini hal qilishda foydalanish, qiyosiy taqqoslash, tahlil, sintezlash, umumlashtirish, xulosa ishlab chiqish kabi intellektual operatsiyalarda talab qiluvchi daraja.

Standart an'anaviy testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv hamda produktiv darajada, tarkibi jihatdan test topshirig'i savoli to'g'ri shu bilan birga noto'g'ri javoblardan iborat bo'lib, nostandart no'anaviy testlar o'zining mazmuni, tuzilish hamda foydalanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farqlanadi.

Nostandart testlar mazmuni hamda mohiyatiga ko'ra bir qancha sinflarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar – shakl, integral mazmun, qiyinchilik ko'lami bo'yicha ortib boruvchi, iqtidorli o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi to'g'risida umumlashgan yakuniy xulosa ishlab chiqishga imkoniyat beradigan test topshiriqlari hisoblanadi.

2. Adaptiv testlar-avtomatlashtirilgan, iqtidorli o'quvchilarga nisbatan shaxsiy yondashish imkoniyatini bera oladigan, bajarish tartibi, topshiriq mazmuni, qoidasi, berilgan topshiriqni bajarish natijasida iqtidorli o'quvchining egallashi lozim bo'lgan bali hamda test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalarni bera olishi lozim bo'ladi.

Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli foydalanish lozim. O'qituvchi bitta mavzu, bo'lim, bob, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir qancha variantli test topshiriqlarini tuza olish hamda amalda foydalanish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

3. Mezonli-mo'ljal olish testlari-iqtidorli o'quvchilarning umumiy o'zlashtirganlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati asosida, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali iqtidorli talabalarning nazariy o'zlashtirilgan bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari belgilandi [8].

Turli matematik qobiliyatli talabalarning sinov masalalarini yechish jarayonini tahlil bizning izlanishlarimizning asosiy maqsadidir. Bizning maxsus tanlab olingan yoki yangidan tuzilgan sinov masalalarimiz oliy ta'lim matematikasining turli bo'limlariga taaluqli bo'lib talabning matematik faoliyatini to'la qamrab oladi va ma'lum ma'noda uni modellashtiradi. Birinchi testlar sonli testlar bo'lib, ular talabalarni fikrlash qobiliyatini, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Sonli masalalar talabalar fikrlash va muhokama yuritish qobiliyatlarining muhim tomonlarini ochishga yordam beradi [9]. Sinov masalalari turli qiyinlikda bo'lishi shu bilan birga ular ichida matematik ijodni talab qiluvchi nostandart masalalar ham bo'lishi mumkin. Ular soddalikdan murakkablikka qarab pog'onama-pog'ona joylashgan bo'lishi kerak. Masalalarni qiyin osonlik darajasini aniqlash esa oson ish emas. Ba'zi hollarda bu murosasiz munozaralarga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir narsa nisbiy bo'lganidek masalaning qiyinlik darajasi ham nisbiydir. Masalan, boshqa bir masalaga nisbatan qiyinroq to'yilishi, o'zlashtirish qobiliyati pastroq talaba

uchun qiyin tuyilishi mumkin yoki boshqa kurs talabalariga nisbatan qiyinroq bo'lishi mumkin. Bundan shuni anglash mumkinki, masalani qiyinlik darajasini aniqlash usuli ham turli tuman hisoblanadi.

Biz masalalarning qiyinlik darajasini quyidagicha aniqlashga harakat qildik. Ikkita masaladan qaysi biri qiyinroq ekanligini aniqlash uchun ularni bitta guruh talabalariga yechish taklif qilindi. Qaysi masalani ko'pchilik yechsa o'sha masala osonroq, ikkinchisi esa qiyinroq hisoblanadi. Agar har ikkala masalani, guruhda bir xil sondagi talabalar yechsa bu masalalar shu guruhdagi talabalarga nisbatan teng kuchli hisoblanadi. Bu usul tabiiyroq ko'rinsada, boshqa guruhda natija boshqacharoq bo'lib chiqishi ham mumkin. Lekin guruhlar soni yetarlicha ko'p olinsa natija haqiqatga yaqinroq bo'ladi albatta.

Masalalar shunday tuziladiki, ularni yechish jarayoni talabaniq intelektual qobiliyatini namoyon qilishga imkon beradi. Agar biz masalalarni an'anaviy test masalalari ko'rinishida tuzganimizda bunga erishish deyarli mumkin bo'lmas edi. Sababi talabalar an'anaviy testlarni yechayotganda biz ularning fikrlash jarayonini emas, balki umumiy natijani ko'ramiz xolos. O'tkaziladigan testlar natijalari ham aynan shunday xulosalanadi. Iqtidorli talabalarni o'rganishda esa aqliy fikrlash, masala yechish jarayonini kuzatish juda muhim. Shu bilan birga iqtidorli talabani erkin (xuddi o'zi bilan o'zi gaplashib fikr yuritayotgan) holatda masala yechishini alohida kuzatish ko'proq samarali natija berishi mumkin. Chunki bu jarayon talaba iqtidorini tabiiy namoyon bo'lishini taminlaydi.

Masalalar yechimlarini yozma tahlil bilan bayon qilishda ham talabaniq matematik iqtidori qirralari ko'rinadi. Shuning uchun sinov davrida bunday tajribalarni olib borish ham maqsadga muvofiq. Masala yechish jarayonida murakkab mantiqiy tuzilishga ega bo'lgan qator omillarni jumladan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, amaliyotda qo'llash malaka va kompetensiya kabilar o'z ta'sirini o'tkazadi. Biz esa, bular bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lsada nazariy bilim, amaliy ko'nikma yoki malakani emas iqtidorni o'rganayapmiz. Shuning uchun ham bu juda murakkab majmua ichidan iqtidor omilini ajratib olish qiyin masala. Demak masalalarning murakkablik darajasini shunday tanlash kerakki, ularni yechishda birinchi bo'lib, asosan iqtidor namoyon bo'lsin [10].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, Ma'lumki, talabadagi mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malaka ta'sirini, murakkab masalani tanlash hisobiga, masala yechish jarayonidan butunlay chiqarib tashlab yuborib bo'lmaydi. Gap shundaki, bunga erishish uchun masalani yechishda matematik bilimlarning ta'siri bo'lmasligi kerak. Bunday masala esa matematik masala bo'lmaydi, bu izlanish maqsadiga zid. Mutaxassislar bu holatdan chiqishning turli yo'llarini taklif qilishgan. Shulardan biri testga kiritilayotgan masalalarni ikki turini taklif qilinishi bo'lib, ularning har ikkalasi ham qaysidir ma'noda iqtidor kategoriyasi bilan bog'liq: egallangan bilimga mo'ljallangan masala va intellektni aniqlashga mo'ljallangan masala. Bu yerda ham aytib o'tilganidek ikkinchi tipdagi matematik masalalarni tanlash qiyinlik to'g'iradi.

Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarni iqtidorinagina aniqlab, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, amaliyotga samarali qo'llash malaka bilan umuman bog'liq bo'lmagan matematik muammoni topishga bo'lgan harakat natija bera olmaydi. Shu sababli, o'quvchidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalarning ta'siri mumkin qadar oz bo'lgan matematik masalalar tuzib olishga harakat qilindi.

Biz bunga quyidagicha usulda erishdik:

1) sinov masalari shunday tanlandiki, ushbu holatni yechishda alohida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka kerak bo'lmaydi yoki lozim bo'lgan aqliy malakalar

sinalayotgan hamma o'quvchilarda mavjud. Buning uchun oldindan aqliy ko'nikmalarni aniqlovchi intelektual muammolar yordamida sinalayotgan iqtidorli hisoblangan o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari aniqlandi. Zarur bo'lgan hollarda biz sinalayotgan guruh talabalarini bilan birga ularga bundan keyinchalik masala yechishda foydalanish mumkinligini sezdirmasdan kerakli materialni takrorlab oldik;

2) sinov masalarini, talabalar uchun yangi bo'lgan notanish materialdan olinishi ulardagi mavjud tajribalar ta'sirini sezilarli darajada susaytiradi. Ba'zi masalalar dasturidan ilgari ketgan bo'lsa, ba'zilar umuman, oliy ta'lim o'quv dasturlarida o'tilmaydi;

3) yangi o'tilgan nazariy mavzu bo'yicha masalalar taklif qilindi, tushunarliki, bunda butun guruhni imkoniyati bir xil bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarning yangi nazariy materialni qabul qilib olish qobiliyatini kuzatish imkoniyati to'g'ildi;

4) izlanishda talab etiladigan nostandart masalalar taklif qilinishi evaziga o'quvchilardagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka ta'siri sezilarli pasaytirildi;

5) sinov masalarini tuzishda bilim, ko'nikma hamda malakaga tayangan holda talaba nimalarga qanday tezlikda erisha olishini adolatli baholash imkoniyatini yaratishga ham e'tibor qaratildi.

Talabaniq guruhdagi yangi nazariy-amaliy materialni o'zlashtirish, masalani yechish tezligi shaxsiy fikrlash tezligi bilan ustma-ust tushmaydi. Tushunarliki guruhda o'qituvchining pedagogik-psixologik ta'siri katta. Shuning uchun ikki holatda masala yecha olish qobiliyati o'rganildi:

1) mustaqil ravishda;

2) tajriba-sinov o'tkazuvchi (o'qituvchi)ning yordami bilan.

Ikkinchi holatni shunday tushunish kerakki talaba berilgan masalani o'zi yecha olishi uchun yetarli nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakaga ega, lekin yechish jarayonidagi qandaydir nozik joyini sezmayapti, agar tashqaridan kimdir shu holatni sezdirsa, talaba masala yechimini o'zi mustaqil to'laligicha oxiriga yetkaza oladi. Bu yerda turli xil psixologik holatlarga duch kelindi. Masalan, masala yechimidagi bunday nozik joylar bir nechta bo'lishi mumkin. Ya'ni talaba intelektual qobiliyatini masala yechish jarayonidagi yordam berishlar soni bilan ham o'lchash mumkinligi ma'lum bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda bir talaba berilgan masalani ijobiy mustaqil ravishda yechdi deylik, ikkinchi talaba xuddi shu masala yechimini to'liq o'sha sharoitda o'qituvchining bitta ko'rsatmasi bilan, uchunchi talaba esa o'qituvchining ikki marta ko'rsatmasi bilan oxiriga yetkazdi. Albatta bu talabalarning intelektual qobiliyatlarini turlicha. Bu holat ko'proq matematik iqtidorli talabalarni o'qitishda hisobga olinsa yaxshi natijalar beradi [11].

Sinovda talabalarning ma'lum bir nazariy-amaliy mavzuni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatlari ham o'rganildi. Bunda ularga belgilangan mavzuni o'rganish yuzasidan test materialini tuzib kelish topshirildi. Bu usul kutilmagan natijalarni berdi. Chunki masala tuzish davomida talabada mavzuni to'la o'zlashtirish imkoniyati tug'ilishi bilan birga mustaqil intelektual ishlashga ishtiyoq paydo bo'ladi.

Bunday holatda improvizatsion-texnologik metodni samarali ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bu metod test topshiriqlarini grammatik jihatdan baholash mumkin. Bu test topshiriqlari o'quvchilarni to'g'ri javob topish uchun mantiqiy ketma-ket fikrlay olishga yoki to'g'ri javob topish uchun intellektual jihatdan o'ylanishga majbur qila oladi [12]. O'quvchilarning intelektual bilimlarini nazorat etishning avtomatlashtirilgan tizimiga quyidagi multimediali dasturiy vositalarni kirita olamiz: My test, Hot Potatoes, ISpring QuizMaker va boshqalar.

Bu dasturlar tahlili etib, o'quvchilarda intellektual ko'nikmalarni takomillashtirishda Blum taksonomiyasiga tayanib quyidagi imkoniyatlari ko'proq mavjuddir (1-jadval).
I-jadval

Talabalarda intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishda multimediali dasturiy vositalar imkoniyatlari

Intellektual ko'nikmalar	My test	Hot Potatoes	ISpring QuizMaker
Analiz	+		+
Sintez	-	-	+
Umumlashtirish	+	+	+
Abstraksiyalash	+	-	+
Konkretlashtirish	-	+	+

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, bu dasturlardan ISpring QuizMaker dasturida turli xil qiyinchilik darajasidagi testlarni tuzish orqali talabalarning intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati boshqa dasturlarga nisbatan yuqori.

ISpring QuizMaker dasturining quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

tarmoqlangan har xil qiyinchilik darajasidagi testlar yaratish imkoniyati (adaptiv testlarni yaratish);

bir yoki bir nechta to'g'ri javobni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;

tushunchani aniq to'ldirishga qaratilgan test topshiriqlari;

ochiq test topshiriqlari;

o'xshashlikni shaffov aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;

moslikni to'la aniqlashga qaratilgan testlar;

faol sohani aniq aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;

to'g'ri ketma-ketlikni aniq aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib Shunday qilib, egallangan nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun har xil interfaol testlarning ishlatilishi talabalarning o'zlashtirish darajasini va intellektual fikrlash doirasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iqtidorli talabalarni aniqlashda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy // Buyuk siymolar, allomalar. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. –B.37.
2. Аванесов В.С. Теоретические основы разработки заданий в тестовой форме. –Москва: Московский текстильный институт, 1995. –С. 96.
3. Wechsler D. Manual for the Wechsler Adult Intelligence Scale. N.Y., 1955.
4. Кинякина О. Н. Мозг на 100%. Интеллект. Память. Креатив. Интуиция -М.: Эксмо, 2014. — С. 56-57.
5. Пальм Г.А. Психодиагностика. – Днепропетровск, 2010
6. Капустина А.Н. Многофакторная личностная методика Р. Кеттелла. СПб., 2001 С. 55-81, 96-97.
7. Bain, S.K., & Allin, J.D. Book review: Stanford-Binet intelligence scales. - fifth edition. - Journal of Psychoeducational Assessment, 23, 2005. -С. 87—95.
8. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Brok class servis, 2018. –B. 22-27.
9. Тлеубаева Г.С. Разные мнение ученых в развитии математической способности // International Conference « Европа, Наука и Мы». –Чехия,2020. –B.142-143.
10. Tleubaeva G.S. Talabalarning matematik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish haqida // Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari mavzusidagi onlayn konferentsiya. –Toshkent, 2020. -№1. –B. 598-601.
11. Tleubaeva G.S. Matematik iqtidorni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar haqida // O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim mavzusidagi ilimiy konferentsiya. –Toshkent, 2020. -№3. –B.420-422.
12. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and Digital technologies: big issues and critical questions, Cambridge University Press, Australia, 2015. –p. 15-16.



UDK 378.013:17.022.1

Aziza TURGUNOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD
E-mail: aziza.turgunova.88@mail.ru

Sotsiologiya fanlari doktori, professor Sh.Sodiqova taqrizi asosida

ANDRAGOGIKA – KATTALAR TA'LIMI NAZARIYASI

Аннотация

Maqolada andragogika ta'lim berish, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning muayyan shakllarini ochib beradigan keksalar ta'limi nazariyasining bir qismi ekanligi, inson yoshidan, jinsidan, ma'lumotidan, jamiyatda tutgan mavqei, lavozimidan qat'iy nazar doimiy ta'lim olishi, umri davomida bilimlarini doimo yangilab turishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Andragogika, tarbiya, kattalar ta'limi, keksa avlod, hamkorlik, tajriba, malaka oshirish, intellekt, tanqidiy fikrlash, mashg'ulot.

АНДРАГОГИКА – ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ВЗРОСЛЫХ

Аннотация

В статье утверждается, что андрагогика является частью теории образования пожилых людей, которая раскрывает конкретные формы образования, развития знаний, умений и навыков и является постоянным образованием независимо от возраста, пола, образования, социального положения и должности человека. Освещены вопросы получения образования и постоянного обновления своих знаний на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: Андрагогика, образование, образование взрослых, старшее поколение, сотрудничество, опыт, профессиональное развитие, интеллект, критическое мышление, обучение.

ANDRAGOGY – ADULT EDUCATION THEORY

Annotation

The article it is stated that andragogy is a part of the theory of the education of the elderly, which reveals specific forms of education, knowledge, skills, and skills development, and is a constant education regardless of a person's age, gender, education, social position, and position. The issues of getting education and constantly updating their knowledge throughout their life are highlighted.

Key words: Andragogy, education, adult education, older generation, cooperation, experience, professional development, intelligence, critical thinking, training.

Kirish. XXI asr ijtimoiy pedagogikasi keksa avlod nafaqat ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, balki boy hayotiy tajriba va ta'lim-tarbiya bazasiga ega bo'lgan, mahsuldor qatlam sifatida ushbu resursdan samarali foydalanish yo'lini qidirmoqda. Mazkur sa'y-harakatlar nafaqat keksa avlod uchun xayrixohlik, balki avlodlararo yangi aloqalarni kuchaytirish, jamiyat hayotida islohotlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida faol ishtirok etishini, hayotiy muvozanatni barqarorlashtirish sifatini ta'minlaydi.

Keksalik davri, bu davrda kechadigan o'zgarishlarni o'rganishga oid nazariyalar juda qiziqarli va dolzarb bo'lganligi sababli, bugungi kunda keksalik bilan bog'liq andragogika, gerontologiya, tibbiyot gerontologiyasi, ijtimoiy gerontologiya, gerontopedagogika, gerontopsixologiya, gerogigiya, geryatriya kabi fan sohalarida rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatlar, xalq, millatning diniy e'tiqodi, milliy qadriyati, an'ana, marosim, urf-odat va turmush tarzini o'zida aks ettirgan amaliy tajribaga tayanib, ilm-fan, xususan pedagogika fanida andragogika sohasiga asos solindi. Pedagogikadan farqli ravishda andragogikaning ta'limiy maqsadi o'rganuvchilarga mazmuni qabul qilish va unga tanqidiy fikr bildirishga zamin yaratish hamda uni hayotda amaliy qo'llay olishda namoyon bo'ladi.

Bugungi kun shiddati insonlarni har kuni to'xtovsiz yangi ma'lumotlarni qabul qilish, yangidan-yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga majbur etadi. Qisqacha aytganda inson yoshidan, jinsidan, ma'lumotidan, jamiyatda

tutgan mavqei, lavozimidan qat'iy nazar doimiy ta'lim olish jarayoning ishtirokchisiga aylanadi. Shu sababdan ham rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida yoshlar kabi keksalarni zamonaviy fan sohalariga o'qitish bo'yicha turli dasturlar, malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Andragogika (yunoncha, *andyr* (andr), «katta erkak», *agōgos* (agogos) «rahbar», qariya ma'nosini anglatadi) so'zma-so'z ma'noda «yetakchi erkaklar» ma'nosini anglatadi. Andragogiya sohasi keksa avlodga o'rgatish, o'rganishga yordam berish, ta'lim berish, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning muayyan shakllarini ochib beradigan keksalar ta'limi nazariyasining bir qismi bo'lib, shuningdek, ushbu faoliyatni professional tarzda boshqaruvchi o'qituvchi tayyorlash sohasi sifatida qaraladi. Andragogikaning an'anaviy pedagogikadan farqi, mashg'ulotlarda faol, soha to'g'risida ilmlarga ega, o'z-o'zini boshqaradigan tinglovchilarni tashkil etib, ushbu jarayonda o'quvchilar ta'limini yo'naltiruvchilar, o'rganishga yordam beruvchilar sifatida qaraladi.

Andragogika atamasi ilk bor 1833-yili nemis tarixchisi Aleksandr Kapp tomonidan fanga kiritilgan [1]. O'sha davrda Yevropa jamiyatida ayol va erkakning huquqiy jihatdan «gender» tenglik muammosi hal etilmagan edi. Shu bois keksa ayollar masalasiga e'tibor qaratilmaganligi sabab bo'lgan [8]. Andragogika atamasi bilan bir qatorda, maxsus adabiyotda «Keksalar pedagogikasi», «Keksalar ta'limi nazariyasi», «Keksalarni o'qitish» va boshqa shu kabi tushunchalar qo'llaniladi.

Androgogika atamasi kattalar pedagogik tamoyillarini ishlab chiqqan olim, amerikalik pedagog Malkolm Noulz (1913 - 1997) bilan bog'liq bo'lib, 1970-yillarda kattalar ta'limi bo'yicha tadqiqotlar olib bordi hamda andragogika nazariyasini yanada rivojlantirildi [5]. U pedagogikaning ta'lim maqsadi va vazifalari andragogika ta'limiga mos kelmasligini o'z nazariyalarida ta'kidlab o'tgan. Noulzning andragogika sohasiga oid nazariyalari asos sifatida qabul qilindi hamda keng ommaga yoyildi. Tadqiqotchi olim Savicevic ta'kidlaganidek, uning nazariyalari Yevropaning kamida o'n davlatida, jumladan Polsha, Angliya, Germaniya, Rossiya, Vengriya va boshqa davlatlarda turli faoliyat hamda fan sohalarida foydalanildi [4].

Rossiyalik olim M.V.Yermolayeva shaxs pedagogik muammolari haqidagi ilmiy izlanishlarida «shaxsdagi faol hayot, doimiy ilmiy bilimlarni egallash, boyitib borish dunyoqarash va tajribani ortishiga; o'z-o'zini anglashga, hayotga nisbatan ijobiy munosabatni tiklashga, hayot yo'lidagi muammolarni hal etishga hamda keksalik davrida insonning psixologik va pedagogik bilimlarini oshirish ushbu davrni o'zidan qoniqish, sokinlik, barqarorlik bilan o'tishiga yordam beradi» [7] deb hisoblaydi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, «keksalik davrida ba'zi insonlarda hech kimga keraksizlik, foydasizlik, ichki bo'shliq, o'ziga ishonchsizlik, o'z-o'zidan qoniqmaslik kabi holatlar ro'y beradi, bu holat o'ziga va birovga nisbatan asossiz tajovuzkorlikka sabab bo'lishi mumkin» [9]. Haqiqatdan, keksalarning hayotga, kelajakka nisbatan ishonch, intilish, pozitiv munosabatlarni uyg'otmay turib ularning ta'lim va tajribalaridan samarali foydalanish kutilganidek samara bermaydi. Insondagi ijobiy kayfiyatning (ko'tarinki kayfiyat, kulgu, baxt, keraklilik hissi) keksalik davrida ham saqlanib qolinishi ulardagi turli qobiliyatlarni yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Jumladan, Aristotel ayni sakson yoshga kirganda musiqa ilmini o'rganishga kirishgan. Undan buning sababini so'rashganida «Hayotga endi qadam qo'yayapman-ku...» degan javobni bergan.

Xitoylik mashhur aktyor Vang Deshun 63 yoshga to'lganida ingliz tilini o'rgangan bo'lsa, 67 yoshida sport zaliga borishni boshlagan, 79 yoshida esa model bo'lib yoshlar bilan podiumga chiqqan [6]. Shu sababdan gap yoshda emas, ijobiy psixologik holat, o'z ustida ishlash, izlanish, yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq bo'lib, insonning uzoq va sog'lom umr ko'rishiga ta'sir o'tkazadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli o'qishga bo'lgan motivatsiya omili ko'pincha intellekt omilidan kuchliroqdir. Ta'lim jarayonini sifatli hamda qiziqarli tashkil etishda o'rganuvchilar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash muhim sanaladi. Shu sababli motivatsiyani shakllantirish, rivojlantirish, kerakli, fanga doir metod hamda yondashuvlarni inobatga olib, darslar va o'quv materiallarini tashkillashtirgan holda olib borish talab etiladi.

Kattalarga ta'lim berishda dars mashg'ulotlarining sifatli hamda qiziqarli tashkil etilishida quyidagilarga ahamiyat qaratiladi:

- taqdim etilayotgan matnlar, audiovizual materiallar, vazifalar va dars mashg'ulotlari talabaning yosh xususiyatlariga, qiziqishlariga mos bo'lishi;

- o'qituvchi talabalarga vazifalarning bajarilishini baholash imkonini berishi, tanqidiy fikrlashga sharoit yaratish va ularning ehtiyojlari boshlang'ich rolni o'ynashi talab etiladi.

- mashg'ulotlardagi yumor, musiqa singari dars mavzusidan tashqari, qo'shimcha mashg'ulotlar komponentlari tinglovchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish vositalari hisoblanadi. Qo'shimcha mashg'ulotlar sifatida nafaqat yumor yoki ko'ngilochar mashg'ulotlar, balki

tinglovchilar orasida kurs maqsadiga mos bellashuvlar uyushtirish, misol uchun, poster taqdimotlar, video taqdimotlar, guruhlarda loyiha ishlarini tashkillashtirish va boshqalarni kiritish mumkin.

Andragogikada o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini aniqlovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- o'qituvchi o'z kasb mahoratini muttasil oshiradi, ijodiy faoliyati rivojlanadi, uning pedagogik salohiyati va tajribasi ortib boradi;

- o'qituvchining o'quvchilar bilan individual faoliyat olib borishga xohish va imkoniyat yaratiladi;

- o'qituvchi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishi va boshqarishi orqali pedagogik qobiliyati rivojlanib boradi;

- fan o'qituvchisining amaliy faoliyati rivojlanadi;

- pedagogik, psixologik va metodik bilimlarni puxta o'zlashtirish, mazkur sohaga oid yutuqlardan boxabar bo'lish, fanning nazariy va metodik asoslarini puxta o'zlashtirish, ular bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchi olimlar Kenyon, Xase (Kenyon, C., & Hase), [2] Forrest, Peterson, Merriamlar [3] Malkolm Noulzning andragogikani o'rganishdagi oltita asosiy sabablarni sanab o'tadi. Ular:

O'z-o'zini anglash. Kattalar ta'limini tashkil etishda tinglovchilar mustaqil, o'z-o'zini anglagan, hatti-harakatlarini boshqara oladigan, erkin fikrlaydigan bo'lishi.

Tajribadan o'rganish. Tinglovchilar dastlabki ilmiy va amaliy tajribaga ega bo'lib, egallangan boy resurslari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish yanada osonlashadi.

O'rganishga tayyorlik. Kattalar o'zlari uchun manfaatli va muhim bo'lgan fan sohalarini o'rganishga intiladi. Ularning ilm egallashga, zamonaviy bilimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ta'lim jarayonini sifatli bo'lishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Bugun uchun. Kattalar uchun ta'lim sohasi kelajakda foydalanish uchun emas, balki bugun uchun xizmat qilishi lozim. Shu sababdan, ta'lim sohalarini dolzarb, zamonaviy sohalarini o'z ichiga olgan, hayotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ichki motivatsiya. Kattalar fan sohalarini tanlashda tashqi mayllar va bosimlardan ko'ra ko'proq ichki shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlariga ko'ra ta'lim turini tanlashga harakat qilishadi.

Bilish kerak. Kattalar ta'limida ta'lim olayotgan fan sohalarining o'rganish zarurati, o'qish sababi hamda qay darajada manfaatli bo'lishini anglashlari lozim.

Andragogik ta'lim kattalarning xohish va istaklari inobatga olgan holda, mashg'ulotlar professional darajada tashkil etilishi, shuningdek o'zaro hamkorlikda; birgalikda rejalashtirilgan, doimiy muloqot, rejalashtirish asosida, fikr-mulohazalarga asoslangan holda o'tkazilishi lozimdir.

Andragogik model quyidagi to'rtta asosga tayanadi:

1. Keksalarga biror narsani o'rganish, o'zlashtirish nima uchun dolzarbligi tushuntiriladi.

2. Ta'lim jarayonini demokratik shaklda tashkil etadi, tanqidiy fikrlaydi, o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

3. O'rganilayotgan mavzu o'zlashtirilgan bilimlarga, tajribaga asoslanadi.

4. Mavzuni boshlashdan oldin tinglovchi motivlanmagunicha ishga kirishmaydi. Bu esa o'rganish bo'yicha to'siqlarni, hatti-harakatlarni bartaraf etishni talab qiladi.

1940-yili RSFSR (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi)da gerontologiya, pedagogika fanining maxsus sohasi sifatida keksa avlodni tarbiyalashning nazariy-amaliy muammosini qamrab oladi. Bu sohada chop etilgan bir qator ilmiy adabiyotlarda keksa avlodni o'qitish va tarbiyalash

pedagogikasi, «katta yoshli(keksa, qari) avlodlarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti» kabi bir qator atamalardan foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa tarzida aytish mumkinki, inson umrining kumush davri, donishmandligi hisoblangan keksalik davri, uning mazmunga boy, yangiliklar va istiqbolli o'zgarishlar bilan bog'langan davrga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan andragogika faniga nisbatan talabning tobora ortib borayotganligi, sohaga oid pedagogik texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish masalalari bugungi axborotlashgan jamiyatda dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Keksalik davrini inson hayotining eng go'zal davrlariga aylantirish, bu borada milliy, diniy, mintaqaviy

xususiyatlarni o'rganish, tarixan shakllangan an'analarni tadqiq qilish, keksalarni turli pedagogik jarayonlarga keng jalb qilish va ularning hayotga nisbatan qoniqish xissini oshirish lozim.

Fan, ta'lim, innovatsion texnologiyalar taraqqiyoti axborot oqimining tez o'sib borishiga sabab bo'lmoqda, bu esa bizdan doimo o'qish va izlanishni talab qiladi. Zamonaviy jamiyatda ilm olish faqat yoshlar bilan bog'liq bo'lmay, har qanday yoshdagi, shu jumladan keksa avlod vakillari hayotining eng muhim shartlaridan biri hisoblanib, yurtimizda «Hayot davomida o'qish» tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Alexander Kapp-The First Known User of the Andragogy Concept. Loeng, Svein. International Journal of Lifelong Education, v36 n6 p629-643 2017. <https://eric.ed.gov/?id=EJ1169580>
2. Kenyon, C., & Hase, S. (2001). Moving from Andragogy to Heutagogy in Vocational Education, 18 (1), 21-32. <https://eric.ed.gov/?id=ED456279>
3. Merriam, S. B., & Caffarella, R. S. (1999). Learning in Adulthood. A Comprehensive Guide. Jossey-Bass Higher and Adult Education Series. ERIC No. ED433417
4. Savicevic, D. M. (1991). Modern conceptions of andragogy: A European framework. Studies in the Education of Adults, 23(2), 179-201. <https://doi.org/10.1080/02660830.1991.11730556>
5. Smith, Mark K. «Malcolm Knowles, Informal Adult Education, Self-direction and Andragogy». Encyclopedia of Informal Education. Retrieved August 13, 2011.
6. Tatlow, Didi Kirsten (November 3, 2016). "An 80-Year-Old Model Reshapes China's Views on Aging". The New York Times. Retrieved November 17, 2022.
7. Ермолаева М.В. «Практическая психология старости». Монография, <https://www.twirpx.com/file/2060233/>
8. Кравченко А.И. Хрестоматия по культурологии. – М.: ТК Велби, Изд. Проспект, 2008, – 103-384 с.
9. Шубина Н. Болонский процесс: эксперимент по организации индивидуально-ориентированного учебного процесса эксперимент по организации индивидуально-ориентированного учебного процесса в системе зачетных единиц // Новые знания. – № 1. – 2020. – С.11-14.



UDK: 54:371.3

Zarif **TURDIYEV**,
Shahrisabz tuman 74-umumta'lim maktabi o'qituvchisi
Mexriddin **KUCHKAROV**,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b., PhD
E-mail:kuchkarovmexriddin1972@gmail.com

Qo'qon davlat pedagogik instituti dotsenti, PhD A.Jumanov taqrizi asosida

THE USE OF MNEMONIC ELEMENTS AT THE STAGES OF COGNITIVE COMPETENCE FORMATION

Annotation

This article analyzes the aspects of the use of mnemonic elements at the stages of cognitive competence formation in chemical education. The main attention is paid to the didactic conditions for the formation of cognitive competencies in teaching chemistry. Didactic conditions for the use of mnemotechnical methods at the stages of cognitive competence formation are substantiated.

Keywords: cognitive ability, forecast, competence, algorithm, paradigm, standard, basic level, scientific awareness.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МНЕМОНИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ НА ЭТАПАХ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются аспекты использования мнемонических элементов на этапах формирования когнитивной компетенции в химическом образовании. Основное внимание уделяется дидактическим условиям формирования когнитивных компетенций при преподавании химии. Обоснованы дидактические условия использования мнемотехнических методов на этапах формирования когнитивных компетенций.

Ключевые слова: когнитивная способность, прогноз, компетентность, алгоритм, парадигма, стандарт, базовый уровень, научная осведомленность.

KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARIDA MNEMONIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kimyo ta'limida kognitiv kompetensiyani shakllantirish bosqichlarida mnemonika elementlarini qo'llash jihatlari tahliliy bayon etilgan. Unda kimyo fanini o'qitish mobaynida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirib borishning didaktik sharoitlariga urg'u berilgan. Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlarida mnemotexnika usullaridan foydalanishning didaktik sharoitlari asoslangan.

Kalit so'zlar: kognitiv qobiliyat, prognoz, kompetensiya, algoritim, paradigma, standart, tayanch konspekt, ilmiy xabardorlik.

Kirish. Jahon hamjamiyatidagi globalashuv jarayonlari, yuqori texnologiyalar va yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish zamon talablari ehtiyojlarini qondirish uchun printsipl jihatdan yangi kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Mehnat bozorida talab katta bo'lgan raqamli ta'lim sharoitida ta'lim oluvchilar shaxsi tarkibidagi asosiy komponentlar sifatida kognitiv kompetensiyalarni alohida o'rganish va rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim jarayonining metodologiyasini yangilash, shu jumladan zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sifatida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni integratsiyalash orqali ta'lim paradigmasini o'zgartirish tendentsiyasi dolzarb masalaga aylanadi. Hozirgi vaqtda halqaro miqiyosda ham kasbiy ta'lim yo'nalishida tayanch kompetensiyalar orasida aynan kognitiv kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kognitiv soha ta'lim faoliyatida muhim rol o'ynaydigan idrokga asoslangan mantiqiy jarayonlarni, obrazlarni aniqlash, xotira, tasavvur, til funksiyalari, rivojlanish psixologiyasi, fikrlash va muammolarni hal qilish kabi fiziologik, psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Pedagogika, ta'lim nazariyasi, didaktika yo'nalishi bo'yicha qator fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Ularda bilim,

ko'nikma va qobiliyatlar o'quvchilarda kompetensiyaning asosi bo'lib xizmat qilishi, kognitiv kompetensiyaning shakllanishi bilan bog'liq ko'plab jihatlar ta'lim jarayonini metodik va nazariy o'rganish kontekstida o'z aksini topgan bolsa [1, 2, 3, 4, 7], pedagogik jarayonni optimallashtirish va intensivlashtirishning nazariy-metodologik asoslari borasida ham izlanishlar olib borilgan [6].


- **Tadqiqot metodologiyasi.** Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning yetakchi tadqiqotchilari (A.L.Andreev, V.I.Baydenko, P.P.Borisov, E.F.Zeer, I.A.Qish, T.Ivanova, V.A.Isaev, O.E.Lebedev, M.Lukyanova, A.K.Markova, A.F.Jury, J.Raven, G.K.Selevko, V.Serikov, Yu.G.Tatur, D.Frumin, A.V.Khutorskoy, N.P.Churlyayeva, T.V.Shamardina, S.E.Shishov) asosiy kompetensiyalarning shakllanishi endi faqat bilish, ko'nikmalar tizimi emas, balki asosiy kompetensiyalar kontekstida o'quvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyati tajribasini shakllanishida ham muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Biroq, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotchilar orasida ham umumiy qabul qilingan talqinga ega emas. Ularning aksariyati (B.Baydenko, A. Zim'yaya, T.V.Ivanova, O.E.Lebedev, M.Lukyanova, A.K.Markova, A.F.Jury, G.K.Selevko, V.Serikov, Y.G.Tatur, A.V.Xutorskaya, T.V.Shamardina) kompetensiyalar orqali

kompetentlikni belgilaydi va bu pozitsiya ko'pchilik tomonidan tadqiqotlarda qabul qilinadi.

- **Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ta'lim oluvchilarni rivojlantirish hamda tarbiyalash vazifasi o'quv jarayonining "qo'shimcha mahsuloti" sifatida qaraladi.

Kognitiv soha ta'lim faoliyatida muhim rol o'ynaydigan idrokga asoslangan mantiqiy jarayonlarni,

obrazilarni aniqlash, xotira, tasavvur, til funktsiyalari, rivojlanish psixologiyasi, fikrlash va muammolarni hal qilish kabi fiziologik, psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, kompetentsiyani shakllantirishda jismoniy holatning muhimligini ta'kidlash kerak, chunki jismoniy jihatdan yetuk rivojlangan odamda aqliy va ruhiy jihatdan mukammal rivojlanish imkoniyati yuqori bo'ladi.



1-rasm. Kognitiv kompetensiya strukturasi

Kognitiv kompetensiya deyilganda o'z bilim darajasini doimiy mustaqil ko'tarib borishga, o'zining shaxsiy potentsialini faollashtirishga, qo'llashga tayyor bo'lgan, yangi bilim, ko'nikma, malakalarni o'z o'zini rivojlantirish maqsadida qo'llash qobiliyatlari bilan bog'liq shaxsning integral sifatleri tushuniladi. Kognitiv kompetentlik esa kompetensiyalarni standart va nostandart sharoitlarda qo'llay olish tajribasiga asoslangan shaxsiy xususiyat sifatida ta'riflanadi [8, 9, 10].

Ta'lim oluvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish uchta bosqichda amalga oshiriladi.

1. O'z o'zini prognoz qilish bosqichi. Bu bosqichning maqsadi o'zining o'quv bilish faoliyatini belgilab olingan o'quv faoliyati maqsadlari asosidagi namuna bo'yicha boshqarish. Bu bosqichda ta'lim oluvchilarga faoliyat maqsadi aniqlangan imitatsion topshiriqlar beriladi, mnemonik shartlar bilan tanishtiriladi. Tahlil qilish, analiz qilish va kerakli sharoitni, muvofiq keluvchi shartlarni aniqlashda muammoni hal qilishga yo'naltiruvchi savollar, yordamchi ko'rsatmalar berilishi mumkin. Taklif etilgan variantlar orasidan qulay yechimni o'quvchilar o'zleri tanlov qilishlari kerak bo'ladi. Tizimli faoliyat natijasida yechim namunasiga poydevor qo'yib boriladi. Har xil darajadagi imitatsion topshiriqlar, mnemonik shartlardan foydalanish orqali tanlov muhiti shakllantiriladi. O'quvchilar turli darajadagi mnemonik shartlar kiritilgan ma'lumotlar orasidan tanlov qiladi, o'z variantini taklif qiladi, uni analiz qiladi, berilgan etalon bilan taqqoslaydi. Ushbu ma'lumotni o'zlashtirish qiyinchiligi sababini aniqlashga harakat qiladi, axborotning ko'rinishi yoki mazmunini maqsadga muvofiq shaklga keltiradi.

2. O'z-o'zini loyihalash bosqichi. Bosqichning maqsadi o'rganish rejalashtirilgan axborotlarni o'zlashtirishda, o'quv faoliyatini loyihalashtirishda foydalaniladigan mantiqiy til, interpretatsiya izomorfizmi kabi vositalalar bilan tanishish, shaxsiy faoliyat tajribasi asosida maqsadni belgilash, muammoni yechimini izlashga doir kerakli muhit modelini 1-jadval.




yaratish, o'z xatolarini aniqlash, to'g'irlash va qolganlarni ogohlantirish. Ko'rsatilgan vositalar ta'lim oluvchilarning belgilangan muammo yuzasidan individual faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Faoliyat maqsadini belgilash, faoliyat ichidagi kichik maqsadlarni aniqlash, maqsadni o'zgartirish bilish faoliyatidagi muhim va murakkab bosqichlar hisoblanadi. Berilgan topshiriq ko'rinishini mnemonik shartlar, kimyoviy til, mantiqiy va ilmiy yondashuvlar asosida qayta shakllantirish layoqatiga ega bo'lish, muammoni hal etishning oson variantlarini tanlash va ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday tanlovlar nafaqat o'quvchining tajribasiga balki vazifaning mantiqiy tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Shu tariqa ta'lim oluvchilar maqsadni modellashtirishga o'rganadi. Vazifani yechish rejasini tuzish (algoritmash) orqali ta'lim oluvchilar mikromaqsadlarni shakllantirishga o'rganadi. Berilgan variantlardan tanlov qilish orqali o'quvchilar eng maqsadga muvofiq variantlarni tanlash, tanqidiy fikrlash, xatolarni aniqlash xususiyatlarini shakllantiradi.

3. O'z-o'zini tarbiyalash bosqichi. Mazkur bosqichning maqsadi mustaqil ravishda maqsadni belgilash, faoliyatning qulay usullarini aniqlash, ishlab chiqish asosida, ta'lim oluvchilarga muammoni hal qilish yo'llarini izlash taktikasini o'rgatish. Bu bosqichda o'quvchilarga turli darajadagi integrativ, refleksiv, aralash mnemonik shartlarga asoslangan vazifalar beriladi. Ushbu vazifalar faoliyat maqsadi va vazifa mazmunidagi muammoni shakllantirish, muammoni hal qilish strategiyasini ishlab chiqish, yechim faoliyat rejasini tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Muammo yechimlarini izlash jarayoni integrativ, refleksiv topshiriqlarni yechishga tayanch bo'lib xizmat qiluvchi ijodiy topshiriqlardan foydalanishni talab etadi.

Kimyo mashg'ulotlarida mnemonik shartlar asosida topshiriqlar bajarilgandan so'ng o'quvchilar o'z faoliyatini analiz qiladi, o'z o'zini baholaydi [5].

Mnemonik shartlar asosida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari

Bosqich	Bosqich mazmuni
I O'z o'zini prognoz qilish	Ma'lumotni qaysi mnemonik shartlar asosida qayta ishlash mumkinligi aniqlanadi, klassifikatsiyalanadi, ma'lumotlar orasidan tanlov qilinadi, mavjud etalonlar bilan taqqoslanadi. Mnemonik shart tuzish turlari: Ranglarga bog'liq holda mnemonik shartlar tuzish. Raqmlarga bog'liq holda mnemonik shartlar tuzish. Ma'lum tartib asosida mnemonik shartlar tuzish. Qiyoslash asosida mnemonik shartlar tuzish. Termin va tushunchalarning tarkibiy harflari asosida mnemonik shartlar tuzish. Jumla va iboralarga bog'liq mnemonik shartlar tuzish. Piktogramma va ideogrammalardan foydalanib mnemonik shartlar tuzish
II O'z o'zini loyihalash	Taqqoslash, alohida ma'lumotga doir mnemonik shart tuziladi. Xromning valentliklarini yodda saqlash uchun mnemonik shart sifatida quyidagi matematik ifodani qo'llash mumkin. Ikki karra uch - olti. Xrom II, III, VI valentliklarni namoyon qiladi.
	2 × 3 = 6

	CrII	CrIII	CrVI
III O'z-o'zini tarbiyalash	Bir necha ma'lumotlarni tartib bilan eslab qolish, biridan ikkinchisini keltirib chiqarish yoki o'zaro integratsiyalash, mnemonik shart tuzish strategiyasini ishlab chiqish, ijodiy yondashish amalga oshiriladi. Xrom metalli ionlari (Cr3+, CrO42-, Cr2O72-) rangini eslab qolishga doir mnemonik shart ishlab chiqishda sonlar ketma ketligi, ranglar, va hodisa tartibi uyg'unligidan foydalaniladi. Ionlar sodda ko'rinishdan murakkablashib borish, atomlar soni ortib borish tartibida joylashtiriladi. Bargning vegetatsiya davrida ranglari o'zgarib borish tartibiga qiyoslanadi. Barglar avval yashil rangda bo'ladi, keyin sariq, so'ngra zarg'aldoq rangga bo'yaladi.		
			
	Cr3+	CrO42-	Cr2O72-
	1 ta atom	5 ta atom	9 ta atom
	Yashil	Sariq	Zarg'aldoq

Kognitiv ko'nikmalarga asoslangan bunday kompetentlik mustaqil kognitiv faoliyatni nazarda tutishi va nafaqat ta'lim jarayoniga, balki butun bilish sohasiga ham taaluqli bo'lishi muhimdir. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan asosiysi, o'quvchilarning hayoti mobaynida kognitiv faoliyatida samarali qarorlar qabul qilishga yetarli bo'ladigan kognitiv kompetentlik darajasini egallashlarini ta'minlashdir. Tadqiqotning asosiy pedagogik muammosi ham ilmiy-nazariy jihatdan, o'quvchilarning kognitiv kompetentligini talab qilinadigan darajagacha rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. "Kognitiv kompetentlik" tushunchasi va uning ta'lim jarayonida qo'llanilishining pedagogik jihatlariga bag'ishlangan masalalarning tadqiqi yetarli darajada emas. Pmiy-metodik jihatdan ushbu pedagogik muammoni ko'rib chiqish asosiy kompetensiyalarning rivojlanishini

ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash, jumladan: o'quvchilarda mustaqil kognitiv faoliyat yo'nalishida kompetentlikning shakllanishi bilan bog'liq.

- **Xulosa va takliflar.** Kimyo ta'limida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beruvchi mavzu mazmunini qayta ishlashga asoslangan, tayanch konspektlar, piktogrammalardan, ideogrammalari mnemonik assotsiatsiyalardan kengroq foydalanish, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida kimyoviy bilimlarni integratsiyalashga yordam beruvchi kognitiv bilish qobiliyatini rivojlantiruvchi nazariy manbalar, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy yo'riqnomalar ishlab chiqish ta'lim samaradorligini ortishi bilan birga, o'quvchilarda bilimlarni tahlil qilish, sintez qilish, ilmiy bashorat qilish qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Бабанский, Ю. К. Введение в научное исследование по педагогике : Учебное пособие для студентов пединститутов / Ю. К. Бабанский / под ред. В. И. Журавлева. М.: Просвещение, 1988. - С. 91-106.
2. Волович, М. Б. Наука обучать : Технология преподавания математики / М. Б. Волович. М.: ТОО Фирма Линка-пресс, 1995. - 278 с.
3. Гальперин П.Я. Методы обучения и умственное развитие ребенка / П.Я. Гальперин. - М.: 1985. - 235 с.
4. Давыдов, В. В. Виды обобщения в обучении : Логико-психологические проблемы построения учебных предметов / Российская Академия Образования; Психологический институт. М. : Педагогическое общество России, 2000.
5. Козаренко В.А. Учебник Мнемотехники. Система запоминания «Джордано». М., 2007. С. 115
6. Поташник, М. М. Организация опытно экспериментальной работы в школе. Эксперимент в школьной практике / М. М. Поташник. - М. : 1991.-246с.
7. Скаткин, М. Н. Активизация познавательной деятельности учащихся в обучении / М. Н. Скаткин. М. : 1965. - 48 с.
8. Смирнова Т.Ф. Формирование научного мировоззрения учащихся при изучении химии: Из опыта работы. Пособие для учителя. М.: Просвещение, 1984. - 175 с.
9. Солдатова, Е. Л. Развитие когнитивных способностей : учебное пособие / Е. Л. Солдатова ; Юж.-Урал. гос. ун-т. – Челябинск, 1995. – 19 с.
10. Mastropieri M.A., Scruggs T.Ye., Levin J.R. Mnemonic strategy instruction with learning disabled adolescents. // Journal of Learning Disabilities. 1985. №18 (2). S. 94-100.



UDC: 371.38

Urazgul URINOVA,
*A first-year PhD student, Uzbekistan state world languages university
E-mail: orazgulinova@gmail.com.*

O‘zDJTU dotsenti, PhD N.Muxammedova taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE SYSTEM OF ACTIVITIES AND TASKS AIMED AT IMPROVING PUBLIC SPEAKING SKILLS

Annotation

This article examines the system of activities and tasks intended to improve public speaking abilities. The study examines theoretical frameworks, current methodology with a focus on contemporary approaches to public speaking education and recommends some effective activities. A thorough examination of many viewpoints from subject matter experts yields a thorough study of the most effective public speaking activities. Key insights emphasize the significance of drama-based activities, presentations, improvisation, role playing and peer-feedback.

Key words: Public speaking, skill development, exercises, tasks, communicative competence, drama-based activities, presentations, peer feedback.

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ МЕРОПРИЯТИЙ И ЗАДАНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА УЛУЧШЕНИЕ НАВЫКОВ ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ

Аннотация

В этой статье рассматривается система мероприятий и заданий, предназначенных для улучшения навыков публичных выступлений. Исследование охватывает теоретические рамки, современные методики с акцентом на актуальные подходы к обучению искусству публичных выступлений и предлагает эффективные мероприятия. Тщательное изучение множества точек зрения экспертов в данной области позволяет провести детальный анализ наиболее эффективных методов улучшения навыков публичных выступлений. Основные выводы подчеркивают важность мероприятий, основанных на драматическом искусстве, презентациях, импровизации, ролевых играх и обратной связи от сверстников.

Ключевые слова: Публичные выступления, развитие навыков, упражнения, задания, коммуникативная компетентность, драматические мероприятия, презентации, обратная связь от сверстников.

OMMAVIY NUTQ SO‘ZLASH KO‘NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI TAHLILI

Annotatsiya


Ushbu maqolada ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga mashq va topshiriqlar tizimi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot nazariy asoslar, zamonaviy metodologiyalar va hozirgi ommaviy nutq so‘zlash ta‘limotiga oid yondashuvlarni o‘rganadi va samarali topshiriqlarni tavsiya qiladi. Mutaxassislarning turli nuqtayi nazarlarini chuqur tahlil qilingan holda, eng samarali ommaviy nutq mashqlari batafsil o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dramaga asoslangan topshiriqlar, taqdimotlar, improvizatsiya, rolli o‘yinlar va tengdoshlar fikr-mulohazalarining ahamiyatiga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy nutq, ko‘nikmalarni rivojlantirish, mashqlar, topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, drama asosidagi faoliyatlar, taqdimotlar, tengdoshlar fikri.

Introduction. Public speaking is a crucial component of communication skills and is indispensable in educational, professional, and social environments. Improving public speaking skills involves a series of strategies and activities that foster confidence, clarity, and effectiveness in delivering messages to diverse audiences. This paper's main goal is to evaluate the exercises and activities designed to help students become better public speakers by analyzing their effects from various pedagogical and scientific vantage points. This research will lay the groundwork for understanding how organized activities can enhance a student's capacity for clear and confident public speaking.

Literature review. Several studies have explored the importance of exercises in enhancing public speaking abilities. It is well known that in teaching a foreign language, speaking


skills are taught through a system of specific exercises and tasks. In her research, K. Muradkasimova emphasized that exercises are the main tool of education, and their implementation plays an important role in achieving the intended educational goals[1]. Each type of exercise serves to achieve the objectives and tasks set by the educational subject. The main task of the exercise system in teaching a foreign language is aimed at improving communicative competence. Although communicative competence is a broader concept than public speaking skills, they are interconnected in certain aspects. In her research, M. Gulyamova studied the development of communicative competence based on an integrative approach. According to her, communicative competence includes the following components[2]:



1. The components of communicative competence

Additionally, she emphasized that in order to develop communicative competence, it is crucial to first acquire knowledge related to linguistic competence. As can be seen from the diagram, public speaking is the main part of the structure of speech competence. Theories from scholars such as Lucas (2015) and McCroskey (2006) emphasize the importance of speech structure and audience awareness in effective communication [3,4]. Lucas (2015) points out that public speaking skills can be honed through repeated practice, focusing on articulation and modulation [3]. Furthermore,

McCroskey (2006) highlights the role of reducing speech anxiety as a critical aspect of public speaking training, suggesting that tasks aimed at familiarizing speakers with the audience's expectations significantly lower apprehension [4]. Other scholars, such as Beebe and Beebe (2017), focus on exercises that emphasize body language and non-verbal communication, arguing that these factors can account for up to 55% of a speaker's impact [5]. Leong classifies the typology of speaking exercises into seven types:[6]



2. The typology of speaking exercises

M. Stinson and K. Freebody emphasized the importance of drama-based activities in enhancing public speaking skills. They conducted an empirical study in Singapore to see whether using theater activities in the classroom helped students' English speaking abilities. According to the findings, as a result of the implementation of drama-based activities, the intervention group produced more notable improvement above the comparison group in terms of vocabulary, clarity, and topic relevance engagement with the examiner and the requirement for guidance [7]. Other researchers also advocate the implementation of theatre activities. Two studies by I. Prisana, K. Sakon, and P. Iamsaard, S. Kerdpol examined how dramatic exercises helped Thai high school students' communicative speaking abilities in English. The findings showed that following the use of drama-based exercises to improve speech abilities students showed significant improvement in their language learning and showed a strong appreciation for dramatization tactics [8]. Moreover, Task Based Language Teaching (TBLT) can be implemented in classroom environment to enhance the communicative competence of students. It is a strategy which concentrates on tasks of how to use English communicatively in real life circumstances. Richards & Rodgers (2001) claim that Task-Based Language education (TBLT) is a method that centers language education around the use of tasks as the main component of lesson design and instruction [9]. One of teaching strategies for public speaking practice is by giving task of presentation. By giving a presentation, students can learn how to open a presentation speech, carry on a discussion, answer questions, and also attract audience's attention. Melion and Thompson in (Suliman, 2022) state that if oral presentation is guided and organized, it will give the students a learning experience and teach them an important skill which will be beneficial to ESL/EFL in all their education subject and later in their work [13].

Research methodology. To conduct a comprehensive review of the literature on the tasks and exercises aimed at improving public speaking, a systematic approach was adopted. The following research methodology outlines the steps taken to identify and analyze relevant studies for inclusion in this article.

1. Identification of Relevant Literature:

A comprehensive exploration of scholarly repositories, including Google Scholar, Science Direct, ERIC, and Elicit,

was carried out with keywords associated with "public speaking," "exercises and tasks," "improving public speaking," and "speaking activities."

The initial search produced a sizable number of research articles related to the topic.

2. Evaluation and Selection of Studies:

To evaluate the papers' quality, methodology, and contribution to the study issue and extract relevant data a critical assessment was conducted on the chosen ones.

Based on the studies' importance and theoretical framework to the research topic, a final selection was made.

3. Data Extraction and Synthesis:

In order to find recurring themes, patterns, and trends within the research, a thematic analysis technique was utilized.

The results of several investigations were compared and contrasted to identify commonalities, discrepancies, and areas of agreement in order to synthesize the findings.

4. Reporting and Writing:

The literature review's findings were presented in an organized way, giving readers a clear picture of the studies' methodology, main conclusions, and summary.

Finding, assessing, and integrating pertinent research permits a thorough examination of the subject, giving academics and researchers insightful knowledge on the effective activities to enhance public speaking.

Analysis and results. The analysis and synthesis of the selected studies shed light on the effectiveness of using activities in enhancing public speaking. Based on the theories and principles of the aforementioned scholars, and in support of their ideas, we will propose several activities to enhance public speaking, each grounded in different communication theories and teaching methodologies.

1. Drama-based activities can be implemented into foreign language instruction at any level. Such dramatization exercises and tasks that enhance public speaking into English language classes, elective courses, and extracurricular activities in upper-secondary general secondary educational institutions. In a conventional PPP (Presentation, Practice, Production), Instructional structures include CAP (Context, Analysis, Practice), ESA (Engage, Study, Activate), and practice. Drama-based activities might be incorporated in three stages:[10]

1. The stages of drama-based activities

1.PPP The learners are exposed to the language or "presented,"	2.CAP Sentence intonation exercises, role plays for more	3.ESA A one-minute monologue-style public speaking exercise
---	---	--

by the introduction of a scenario or context. The instructor asks thoughts or ideas from the class, encourages them to share their opinions with one another regarding the subject, etc. This can help students to remember the terms and phrases they are already familiar with.	controlled and free practice, short improvisations, and guided simulations are implemented in the second stage of the lesson. Correcting errors is crucial since accuracy is the stage's goal. The instructor keeps a careful eye on the students and corrects their mistakes slowly.	can be used as a public speaking challenge. The student is allowed ten seconds to gather their thoughts on the topic, and then they have one minute to discuss it with the class as a whole and then they make five-minute speech as a role of celebrity. This can be called as a "Hot Seat" exercise.
---	---	--

2. Presentation-based activities play a crucial role in the wide area of language instruction methodologies. According to Pradhananga et al., (2022), the primary goal of these activities is to imitate real-world dialogue scenarios, motivating students to surpass the constraints of simple memory or comprehension that is passive [11]. Solmaz (2019) gives his perspective and claim that activities that include presentations cover a wide variety of tasks from controlled activities, including giving formal speeches or making presentations on preset topics, to more adaptable exercises like unplanned talks, discussions, or role-plays [12].

3. Peer feedback, according to Garrison and Ehringhaus (2007), can enable students to have an understanding of how others view them [14]. Peer criticism also fosters a positive atmosphere that encourages steady progress. Peer evaluations help students improve their public speaking abilities by teaching them to critically evaluate others as well as provide criticism.

4. Improvising and role-playing are effective techniques for enhancing public speaking. Brown (2004) claims that these exercises allow speakers to rehearse speaking under duress by simulating real-life speaking conditions [15]. This supports the cognitive-behavioral approach, which holds

that exposing people to anxiety-inducing events repeatedly might help them become less afraid and perform better. Particularly with improvisation, students are required to think fast and express ideas on the fly, which boosts confidence and spontaneity.

Conclusion. In conclusion, public speaking is a critical skill in both academic and professional settings, yet it is one of the most daunting tasks for many students. The review of the literature on the use of activities in teaching public speaking provides valuable insights into the benefits and implications of incorporating into language instruction. The analysis of the system of activities and tasks aimed at improving public speaking skills demonstrates the critical role of drama-based activities, presentations, improvisation, role playing and peer-feedback. By embracing such kind of activities, educators can create dynamic, supportive and engaging learning environments where all students can thrive as public speakers. Future research could further explore how technological advancements, such as virtual reality simulations could be integrated to enhance public speaking training. This research suggests that combination of traditional methods with modern technological tools could offer even greater potential for skill development.

REFERENCES

1. Muradkasimova K.Sh.(2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped.fan. bo'yicha falsafa doktori dis. — Toshkent.-79.
2. Gulyamova M.X.(2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped.fan.bo'y.fal.d-ri (PhD) diss. –T.–39.
3. Lucas, S. E. (2015). *The Art of Public Speaking*. McGraw-Hill Education.
4. McCroskey, J. C. (2006). *An Introduction to Rhetorical Communication*. Routledge.
5. Beebe, S. A., & Beebe, S. J. (2017). *Public Speaking Handbook*. Pearson.
6. Leong, L. M., & Ahmadi, S. M. (2017). An analysis of factors influencing learners' english speaking skill.
7. Stinson, M., & Freebody, K. (2006). The DOL project: The contributions of process drama to improved results in English oral communication. *Youth Theatre Journal*, 20(1), 27-41.
8. Iamsaard, P., & Kerdpol, S. (2015). A Study of Effect of Dramatic Activities on Improving English Communicative Speaking Skill of Grade 11th Students. *English Language Teaching*, 8(11), 69-78.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511667305>
10. Дацків, О. (2024). Benefits of drama-based activities for public speaking skills development of high school students. *Освіта. Інноватика. Практика*, 12(2), 25-29.
11. Pradhananga, P., ElZomor, M., & Santi Kasabdj, G. (2022). Advancing minority STEM students' communication and presentation skills through cocurricular training activities. *Journal of Civil Engineering Education*, 148(2), 04022001.
12. Solmaz, O. (2019). Developing EFL learners' speaking and oral presentation skills through pecha kucha presentation technique. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 452–475. <https://doi.org/10.17569/tojqi.592046>
13. Suliman, W. (2022). Implications of Oral Presentation for Fostering Learners' Autonomy: A Case Study with Saudi Learners Majoring in English as a Foreign Language. *JET (Journal of English Teaching)*, 8(1), 107–118. <https://doi.org/10.33541/jet.v8i1.3293>
14. Garrison, C., & Ehringhaus, M. (2007). *Formative and Summative Assessments in the Classroom*. MiddleWeb.
15. Brown, G. (2004). Role-playing in Communication Training. In J. R. Gordon (Ed.), *Enhancing Communication Skills* (pp. 78-90). Sage Publications.



Shirinboy O‘SAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail.: shirinboyphd@gmail.com

TPU dotsenti, PhD Sh.Kimsanbayeva taqrizi asosida

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA KREATIV PEDAGOGIKANING IJTIMOIY-FALSAFIY ASPEKTLARI

Annotatsiya

Zamonaviy ta'lim tizimi kundan kunga shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Uning yutuqlaridan ortda qolgan jamiyatlar, o'z navbatida rivojlanishdan ham chetda qolib, aholi farovonligini ta'minlay olmay qolishi mumkin. Maqolada ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashda pedagoglardan talab etiladigan kreativlik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, tahdid, kreativlik, ogohlik, pedagog, pedagogik ishlanmalar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ КРЕАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

Современная система образования стремительно развивается с каждым днем. Общества, отстающие от ее достижений, рискуют остаться позади в развитии и не смогут обеспечить благосостояние населения. В статье анализируются аспекты креативности, требуемые от педагогов для обеспечения взаимосвязанности обучения и воспитания.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, угроза, креативность, бдительность, педагог, педагогические разработки.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF CREATIVE PEDAGOGY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS

Annotation

The modern education system is rapidly evolving day by day. Societies that fall behind its advancements risk lagging in development and may fail to ensure the well-being of their population. The article analyzes the aspects of creativity required from educators to ensure the integration of education and upbringing.

Key words: education, upbringing, spirituality, threat, creativity, vigilance, educator, pedagogical innovations.

Kirish. Har qanday ta'lim tizimida pedagoglar jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Pedagoglar nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning ma'naviy rivojlanishini ham ta'minlashi lozim. Bu jarayonda kreativlik va ma'naviyat o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ pedagog ta'lim jarayonida faol ijodkorlikni shakllantirish bilan birga, ma'naviy qadriyatlarni ham bolalarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi yangi talablar va o'zgarishlarga duch kelmoqda. Pedagogika sohasida kreativ yondashuvlar ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kreativ pedagogika nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni murakkab muammolarni hal etishga yo'naltirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, kreativ pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida markaziy figura sifatida muhim o'rin tutadi. Uning roli nafaqat ta'lim sifatiga, balki o'quvchilarning ma'naviy va shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ pedagoglar innovatsion o'qitish metodlarini qo'llab, o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularga ijodiy muammolarni hal qilishda yordam berishda muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Bunday pedagoglar faqatgina o'quv dasturlarini bajarish bilan cheklanmay, balki har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni har tomonlama rivojlantirishga intilgan ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Shuning uchun, kreativ pedagogika hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida muhim vazifalarni bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada keltirilgan adabiyotlar ta'lim va tarbiya jarayonidagi kreativlik va ma'naviyatni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. P.I.Chijikning fikriga ko'ra, "ma'naviy tahdid" bu jamiyatning ma'naviy asoslariga zarar yetkazuvchi ichki va tashqi omillar majmuasi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarning muvozanatini buzishga qaratilgan [12]. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatida ta'lim va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati alohida qayd etilgan bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish uchun asosiy yo'nalishlardan biri sifatida tavsifiya etilgan [1].

R.Sternbergning ijodiy intellekt nazariyasiga ko'ra, ijodiy yondashuvni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari oshiriladi [3]. Ushbu nazariya kreativ pedagogikada ham qo'llanilishi mumkin, chunki ijodkorlik o'quvchilarning ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi.

Axmedova Z.A. "Sovremennoye pedagogicheskoye obrazovaniye" jurnalining tadqiqotlarida kreativ pedagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi rolini o'rganib chiqdi va kreativlikni rivojlantirish uchun maxsus metodlar zarurligini ta'kidladif[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot metodlari sifatida tahlil va qiyosiy usullardan foydalanildi. Birlamchi va ikkalamchi manbalar, shu jumladan ilmiy maqolalar, qonun hujjatlari va ma'naviy tahlillar asosida kreativlik va ma'naviyatni shakllantirish usullari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagoglar faoliyatining ijodiy jihatlari tahlil qilinib, ularning ma'naviy tarbiyadagi o'rni va ahamiyati o'rganildi.

Kreativ pedagoglardan o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasida innovatsion usullardan foydalanish, ijodiy mashg'ulotlarni tashkil qilish va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda samarali vositalar ishlab chiqish kutilmoqda. Ijodiy topshiriqlar, loyihalar va musobaqalar orqali o'quvchilarning ijodiy va axloqiy rivojlanishiga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Kreativlik – yangi g'oyalarni yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyati bo'lib, pedagoglar uchun faqat ta'limda emas, balki tarbiyada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ pedagog o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Bu jarayonda ma'naviyat, ya'ni ma'naviy qadriyatlar va insonparvarlik tushunchalari, tarbiya jarayonining markaziy nuqtasiga aylanadi.

Ma'naviyat – bu shaxsning ichki dunyosi, axloqiy qoidalari va ijtimoiy qadriyatlar to'plamidir. Kreativ pedagog bolalarda ma'naviyatni tarbiyalash orqali ularni nafaqat bilimli, balki ma'rifatli, axloqiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalaydi. Ma'naviyat va kreativlik birgalikda bolalarning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Kreativ pedagog — bu zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan, o'quv jarayonini yangicha yondashuvlar orqali tashkil etadigan shaxsdir. U an'anaviy metodlar bilan cheklanmasdan, innovatsion vositalar va ijodiy yechimlar orqali ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Bunday pedagoglar yoshlarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning qobiliyatlarini to'liq namoyon qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar qilib yetishtirishni maqsad qiladilar.

Kreativ pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish va ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayonda kreativ pedagog o'quvchilar bilan ijodiy muloqotda bo'lib, ularni faol ishlashga, yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi. Bunda o'qituvchi, ta'lim faoliyatida kreativ usullardan foydalanish bilan birga, o'quvchilarga o'z-o'zini anglash, o'z salohiyatini ochish va muammolarga ijodiy yondashish imkonini beradi [13].

Kreativ pedagog bo'lish uchun nafaqat pedagogik bilimlar, balki keng dunyoqarash va ijodiy qobiliyatlar ham zarur. Bunday pedagoglar doimiy ravishda yangi o'qitish usullarini qidirishda va ularni o'z faoliyatiga joriy etishda faol bo'lalilar.

Ta'lim jarayoni uchun kreativ pedagoglarning ahamiyati haqida ilmiy doiralarda juda ko'plab tadqiqotlar olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin [9]. Shu bilan birga, ularning tarbiya borasidagi ahamiyatini ham ta'kidlab o'tish lozim. Kreativ pedagog yoshlarga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi [13].

Zamonaviy dunyoda turli guruhlarning o'z manfaati yo'lida olib borayotgan siyosatining guvohi bo'lmoqdamiz. Ular turli chaqiriqlar va turli vajlarni o'zlariga shior qilib olib, yoshlar ongidagi bo'shliqni egallab olishga urinadi. Kelgusi avlodni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish eng zaruriy choralardan bo'lib qolaveradi. Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda" [2]. Oilada ham ota-onalar bu masalada jiddiy ish olib boradi. Lekin, yot g'oyalarning rivojlanishi uchun ma'lum bir jamoa bo'lishi kerak bo'ladi. Bu ta'lim muassasalari bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkin, ta'lim muassasalari ma'lum bir havf guruhiga kiruvchi maskan bo'ladi. Foydali va kerakli muassasaning aksincha zararli g'oyalar tarqalishi mumkin bo'lgan joyga aylanishi eng achinarli holdir. Bunday salbiy holatlarning

vujudga kelmasligi uchun pedagoglarning roli nihoyatda yuqori hisoblanadi. Bunda kreativlikning yanada muhim jihat ekanligi oydinlashadi.

O'qituvchilarning ma'naviy barkamolligi juda ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib, u nafaqat bilim, kompetensiya va kasbiy mahoratini, balki shaxsiy etika, madaniyat va jamiyatdagi faol ishtiroki orqali shakllanadi. Bu ma'naviy barkamollik nafaqat yoshlarga bilim berish jarayonida muhim, balki ularning shaxsiy tarbiyasiga va kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, Yangi O'zbekiston sharoitida bo'lajak pedagoglar oldiga qo'yilayotgan talablar faqatgina bilim berishni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyati, ma'naviy etikasi ham talab qilinadi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda g'arbdan kelib qolgan feminizm, egoizm, gey-madaniyati, bozor madaniyati o'zining salbiy taraflarini allaqachon namoyon qildi. Bu noan'anaviy qarashlar va yot madaniyatlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi yoshlar ongi va dunyoqarashida yomon asoratlar qoldirmoqda. Agar bunday tahdidlarga qarshi kurashilmasa, u kelgusida jamiyatda parokandalikni, yangilik va eskilik kurashi bahonasida yangi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Insoniyat tarixi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yangi, murakkab jarayonlar bilan boyidi, bu davr globallashuv oqibatida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning misli ko'rilmagan darajada mustahkamlashgani bilan ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va fan-texnika sohasidagi inqilobiy yangiliklar global aloqalarni tezlashtirib, dunyo miqyosida integratsiya jarayonlariga turtki bo'ldi. Biroq, global taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, mafkuraviy va madaniy ta'sirlar kuchayib, turli xil g'arazli kuchlar inson ongi va qalbini nazorat qilishga harakat qilayotganligi bilan bog'liq yangi tahdidlar yuzaga keldi. Xususan, axborot makonidagi asossiz ma'lumotlar, dezinformatsiya va turli oqimlarning tarqatgan mafkuraviy urushlari jamiyatlarning ma'naviy barqarorligiga xavf tug'dirib, milliy qadriyatlarini yemirishga qaratilgan jiddiy xatarlar paydo bo'lmoqda.

"Tahdid" tushunchasi ostida inson hayotiy faoliyati va umuman yashash sharoitlarini murakkablashtiradigan, shuningdek, muayyan tarixiy davrda belgilangan maqsadlarga yo'naltirilgan ijtimoiy strukturalar, ayniqsa davlatning siyosiy poydevorini zaiflashtirish va buzishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va global miqyosdagi salbiy omillarning paydo bo'lishi va ularning ta'sirida yuzaga keladigan noqulay siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni anglash kerak [10].

Faylasuf P.I.Chijikning ta'kidlashicha, ma'naviy tahdid – bu jamiyatda buzg'unchi xususiyatga ega bo'lgan ichki va tashqi jarayonlar, hodisalar va shart-sharoitlar majmuasidir. Bunday tahdidlar jamiyatning ma'naviy asoslariga hamda uning a'zolariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni ijtimoiy hayotdagi o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish uchun qo'shimcha resurslar, vaqt va mehnat sarflashga majbur etadi. Bu jarayonlarda fuqarolarning ma'naviy barqarorligi sinovdan o'tadi va jamiyatning umumiy ma'naviy qiyofasiga ham tahdid soladi [12].

Kreativlik va ma'naviyat, bir qarashda, bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq ular o'zaro chuqur aloqada va bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Kreativ pedagog bolalarda axloqiy va ma'naviy me'yorlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masalan, bolalarga ijtimoiy va ma'naviy masalalar bo'yicha loyihalar berish orqali ularda jamiyatga munosabatni shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kreativ pedagog ma'naviy tarbiya jarayonida o'z innovatsion va ijodiy

yondashuvlarini qo'llab, bolalarda ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni va axloqiy tushunchalarni mustahkamlaydi.

Kreativ pedagogning vazifasi nafaqat o'quvchilarga o'quv materiallarini yetkazish, balki ularning ma'naviy rivojlanishiga yordam berishdan iborat. Pedagog kreativlik orqali o'quvchilarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishda yangi usullar va yondashuvlardan foydalanishi mumkin. Masalan, mulohazali topshiriqlar, ijodiy loyihalar yoki axloqiy tanlovlar orqali o'quvchilarda mas'uliyat, insof, bag'rikenglik kabi muhim qadriyatlarni tarbiyalash mumkin.

Kreativ pedagog bolalarning o'z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi, ularga mustaqil fikrlash va ma'naviy qadriyatlarni anglash imkoniyatini yaratadi. Bunda pedagog o'quvchilarga faqat ta'lim berish bilan cheklanmasdan, ularni fuqarolik, vatanparvarlik va jamoatchilik qadriyatlariga ham yetaklaydi.

Pedagoglar faoliyatida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Kreativ pedagoglar turli xil yangi texnologiyalardan foydalanib, o'quv jarayonini samarali tashkil etadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar orqali ta'limni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari mavjud. Masalan, interaktiv doskalar, elektron kitoblar va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok ettirish mumkin. Masalan, Sternbergning kreativlik nazariyasiga [3] ko'ra, kreativlikni rivojlantirishning bir necha yo'llari mavjud: tahlil qilish, sintez qilish va ijod qilish. Pedagoglar bu usullarni ta'lim jarayoniga qo'llab, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va islohotlar asosida bo'lajak pedagoglar oldiga qo'yilayotgan talablar faqatgina

bilim berishni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini ham qamrab oladi. Bunda pedagoglar o'z faoliyatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib ishlashlari, yoshlarni sog'lom ijtimoiy ongga ega shaxslar sifatida tarbiyalashlari zarur.

Bugungi kunda fuqarolarimiz ongi va tafakkurida "ma'naviyat", "ma'naviy tahdid", "ma'naviy tahdidning oldini olish mexanizmlari", "ma'naviy yuksalish" tushunchalari, uning ma'no-mazmuni, zaruriyati to'g'risida aniq asoslangan tasavvurlar, ilmiy qarashlar shakllanmoqda. Bu masalalar inson va uning kelgusi taraqqiyotini qamrab oladi. Ma'naviyatni tushunish uchun avvalo, insonni tushunish talab etiladi. Insonni ma'naviy yuksalishi taraqqiyotning muhim bir shartidir. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi [1]. Inson o'zgarishi jamiyatdagi ijodiy o'zgarishlarning sarchashmasidir. Inson ma'naviy yuksalishiga erishganda, jamiyatda insonparvarlik, mutolaa qilishga, ijodkorlikka bo'lgan intilish, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi qadriyatlar mustahkamlanadi.

Xulosa. Kreativ pedagog ta'lim va tarbiya jarayonining samarali tashkil etuvchi muhim bo'g'ini sifatida pedagogikada alohida ahamiyatga ega. Kreativlik o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta'lim va tarbiya uzviyligiga erishishda kreativlik muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Tavsiya qilinadigan usullardan biri – kreativ pedagoglarni tayyorlash tizimini rivojlantirish va ularga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Shu bilan birga, pedagoglar o'rtasida ijodiy yondashuvlarni qo'llash madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 3 tom. – T.: O'zbekiston, 2019. – B.39. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 3 tom. – T.: O'zbekiston, 2019.
2. <https://lex.uz/docs/5234746> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2021 й., 09/21/23/0056-сон.
3. Sternberg R. J. The theory of successful intelligence //Review of General psychology. – 1999. – Т. 3. – №. 4. – С. 292-316.
4. Аббосхўжаев. О., Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишув.–Т.: Академия, 2007.
5. Ахмедова З. А. О формировании креативной компетенции педагога //Современное педагогическое образование. – 2019. – №. 10. – С. 4-6.
6. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашиш маънавий-маърифий асосдир (тузувчилар: муаллифлар жамоаси). – Т.: Тошкент Ислон университети, 2005.
7. Ксенофонтов В. А., Нижнева-Ксенофонтова Н. Л. Реализация креативного подхода в профессиональной педагогической деятельности. – 2014.;
8. Милованов К.Ю. Проблемные аспекты развития профессиональной карьеры педагога новейшего времени в контексте креативного образования //Ценности и смыслы. – 2014. – №. 3 (31). – С. 71-76.;
9. Морозов А.В. Педагог будущего-креативный педагог //Педагогические параллели: материалы V Междунар. науч.-. – 2018. – С. 445.;
10. Пахруддинов Ш. "Тахдид" тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – Б. 7-8.
11. Тўраев Ш. Маънавий тахдид (ёндашувлар ва тахдидлар) // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2010.– № 2.
12. Чижик П.И. Духовная безопасность российского общества, как фактор военной безопасности государства: Автореф. дис. докт. философских наук. – М., ВУ., 2000. – С.18.
13. Эрназарова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г. 198-199 стр.



UO‘K: 37.013.

Marxabo XAKIMOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:marxabo@mail.ru.

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

TALABALARDA MA‘NAVIV QADRIYATLARNI TA‘LIM OLISH JARAYONIDA TEXNOLOGIYALAR BILAN RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda milliy qadriyatlarni ta‘lim olish jarayonida texnologiyalar bilan rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Shuningdek, ta‘limning asosiy vazifalari va dolzarbligi ham milliy qadriyatlarni yoshlar ongida singdirish ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma‘naviy qadriyatlar, zamonaviy ta‘lim, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, oliy ta‘lim, milliy tarbiya, zamonaviy kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy o‘qitish vositalari, o‘quv jarayoni.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ С ТЕХНОЛОГИЯМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье раскрываются особенности формирования национальных ценностей у студентов вузов с применением технологий. Потому что основные задачи и актуальность образования – это привить национальные ценности в сознание молодежи.

Ключевые слова: Духовные ценности, современное образование, современные технологии, инновации, высшее образование, национальное образование, современная профессиональная подготовка, современные средства обучения, учебный процесс.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES IN STUDENTS WITH TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article reveals the specific features of developing national values in students in higher education institutions with technologies. Because the main tasks and relevance of education is to inculcate national values in the minds of young people.

Key words: Spiritual values, modern education, modern technologies, innovations, higher education, national education, modern professional training, modern teaching tools. educational process.

Kirish. XXI asr globallashuvning kirib kelishi bilan izohlanadigan asr hisoblanadi. Bu asrda global miqyosda misli ko‘rilmagan iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, mafkuraviy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan tavsiflangan muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu globallashuv davri insoniyatni shaxsning mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga undadi, shaxslarning ma‘naviy va ichki dunyosiga urg‘u berdi va insonparvarlik jamiyatlar taraqqiyoti uchun asosiy qadriyat sifatida ahamiyatini kuchaytirdi.

Globalashuv natijasida yuzaga kelgan global-siljishlarni hisobga olgan holda, ijtimoiy fanlar milliy qadriyatlar omilini qayta baholashni amalga oshirdi va uning sotsiologiya, pedagogika psixologiya, ijtimoiy tadqiqotlar, tarix, falsafa, ekologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, etnografiya va boshqa fanlar bo‘yicha oqibatlarini o‘rgandi. Tadqiqotchilar qadriyatlarining ichki mohiyatini o‘rganib chiqdilar, ularning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi va ahamiyatini o‘rgandilar. Qadriyatlar to‘g‘risidagifan - aksiologiya (aksio - qadriyat, logosfan, ta‘limot ma‘nosini anglatadi) falsafaning shu masalani o‘rganadigan va u bilan shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davrida bu to‘g‘rida nihoyatda kam ma‘lumotlar bor edi. Istiqloq tufayli qadriyatlar tug‘risidagi qarashlarimiz shitob bilan o‘zgardi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekistonda qadriyatlarga e‘tibor kuchaydi, uning turli qirralari olim va mutaxassislar tomonidan tahlil etila boshladi. Qadriyatlar

falsafasi – aksiologiyaning ko‘pdan-ko‘p mavzulari mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlarida o‘ziga xos o‘rin tutmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o‘tmishga ega. G‘arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g‘oyalariga tayanadilar, ko‘plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G‘arbda qadriyatlar bilan shug‘ullanadigan falsafiy soha - Aksiologiya (aksio - qadriyat, logos - ta‘limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo‘ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Arastu va Hegellar katta e‘tibor bergan bu mavzuning G‘arb falsafasida o‘z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz.

Ammo ushbu mavzu ko‘hna va navqiron Sharq xalqlari, hususan O‘zbekiston xalqi uchun begona emas! Uning eng teran jihatlarini faqat G‘arbdan emas, balki Sharqdan qidirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Nomlari sivilizatsiyamiz tarixiga abadiy bitilgan Xorazmiy, Forobiy, al-Buhoriy, at-Termiziy, Beruniy, ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug‘bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniy kabi mutafakkirlar ijodida ham bu mavzuning izlari bor, teran qirralari ochilgan. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmashlikda, sayqallab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan holisona talqin qilishdadir.

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi "Avesto" Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy G'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom hukmron dinga aylangan edi. E'tirof etish kerakki, Qur'on va Hadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Sivilizasiyamiz qadriyatlari va xalqimizga hos qadrlash me'yorlari musulmon Sharqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham nihoyatda katta aks ta'sir ko'rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalimiz o'z navbatida butun jahon, Sharq madaniyatiga G'oyat katta hissa qo'shganlar. Bunday fikrni Abu Hanifa, al - Buhoriy, al - Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari to'g'risida ham aytish joiz. Ularning har biri o'z zamonasida islomni sivilizasiyamizning yuksak madaniyati nuqtai nazaridan targ'ib va tashviq etdilar, islom falsafasini yuksaklikka ko'tardilar, mazkur dinning butun jahonda katta mavqega ega bo'lishida muhim faoliyat ko'rsatdilar. Bu esa ushbu zotlarning nomlarini islom dini jahon sahnasida qancha tursa, shunga qadar boqiy ayladi. Ularning islom falsafasi va ilohiyotiga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ko'rsatgan nihoyatda katta ta'siri to'g'risida mahsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Afsuski, manbalar etarli bo'lishiga qaramasdan, yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha kam, bu to'g'rida keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruriyati bayon etib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrning o'rtalariga kelib, amirlik va xonliklarga bo'linganligiga qaramasdan, mustaqil yashagan Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari halqimiz orasiga zo'rlik bilan singdirila boshlandi. XIX asrning ohirlari va XX asr boshlarida yurtimizda "jadidlar" oqimi vujudga keldi. M. Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa jadidlar merosiga diqqat qilinsa, o'sha davrda yurtimizda ma'naviy tushunchalarning ko'lami qanchalik keng bo'lganligini, falsafiy tilning naqadar boyligini, uning adabiyot bilan qanchalik uyg'unligini yaqqol ko'rish mumkin. Ularning asarlarida gohida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan qadriyatlar, tushunchalarga duch kelamiz. Jadidlarning merosi xalqimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Tarbiyaning asosiy o'chogi oila hisoblanadi. Oilada har birimiz farzand tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lishimiz lozim. Farzandlarimizni ma'naviy, milliy qadriyatlar, an'analar orqali tarbiyalasak jamiyatga nafi tegadigan farzandlar bo'lib ulg'ayadi. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – bu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, farzandalarimizni komil inson qilib voyaga etkazib, tarbiyashdir. Albatta ushbu g'oyani

amalga oshirishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohani ham dolzarb vazifa qilib belgilangan. Yosh avlodni o'qitish, kelajakda barkamol inson mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash kabi murakkab masalalar o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdoniliga va madaniyatiga bog'liq.

Darhaqiqat, bugungi kunda qadriyatlarini tiklash, ularni ilm - fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq g'oyasining tamoyillarini talabalar qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lish milliy qadriyat sohasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston xalqi o'zining qadimiy, boy madaniyati, urf - odatlari, udumlari, marosimlari, diniy va dunyoviy an'analari, qadriyatlariga ega. O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan so'ng, qadriyatlar masalasi mustaqillik ma'naviyati, milliy o'zlikni anglash, inson qadri, qadriyatning tarixiy asoslari va mazmuni kabilar o'rganilib tahlil qilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov barkamol avlod tarbiyasi masalasining davlat siyosati darajasidagi ahamiyati borasidan shunday deydi: "Biz mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasini eng ustivor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardik" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning fikriga ko'ra, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonda barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, deydi yig'ilishda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 28 - iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ - 3160-sonli Qarorining qabul qilinishi munosabati bilan keyingi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda ma'naviy - qadriyatlarini yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi [2].

Yangi O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning, milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosligini his qilgan holda Respublikamizda milliy qadriyatlarini faollashtirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Bular: Eng oliy qariyat va ne'mat hisoblanmish tinchlik va mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashdir. O'zbek xalqi ham barcha millatlar orasida o'ziga xos va mos bilimlar boyligi, ma'nolar majmuini to'plab, asrab, rivojlantirib kelmoqda. Milliy ma'naviy qadriyatlarini uzviy rivojlanib keldi. Biroq uzoq yillar davom etgan tutqunlik milliy ma'naviyatimiz asosi va uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy, milliy, ma'naviy rivojlanish sinfiylik natijasida edi. Millatni o'z ajdodlaridan ma'naviy uzoqlashtirish siyosati amalga oshirildi. Shu sababli mustaqillikning birinchi yillardan boshlab milliy ma'naviy qadriyatni – tiklash, to'ldirish va boyitish davlat siyosatiga aylandi. Chunki, har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z aql - farosatining, ongining tarkibiy qismiga aylantirish millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan e'tiqod va qadr hissini boyitadi. Bu esa ibtido davridagi hukmron mafkuraga zid edi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda talaba - yoshlarda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi milliy istiqlol g'oyasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki, eng qadri qadriyatlardan biri sanalamish ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oya ekanligini har bir talaba chuqur his etishi va uni mustahkamlashda faol ishtirok etishni ta'minlash oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning eng asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Qadriyat – inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha;

“Qadriyatshunoslik (aksiologiya)”ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida qadr asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadriyat turli sohalarida xilma-xil ma'noda qo'llanadi. Qadriyat iborasining kundalik hayotdagi ma'nosi kishilar o'rtasidagi muloqotda, Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uning kategoriyasi sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, subyektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga xizmat qilishi ta'kidlanganda, asosan, ularning foydasi, qimmatini nazarda tutiladi. Haqiqatan ham, buyumlarining iqtisodiy qimmatini kishilar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ammo, buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning ma'naviy jihati ochilmaydi. Qadriyat buyum yoki narsaning iqtisodiy qiymatini ifodalaydigan tushunchalardan farq qiladi. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bog'langan obyekt o'rtasida farq bor, deb qaraladi. Dunyoda qadrlanadigan odamlar, narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko'p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to'g'ridan-to'g'ri ism, atama yoki bevosita nom bo'la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatni ma'naviy-falsafiy tushunish uning kundalik hayotdagi ma'nosidan farq qiladi. Bu esa qadriyat tushunchasini uning o'zi bog'liq bo'lgan obyektidan farqlash (aslo ajratish emas) bilan birga, uni obyektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklilik) bilan aynanlashtirmaslik imkonini beradi. Shunday qilib, qadriyat biror tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli - tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar,

xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqaning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir

Xulosa. Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Qadriyatlarining asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e'tirof etgan yagona nuqtai nazar yo'q. Qadriyatlarini moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Mustaqillikkacha qadriyatlar mavzusi keng o'rganilmas edi. Istiqlol davrida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda, qadriyatlar to'g'risidagi fan - qadriyatshunoslik respublikamizdagi ijtimoiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, bu yo'nalishda tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda, ko'plab asarlar nashretilib kelinmoqda.

Texnologiyalar bilan ta'lim jarayonida talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish bir qator o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. Texnologiya ta'limda ko'plab afzalliklarni taqdim etishi bilan birga, talabalarining axloqiy rivojlanishini samarali shakllantirish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlari quydagilardan iborat:

1. Texnologiyadan keng foydalanish bilan talabalarga mas'uliyatli raqamli fuqarolik haqida ma'lumot berish juda muhimdir

2. Texnologiyani ta'limga kiritish talabalardan undan foydalanishning axloqiy oqibatlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi

3. Texnologiyaning keng tarqalishi ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishga tanqidiy yondashishni talab qiladi

4. Texnologiyadan keng foydalanish ekrandan ko'p vaqt sarflanishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'quvchilarning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

5. Texnologiya kiber bulling va boshqa onlayn xavfsizlik muammolari uchun eshiklarni ochadi

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar bilan ta'lim jarayonida talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish raqamli fuqarolik, texnologiyalardan axloqiy foydalanish, media savodxonlik, ekran vaqtini boshqarish va onlayn xavfsizlikni targ'ib qilish kabi o'ziga xos xususiyatlarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu fikrlarni hisobga olgan holda, talabalar ta'limga texnologiyaning integratsiyalashuvi talabalarda kuchli axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish bilan birga borishini ta'minlashi mumkin. Demak, yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohozalarga tayangan holda aytish mumkinki, talabalarni milliy qadriyatlar orqali tarbiyalashda oila, oliy ta'lim muassasalari, jamoatchilik tashkilotlari va mahallaning o'zni muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// «Xalq so'zi» gazetasi. 1999. 8- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan Qonuni.
3. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis... ped. fan. d-ri. -T., 2007.
4. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. –T: Toshkent islom universiteti.
5. Islom ensiklopediyasi. –T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017.
6. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. – T.: Istiqlol, 2009.



UDK: 373:159.9

Gulnoza XALBAYEVA,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali dotsenti
E-mail: xalbayevagulnoza42@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

Аннотация

Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini takomillashtirish mexanizmlari, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik omillar namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, bola, maktabga tayyorlash, o'qitish ta'limi, innovatsiya, komfort, o'quv faoliyati, mexanizmlar, innovatsion tafakkur.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ К ШКОЛУ

Аннотация

Данная статья посвящена выражение механизмы совершенствования процесса подготовки детей к школе, особенности проявления психологических факторов в процессе подготовки детей к школе, их значение и научный анализ.

Ключевые слова: Дошкольное образование, ребенок, подготовка к школе, педагогическое образование, инновации, комфорт, учебная деятельность, механизмы, инновационное мышление.

MECHANISMS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation

This article reflects the mechanisms for improving the process of preparing children for school, the peculiarities of the manifestation of psychological factors in the process of preparing children for school, their importance and their scientific analysis.

Key words: Preschool education, child, school preparation, teaching education, innovation, comfort, educational activities, mechanisms, innovative thinking.

Kirish. Jahonda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bolani ta'limga har tomonlama mukammal tarzda tayyorlash, ta'lim va amaliyot orasidagi bog'liqlikni bartaraf etish yo'lida «Tajriba asosida ta'lim olish» (Experimental learning) g'oyasi ustuvor bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayon o'z navbatida «Lifelong learning» - «Umr davomida ta'lim olish» konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilarni innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ta'minlashni talab etmoqda. Bu borada «Experiential learning» o'qitish ta'limni maktabgacha bo'lgan davridanoq shakllantirishni tajriba tarzida o'tkazishni taqozo etib, ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga motivlashtirish yo'li bilan keng jalb etishni nazarda tutadi[1]. Ushbu jarayon har tomonlama tafakkuri boy, intellekti yuqori bolalarni maktabga tayyorlashni talab etmoqda. Buning uchun bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashni o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda so'nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarligini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilangan bo'lib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» [2] va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g'oyalarni, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni

tarbiyalash» konseptual g'oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to'laonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda bolalar psixologiyasi muammolari bilan shug'ullangan o'zbek olimlaridan G.B.Davletshin, Sh.A.Do'stmuhamedova, S.X.Jalilova, Z.T.Nishonova, O'.Otavaliyeva, B.R.Qodirov, N.S.Safayev B.M.Umarov, E.G'.G'oziyev va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida bolalarning shakllanishi hamda ularning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Bir qator xorijiy olimlarning ishlarida, bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining rivojlanish muammolari bilan bog'liq ko'plab savollar tadqiq qilingan. Jumladan, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini umumnazariy jihatlarini (P.P.Blonskiy, 1997; L.S.Vigotskiy, 1983; V.V.Davidov, 1986; E.Erikson, 1993; J.Piaje, 1969 va boshqalar); bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining mazmunder va tarkibiy jihatlarini (M.R. Bityanova, 1998; A.L.Venger, 1988; N.I. Gutkina, 1996; I.V.Dubrovina, 1991; va boshqalar), katta maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi shakllanishining tarkibiy amaliy asoslari (M.Donaldson, 1985; A.N.Leontev, 1975;

S.L.Novoselova, 1978; S.L.Rubinshteyn, 1989; va boshqalar); bolalarni rivojlantiruvchi ta'limning gumanistik asoslari (Ye.N. Volkova, 1992; N.F.Vinogradova, 2000; M.Montessori, 1997; K. Rodjers, 1995; va boshqalar).

N.Gutkina bolalarni maktabga tayyorlashda g'ayratli rolni ta'kidlaydi. Muallif o'zboshimchalikga alohida e'tibor beradi, uning kam rivojlanishi maktab ta'limida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosiy sharti hisoblanadi. Maktabga tayyorlanadigan birinchi sinf o'quvchilari ta'limning bilim va ijtimoiy sabablaridan tashkil topgan ta'lim motivatsiyasiga ega bo'lishlari kerak. O'quv maqsadi, yozuvchining fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga aylandi, shuning uchun eng kam ma'noda ta'lim olish uchun kerakli va yetarli darajadagi razvedka mavjudligini nazarda tutadi [4]. A.L.Venger nuqtai nazaridan maktabga tayyorgarlik intellektual, motivatsion, hissiy va boshqa yutuqlarning oddiy summasi emas, balki komponentlarning shartli ajratilishi mumkin bo'lgan yaxlit ta'lim sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muayyan faoliyatni tartibga solish bilan tavsiflanadi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolani kattalarning ko'rsatmalariga yo'naltirilganligi va vazifaning holati, muayyan vaziyatni tahlil qilish mexanizmlari va ehtimoliy harakatlar rejasini ishlab chiqish, rejani belgilangan me'yorlarga rioya qilish mexanizmlari, ushbu rag'batni aks ettiruvchi me'yorlar va hissiyotlarga rioya qilishni rag'batlantirish [5]. Shunga qaramay, ta'kidlanganidek, maktab ta'limi uchun psixologik tayyorgarlikni ko'rib

1-jadval

Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlaribo'yicha olingan natijalar n=295
(Kern-Yirasek uslubi bo'yicha)

	Mezonlar	O'g'il bolalar N=147	Foizi	Qiz bolalar N=148	Foizi
1.	Yuqori	34	23,1	41	27,9
2.	O'rtacha yuqori	29	19,8	33	22,2
3.	O'rtacha (me'vor)	31	21,1	42	28,3
4.	O'rtachadan past	28	19,4	18	12,1
5.	Quyi	25	17,6	14	9,5
	Jami:	147	100	148	100

Ushbu metodika bo'yicha (N=147) 147 nafar o'g'il bolalar hamda (N=148) 148 nafar qiz bolalarda olingan natijalarga ko'ra, "yuqori" mezon bo'yicha o'g'il bolalarda eng yuqori ko'rsatkich 23,1% ni tashkil etgan bo'lsa, qiz bolalarda 27,9%ni ko'rsatdi. Demak, bolalarni maktabga tayyorlashdapsixologik bilimlarning yetishmasligi ulardagi individual psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin ekanligini ko'rsatmoqda.

Metodikaning oxirgi "quyi" mezoni bo'yicha o'g'il bolalar 17,6%, qiz bolalar esa 9,5% natijaga ega bo'lishdi. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashdao'rtachadan past va quyi darajalarning kuzatilishi bugungi kunda ushbu muammo hali ham o'zining yechimini topmayotganligi va ayni paytda ma'lum bir innovatsion uslublar ishlab chiqish zarurati borligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda biz bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini takomillashtirish dasturini tuzish vazifasini ham belgilagan edik. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun «Bolalarni maktabga tayyorgarligini takomillashtirish» nomli rivojlantiruvchi dastur tuzdik.Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Bolalarni maktabga tayyorgarligini

2 – jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlari shakllanishiningqiyosiy-statistik ko'rsatkichlari

(Kern-Yirasek uslubi bo'yicha)

Omillar	Tajriba guruhi n1=30			Nazorat guruhi n2=30		
	M1	M2	p	M1	2	p
Yuqori	9,5	12,8	2,09*	13,1	13,5	0,05**
O'rtachadan yuqori	10,7	11,4	1,07*	12,6	12,9	0,04
O'rtacha	11,3	13,6	1,49**	13,7	14,3	1,22*

chiqishda, zamonaviy psixologiyani o'rganishda muayyan yondashuvlarga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha yagona va aniq fikr yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalar.Tadqiqotning dastlabki bosqichida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini baholash maqsadida psixologiya olamida mashhur metodikalardan biri Kern-Yirasek metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika orqali bolalarni nafaqat maktabga tayyorgarligini balki, ularning psixik rivojlanishini ham ko'rish mumkin. Ushbu metodika butun dunyoda bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini tekshiruvchi asosiy metodikalardan biri deb e'tirof etilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, metodika talabiga oid shakllantirilgan har bir topshiriq bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maktabga ilk bor qadam qo'yayotgan bola psixologik imkoniyatlaridan unumli yetarlicha foydalana olish malakasiga ega bo'lsagina muayyan darajadagi yutuqlarga erishishi mumkin. Maktabga tayyorlashda esa aynan shu narsa talab qilinadi. Masalaning aynan shu tomonini hisobga olib, har bir bolada yuqorida qayd etilgan psixologik xususiyatlarning shakllanganlik darajalari o'rganildi, tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirildi.

Biz dastlab Kern-Yirasek metodikasi yordamida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlari namoyon bo'lishining jins farqlarini ko'rib chiqdik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadval).

takomillashtirish"ga oid rivojlantiruvchi dasturda 8 ta mashg'ulot, har bir mashg'ulot 7 ta mashqdan iborat bo'lib, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan 3 oy davomida haftasiga 2-3 marta dan 20-30 daqiqadan o'tkazishga mo'ljallangan. Mashg'ulot kichik 10-15 kishilik guruhlarda o'tkazilishi tavsiya qilinadi.

Tadqiqotimizda belgilangan navbatdagi vazifa bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini rivojlantirishgamo'ljallangandasturning samaradorligini tekshirishdan iborat edi. Biz rivojlantiruvchi dasturning samaradorligini tekshirish maqsadida "Bolalarni maktabga tayyorgarligini takomillashtirish" nomli rivojlantiruvchi dasturni eksperimental guruh sinaluvchilarida o'tkazdik, ushbu guruh a'zolarini Kern-Yerasikning bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini aniqlash metodikasi bo'yicha past natija ko'rsatgan 30 nafar respondentlar tashkil etdi. Nazorat guruhini ushbu metodika bo'yicha o'rtacha natija olgan respondentlar tashkil etdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarig ko'ra eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi statistik farq quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

O'rtachadan past	12,4	8,1	2,21*	10,8	10,7	0,02
Quyi	12,6	7,2	2,06	9,4	9,1	0,04

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruhda Kern-Yirasek uslubi bo'yicha dastlabki olingan natijalar nazorat guruhiga nisbatan past darajada, masalan, eksperimental guruhda metodikaning "yuqori" mezon bo'yicha natija 9,5ni ko'rsatayotgan bo'lsa, nazorat guruhidagi ushbu ko'rsatkich 13,1ni tashkil qilmoqda. Eksperimental guruhdagi bolalar bilan olib borilgan rivojlantiruvchi treningdan keyin esa natijalarda sezilarli darajadagi o'zgarishlarni, ya'ni tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich 12,8ga ko'tarilganligini ($r=12,8$, $p \leq 0,05$) ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot davomida olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki metodikaning "o'rtachadan past" mezon bo'yicha ko'rsatkichlar ham sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgarishlarini ushbu metodikaning "quyi" mezon bo'yicha olingan natijalar bu yerda dastlabki ko'rsatkich 12,6ni bergan bo'lsa, treninglardan keying natija 7,2ga pastlaganini ko'rish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan trening mashg'ulotlaridan so'ng sinalluvchilarda ahamiyatli darajadagi ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, biz o'z tadqiqotimizda olib borgan rivojlantiruvchi treninglar natijasida bolalarning kognitiv, kommunikativ, individual xususiyatlarini rivojlantirishga va shu bilan birgalikda ularda maktab ta'limiga adaptatsiya hosil qilishga muvaffaq bo'ldik. Shunday qilib, bolalarni maktabga samarali psixologik tayyorlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti

mutaxassislari, psixologi va ota-onalar bilan muhokama qilish, uning rivojlanish muvaffaqiyati uchun asosiy shart-sharoitlar shakllantirilishi kerak. Chunki qachonki bolaning psixik rivojlanishi uchun sharoit yaratilsa, u maktab hayotiga, o'quv faoliyatiga motivatsiyasi paydo bo'ladi. Olingan natijalardan tadqiqot davomida olib borilgan psixokorreksion dasturlar samaradorligini baholash mezon birdan kattaligi va maktabga psixologik tayyorgarlikni umumiy holda baholash mezon noldan kattaligini ko'rish mumkin.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

- ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda ularning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha innovatsion axborotlar bazasi bilan ta'minlash.

- bolalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni hal qilish hamda ota-onalarga yosh inqirozlari va uning o'quv faoliyatiga ta'siri masalalarini o'rgatish.

- bolalarni maktabga psixologik tayyorlashga mo'ljallangan dasturlar asosida ijtimoiy treninglar tashkil etib, bolalar psixologiyasida uchraydigan psixologik to'siqlarni va xavotirlanish bilan bog'liq muammolarni optimal hal qilish uchun doimiy ravishda korreksion tadbirlarini olib borilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Action Learning –How does it work in practice? MIT Sloan Management. Retrieved 2016-03-16 Archived2016-03-08 at theWayback Machine.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
3. Алферов А.Д. Психология развития школьник. Изд-во: Феникс, 2001.-384с.
4. Гуткина Н.И. Психологическая подготовка к школе. - М. НПО "Образование", 1996. – стр 67
5. Венгер, А.Л., Поливанова, К.Н. Особенности принятия учебных заданий детьми шести лет // Вопросы психологии: науч.жур.- М.: 2003.- №4.46-48 с.
6. Нижегородцева Н. Развитие познавательных процессов и личности в старшем дошкольном возрасте: уч. пособие. Ярославль, 1996. 35-36 с.
7. Выготский Л.С. Вопросы детской психология // СПб., - М., 1997. 5 с.
8. Xalbayeva G.A. Zamonaviy psixologiyada bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining psixologik muammolari // Ilmiy axborotnoma. Samarqand. – 2020. - №2. B. 151-158
9. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.



UDK: 37.015.31

Yulduz HODIYEVA,
NDPI Ingliz tili va adabiyoti tayanch doktoranti
E-mail: yhodiyeva@gmail.com

O‘zDJTU dotsenti, PhD X.Gulyamova taqrizi asosida

SCAMPER TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARDA STRATEGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH Annotatsiya

Maqolada strategik kompetensiya nima va talabalarda strategik kompetensiyani rivojlantirishda SCAMPER texnologiyasidan foydalanishning mohiyati, ahamiyati, usullari tahlil qilinadi. Unga ko‘ra til o‘rganishda strategik kompetensiya bosqichlarini SCAMPER texnologiyasi yordamida ishlab chiqish, uzoq va yaqin davr uchun tilni muvaffaqiyatli o‘rganish borasida rejalar belgilab olish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishda ta‘lim beruvchilar uchun kerakli talab va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, kompetensiya, SCAMPER, texnologiya, mohiyat, muvaffaqiyatli, takliflar, rejalar, oshirish, davr.

РАЗВИТИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ SCAMPER Аннотация

В статье анализируется суть, значимость и методы использования технологии SCAMPER для развития стратегической компетенции у студентов. В соответствии с этим, определены правила разработки этапов стратегической компетенции в изучении языка с использованием технологии SCAMPER, а также представлены необходимые требования и рекомендации для преподавателей в успешном освоении языка на долгосрочной и краткосрочной основе.

Ключевые слова: стратегия, компетенция, SCAMPER, технология, суть, успешный, рекомендации, краткосрочной основе, развития.

DEVELOPING STRATEGIC COMPETENCIES OF STUDENTS BASED ON SCAMPER TECHNOLOGY Annotation

The article analyzes the meaning of strategic competence and the essence, importance, methods of using SCAMPER technology in developing strategic competence in students. According to it, necessary requirements and suggestions for educators are given for developing strategic competence stages in language learning using SCAMPER technology, setting plans for successful language learning for the long and near term, and implementing them step by step.

Key words: strategy, competence, SCAMPER, technology, essence, successful, offers, implement, analyze, methods, requirements.

Kirish. Bugungi rivojlanish juda jadal bir davrda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab undanda yuqori bo‘lganligi boisdan har qanday chet tilini o‘rganish uchun juda qat‘iy va ishonchli rejalar talab qilinadi bu esa strategiya asosida belgilanadi. Bunga ko‘ra, mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, bu jarayonda o‘qituvchi va murabbiylardan ogohlikni oshirish, model strategiyalari ishlab chiqish, o‘z-o‘zini mulohaza qilishni rag‘batlantirish, amaliyot uchun imkoniyatlar yaratish, fikr-mulohaza erkinligini ta‘minlash, oddiydan murakkabga qarab harakatlanish, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish, ta‘lim uslublarini aniqlash, aniq maqsadlar qo‘yish, turli manbalardan foydalanish, muntazam ravishda mashq qilish, shaxsiy o‘shishlarini kuzatib borish, til almashish dasturlarida ishtirok etish, fikr-mulohazalarni izlash, ochiq fikrli bo‘lish kabi bir qator tavsiyalar beriladi[1].

Shuningdek, ta‘limning amaliy ahamiyatini, uning shaxsiy faoliyat yo‘nalishini kuchaytirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning maqsadli tizimini kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati chet tilini o‘rganuvchilarning ijodiy va intellektual faoliyatini faollashtirish, ingliz tilini o‘qitishning yuqori sifatli mazmunini yaratishdan iborat. Strategik yondashuvning

asosini tashkil etuvchi barcha chora-tadbirlar chet tilini o‘rganuvchilarning shaxsiy faollik xususiyatiga ega bo‘lgan ingliz tilini o‘zlashtirishda strategik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, chet tilini o‘rganuvchilarning malakasini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish va faollashtirishni taqozo etadi[2].

“Strategik kompetensiya” tushunchasi 1980 yilda paydo bo‘lgan va chet tillarini o‘rganish va o‘zlashtirish muammolari bilan shug‘ullangan M. Sveyn va M.Kennel tomonidan taklif qilingan. Strategik kompetensiyaning paydo bo‘lishi uchun zamin ushbu olimlarning kommunikativ kompetensiya modelini ishlab chiqishga muvaffaqiyatli urinishi bo‘ldi, uning umumiy g‘oyasi 1972 yilda D.Xayms va boshqa olimlar tomonidan taklif qilingan. D. Xaymsning yondashuvi ilmiy qo‘llab-quvvatlandi, chunki u tilni nafaqat lingvistik kod sifatida, balki ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rishning o‘sha paytdagi ilg‘or ilmiy tendensiyasini o‘zida mujassam etgan. 1980 yilda M. Sveyn va M. Kennel ushbu yo‘nalishda davom etib, uning to‘rt tarkibiy qismining birligida kommunikativ kompetensiya modelini yaratdilar: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. M. Sveyn va M. Kennelning fikriga ko‘ra, strategik kompetensiya “muloqotda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelgan yoki ajralish xavfi bo‘lgan hollarda qo‘llaniladigan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot strategiyalari” to‘plamidir.

Strategiya (yunoncha "stratgiya", "qo'shin rahbarining san'ati; general, qo'mondonlik, generallik idorasi") general reja bir yoki bir nechta uzoq muddatli yoki umuman erishish uchun maqsadlar sharoitida noaniqlik. XX asrga qadar "strategiya" so'zi siyosiy maqsadlarni, shu jumladan, tahdid yoki kuch ishlatishni o'z ichiga olgan vaziyatlarning dialektikasida harakat qilishning keng qamrovli usulini anglatadi. Strategiya odatda maqsadlar va ustuvorliklarni belgilashni, maqsadlarga erishish uchun harakatlarni belgilashni va harakatlarni amalga oshirish uchun resurslarni safarbar qilishni o'z ichiga oladi[3].

Strategik kompetensiya birikmasidan "kompetensiya" so'ziga urg'u beradigan bo'lsak, kompetensiya (lotincha competo – erishyabman, munosibman, loyiqman) - u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba ma'nolarini anglatadi. Kompetensiya bilim, ko'nikma va malaka, qadriyat kabi boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi hisoblanadi.

Strategik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida zarurligi haqidagi umumiy nuqtai nazarga qaramay, "strategik kompetensiya" ning umume'tirof etilgan tushunchasiga nisbatan noaniqlik hali ham mavjud. Biroq, ushbu vakolat chet tilining kommunikativ faoliyatidagi muammolarni hal qilishning maqbul usullarini izlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, ushbu konsepsiyaning mazmuni bo'yicha muhokamalar bir necha o'n yillar davomida olib borilmoqda. Olimlar strategik kompetensiya doirasi haqida turli fikrlarni bildiradilar. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda talabalar suhbatdosh, shu jumladan chet ellik ma'ruzachi bilan muloqotda strategik kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerakligi haqidagi g'oya yaxshi aniqlanmagan. Ushbu kompetensiya og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalar yordamida har xil turdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini ta'minlaydi, shuning uchun strategik kompetensiyani kommunikativlikni belgilaydigan kommunikativ kompetensiyaning alohida komponenti sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir.

Strategik kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- til shaxsning strategiyalari majmuasi (kommunikativ qobiliyat, tilni o'rganish qobiliyati);

- turli omillarning murakkab majmui bilan belgilanadigan ulardan foydalanish qobiliyati, masalan, milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari, uning boshlang'ich (chet tilini o'rganish boshida) strategik kompetensiyasi, o'zbek va xorijiy til xususiyatlari. tillar, ularning amaliy va nazariy bilim darajasi, muloqot tajribasi, xorijiy mamlakatlarga borish tajribasi, til o'rganish g'oyalari, milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari, nutqiy xulq-atvor madaniyati, boshlang'ich kompetensiyalarga kiritilgan strategiyalarning asosiy toifalari.

Strategik kompetensiyani rivojlantirish talabalar uchun turli akademik va ijtimoiy vaziyatlarda harakat qilishlari uchun muhimdir. Talabalarda strategik kompetensiyani rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Scamper nima?

Almashtirish, birlashtirish, moslashtirish, o'zgartirish, qo'yish, yo'q qilish, teskari o'zgartirish (SCAMPER) – muammolarni navbatma-navbat yoki birgalikda qo'llash, nazorat savollariga javob berish va muammoni hal qilish bo'yicha g'oyalarni olish kerak bo'lgan harakatlar ro'yxati.

Bob Eberle bu harakatlarni 1997 yilda birlashtirdi va scamper bilan chiqdi, lekin buni Aleks Osbornning kengroq nazorat ro'yxatiga asoslanib qildi. Ushbu uslub g'oyalarni izlash, mavjud g'oyalarni takomillashtirish va yangi fikrlarni ishlab chiqish uchun ishlatiladi.[4]

Ushbu qurilma qanday ishlaydi?

Harakatlar majmuasi (o'zgartirishlar) muammoning turli tomonlarini, shu jumladan kam qo'llaniladigan va rivojlanish potentsialiga ega bo'lgan tomonlarini o'rganishga yordam beradi. Qabul qilinadigan harakatlar haqidagi savollarga doimiy ravishda javob berish orqali siz kutilmagan javoblarni olasiz.

Standart harakatlar to'plami (o'zgartirishlar) quyidagicha:

Qisqartirish	Harakat	Tavsif
S	O'rinbosar	Biror narsani almashtirish: komponentlar, elementlar, materiallar, odamlar...
C	Aralashtirmoq	Birlashtirish: boshqa funktsiyalar, elementlar bilan birlashtirish
A	Moslashtirmoq	Biror narsa qo'shing: yangi elementlar, komponentlar, funktsiyalar
M	O'zgartirish	O'zgartirish: hajmini o'zgartirish, shakli, rangi, javob vaqti...
P	Qo'yimoq	Boshqa narsaga murojaat qiling: boshqa soha yoki vazifa bilan bog'lang
E	Yo'q qilish	O'chirish: soddalashtirish, mohiyatini qoldirgan holda osonlashtirish
R	Teskari o'g'irmoq	Flip: almashtirish, oxiridan boshlang

SCAMPER kreativ ta'lim metodi, ijodkorlikni shakllantiruvchi testlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan bir usuldir. Ushbu metod orqali, insonlar o'z fikrlarini o'zgartirish va yangi g'oyalarni yaratishga imkon beradi[5]. SCAMPER metodining afzalliklari quyidagicha:

1. Stimulyatsiya: SCAMPER metodida fikrni o'zgartirish va yangiliklarni yaratish uchun turli xil stimullardan foydalaniladi. Bu, insonlarning tasavvurlarini o'zgartirish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Tarkibiy tahlil: SCAMPER metodida fikrlar tahlil qilinadi va ularning tarkibiy qismlari ajratiladi. Bu, insonlarning fikrlarini tahlil qilish va ularni boshqarishga yordam beradi.

3. Alternativlar: SCAMPER metodida alternativ fikrlar va yechimlar qidirishga imkon beruvchi savollar beriladi. Bu, insonlarning muammolarga yechim topish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli variantlarni ko'rishga yordam beradi.

4. Modifikatsiya: SCAMPER metodida mavjud fikrlarni o'zgartirish va modifikatsiya qilishga yordam beruvchi usullar ishlatiladi. Bu, insonlarning o'z fikrlarini yangilash va ijodkorlikni shakllantirishga yordam beradi.

5. Parametrlar: SCAMPER metodida fikrni boshqarish va o'zgartirish uchun parametrlar belgilanadi. Bu, insonlarning fikrlarni boshqarish va ijodkorlikni rivojlantirishda yordam beradi.

6. Eliminatsiya: SCAMPER metodida fikrlarni yengillashtirish va o'chirishga imkon beruvchi usullar ishlatiladi. Bu, insonlarning fikrlarini tozalash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

7. Rearanzatsiya: SCAMPER metodida fikrlarni yangi tartibda joylashtirishga imkon beruvchi usullar ishlatiladi. Bu, insonlarning fikrlarni boshqarish va ijodkorlikni shakllantirish uchun turli tartiblarni ko'rishga yordam beradi[6].

Ijodiy muammoni hal qilish uchun scamperdan qanday foydalanish kerak?

Bunda, muammoni va uning tarkibiy qismlarini aniqlang. Ustunlarga muammoingizning elementlarini (tizim elementlarini) kiritish orqali ish uchun jadval tayyorlang. Tanlangan amal uchun xavfsizlik savollariga javob berish orqali har bir ustunni navbat bilan to'ldiring. Jadvalni to'ldirgandan so'ng, eng qiziqarli g'oyalarni tanlang. Tanlangan g'oyalarni amalga oshiring.

Scamper – bu moslashuvchan va ochiq vosita bo'lib, uning asosiy prinsipi asosiy savollarga javob berish, o'zingizni boshqacha fikrlashga majbur qilishdir.

Vadim Demchogning o'yin maktabi mashg'ulotlarini kuzatganimda savollarning juda yaxshi ro'yxatiga duch keldim va buni KVO deb nomladim, ya'ni- ongni nazorat qilish savollari:

Kimman?

Men nima qilyapman?

Men uchun nima muhim?

Har kuni men o'zimni ushbu ro'yxatga kiritaman.

SCAMPER texnologiyasining mazmun-mohiyatini aniqlagandan so'ng, bu maqola ushbu texnikani amalga oshirish usullari bilan ESL (Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish) sinflarida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bu usul ma'lum soddaligi va foydalanish qulayligi sababdan o'qituvchilar uni ta'lim jarayonlarida samarali qo'llashlari mumkin. Bundan tashqari, bir qator tadqiqot ishlari SCAMPER texnologiyasining samaradorligi, talabalarning turli sharoitlar va ta'lim muassasalarida turli masalalarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Darslarda Integratsiyalash SCAMPER usullaridan foydalanishga o'tishdan avval talabalarga texnologiyaning maqsadlarini ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi[8]. Maqsadlardan ba'zilari:

1. Tavakkal qilishga tayyorlikni rivojlantirish va bir to'xtamga kelishdan oldin ko'p marta sinab ko'rish.

2. Talabani ingliz tiliga qiziquvchanligini rag'batlantirish va talabani kognitiv qobiliyatlari va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish.

3. Talabalarning tasavvurini rivojlantirish, istiqbolni kengaytirish.

4. Talabani ijobiy munosabatini shakllantirish, fikrlash va xato qilish uchun yechim ishlab chiqish jarayoni.

5. Talabalar orasida ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida savollar qo'llash.

SCAMPER texnologiyasini o'rgatish jarayonida, to'rt bosqichdan iborat ikkita asosiy yo'nalish belgilab berilgan. Birinchi yo'nalish: asosiy muammoni aniqlash, muammoni qayta qurish, yechimlar va g'oyalarni taqdim etish va so'ngida ularni mezonlarga ko'ra yoki bilimga asoslanib baholash. Birinchi bosqichda, o'qituvchi talabalarga topshiriq yoki muammoni turli xil vositalar: ko'rgazmali vositalar, audio, ko'rgazmali qurollar, videolar yordamida taqdim etishi

kutiladi. Yuqorida aytib o'tilgan vositalar talabalarning muammoni anglab yetishini samarali qilish uchun qo'llaniladi.

Ikkinchi yo'nalish muammoni hal qilinadigan qilish uchun o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich eng muhim bosqichlaridan biri deb ishoniladi, chunki u o'qituvchi topshirayotgan SCAMPER texnologiyasini har birining yonida savollar bilan yozilgan skelet bosqichni o'z ichiga oladi. Talabalarga ushbu savollar yordamida muammoni hal qilish uchun vaqt beriladi. Talabalar o'zlari afzal ko'rgan har qanday strategiya va texnikadan foydalanishda erkin va bu jarayonda muhim bo'lgan yagona narsa bu- natija. Oxirgi, lekin eng muhimi, bosqich butun o'qituvchining individual mezonlariga muvofiq talabalarning yechimlarini baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Mezon yechimning o'ziga xosligi va albatta, taqdim etilgan yechimning, ijtimoiy sohada qo'llanilishidan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pincha bu strategiyadan ingliz tili darslarida yozish, shuningdek o'qish va nutq darslarida tetiklantiruvchi(warm-up) faoliyat sifatida foydalanish mumkin. Misol uchun, agar talabalarga "Uch kichkina cho'chqa" romanini o'qish va roman haqida savollarga javob berish va ular muallif bo'lsa, nimani o'zgartirishi mumkin edi vazifasi berilgan bo'lsa. Uyatchan yoki fikrini bayon etishga qo'rqadigan talabalarda ham ko'p sonli ijodiy g'oyalarga paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu vazifa talabalarda hikoyani o'zlarining "mulohaza"lariga ko'ra o'zgartirish va qayta tartibga solish orqali so'z boyligini kengaytiradi[10].

Xulosa. SCAMPER metodologiyasi va strategiyasi umumiy holatda juda samarali hisoblanadi, chunki u talabalarni darslarga qatnashish va xorijiy til o'rganish jarayonida initsiativ olishga qodir bo'lishini rag'batlantiradi. SCAMPER texnologiyasi muammoga javob berish orqali kritik fikrlashni o'rgatadigan yettita asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun muammoning mazmuniga ko'ra bu savollar tuziladi va ko'rib chiqib muammoga yechim topiladi. Talabalarda tasavvur va fikrlashni rivojlantirish oxir oqibat juda ijodiy g'oyalarga olib keladigan jarayonlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, biz SCAMPER yozma texnologiya dasturini taqdim eta olamiz. Talabalar muammolarni mustaqil ravishda aniqlaydilar va muayyan narsalar haqida insho yozish mumkin bo'lgan echimli mavzular o'ylaydilar. SCAMPER strategiyasi har qanday turdagi ingliz tili darslari uchun samarali ekanligi isbotlangan. Bundan tashqari, bu strategiyani ESL darslarida muvaffaqiyatli bajarish uchun harakat qilish tartibi aniq, bosqichma-bosqich mavjud.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtrish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
2. Jalolov J.J., "Chet til o'qitish metodikasi" O'qituvchi -2012. 79-118 bb. Jalolov.J.J., Makhkamova.G.T., Ashurov.Sh.S. English. Language Teaching Methodology (theory and practice). - T.: «Fan va texnologiya».
3. Canale, M. Theoretical basis of communicative approaches to second language teaching and testing [Текст] / M. Canale, M. Swain // Applied Linguistics. – 1980. – № 1. – P. 27–31.
4. Glenn, R. (1997). SCAMPER for Student Creativity. Education Digest, vol. 62 (6), pp. 67-68
5. <https://www.academia.edu/45427347/YU>
6. Fahmy, Ghada & Qoura, Aly & Al-Refaey, Samah. (2017). YUsing scamper-based Activities in Teaching Story to Enhance EFL Primary Stage pupils' Speaking Skills (An Exploratory Study). Journal of Research in Curriculum Instruction and Educational Technology.3.11-33. 10.21608/jrciet.2017.24352.
7. Serrat, O. (2009). The Scamper Technique. knowledge Solution, Asian Development Bank, Mandaluyong City, (31), 1- 4.6.
8. Alexenoamen. (2009). Teaching English: Ways of motivating EFL/ESL students in the classroom. British Council, London, UK. Retrieved June 1st, 2013, from <http://teachingenglishalexenoamen.blogspot.com>
9. Mohammed, A. (2016). the effectiveness of using ACAMPER strategy to develop scientific creative thinking skills and academic achievement in science subject among a selected sample of the second intermediate class pupils in Saudi Arabia. Dar Almandumah, 3(32),419-479.
10. Hussein, A. (2017). The Effect of Using Scamper Strategy on Developing Preparatory Students Achievement and Some Habits of Mind. Dar Almandumah, (192),249-287.
11. Eberle, B. (1997). SCAMPER: Creative Games and activities for imagination development. Waco. TX: prufrock press.
12. https://library.iugaza.edu.ps/thesis/1269_12.pdf
13. Current research journal of pedagogicsissn – 2767-3278 155 <https://masterjournals.com/index.php/crjip>



UDK:324

Sarvar XOLIQOV,
Mustaqil izlanuvchi
E-mail:sarvar_kholikov@mail.ru

Siyosiy fanlar doktori, professor X.Ahmedov taqrizi asosida

XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH BORASIDA DAVLAT VAKILLIK ORGANLARINING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada milliy xavfsizlikni ta'minlash, parlamentning davlat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi, parlament nazoratining ahamiyati kabi muhim masalalar haqida so'z yuritiladi. Darhaqiqat, har bir davlatning asosiy qonunchiligidan joy olgan jihatlar bu inson huquqlari va erkinligi, shaxsning xavfsizligi hamda adolatli muhitni yaratish, o'z xalqining xavfsizligi va ishonchli himoyasini ta'minlash bilan birga ularning erkin harakatlanishiga ko'maklashishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirishda parlamentning o'rni beqiyosdir.

Kalit so'zlar: Milliy xavfsizlik, qonun ustuvorligi, parlament, milliy manfaatlar ustuvorligi, millatlararo va dinlararo totuvlik, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi, parlament nazorati.

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье говорится о таких важных вопросах, как обеспечение национальной безопасности, взаимное сотрудничество парламента с государственными структурами, важность парламентского контроля. По сути, аспектами, включенными в основное законодательство каждой страны, являются права и свободы человека, личная безопасность и создание справедливой среды, а также обеспечение безопасности и надежной защиты своего народа, а также облегчение его свободного передвижения, и роль парламента в его реализации неопределима.

Ключевые слова: Национальная безопасность, верховенство закона, парламент, приоритет национальных интересов, межнациональное и межконфессиональное согласие, принцип разделения властей, парламентский контроль.

IMPORTANCE OF STATE REPRESENTATIVE BODIES IN ENSURING SECURITY

Annotation

This article talks about such important issues as ensuring national security, mutual cooperation between the parliament and state structures, the importance of parliamentary control. In fact, the aspects included in the main legislation of each country are human rights and freedoms, personal security and the creation of a fair environment, as well as ensuring the safety and reliable protection of its people, as well as facilitating their free movement, and the role of parliament in its implementation is invaluable.

Key words: National security, rule of law, parliament, priority of national interests, interethnic and interfaith harmony, principle of separation of powers, parliamentary control.

Kirish. Hozirda jahon hamjamiyatida harbiy-geosiyosiy vaziyat tez o'zgarib, rivojlanayotgan bir davrda xavfsizlik masalalari, xususan shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash muammosi har doim dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada davlat hokimiyati tuzilmalari, qonunchilik, ijro va sud organlarining tutgan o'rni muhim hisoblanadi. Bunda eng avvalo davlatning eng asosiy vakillik organi hisoblangan parlament faoliyati bilan bog'liq jihatlarni tadqiq qilish alohida o'ringa ega.

Xavfsizlikni ta'minlash masalalari keng qamrovli bo'lganligi sababli milliy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishda parlament faoliyatining samarali amalga oshirilishida boshqa davlat idoralari, ayniqsa, xavfsizlikni ta'minlashga ma'sul bo'lgan Qurolli Kuchlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda parlament qayd etilgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va yo'naltiruvchi subyekt sifatida o'zini namoyon etishi lozim;

Xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarida parlament bir qator muhim vazifalarni hal qilishga chaqiriladi. Ulardan birinchisi va eng yaqqol ko'rinib turgani shundaki, Parlament qonunchilik bazasini ishlab chiqishi va doimiy ravishda takomillashtirishi kerak, ular asosida mamlakat milliy

xavfsizligini ta'minlashda u yoki bu tarzda ishtirok etuvchi barcha subyektlar faoliyat ko'rsatishi va o'zaro hamkorlik qilishi shart.

Qolaversa, mazkur qonunlar tizimi ham shaxs – fuqarolarning manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta'minlash, shuningdek, jamoat tashkilotlari va davlat institutlari, birinchi navbatda, Qurolli Kuchlar, vazirlik qo'shinlarini o'z ichiga olgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar Ichki ishlar vazirligi va DXX va boshqalar faoliyatini tartibga solishni qamrab olishi kerak.

Ikkinchi vazifa – umuman milliy ustuvorliklarni, xususan, xavfsizlik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tanlashga ta'sir qilish. Bu holatda qonun ijodkorligidan tashqari asosiy ta'sir kanali davlat budjeti bo'lib qoladi. Aynan budjet mablag'larini taqsimlash milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qanday vazifalar ustuvorligini ko'rsatadi.

Parlamentning mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi sifatidagi uchinchi muhim vazifa bu – davlat hokimiyat institutlari ustidan fuqarolik siyosiy nazorati, hokimiyatning har qanday ijroiya organi qo'lida, ayniqsa, ular orasida qurolli tuzilmalar kabi haqiqiy kuch tutqichlarini boshqaradigan organlarning xavfli to'planishiga yo'l qo'ymaslikdir. Umuman olganda, parlamentning milliy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatidagi nazorat

funksiyalari davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, davlat apparatining eng muhim bo'g'inlarida kadrlarni tanlash va joylashtirishga ta'sir ko'rsatish qobiliyatida eng aniq ifodalangan, ularning ishini nazorat qiladi va mustaqil ekspertiza o'tkazadi, davlat oldida turgan eng muhim masalalar bo'yicha eshituvlarni tashkil qiladi.

Nihoyat, parlamentda qo'llaniladigan mexanizmlardan biri sifatida uning muhim roli O'zbekiston tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish jarayoni bilan bog'liq.

Bizningcha, buni o'zi yetarli emas. Shu sababli, Oliy Majlis Senatining milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatida samarali ishlashini tashkil etish O'zbekiston milliy xavfsizlik siyosatini davlat hokimiyatining yuqori organlari darajasida aniq shakllantirishdan boshlanishi kerak.

Agar biz mamlakatimiz xavfsizligi o'z fuqarolari, ularning jamoalari va mamlakatni rivojlantirish imkoniyati, fuqarolarning huquq va erkinliklarini so'zsiz himoya qilish hukmronlik qiladigan davlatni yaratish bilan bog'liqligidan kelib chiqadigan bo'lsak, qonun va huquq ta'minlangan bo'lsa, bu shartlar, o'z navbatida, bir nechta qonun hujjatlari paketlarini shakllantirish uchun asos bo'lishi mumkin, ularni ishlab chiqish va qabul qilish uchun «eng qulay davlat rejimi» berilishi kerak va ularni shakllantirish «to'plam» ijro etuvchi hokimiyatning yuqori bo'g'inlari vakillari va Oliy Majlisning maxsus qo'mitalari va komissiyalari rahbariyati tomonidan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat uchun zarur bo'lgan minimal qonunchilik bazasi imkon qadar tez va har tomonlama shakllantirilishi kerak.

Ustuvor qonun hujjatlari «to'plam»ni shakllantirish ko'p jihatdan oliy siyosiy darajada e'lon qilingan milliy xavfsizlik konsepsiyasining mazmuni bilan belgilanadi. Ular «Mudofaa to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi» to'g'risidagi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun kabi sof harbiy masalalar bilan cheklanmasligi kerak.

Shaxs va jamiyat taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat beruvchi Konsepsiyaga muvofiq, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qat'iy ta'minlashni amalga oshiradigan ustuvor qonunlar to'plamiga kiritish bundan kam bo'lmasa kerak. Xususiyl mulk huquqi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, fuqaroni davlat organlarining byurokratik o'zboshimchaliklaridan himoya qilish bugungi kunda O'zbekiston rivojlanishiga va shuning uchun uning xavfsizligiga asosiy tahdid va asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

So'nggi besh yilda Qonunchilik palatasi tomonidan 540 ta qonun yoki 2010-2014 yillarga nisbatan 2 barobar ko'p qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Agar 2015 yilda qabul qilingan qonunlarning bor-yo'g'i 11 tasini yaxlit va yangi qonunlar tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 3 barobar oshib, 35 taga yetdi. Shuningdek, 2010-2014 yillarda 37 ta qonun loyihasi deputatlar tomonidan muhokamaga kiritilgan bo'lsa, o'tgan chaqiriqda bu ko'rsatkich 2,5 barobar oshib, 88 taga yetdi[1]. Senat tomonidan esa, 291 ta qonun ma'qullangan, 8ta qonun rad etilgan. Ko'rib turganimizdek, qonun ijodkorligi yo'nalishida ish hajmining keskin oshishi natijasida jamiyatimizda qonunlar bilan tartibga solinadigan munosabatlarning soni ham tobora ko'payib bormoqda.

Lekin ushbu qonunlarning ijrosi holati amaliyotda qanday. Bunda parlament roli nimada namoyon bo'ladi? Bugungi kunda parlament palatalarida qonunlarning ijrosini bevosita tahlil qiladigan tuzilma mavjud emas. Tabiiyki, savol tug'iladi. Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti qonunlarni bevosita monitoring qilishi kerak emasmi?

Ta'kidlash joizki, bir qator qabul qilingan qonunlar bevosita amaliyotda ijtimoiy munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri amal qilish ta'siri mavjud bo'lsada, uning ijrosi mas'ul

subyektlar tomonidan to'liq bajarilishi ta'minlanmaydi. Bunday holatlar deputatlarning o'z saylov okruglariga chiqib, o'rganishlar o'tkazilgan paytda ma'lum bo'ladi.

Ya'ni, qonunlarning joylardagi ijrosini o'rganish deputatlarining o'ziga yuklangan. Bu borada ishini samarali tashkil etish uchun esa, o'z navbatida, deputat lozim daraja o'z «armiya»siga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, parlamentning qonun qabul qilingandan keyingi tekshiruv hamda qonunlarning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini baholashdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan amaliyot va tartib-qoidalarni joriy qilish maqsadida parlament palatalari devonlarida Qabul qilingan qonunlarning ijrosini monitoring qilish bo'limlarini tashkil etish taklif etiladi.

Parlamentning milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatining ikkinchi muhim jihati O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini ko'rib chiqish va qabul qilish kabi qonun ijodkorligining o'ziga xos shakli bilan bog'liq.

Aytish kerakki, Oliy majlisning bu boradagi vakolatlari aniq yetarli emas va bu umuman milliy manfaatlarini va xususan, milliy xavfsizlik manfaatlarini ta'minlashga yordam bermaydi. Darhaqiqat, Oliy Majlis hali uzoq vaqt davomida budjetni moddama-modda professional tahlil qilish va muhokama qilish uchun belgilangan tartib yo'q. Oliy Majlis hukumat tomonidan taklif qilingan budjet so'rovini to'liq qabul qilish yoki butunlay rad etish huquqiga ega.

Masalan, davlat budjetining harbiy qismi Qurolli Kuchlar turlari va harbiy dasturlar bo'yicha yetarli darajada batafsil ko'rsatilmagan holda berilgan. Bularning barchasi harbiy sohaga ajratilgan mablag'larni o'z xohishiga ko'ra va davlat xavfsizligi manfaatlarini to'g'risidagi g'oyalari muvofiq sarflashda mutlaqo qabul qilib bo'lmaydigan holda qoldiradi.

Harbiylar ustidan fuqarolik-siyosiy nazoratni ta'minlash, kengroq ma'noda davlatning «hokimiyat sohasi» haqida gapirganda, buni parlament faoliyatining yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarining kombinatsiyasi sifatida tushunish kerak.

Birinchidan, bu huquqni muhofaza qilish organlari – Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, xavfsizlik xizmatlari va boshqalar faoliyatini tartibga solishdagi «huquqi vakuum»ni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik bazasini ishlab chiqish. Bu boradagi ayrim qonun hujjatlari allaqachon qabul qilingan, biroq kompleks, «paket» yondashuv zarur.

Ikkinchidan, bu ushbu tuzilmalarni moliyalashtirishni belgilaydigan budjet moddalarining bajarilishini batafsil ishlab chiqish va nazorat qilish. Va nihoyat, bu ushbu tuzilmalarda yuqori boshqaruv xodimlarini tanlashga ta'sir ko'rsatish imkoniyatidir va bundan ham muhimi, parlament amaliyotiga huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari taklif qilingan, kirishi mumkin bo'lgan maxsus, zarurat tug'ilganda yopiq eshituvlarni tashkil etish amaliyotiga joriy etishdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigidagi quyidagi so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi: «Milliy xavfsizlik kabi o'ta muhim sohani qonun talablari asosida boshqarish samarasini oshirish bizning ustuvor vazifalarimiz qatoriga kiradi»[2].

Milliy xavfsizlik konsepsiyasi bizningcha quyidagi 5 ta asosiy maqsadlarga xizmat qilishi kerak:

1. Insonlarning turli ehtiyojlariga javob beradigan milliy xavfsizlikning keng qamrovli ko'rinishini belgilashi lozim. Milliy xavfsizlik siyosati xavfsizlik bilan bog'liq barcha davlat va jamiyat, shuningdek fuqarolar, davlat va nodavlat sektor vakillari, xalqaro subyektlarning xavfsizligiga doir tahdidlarni chuqur tahlil qilinishini talab qiladi. Milliy xavfsizlik siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ichki va tashqi xavfsizlik muammolarini tezkor hal qilish imkonini beradi.

2. Xavfsizlikka doir siyosatni samarali amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riq ishlab chiqish. Milliy xavfsizlik siyosati turli subyektlarga qisqa va uzoq muddatli maqsadlardan kelib chiqib, tegishli siyosiy choralar va tezkor qarorlarga javob berishga imkon beradi. Shunday qilib, milliy xavfsizlik siyosati markazlashtirilgan siyosatni ishlab chiqish jarayoni orqali barcha xavfsizlik subyektlarining hissasini optimallashtirish orqali xavfsizlik sektorining samaradorligini oshiradi: bu ayniqsa, keng doiradagi subyektlardan ichki va tashqi xavfsizlik tahdidiga javob talab qilganda muhimdir.

3. Xavfsizlik sektorlarining samaradorligi va hisobdorligini oshirish. Milliy xavfsizlik siyosati turli kelishmovchiliklarni minimallashtirish imkonini beradi. Bunda xavfsizlik uchun xarajatlar haqiqiy va barqaror bo'lishi hamda boshqa milliy ustuvor yo'nalishlar bilan muvozanatlashgan bo'lishligi talab etiladi.

4. Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tizimlararo ichki kelishuvga erishish. Milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish turli professional, jamoatchilik va davlat, siyosiy guruhlar va tarmoq guruhlar o'rtasida milliy muloqot va hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi va bunday munozaralar davlat xavfsizligi, boshqaruv va nazoratning asosiy qadriyatlar bilan bog'liq yo'nalishlarda konsensusga erishishga yordam beradi. Bunday oshkora yondashuv davlat xavfsizligini ta'minlashga jamoatchilik ishonchini oshirishi mumkin.

5. Mintaqaviy va xalqaro ishonch hamda hamkorlikni oshirish. Ichki, oshkora va ochiq milliy xavfsizlik siyosati mintaqaviy va xalqaro hamkorlarga davlatning qadriyatlarini, muammolari va xavfsizlik sohasidagi niyatlari haqida ma'lum qiladi va mudofaa yoki mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlik uchun aniq rejalarini belgilaydi.

Oshkorlik siyosati milliy xavfsizlik bilan bog'liq siyosatda yetakchi o'rinni egallaydi. Buni biz nafaqat moddiy xarajatlarni ajratish va taqsimlashda balki boshqa yo'nalishlarda ham ko'rishimiz mumkin. «Qonun chiqaruvchi organ – parlament faoliyati jarayonida qabul qilinayotgan qonunlar loyihasini yoki qabul qilgan qonunlar matnini ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa e'lon qilinishi hamda xalqning qonunlardan xabardor etilishi oshkorlikning ifodasidir»[3].

Milliy xavfsizlik siyosatini olib borishda quyidagi subyektlar ishtirok etganda u yanada mustahkamlanadi:

- mudofaa va ichki ishlar vazirliklari, razvedka idoralari, qurolli kuchlar vakillari, parlament qo'mitalari va moliyaviy boshqaruv organlari kabi davlat xavfsizlik tashkilotlari;

- tashqi ishlar, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va immigratsiya kabi xavfsizlik tizimiga bevosita aloqador bo'lmagan vazirlik va idoralar;

- muxolifatdagi siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, xotin-qizlar guruhlari, fuqarolik jamiyati ishtirokchisi bo'lgan tashkilotlar, ilmiy va mustaqil texnik muassasalar kabi nohukumat subyektlar;

- jamoatchilik, chunki maslahatlashuvlar jarayon va siyosatning qonuniyligini oshiradi va siyosatni haqiqiy xavfsizlik ehtiyojlariga ko'proq javob beradigan saylangan vakillardan tashqari konsultatsiyalarni kengaytirish ham gender, etnik yoki diniy ozchiliklar kabi kam ta'minlangan guruhlarning hissasiga imkon beradi.

Milliy xavfsizlik bilan bog'liq tegishli hujjatni ishlab chiqish va uni tasdiqlash bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etadigan subyektlar tasnifi juda kengdir. Xususan, yuqorida aytilganidek, siyosatga oid hujjatni ishlab chiqishda ko'plab davlat va nodavlat tuzilmalar ishtirok etsa, uni tasdiqlashda esa asosiy va yagona o'rinni parlament egallaydi. Milliy xavfsizlik siyosati loyihasini ma'qullovchi organ, ya'ni parlament xavfsizlik siyosatini uni amalga oshirilishidan oldin tasdiqlashi kerak.

Parlament tomonidan milliy xavfsizlik siyosatining huquqiy tasdiqlanishi barcha siyosiy tizimlarni ishtirok etishini talab qilmaydi, qoidaga ko'ra, demokratik yo'l bilan shakllantirilgan qonun chiqaruvchi organ tomonidan milliy xavfsizlik siyosatining ixtiyoriy ravishda tasdiqlanishi, milliy xavfsizlik siyosatining qonuniyligini har doim oshib boradi.

Milliy xavfsizlik siyosatining parlament tomonidan tasdiqlanishi davlat siyosatining xabardorligini oshirish bilan birga xavfsizlik siyosati haqida axborot tarqatish bo'yicha muvofiqlashtirilgan strategiyaning muhim elementi bo'lishi mumkin.

Shu sabablarga ko'ra ijroiya qo'mitasi parlamentga yangi milliy xavfsizlik siyosatini ko'rib chiqish, muhokama qilish, o'zgartirish yoki tasdiqlash uchun ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

Jahon tajribasida turli parlamentlar milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqishda turlicha rol o'ynaydi. Xususan, ba'zi tizimlarda hukumat tomonidan kiritilgan milliy xavfsizlik siyosatiga parlament o'z tasdig'idan oldin sezilarli o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Ba'zi hollarda aksincha, ya'ni parlament milliy xavfsizlikka doir siyosatga o'zgartirishlar kiritmasdan turib tasdiqlashi mumkin. Parlamentlar ko'pincha milliy xavfsizlikka doir siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etmaydi.

Shuningdek, milliy xavfsizlik bilan bog'liq konseptual jihatlarini o'rganishda va tegishli normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqishda iqtisodiy xavfsizlikka alohida urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Zero, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat mustaqilligining kafolati, jamiyat barqaror va samarali faoliyat yuritishi, muvaffaqiyatga erishishi shartidir. Buning sababi, iqtisodiyot jamiyat, davlat va shaxs faoliyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning barqarorligi va samaradorligi:

(davlatning to'lov va mudofaa qudratini oshiradi;

(jamiyatda ijtimoiy, siyosiy barqarorlikga erishilishini ta'minlaydi;

(shaxsni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun milliy xavfsizlik tushunchasi iqtisodiyotning hayotiyligi, uning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi tura olishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash eng muhim milliy ustuvorliklardan biridir[4].

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda, Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qo'mitasi IIV, FVV, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Sanoat xavfsizligi qo'mitasi va boshqa vazirliklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Buning asosiy sababi, ushbu tashkilotlarning parlamentga xisobdorlik hissi mavjudligidir. Bundan tashqari, Qo'mita raisi Q.N.Burxonov ko'p yillar davomida ichki ishlar vazirligi tizimida ishlagan bo'lib, ayni vaqtda Mudofaa vazirligining ko'plab rahbarlari muqaddam Q.N.Burxonov bilan IIV tizimida birga ishlagan, shu bois ular bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan.

Qo'mitaning Davlat xavfsizligi xizmati bilan sohaviy yo'nalishdagi hamkorligi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Qo'mitaga ekspert sifatida bir nafar Xizmat xodimi ajratilgan bo'lsada, hozirga qadar qo'mita faoliyatining ishchi yig'ilishlariga jalb qilinmagan. Hattoki, Xizmatga Parlament so'rovini yuborish va tegishli ma'lumotlarni olish mexanizmi ham yo'lga qo'yilmagan.

Fikrimizcha, DXX milliy xavfsizlikni tashkiliy huquqiy jihatdan mustahkamlashda Senat va Qonunchilik palatalarining mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qo'mitalaridan o'ziga xos vosita sifatida foydalanishi mumkin. YA'ni, xavfsizlikni ta'minlashning qonunchilik asoslarni yaratish va ijrosini nazorat qilishda ushbu qo'mitalar bilan doimiy hamkorlikni olib borishi lozim.

Shuningdek, qo'mitalar a'zolarini saylashdan oldin xavfsizlik yo'nalishida yetarlicha tahliliy tajribaga ega, sohadagi muammolarni aniqlab, o'z vaqtida bartaraf etish yuzasidan asosli takliflarni ilgari surish salohiyati mavjud bo'lgan mutaxassislar bilan jamlash choralari ko'rish lozim.

Qo'mitalar faoliyatini amaliy jihatdan samaradorligini oshirishda DXX faoliyatini kengroq jalb qilish lozim. Masalan, DXX tegishli qonun xujjatlari asosida davlat siyosatini olib borish hamda muvofiqlashtirish vakolatiga ega bo'lgan sohalar bo'yicha (kiberxavfsizlik, terrorizm, ekstremizm, separatizm, davlat sirlarini saqlash va boshqaqlar) joriy vaziyat, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlar, ularni barvaqt oldini olish choralari bo'yicha qo'mitalarni xabardor etib borish lozim. Hisobot emas, aynan axborotnomaviy shaklda. Bundan ko'zlangan maqsad, xavfsizlik masalalarida yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlarni bartaraf etishda moddiy-texnik ta'minlash uchun budjetdan mablag' ajratish, mazkur yo'nalishlarda xalq vakillarining mas'uliyatini oshirishdir.

Shuningdek, milliy, mintaqaviy hamda global miqyosda xavfsizlik sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlarda parlamentning mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitalari ishtirokini kengaytirish lozim. Ayni vaqtda ushbu qo'mitalarning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari deyarli yo'lga qo'yilmagan.

Bundan tashqari, parlamentning mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitalarini faoliyat yo'nalishi bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalishlarga jalb qilmaslik lozim. Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, ayni vaqtda qo'mitalar a'zolari xavfsizlik masalalaridan ko'ra, boshqa yo'nalishlarga ko'proq jalb qilinmoqda.

Qo'mitalarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning fikriga ko'ra, mudofaa va xavfsizlik sohasiga ma'sul bo'lgan MV, FVV, MG, DXX, IIV, ETRM, PDXX, Sanoat xavfsizligi qo'mitasi va boshqa idoralarga davlat budjetidan mablag' ajratilishi bo'yicha yig'ilishlardagi muhokamalarda qo'mitalar yetarlicha jalb etilmagan. YA'ni mazkur idoralarga budjetdan qancha va nima maqsadda mablag' ajratilishi, ushbu mablag'larning yetariligi, yil davomida qo'shimcha mablag'lar ehtiyoj yuzaga kelishi kabi savollarni hal etishda qo'mitalar ushbu vazirlar bilan alohida yopiq muhokamalar olib borilishi lozim. Bunda, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari ochiq yoxud yopiq tarzda o'tkazilishi masalasi "Davlat sirini saqlash to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining mazkur masaladagi qonunosti hujjatlari kelib chiqilishi lozim.

Bundan tashqari, 2023 yil yanvar oyida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurollantirish davlat komissiyasiga qo'mitalarni qo'shish kerak. Ayni vaqtda qo'mitalar ushbu komissiyalarga a'zo emas.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатасининг Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитаси. www.parliament.gov.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Қуrollи Қучлари ташкил этилганининг 25 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-urolli-kuchlari-tashkil-etilganining--13-01-2017>
3. Одилқориев Х.Т. "Давлат ва ҳуқуқ назарияси" Дарслик. Адолат нашриёти. 129-б.
4. Исроилов Б.И. "Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари". "Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Б. 103-111.

Мамлакатимизда парламентга берилган кенг имконияتلardan kelib chiqqan holda hamda aynan milliy xavfsizlik bilan bog'liq siyosatga ustuvor maqomni berish nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga doir tegishli konstitutsiyaviy qonun ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olib quyidagilarni qayd etish mumkin:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalari keng qamrovli bo'lganligi sababli milliy manfaatlarni himoya qilish nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishda parlament faoliyatining samarali amalga oshirilishida boshqa davlat idoralari, ayniqsa, xavfsizlikni ta'minlashga ma'sul bo'lgan Qurolli Kuchlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda parlament qayd etilgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va yo'naltiruvchi subyekt sifatida o'zini namoyon etishi lozim;

- Xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilganda, mudofaa bo'yicha parlament qo'mitasining tergov organi sifatida maqomi Konstitutsiyada belgilanganligi (Germaniya), to'g'ridan-to'g'ri ravishda sanksiya qo'llash (AQSH), mudofaa va xavfsizlikka doir vazirliklar doimiy hisob taqdim etib borishi (Ruminiya), mudofaaga doir turli texnika jihozlarini vakolatli organ tomonidan sotib olishda parlament qo'mitasi bilan kelishuvi (Buyuk Britaniya, Vengriya) kabi muhim masalalar aks etgan. Yuqoridagi tajribalarni qonunchiligimizda ham aks ettirish parlamentning obro' va vakolatlari maqomini yuksaltirishda alohida ahamiyatga ega. Qayd etish lozimki, ushbu davlatlar parlamentlari jahon davlatlari orasida katta kuchga egaligi ta'kidlanadi.

- ilmiy tadqiqotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin, xususan:

1. milliy xavfsizlikka qaratilgan milliy konunchilik bazasini takomillashtirish va rivojlantirish;

2. xavfsizlikni ta'minlashga ma'sul bo'lgan davlat organlarining ushbu faoliyatlari bo'yicha doimiy monitoringini amalga oshirish hamda ularga faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda faoliyat samaradorligini oshirish yuzasidan takliflari ishlab chiqish va tegishli chora-tadbirlar belgilash;

3. parlamentning vakillik organi sifatida joylarda ma'muriy-harbiy sektorlar faoliyatining nazoratini amalga oshirish va xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan ushbu sohaga ajratilayotgan mablag'larning samarali foydalanishini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish.



UDK:796.09

Клара ШАКИРЖАНОВА,

Профессор Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

E-mail:shakirjanova@mail.ru

Екатерина ЛЮЛИНА,

И.о. доцента Узбекский государственный университет физической культуры и спорта,

На основании рецензии PhD И.Солиева

ИТОГИ ВЫСТУПЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СБОРНОЙ КОМАНДЫ УЗБЕКИСТАНА НА XXXIII ОЛИМПИЙСКИХ ИГРАХ В ПАРИЖЕ

Аннотация

Статья посвящена историческому успеху узбекских спортсменов на XXXIII Олимпийских играх в Париже 2024 года, где они завоевали 13 медалей (8 золотых, 2 серебряные и 3 бронзовые). Этот результат стал возможен благодаря внедрению новаторских методик подготовки, международному сотрудничеству и масштабным реформам в спортивной сфере, инициированным Президентом Республики Узбекистан. В статье рассматривается вклад отдельных спортсменов, анализируются ключевые факторы успеха, а также обсуждаются перспективы дальнейшего развития спорта в Узбекистане.

Ключевые слова: Олимпийские игры, медали, подготовка, спортсмены, реформа.

PERFORMANCES OF THE NATIONAL TEAM OF UZBEKISTAN AT THE XXXIII OLYMPIC GAMES IN PARIS

Annotation

The article is dedicated to the historic success of Uzbek athletes at the XXXIII Olympic Games in Paris in 2024, where they won 13 medals (8 gold, 2 silver, and 3 bronze). This achievement became possible due to the implementation of innovative training methods, international cooperation, and large-scale sports reforms initiated by the President of the Republic of Uzbekistan. The article examines the contribution of individual athletes, analyzes key factors of success, and discusses prospects for the further development of sports in Uzbekistan.

Key words: Olympic Games, medals, training, athletes, reform.

O‘ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASINING XXXIII PARIJ OLIMPIYA O‘YINLARIDAGI NATIJALARI

Annatsiya

Mazkur maqola 2024 yilda Parijda bo‘lib o‘tgan XXXIII Olimpiya o‘yinlarida o‘zbek sportchilarining tarixiy yutuqlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular 13 ta medal (8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza) qo‘lga kiritdilar. Bu natija zamonaviy tayyorgarlik usullari, xalqaro hamkorlik va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshlangan sport sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar tufayli amalga oshdi. Maqolada alohida sportchilarning hissasi ko‘rib chiqiladi, muvaffaqiyatning asosiy omillari tahlil qilinadi va O‘zbekistonda sportning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Olimpiya o‘yinlari, medallar, tayyorgarlik, sportchilar, islohot.

Актуальность. Олимпийские игры 2024 года в Париже стали важнейшей вехой для спорта Узбекистана, подтвердив его лидерство в регионе Центральной Азии, СНГ и среди участников Организации исламского сотрудничества. Успех узбекских атлетов на этих играх, обусловленный масштабными реформами в спортивной сфере, требует детального анализа, поскольку он демонстрирует новую стратегию и системный подход к развитию спорта в стране. Данное исследование имеет актуальность, поскольку оценивает достигнутые успехи и намечает перспективы дальнейшего укрепления позиций Узбекистана в мировом спорте.

Цель исследования. Определить ключевые факторы, которые способствовали историческому успеху узбекских спортсменов на Олимпийских играх 2024 года, а также оценить влияние спортивных реформ и международного сотрудничества на развитие олимпийского движения в Узбекистане.

Задачи: 1. Оценить достижения узбекских спортсменов на Олимпиаде 2024 года. 2. Изучить влияние спортивных реформ на подготовку спортсменов Узбекистана.

Методы исследования. Аналитический обзор, ретроспективный анализ, перспективный анализ.

Материалы исследования и их обсуждение. Олимпийские игры 2024 года в Париже стали важнейшим событием для мирового спортивного сообщества. С 24 июля по 11 августа на них соревновались представители 206 стран, принимая участие в 32 видах спорта. Всего было разыграно 329 комплектов наград. Для Узбекистана эти Игры стали не только возможностью подтвердить свои спортивные достижения, но и продемонстрировать успехи, достигнутые благодаря масштабным реформам, проводимым в последние годы в спортивной сфере.

Узбекистан направил на Олимпийские игры в Париже 90 атлетов, которые приняли участие в 19 видах спорта. Этот показатель стал рекордным для страны. Спортсмены Узбекистана завоевали 13 медалей. В общем медальном зачете Узбекистан занял 13-е место среди 206 государств, при этом оказавшись на первом месте среди стран Центральной Азии, СНГ, а также среди участников Организации исламского сотрудничества и Организации тюркских государств. Этот результат стал крупнейшим достижением страны за всю ее независимую историю.

Особенно значимым стал успех узбекских боксеров, которые продемонстрировали выдающиеся результаты, завоевав пять золотых медалей. Олимпийские Игры в Париже подтвердили доминирование Узбекистана в мужском боксе, что стало результатом многолетней целенаправленной работы тренеров и спортсменов, а также международного сотрудничества с кубинской школой бокса, известной своими традициями и методиками, также, как и узбекская школа бокса.

Пятеро узбекских боксеров, среди которых Хасанбой Дусматов (вес до 51 кг), Асадхужа Муйдинхужаев (до 71 кг), Лазизбек Муллажонов (до 80 кг), Абдумалик Халоков (до 57 кг) и Баходир Жалолов (свыше 92 кг), уверенно завоевали золотые медали. Особенно стоит отметить Дусматова и Жалолова, которые завоевали свои олимпийские титулы уже во второй раз, что стало историческим достижением для узбекского спорта.

Выдающимся событием Олимпийских игр в Париже для Узбекистана стало выступление дзюдоистки Диёры Келдиёровой, которая завоевала первую в истории независимого Узбекистана золотую медаль среди женщин в этом виде спорта. В весовой категории до 51 кг она одержала победы над сильнейшими соперницами, такими как японка Ута Абэ и француженка Амандин Бюшард, а в финале – над Дистрией Красники из Косово. Эта победа не только принесла спортсменке заслуженную славу, но и укрепила позиции Узбекистана как страны, где женский спорт стремительно развивается и получает все большее признание.

До этого момента дзюдоисты Узбекистана не могли похвастаться золотыми медалями на Олимпиадах. Наибольшие успехи ранее заключались в серебряных медалях, завоеванных Арменом Багдасаровым в 1996 году и Абдуллою Тангриевым в 2008 году, а также в пяти бронзовых медалях. Таким образом, победа Келдиёровой стала настоящим прорывом и значимой вехой в истории узбекского дзюдо.

Еще одной важной победой для Узбекистана стала золотая медаль, завоеванная борцом вольного стиля Разамбеком Джамаловым в весовой категории до 74 кг. Этот результат стал первой за 20 лет олимпийской победой Узбекистана в вольной борьбе, что свидетельствует о возрождении данного вида спорта в стране и возвращении его на лидирующие позиции на международной арене.

Не менее важным достижением можно назвать успех Улугбека Рашитова, который в 2024 году во второй раз стал олимпийским чемпионом в таэквондо. Его победа на Олимпиаде в Токио в 2020 году ознаменовала начало новой эры для узбекского таэквондо, а успех в Париже подтвердил высокий уровень подготовки спортсмена и его потенциал на мировой арене.

Серебряные медали Узбекистану принесли Светлана Осипова в таэквондо (свыше 67 кг) и штангист Акбар Джураев (до 102 кг). Осипова, как и Рашитов, продемонстрировала высокий уровень мастерства и подготовки. Ее борьба за олимпийское золото также стала примером мужества и силы духа, что позволило ей занять заслуженное место на пьедестале почета.

Помимо золота и серебра, спортсмены Узбекистана завоевали три бронзовые медали. В дзюдо отличились Музаффарбек Турабоев (до 100 кг) и Алишер Юсупов (свыше 100 кг), а в вольной борьбе — Гуломжон Абдуллаев (до 57 кг). Эти достижения подчеркивают широкий спектр успешных выступлений узбекских спортсменов в различных видах спорта.

Важной тенденцией Олимпиады 2024 года стало участие Узбекистана в новых для страны видах спорта. Так, в Париже узбекистанцы впервые соревновались в таких дисциплинах, как прыжки в воду, стрельба из лука и женская борьба. Это свидетельствует о стремлении Узбекистана к расширению своих спортивных горизонтов и повышению конкурентоспособности в международных соревнованиях. Также стоит отметить квалификацию сборной Узбекистана по футболу среди юношей до 23 лет на Олимпийские игры – еще одно свидетельство прогресса страны в командных видах спорта.

Несмотря на общие успехи, не все представители узбекской сборной смогли показать высокий уровень на Олимпийских играх. Особенно сложно сложилась ситуация в легкой атлетике. Всего четыре спортсмена из Узбекистана выполнили нормативы для участия в соревнованиях, что стало наименьшим количеством за годы независимости страны. Из них только прыгунья в высоту Сафина Садуллаева смогла пробиться в финал, заняв шестое место с результатом 195 см. Ее выступление было достойным, однако показанный результат не позволил ей завоевать медаль. Другие представители легкой атлетики – Шарифа Давронова в тройном прыжке и Анвар Анваров в прыжках в длину – также не смогли выйти в финальные этапы соревнований.

Марафонец Шохрух Давлятов и вовсе сошел с дистанции на 30-м километре, что стало разочаровывающим итогом его участия в Олимпиаде. Слабое выступление узбекских легкоатлетов указывает на необходимость усиленной работы в этом направлении в будущем.

Олимпийская сборная Узбекистана вернулась на родину с великими почестями. В международном аэропорту Ташкента спортсмены торжественно встретили, и в Национальном олимпийском комитете страны состоялась церемония вручения сертификатов на денежные вознаграждения и жилье от имени Президента Узбекистана. Эти награды были подтверждением государственной поддержки спорта и признанием вклада атлетов в развитие национального престижа на мировой арене.

Таким образом, успех узбекской сборной на Олимпийских играх 2024 года стал не только спортивным достижением, но и важным шагом в укреплении международного имиджа Узбекистана как спортивной державы.

Результаты исследования. Анализ выступления сборной Узбекистана на Олимпийских играх 2024 года в Париже выявил несколько ключевых факторов, способствующих успеху национальной команды. Этот успех нельзя рассматривать как случайность – он является результатом целенаправленного и многолетнего процесса подготовки, реформирования спортивной инфраструктуры и системной работы с талантливыми спортсменами. Рассмотрим более подробно основные факторы, которые оказали решающее влияние на исторические достижения узбекских атлетов на международной арене.

В последние годы в Узбекистане были проведены значительные реформы, направленные на развитие спортивной инфраструктуры, внедрение современных методов подготовки и улучшение условий для тренировок спортсменов. Эти реформы стали ключевым элементом успеха на Олимпиаде.

В стране были введены в эксплуатацию новые спортивные объекты, а существующие сооружения были реконструированы. Это позволило улучшить тренировочные условия для спортсменов, повысив их возможности для подготовки на высоком уровне.

Создание центров спортивной подготовки по международным стандартам способствовало улучшению уровня подготовки атлетов.

Важную роль сыграла программа «Беш ташаббус», инициированная Президентом Республики Узбекистан, которая направлена на развитие физической культуры и спорта, информационных технологий и культуры среди молодежи. Данная программа не только поддерживает спортсменов, но и создает условия для вовлечения молодежи в спорт с раннего возраста. Это обеспечивает систематическую подготовку будущих олимпийцев.

Спортсмены, завоевавшие медали на Олимпийских играх, получили значительные денежные вознаграждения и другие поощрения от государства. Это стимулирует атлетов к достижению высоких результатов, подчеркивая важность спорта для общества и государственной политики.

Кроме того, Узбекистан активно использует международный опыт в подготовке своих спортсменов, приглашая ведущих специалистов из других стран. Это стало одной из основ для достижения выдающихся результатов на Олимпийских играх.

Привлечение специалистов из Кубы, внесло значительный вклад в успех узбекских боксеров, которые завоевали пять золотых медалей на Олимпиаде. Кубинская школа бокса известна своей эффективной методикой тренировок, и её внедрение в Узбекистане позволило улучшить подготовку спортсменов, оптимизировать тренировочные процессы и повысить соревновательные показатели.

Также были приглашены тренеры из Германии и других стран для работы с дзюдоистами и борцами. Это позволило перенять международный опыт, который стал важным элементом подготовки спортсменов к соревнованиям высокого уровня. В результате этого сотрудничества узбекские дзюдоисты завоевали золотую медаль, а борцы вольного стиля — первое золото за последние 20 лет.

Узбекские спортсмены активно участвовали в международных сборах, что позволило им получить опыт взаимодействия с лучшими спортсменами мира, повысить свою конкурентоспособность и адаптироваться к условиям мировых соревнований. Эти сборы стали неотъемлемой частью подготовки к Олимпийским играм.

Внедрение программ, направленных на оптимизацию тренировочного процесса, позволило спортсменам развиваться по индивидуальной траектории. Это касается как боксеров, так и представителей других видов спорта. Тренировки стали более нацеленными на улучшение слабых сторон спортсменов и развитие их сильных качеств, что позволило добиться более стабильных и высоких результатов на международной арене.

Еще одним значимым аспектом успеха узбекской сборной на Олимпийских играх стало развитие женского спорта. Узбекистан активно развивает женский спорт, что подтверждается победами на международной арене.

Диёра Келдиёрова стала первой женщиной в истории Узбекистана, завоевавшей золотую медаль на летних Олимпийских играх. Эта победа не только историческая, но и символическая, так как подчеркивает успех стратегии государства по развитию женского спорта. До этого момента женский спорт в Узбекистане не был столь представлен на международной арене, но за последние годы страна добилась значительных успехов в этом направлении.

Успехи узбекских спортсменок, таких как Светлана Осипова в таэквондо и Диёра Келдиёрова в дзюдо, подтверждают растущий уровень женских видов

спорта в стране. Эти достижения мотивируют новых спортсменок и способствуют дальнейшему развитию женского спорта. Еще одним важным фактором стало эффективное планирование соревновательной деятельности спортсменов. Это включало участие в международных турнирах высокого уровня, таких как чемпионаты мира и Азии, которые позволили спортсменам привыкнуть к интенсивности международных соревнований и адаптироваться к требованиям Олимпийских игр.

Узбекские спортсмены принимали участие в престижных международных турнирах, что позволило им улучшить свои результаты и получить необходимый опыт для успешного выступления на Олимпиаде. Эти соревнования стали своеобразными испытательными площадками, где спортсмены могли проверить свои силы перед Олимпийскими играми.

Тренеры сборных разработали четкие и поэтапные программы подготовки, которые позволили спортсменам достичь пика физической формы именно к Олимпиаде. Оптимизация соревновательного календаря также сыграла важную роль, так как спортсмены получили возможность постепенно увеличивать нагрузку и достигать максимальных результатов.

Еще одним аспектом успеха на Олимпиаде стал прогресс в командных видах спорта. Впервые в истории сборной Узбекистана по футболу среди юношей до 23 лет квалифицировалась на Олимпийские игры. Это является результатом долгосрочной стратегии по развитию футбола в стране, которая включает не только инфраструктурные изменения, но и улучшение системы подготовки молодых спортсменов.

Выводы. Таким образом, успех узбекских спортсменов на Олимпийских играх 2024 года в Париже можно рассматривать как результат системного подхода к развитию спорта в стране. Ключевыми факторами этого успеха стали:

- масштабные реформы в спортивной инфраструктуре.
- привлечение международных специалистов и сотрудничество с ведущими спортивными школами мира.
- индивидуализация тренировочного процесса.
- успешное развитие женского спорта.
- поддержка командных видов спорта и развитие молодежного спорта.

Эти факторы в совокупности обеспечили Узбекистану высокий уровень конкурентоспособности на международной арене, а спортсменам — возможность реализовать свой потенциал и добиться высоких результатов.

Результаты Олимпийских игр 2024 года показали, что успех узбекских спортсменов стал возможен благодаря комплексному подходу к развитию спорта. Масштабные реформы, проведенные в спортивной сфере, сыграли ключевую роль в достижении высоких результатов. Особое внимание было уделено индивидуальной подготовке спортсменов, развитию женского спорта и привлечению международных специалистов.

Успех сборной Узбекистана на Олимпийских играх 2024 года является результатом системного подхода к развитию спорта в стране. Внедрение передовых методик тренировок, развитие международного сотрудничества и создание благоприятных условий для спортсменов позволили достичь исторических успехов. Для дальнейшего прогресса Узбекистану следует продолжать развивать спортивную инфраструктуру, расширять международное сотрудничество и

поддерживать молодые таланты, что позволит стране и арене.
дальше укреплять свои позиции на мировой спортивной

ЛИТЕРАТУРА

1. dunyo.news/ru
2. CA-news
3. senat.uz/ru
4. uza.uz/uz
5. olympics.com.
6. gazeta.uz/ru/



UDK:51.37-3

Muxabbat SHAROPOVA,
Qarshi davlat universiteti professori
Nilufar OKBAYEVA,
QarshiDU katta o'qituvchisi
E-mail: oqboeva@internet.ru
Rano ABDIRAHMONOVA,
QarshiDU katta o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti professori A.Jabborov taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM TALABALARIGA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI O'QITISHDA AXBOROT VA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Bugungi kunda matematika ta'limiga ijodiy yondashish talabalarga kasbga yo'naltirish, kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini beradi. Dunyoda texnologik jihatdan rivojlangan mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun talabalar matematikadan chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Ma'lumki, matematikada masalalarni yechish orqali ijodkorlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. Matematika darslarida ilg'or o'qitish texnologiyalaridan foydalanish dars sifatini oshiradi. Shuningdek, mustaqil rivojlanish yo'lidan ilgarilab borayotgan mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishning, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish, ilg'or pedagogik va yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim samaradorligi va natijadorligini oshirishning ijobiy natijalari haqida.

Kalit so'zlar: kombinatorika, metodika, o'qitish texnologiyasi, interfaol texnologiya, to'plam, kombinatsiya, element, o'rin almashtirish, guruhlash, axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, operatorlar, dasturlash tillari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ КОМБИНАТОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Аннотация

Творческий подход к математическому образованию сегодня дает учащимся карьерно-ориентированные профессиональные навыки решения проблем. Чтобы быть конкурентоспособными на технологически развитом мировом рынке труда, студенты должны иметь глубокие знания математики. Известно, что в математике больше возможностей развивать творческие способности и творческое мышление посредством решения задач. Использование передовых технологий обучения на уроках математики повышает качество уроков. В данной статье представлена информация об использовании информационных и интерактивных технологий при обучении студентов вузов элементам комбинаторики, основным правилам и понятиям комбинаторики в математике. Также отмечены положительные результаты реформирования и совершенствования системы непрерывного образования, поднятия ее на новый уровень качества, внедрения передовых педагогических и новых инновационных современных информационных технологий, повышения эффективности и результативности образования в нашей стране, идущего на новый уровень. путь самостоятельного развития.

Ключевое слово: Комбинаторика, методика, технология обучения, интерактивная технология, множество, сочетание, элемент, перестановка, группировка, информационные технологии, база данных, операторы, языки программирования.

USE OF INFORMATION AND INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING COMBINATORY ELEMENTS TO HIGHER EDUCATION STUDENTS

Annotation

A creative approach to mathematics education today provides students with career-oriented, professional problem-solving skills. In order to be competitive in the world's technologically advanced job market, students must have a deep knowledge of mathematics. It is known that in mathematics there are more opportunities to develop creativity and creative thinking through problem solving. The use of advanced teaching technologies in mathematics lessons increases the quality of lessons. This article provides information about the use of information and interactive technologies in teaching elements of combinatorics to university students, the basic rules and concepts of combinatorics in mathematics. Also, the positive results of reforming and improving the continuous education system, raising it to a new level of quality, introducing advanced pedagogical and new innovative modern information technologies, and increasing the effectiveness and efficiency of education in our country, which is advancing on the path of independent development. about.

Key words: Combinatorics, methodology, teaching technology, interactive technology, set, combination, element, substitution, grouping, information technology, database, operators, programming languages.

Kirish. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda, uning ta'limda qo'llanilishi va foydalanilishi bugungi kun talabiga aylanmoqda. Zamonaviy, shu bilan birga yangi axborot texnologiyasini yaratish, uni amaliyotga joriy etish, yangi texnologiyaning qanchalik foydali va samarali

ekanligini ko'rsatib berish uchun katta bilim talab etiladi. So'nggi paytlarda axborot muhiti juda o'zgardi. Bu o'zgarishlar qog'ozsiz texnologiyaga ehtiyoj tug'diradi. Bu esa o'z navbatida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishiga olib keladi. Kelajakda axborot muhiti inson hayotida muhim

rol o'ynashi uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar ko'lamini kengaytirish zarur. Shuning uchun zamonaviy kompyuterlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida ijtimoiy faoliyatni qayta qurish, rivojlantirish va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqa sohalarda inson tafakkurining kengayishi axborot muhitining sifat va miqdor jihatidan o'zgarishiga, yangi axborot muhitining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Bugun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni uzluksiz ta'lim va tarbiyalash jarayonining butun jarayonini qamrab olgan yagona ta'lim tizimidir. Matematika insoniyat tarixida uzoq vaqtdan beri turli hayotiy muammolarni hal qilish uchun ishlatilgan. Inson amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq oddiy hisob-kitoblar va o'lchovlar amalga oshirilgan. Berilgan ob'ektlardan ma'lum shartlarni qanoatlantiradigan kombinatsiyalar tuzishni o'rgatadigan matematika bo'limi kombinatorika deb ataladi. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning o'rganishda kombinatorika talabalarining ushbu fanlar bo'yicha qiziqishining asosiy sabablaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. B.Abdullayeva, S.Alixonov, M.Barakayev, G.Zlotskiy, J.Ikromov, M.Tojiyev, N.Toyloqov, T.Tolaganov, D.Yunusova, N.Gaybullayevlar matematika kursining matematik analiz asoslari bo'limining mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. T.A.Azlarov, Sh.Alimov, N.Dilmurodov, N.Jabborov, T.J.Jorayev, A.Sadullayev va boshqalar tomonidan matematik analiz asoslarini o'qitish va darslarni tashkil etish bo'yicha bir qator darsliklar yaratildi. A.Abdudodirov, M.Aripov, A.Abdixamedov, O.Musirmonov, A.Nasimov, A.Normatov, A.Yunusovlarning akademik litseylar uchun matematika darsliklari yaratish, matematika ta'limi sifatini oshirish va akademik litseylarda matematika o'qitishning xususiyatlari va muammolarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. Akademik litseylarda matematika o'qitishning xususiyatlari va muammolari bo'yicha B.Ziyomuhamedov, A.Bakirova, U.Ibragimov, A.Saipnazarov, A.Sultonova va O.Tolipovlar tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Kombinatorika elementlari allaqachon maktab matematika kursida o'qitilgan (bunda kombinatorika elementlari o'quvchini jalb etishga qaratilgan). Biroq, o'quv dasturida matematik ilovalar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kombinatorika elementlarini o'rganish asosi sifatida ko'rib chiqilmagan. Shu sababli, keyinchalik maktabda kombinatorika elementlari o'qitilmadi. Bizning modernizatsiya qilingan ta'lim tizimimiz matematikaning yangi mazmunini yaratish va uni o'rganish uchun zamonaviy usullardan foydalanishni talab qiladi.

XVII asrda kombinatorika ehtimollar nazariyasining rivojlanishi bilan bog'liq holda mustaqil fan sifatida shakllandi.

Kombinatorika elementlari bo'yicha asosiy bilimlar maktab matematika kursidan boshlab matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limlarida fundamental va amaliy ilova sifatida keng qo'llaniladi. Shuning uchun, matematikaning kombinatorik elementlari va Nyuton binomial bo'linishi nafaqat matematika sohasidagi tadqiqotchilar uchun, balki psixologiya, iqtisodiyot, moliya va boshqa sohalardagi tadqiqotchilar uchun ham muammolarning matematik modelini qurish va natijalar olishning asosiy mezonlari bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu bo'lim fanlararo aloqalar zanjiri deb ham ataladi. Masalan, fizika-matematika fanlari doktori A.A.Imomovning ilmiy ishlari va ilmiy loyihalari [11,14].

Tadqiqot metodologiyasi. Matematika fanining o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, ushbu fanning

xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatlardan biri shuki, algebraik geometriya elementlari arifmetik material bilan bir vaqtda o'rganiladi. Matematikaning elementar kursining yana bir farqli xususiyati nazariy va amaliy masalalarning birgalikda ko'rib chiqilishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlarni kiritish bilan birga amaliy ko'nikmalar ham rivojlantiriladi. Mashhur olim J. Ikromov o'zining "Matematika tilini o'rgatish" kitobida "Ta'limda o'quvchilarning matematik madaniyatini shakllantirish bir necha davrlarga bo'linadi" deb ta'kidlaydi. Avvalo, ular ob'yektiv tushunchalar - matematik haqiqatning mazmunini aniqlaydilar. Ob'yektlarning aniqlik xususiyatlari va tarixiy jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyatga ega. Agar biz matematik haqiqat iborasiga e'tibor bersak, bu haqiqatni faqat o'quvchilar hayotiy jarayonda matematik hisob-kitoblarning ahamiyatini bilganlarida, ya'ni kundalik hayot bilan bog'liq misollar va masalalarni bevosita bajarganlarida his qilamiz. Shuning uchun matematika o'qitishni kundalik hayot bilan bog'liq holda tashkil etish o'quvchilar faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Kundalik hayot misollariga asoslanib, o'quvchi matematik bilimlarni nafaqat o'zlashtirilgan bilim sifatida, balki hayotiy zaruriyat sifatida egallash kerak degan xulosaga keladi. Odatda darsda bir nechta didaktik materiallar mavjud: yangi materialning o'tishi; o'tilgan materialni mustahkamlash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustahkam o'qitish va ko'nikmalarni shakllantirish va hokazo. Matematika darslarining yana bir xususiyati o'quv materialining mavhumligidir. Shuning uchun ko'rgazmali qurollar, faol o'qitish usullarini puxta tanlash, o'quvchilarning faolligi, o'quvchilarning sinfdagi o'zlashtirish darajasi va hokazolar muhimdir.

Matematika masalalarini yechish matematika o'qitishning muhim qismidir. Masalalarni yechmasdan turib matematikani o'zlashtirish mumkin emas. Matematika masala yechish nazariyasini amaliyotga tatbiq etishning muhim usulidir. Oddiy masalalar o'quvchilarga murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni beradi. Masalalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun foydali vosita bo'lib, odatda ma'lum bilimlarni o'z ichiga oladi. Bu bilimlarni izlash masala yechuvchidan tahlil va sintezga, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarga mustaqil murojaat qilishni talab qiladi. Masalalarni yechishda matematikaga qiziqish rivojlanadi, umuman, mustaqillik, erkinlik, qat'iyatlilik, mehnatsevarlik, maqsadga intiluvchanlik rivojlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da oliy ta'limda fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, olgan ilmiy bilimlarini ta'lim va hayot bilan mustahkam bog'liqligini ta'minlash, dunyoqarash, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, estetik didni shakllantirishga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan.

Bu ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun talabalar, ayniqsa matematika yo'nalishidagilar, darsga tayyorgarlik ko'rishda ilmiy asoslanganlik bilan birga milliy g'oya va nazariyalarni mas'uliyat bilan o'rganishlari zarur.

Axborotni qayta ishlash imkoniyatlarini oshiradigan zamonaviy texnologiyalar bilan insonlarni jihozlash axborot sanoatining jadal rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biridir. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish axborotning sifatini, uning aniqligini, ob'yektivligini, tezligini ta'minlaydi va natijada o'z vaqtda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim olayotgan talaba yoki o'quvchi uchun bir qator imkoniyatlar borligini anglatadi.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng dolzarb talablardan biri bo'lganligi sababli, bugungi kun o'qituvchisidan kompyuter savodxonligidan xabardor bo'lish, matbuot va internet yangiliklaridan boxabar

bo'lish, tinmay ishlash va zamondan ortda qolmaslik talab etiladi. Aks holda, bugungi qiziquvchan va aqlli o'quvchi kompyuter savodxonligi bo'yicha o'qituvchilardan oldinga o'tib ketishi mumkin.

Ko'pgina amaliy masalalar to'plam elementlari ustida turli guruhlashlar, harakatlar va hokazolarni talab qiladi. Matematikaning bu muammo bilan shug'ullanadigan tarmog'i kombinatorika deb ataladi.

Matematikani o'rganayotganimizda ko'pincha turli xil to'plamlar va ularning kichik to'plamlari bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bular jumlasiga ularning har bir elementi o'rtasidagi munosabatni topish, ma'lum xususiyatga ega bo'lgan to'plamlar sonini yoki ularning qismlar sonini aniqlash kiradi. To'plamlar va ularning bo'linmalarining usullari va miqdorlarini o'rganadigan fan kombinatorika deb ataladi. Kombinatorika asosan XVII-XIX asrlarda mustaqil fan sifatida shakllandi va uning rivojlanishiga B.Paskal, P.Ferma, G.Leybnis, Ya.Bernulli, L.Eyler kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. Kombinatorikaning asosiy savoli "qancha?", asosiy muammosi esa berilgan chekli miqdordagi ob'ektlarning u yoki bu shartga bo'ysunadigan turli kombinatsiyalarini sanashdir. O'rganilayotgan hodisalarning matematik modeli kombinatorika yordamida tuziladi. Ma'lumki, biror hodisa ehtimolini topish matematik formulalar orqali ifodalaniadi. Bu o'rganilayotgan jarayon (hodisa)ning matematik modelidir. Biror hodisa ehtimolini o'rganishda avvalo kombinatorika tushunchasini kiritish zarur. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning o'rganishda kombinatorik masalalar talabaning bu fanlarga qiziqishini uyg'otadigan asosiy sabablardan biridir.

Qo'shish qoidasi: Agar A va B kesishmaydigan to'plamlar bo'lsa, bu to'plamlarning birlashmasiga tegishli elementlar soni ularning har biridagi elementlar soniga teng. Agar a ob'ektni n usul bilan, b ob'ektni m usul bilan tanlash mumkin bo'lsa va bu usullar turlicha yoki bog'liq bo'lmasa, a yoki b ob'ektni tanlash n + m usul bilan amalga oshirilishi mumkin [1].

Ko'paytirish qoidasi: Agar a_1 element n_1 usul bilan, a_2 element n_2 usul bilan tanlansa va hokazo, oxirida a_k element n_k usul bilan tanlansa, (a_1, a_2, \dots, a_k) kortejni $n_1 \times n_2 \times \dots \times n_k$ usul bilan tanlash mumkin.

Matematika o'qitishning yangi texnik vositalari, shu jumladan kompyuter va boshqa axborot texnologiyalari jadal joriy etilayotgan hozirgi davrda fanlararo integratsiyani

ta'minlash maqsadida informatika yutuqlaridan foydalanish eng dolzarb masalalardan biridir [8]. Ko'p hollarda, professional matematikdan o'z kasbi bilan bir qatorda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilish talab etiladi, chunki yuzaga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlik bilan yechish kerak bo'ladi. Quyidagi misollar va masalalarni kompyuter multimediyasi yordamida tushuntirish foydali bo'lardi. Chunki o'qitishning bu usuli tasavvur qilish qiyin bo'lgan materiallarda tasavvurni tushunishga imkon beradi.

Elektron taqdimot – dars jarayonida slaydlardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish o'qituvchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'quv materialining elektron taqdimotida animatsion materialning taqdim etilishi talabalar tomonidan mavzuni o'zlashtirishni osonlashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish qilinadigan slaydlar talabalarga tarqatma material sifatida ham berilishi mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish kerak.

Xulosa. Yoshlarning bilim va iste'dodlarini chuqurlashtirish, ularning O'zbekistonni malakali kadrlar sifatida yanada rivojlantirishda ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, bunga javoban biz bilim va ishimizni amalga oshirishda samaradorlik va natijadorlikka e'tibor qaratamiz. Bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri oliy ta'lim talabalari uchun kombinatorika elementlariga oid ba'zi masalalarning yechimini chuqur o'rgatish va modellashtirish usullarini takomillashtirishdir.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, axborot muhiti va mehnat bozorida yuzaga kelgan vaziyat natijasida reproduktiv ta'lim tizimi zamon talablariga javob bermay qoldi. Bu esa matematika o'qitishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi [15]. Xulosa o'rnida bir fikrni aytmog'chiman: kimdir matematikani bilsa, sevsa, tafakkuri kengayadi, hayotda qoqilmaydi. Matematika aqlni rivojlantiradi, diqqatni rivojlantiradi, maqsadga erishish uchun iroda va qat'iyatni rivojlantiradi, shuning uchun matematika har qanday kasb uchun suv va havo kabi zarurdir. O'lchov va hisob-kitoblarsiz inson faoliyatining biron bir sohasi yo'q. Hatto matematikani yaxshi biladigan o'quvchi ham boshqa fanlarni bemalol o'zlashtirib oladi.

REFERENCES

1. Alfutova, N. B. Algebra and theory number: Sbornik zadach dlya matematicheskix shkol / H. B. Alfutova, A. V. Ustinov. M., 2002.
2. Alimov Sh.O., Kolyagin Y.M., Sidorov Y.V., Fedorova N.E., Shabunin M.I. Algebra, Textbook for 8th Grade, T. Teacher, 1996 300 pages.
3. Abduxamidov A. U., Nasimov H. A., Nosirov U. M., Xusanov J. H. Fundamentals of Algebra and Mathematical Analysis Part 2, For Academic Lyceums textbook, T. Teacher, 2003
4. Adler, Irving / Mathematics Doubleday, 1990.
5. Bezdudnyy F. F., Pavlov, A. P. Mathematical methods of modeling in the planning of textile and light industry. Light industry. - M., 1979.
6. Berenskaya E. V., Berejnoj V. I. Mathematical methods of modeling economic systems, M: Finance and statistics. - M., 2001.
7. Vilenkin, N.Y. Induction. Kombinatorika: posobie dlya uchiteley / H. Y. Vilenkin. M. : Prosveshchenie, 1976. 47 p.
8. Vilenkin, N.Y. Kombinatorika: posobie dlya uchiteley / N.Y. Vilenkin. M.: Prosveshchenie, 1969. 247 p.



UDK: 378:004.06

Dilnoza SHOKIROVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shoxruxturdiyev77@gmail.com

Qmii professori, p.f.d Z.E. Chorshanbiyev taqrizi asosida

THE THEORY OF SELF-DEVELOPMENT IN THE USE OF INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES BY PEDAGOGUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.

Annotation

This article reveals the theoretical aspects of self-development and improvement in order to use innovative ideas and technologies for current pedagogues in the organization of the modern educational process, as well as methods and ways to bring education to a new level by increasing student knowledge. have been thoroughly thought about. Also, the ways of improving traditional teaching methods with the help of modern methods in the educational process, the theoretical basis of combining traditional teaching methods with new modernization methods have been mentioned.

Key words: Innovative, pedagogical, knowledge, skills, improvement, technology, methods, competitive, Internet, modernization, education, visualization.

ТЕОРИЯ САМОРАЗВИТИЯ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПЕДАГОГАМИ ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические аспекты саморазвития и совершенствования с целью использования инновационных идей и технологий современных педагогов в организации современного образовательного процесса, а также методы и способы вывода образования на новый уровень путем повышения обучаемости. знания были тщательно продуманы. Также были упомянуты пути совершенствования традиционных методов обучения с помощью современных методов в образовательном процессе, теоретические основы сочетания традиционных методов обучения с новыми методами модернизации.

Ключевые слова: Инновационные, педагогические, знания, умения, совершенствование, технологии, методы, конкурентоспособность, Интернет, модернизация, образование, визуализация.

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNI INNOVATSION G'OYA VA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda hozirgi pedagoglarni innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llashi uchun o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish nazariy jihatlarini ochib berilgan hamda shu orqali talabalar bilimini oshirish ta'limni yangi bosqichga olib chiqish usullari va yo'llari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida zamonaviy usullar vositasida an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llari, an'anaviy o'qitish usullarini yangi modernizatsiya usullari bilan uyg'unlashtirish nazariy asoslanganligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion, pedagogik, bilim, ko'nikma, takomillashtirish, texnologiya, usullar, raqobatbardosh, internet, modernizatsiya, ta'lim, vizualizatsiya.

Kirish. Yangilik kirituvchi yoki innovatsion g'oyaga ega bo'lgan muhandisning kasbiy faoliyati o'ziga xos bo'lganligi sababli, u tabiiy tadqiqot qilish, ularni tahlil qilish va ularni amalga oshirishda boshqalarga o'rnak hisoblanadi. Bu innovatsion g'oyaga ega bo'lgan muhandisning shakllantirish, alohida pedagoglarning ilg'or pedagogik tajribasiga tayanadi. O'qitish jarayonining xilma-xilligiga qaramay didaktik, dasturlashga asoslangan, muammoli, modulli va boshqa yetakchi innovatsion pedagogik tajribalar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion pedagogik yangilik, o'zgarish, degan ma'noni, innovatsion vosita va jarayon sifatida esa yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish tushuniladi.

Pedagogik faoliyatda turli xil o'qitish usullari mavjud, masalan, eng ko'p tarqalgan usul bu an'anaviy o'qitish usullaridir. An'anaviy darsga misol keltiraylik: "dars odatdagidek boshlandi: to'rt-besh talabadan o'tgan darsni aytib berishini so'raymiz, bu dars vaqtining yarmidan ko'pini oladi. Bitta talaba hisobot tayyorlasa, yana 20-25 talaba vaqtini behuda o'tkazib yuboradi. Bunday usul qandaydir bir

yoki ikki nafar talabani eshitish orqali yakun topadi va ko'pgina boshqa talabalar e'tibordan chetda qoladi va qolgan talabalar uchun dars zirikarli bo'lib qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raevlar innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qollashda innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalash-tirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari hamda o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish, o'qitish samaradorligini oshirishdagi o'rni va roli haqida tadqiqot ishlarini olib borishgan [1].

Ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar fikriga ko'ra bu usullarni aslida individual mashg'ulotlarda qo'llash samarali deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadiki individual ta'limning maqsadi o'quv jarayoni hamda talabalarning fikrlash qobiliyatining rivojlanish darajasi xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish metodikasi va usullarini tanlash, samarali kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishning

zamonaviy usullarini joriy etish orqali tashkil qilish muhim sanaladi.

Ma'lumki, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha sohalarini samarali boshqarish va tashkil etish inson ongi va ijodiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Bu vazifa talabalarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning ijodiy va aqliy faolligini rivojlantirishdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Bu yo'nalishlar mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimida yillar davomida to'plangan ilg'or pedagogik tajribalar va bugungi kundagi innovatsion o'qitish usullaridan keng foydalanish orqali takomillashtirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida zamonaviy usullar vositasida an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilmoqda. Masalan, o'qitishning katta qismi zamonaviy o'qitish texnologiyalari yoki ta'lim sohasida kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali olib borilayotgan bo'lsa-da, ularning barchasi an'anaviy o'qitish usullari va yangi modernizatsiya usullari uyg'unligini ko'rsatadi. Shu bois ta'limni talabalarining qobiliyati va qiziqishiga qarab individuallashtirish zarurati tug'iladi. Bugungi kunda sifatli ta'limni amalga oshirish pedagogdan ko'p narsani talab qiladi. Ammo u bu muammodan kompyuter dasturlari va turli pedagogik texnologiyalar yordamida chiqib keta oladi. Bu davrda o'qituvchining vazifasi talabalarga tayyor bilim berishdan tashqari, bilimlar bazasidan bilim olish yo'llarini o'rgatish va uni mustaqil ta'lim olish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

O'quv jarayonida e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan asosiy masalalardan biri bu darsliklar va o'quv dasturlari o'rta bilimli talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzilganligidir. Bunda o'zlashtiruvchi yomon bo'lgan talabalar o'quv materialining mazmunini o'zlashtira olmaydi, aksincha, yaxshi o'zlashtirgan talabalar uni tez o'zlashtirib, qolgan vaqtlarda bo'sh qoladilar. Agar o'qituvchi talabalarining kuchli va zaif tomonlarini to'g'ri aniqlab, tegishli uslubiy yordam ko'rsatsa, barcha talabalar yaxshi o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, pedagog qanchalik ko'p o'qisa, har bir dars haqida ko'proq fikr yuritadi va uni talabani xatti-harakati bilan solishtiradi hamda talabani tafakkurini kuzatish bilan birga ko'p bilim olishga o'rgatadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida savollar va javoblar qanchalik ko'p bo'lsa talabani fan mavzularini o'zlashtirishi oson bo'ladi[4].

An'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va dasturlaridan foydalanishda o'qituvchi va talabani mehnati bir-biridan mustaqil bo'lib, ular birgalikda ko'proq ishlarni amalga oshiradilar. Kompyuterda ishlash jarayonida talaba o'z oldiga shaxsiy maqsad qo'yadi va mustaqil ishlaydi. Bu vaqtda talabani kognitiv boshqaruv faoliyati yaqqol ko'rinadi[7]. Ta'lim jarayonida kompyuterlardan foydalanishga asoslangan zamonaviy o'qitish usullari, bir tomondan, o'quv ma'lumotlarini qayta ishlash, vizualizatsiya qilish va o'lchashga, ikkinchi tomondan, texnik yoki axborot vositalaridan maqsadli foydalanishga qaratilgan usul va vositalar to'plamidir. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan talabani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Talabalarining bilim saviyasini oshirishda o'tgan mavzu bo'yicha olgan bilimlarini puxtalik bilan tekshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, har bir darsda zamonaviy talabalar asosida ta'limning yangi texnologik elementlaridan foydalanish samaralidir. Bunda o'qitish texnologiyasining hozirgi paytda asosiy besh darajasini qayd etish mumkin:

- ta'limiylik;
- algoritmik;
- evristik;

- ijodkorlik;
- innovatsion.

Hozirda zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogdan ilg'or fikrlay olish, faol va ko'p qirrali bo'lishni talab qiladi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yetuk, barkamol va raqobatbardosh, malakali mutaxassislarni talab qiladi. Malakali pedagog, bilimli mutaxassis bo'lish uchun har doimo o'z ustida ishlashi, ko'nikmalarini oshirib borishi, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirishi va uni mahorat bilan dars jarayoniga qo'llay olishi lozim[6].

Pedagogning ishi juda harakatchan, murakkab va ko'p qirraliligi bilan farqlanadi, chuqur va professional bilim va ko'nikmalarni taqozo etadi hamda pedagogning o'z-o'zini tarbiyalash doirasidan tashqarida shaxsiy va kasbiy rivojlanishi mumkin emas[5].

Pedagogning kasbiy faoliyatdagi ijodkorligi uning har tomonlama bilimi va kasbiy mahoratiga asoslanadi, yangi o'qitish usullarini o'zlashtirib, dars jarayonida qo'llashi bilan qiyoslanadi. O'z ustida ishlab, o'zini o'zi rivojlantiradigan pedagog innovator pedagogdir.

O'z-o'zini takomillashtirish – bu o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganish jarayonidir.

Pedagog o'z-o'zini tarbiyalash uchun quyidagi maqsadarni oldiga quyishi kerak:

-ta'lim va tarbiya usullarini takomillashtirish va kengaytirish maqsadida umumiy pedagogik va psixologik bilimlarni takomillashtirish va kengaytirish.

-o'z predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish.

-ilg'or pedagogik tajriba va pedagogika fanining yutuqlarini o'zlashtirish.

-o'qituvchining umumiy malakasi va bilim darajasini oshirish.

-uslubiy mavzu o'qituvchilarning ish rejasida ochib berilishi va boshqalar.

Pedagogning o'z-o'zini takomillashtirish bilan bog'liq omillar quyidagilardir:

- kundalik ma'lumotlar bilan ishlash; (Masalan, internet bilan ishlashi, tegishli adabiyotlar bilan ishlashi, oliy ta'limdagi yangi ma'lumotlarni tahlil qilish talabalarga ma'lumot izlashni va undan foydalanishni ularga o'rgatish va boshqalar.)

- ijodiy ilhomlanishi;

- fanning tez rivojlanishi;

- ta'limdagi o'zgarishlar va uning rivojlanishi;

- raqobat (hamkorlar o'rtasidagi raqobat);

- jamoatchilikning munosabati, uning atrofidagi odamlarning u haqidagi fikrlari;

- moddiy rag'batlantirish;

- qiziqish va hokozolar.

Pedagogning o'z-o'zini tarbiyalashi va takomillashuvini talab qiladigan asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- kasbiy (mavzu bo'yicha tayyorgarlik);

- psixologik-pedagogik (talabalar va ota-onalarga rahbarlik qilish);

- psixologik (tasvir, fikrlash, yetakchilik fazilatlarini);

- metodika (pedagogik texnologiyalar, o'qitish usullari, shakllari);

- yuridik;

- estetik;

- tarixiy;

- chet tillari;

- axborot va kompyuter texnologiyalari;

- qiziqishlar, sevimli mashg'ulotlar va hokozolar.

O'z-o'zini rivojlantirishning asosiy nuqtasi bu o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida pedagog ma'lumotlardan turli xil usullarda foydalanadi, ta'lim manbalaridan ma'lumot olib,

olingan ma'lumotlardan darsda yoki amaliyotda foydalanishidir[8].

Yuqoridagolardan kelib chiqib olingan bilim manbalari shaxsiy va kasbiy o'sishga hissa qo'shadigan quyidagi bilim manbalariga bo'linadi.

O'z-o'zini tarbiyalash manbalari:

- seminarlar va konferensiyalar;
- mahorat darsi;
- tajriba almashish bo'yicha tadbirlar;
- malaka oshirish kurslari;
- ochiq darslarda qatnashish;
- ekskursiyalar, teatrlar, muzeylar, konsertlar,

gazetalar, jurnallar;

- adabiyot (uslubiy, ilmiy, badiiy);
- internet.
- pedagogning shaxsiy o'zini o'zi tarbiyalash rejasi.

O'z-o'zini rivojlantirish shakllarini ikkiga bo'lish mumkin:

- individual;
- guruh.

Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismlari:

Aslida pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonidagi faoliyati bu o'qish, o'rganish, tadqiqot, tahlil, kuzatish va yozish ekanini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Pedagogning kasbiy faoliyatida quyidagi jihatlarni qayd etish o'rinli deb hisoblaymiz:

birinchidan - yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim usullarini o'rganish va ulardan foydalanish;

ikkinchidan - hamkasblar darslarida qatnashish, tajriba almashish;

uchinchidan - o'z pedagogik ijodini tizimli ravishda tahlil qilish;

to'rtinchidan - zamonaviy psixologik-pedagogik sohadagi bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish;

beshinchidan - mamlakatimizdagi ta'lim sohasidagi siyosat, madaniyat, hamda iqtisoddagi yangiliklardan xabardor bilimini oshirish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metedik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
3. Турдиев, Ш. Р. (2019). Таълим жараёнини тизимли ёндашув асосида педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этиш. Современное образование (Узбекистан), (12 (85)), 31-36.
4. Shadiev R. D., Turdiyev S. H. Basic didactic principles of building an integrated system of training to innovation engineering //Знание. – 2016. – №. 4-4. – С. 87-89.
5. Турдиев Ш. Р., Келдиёрова М. Г. Личные и профессиональные особенности учителя //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 6-1 (151). – С. 67-72.
6. Турдиев, Ш. Р. "STEAM фанлар таълими ва интеграциясини юзага келиши модели." Academic research in educational sciences 3.4 (2022): 571-575.
7. Turdiev, Shokhrux R. "Forming Innovative Abilities of Students in Engineering and Research." Eastern European Scientific Journal 1 (2017).
8. Турдиев Ш.Р. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference 2021/11/11 P.181-183 Издатель Berlin.



UDK:378

Gulruxsor ERGASHEVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail: flowerface0706@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.n S.Adilova taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF TEACHING UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE TO PRIMARY AND SECONDARY LEVEL LANGUAGE LEARNERS

Annotation

The article contains information about the peculiarities of teaching Uzbek as a foreign language, the levels of language teaching, age groups of learners and their characteristics. There are examples of topics in lessons with recommendations on the differences in language teaching to foreigners at A2 and B1 levels, the structure of lessons and how to develop language aspects.

Key words: Language teaching, language skills, level, assessment, language teaching program, aspects of language teaching.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК НАЧАЛЬНОГО И СРЕДНЕГО УРОВНЯ

Аннотация

В статье содержится информация об особенностях преподавания узбекского языка как иностранного, уровнях преподавания языка, возрастных группах обучающихся и их характеристиках. Представлены образцы тем уроков, а также рекомендации по различиям в преподавании языка иностранцам на уровнях A2 и B1, структуре уроков и способам развития языковых аспектов.

Ключевые слова: Обучение языку, языковые навыки, уровень, оценка, программа обучения языку, аспекты преподавания языка.

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA BOSHLANG'ICH VA O'RTA DARAJADAGI TIL O'RGANUVCHILARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Аннотация

Maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning o'ziga xosliklari, til o'qitish darajalari, o'rganuvchilarning yosh guruhlari va ularning xususiyatlari haqida ma'lumot keltirilgan. A2 va B1 darajadagi xorijliklarga til o'qitishdagi farqlari, darslarning tuzilishi va til aspektlarini qanday rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan darslardagi mavzular bo'yicha namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Til o'qitish, til ko'nikmalari, daraja, baholash, til o'qitish dasturi, til o'rgatish aspektlari.

Kirish. Dunyodagi turli iqtisodiy, siyosiy, demografik, psixologik va madaniy vaziyatlar tufayli til o'qitish va o'rgatish masalasi oxirgi 30 yillikda yanada dolzarblashdi. Bunday sharoitda endi rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat tilini saqlab qolish, turli kurashlar maydonida bu tillarning yo'qolib ketish xavflarini bartaraf etish muhimdir.

Ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida xorijiy tilni o'qitish, o'rgatish va baholash, xorijiy til o'rgatish kompetensiyasini rivojlantirish, samaradorligini oshirish, interfaol ta'limni mediateknologiyalar asosida tashkil etish, kompyuter lingvodidaktikasini rivojlantirish, til portfoliosi texnologiyasini ta'lim amaliyotiga ommalashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitilishi jarayonini modernizatsiyalashni, o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini o'zbek madaniyatiga hamohang tarzda olib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda o'zbek tilini ona tili, davlat tili sifatida maqomini mustahkamlash, xorijiy til va ikkinchi til sifatida o'qitish borasida so'ngi 10 yillikda qonun qarorlar qabul qilish (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-sonli farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-

yl 29 - oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari), bu boradagi ishlarning yanada jadallashishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili jamg'armasi, Davlat tilini rivojlantirish va malaka oshirish departamenti va uning viloyat bo'linmalari, yuqori davlat tashkilotlarida davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimining joriy etilganligi, Vatandosh tashkiloti faoliyatining takomillashtirilganligi, xorijdagi vatandoshlar bilan turli tanlovlar tashkil etilayotganligi, ularning farzandlariga o'zbek tilini o'rgatish maqsadida turli platformlar, dasturlar ishlab chiqilayotganligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. So'ngi yillarda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganish ta'lim olish, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini olib borish, ishlash, tadqiqot qilish, madaniyatlarni o'rganish va boshqa maqsadlarda ancha rivojlandi. Ayni kunlarda o'zbek tilini turli yoshdagi chet elliklar o'rganmoqda, biz ularni quyidagicha tasniflashni joiz deb topdik.

Maktab yoshidagi xorijliklar (Xorijiy fuqarolarning farzandlari, xorijda yashovchi vatandoshlarimizning farzandlari),

xorijlik o'zga tilli katta yoshdagi vatandoshlar, maktab yoshidagi turkiy til egasi bo'lgan qardoshlar, katta yoshdagi qardoshlar, katta yoshdagi xorijliklar

Tahlil va natijalar. Biz o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda til o'rganuvchilarning yosh xususiyatlarini quyidagicha tasniflashni lozim topdik.

7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

16 yosh va undan katta bo'lgan o'zbek tilini o'rganuvchilar

“O'zbekona” dasturining B1 darajasida o'rganiladigan mavzular

Oilaviy muammolar
Talablik - oltin davrim
Toshkent-non shahri.
Xaridingiz uchun rahmat !
O'lguday ochman !
Tabiatni asrang
Kasbim faxrim
Virtual olam
Yaxshi dam - mehnatga hamdam.
Olimpiada
Texnologiya asri

Grammatika. Bu oyna o'zbek tilining universal grammatikasini osondan qiyinga qarab, til o'rganuvchiga oson va qulay shaklda o'rgatish uchun xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, platformadagi Grammatik mavzular tanlanishida 4 yillik tajriba sinov ishlariga tayanildi.

O'zbekona onlayn oynasida onlayn tashkil etilgan darslar joylandi. Shu bilan bir qatorda, keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri onlayn darslarni tashkil etish va natijalarni muhokamasi uchun bog'lanish imkoniyati ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Gapirish. Bu oyna boshlang'ich va o'rta darajadagi gapirish mavzulari va namunalarini o'zi ichiga olgan.

Yozish. Saytdagi barcha ko'nikmalarni rivojlantirish orqali olingan bilimlarni umumlashtirish xususiyatiga ega bu oyna ham boshlang'ich va o'rta darajadagi mavzular va yozish mashqlarini qamrab olgan.

Videolar. Saytda videolar deb nomlangan oyna ham mavjud bo'lib, unda boshlang'ich darajadagi o'zbek tili darslari joylangan. Videolar tinglovchi talabini inobatga olgan holda 3 daqiqadan 8 daqiqagacha davom etadi. Bu esa til o'rganuvchining zerikib qolishini oldini olish bilan bir qatorda, “tez o'zlashtirayman”, “oson ekan” qabilidagi fikrlar paydo bo'lishi asnosida motivatsiyani kuchaytiradi. Pandemiya davrida o'zbek tili darslari onlayn shaklda olib borildi. Videolar qismida ba'zi onlayn shakldagi darslar ham joylangan bo'lib, bu video-darslar, til o'rganuvchi o'zini jamoada his etishi va qay darajada o'zlashtirayotganini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

7. Madaniyat. O'zbek madaniyatini o'rganishga ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Internet tarmoqlarida o'zbek madaniyatini haqqoniy ko'rsata oladigan manbalar yetarli emas. Bu oynani ham aynan mavjud talabni inobatga olib tashkil etdik. Bu oyna uchun MO'TUL jamoasi[110] a'zolari tomonidan videoroliklar tayyorlanmoqda.

8. Bog'lanish. Bu yacheyka orqali til o'rganuvchi saytga mas'ullarga bog'lanishi va zarur savollarga javob olishlari mumkin. Platformadagi har bir oyna doimiy ravishda boyitib boriladi va o'rganuvchilarning yaxshi o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha oynalar qo'shib boriladi.

“O'zbekona” platformasi andragogik yoshdagi xorijliklar, qardoshlarga uchun o'zbek tilini o'rganish uchun qator imkoniyatlarni yaratib beradi:

- istalgan joyda, istalgan vaqtda o'rganish imkoniyati;
- xohlagan til darajasini o'rganish imkoniyati;
- tizimli til o'rganish imkoniyatini;
- mustaqil va autentik manbalarga asoslangan til o'rganish imkoniyatini;
- o'zbek madaniyati, urf - odatlari bilan tanishish imkoniyatini;
- har bir aspektni chuqurroq yodashuv asosida o'rganish;
- universal grammatikani o'rganish;
- integrativ yondashuv asosida qiziqarli va oson o'rganish imkoniyatini taqdim etadi.

A2 va B1 daraja boshlang'ich va o'rta darajaning oraliq'i hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qituvchidan jiddiy yondashuv talab etiladi. Chunki, bu vaqtga kelib til o'rganuvchining maqsadi aniq ammo motivatsiyani susaytgan bo'ladi. O'qituvchi bu darajalarda o'zbek tili madaniyati bilan tanishtirish madaniyatga oid birliklar, o'zbek tili tarixiga oid turli misollar voqealar, urf-odatlarini tushuntirib berish orqali o'quvchilarni darga qiziqtirib borishi zarur. Tajribamiz davomida shuni aniqladiki, A2 va B1 darajadagi til o'rganuvchilarda o'zbek madaniyati darsi boshqa darslarga qaraganda ancha qiziqarliroq bo'ladi. Bu darjada o'zbek tilining so'zlashuv va yozish uchun zarur bo'lgan grammatikasini o'rgatib borish ham maqsadga muvofiqdir.

Til o'rganish haqida gapirganda CEFR darajalari haqida aniq va to'liq ma'lumotga ega bo'lish zarur. Chunki bu ma'lumotlar, til bilimini baholash uchun bu juda muhim. CEFR bo'yicha til bilimini darajalari butun dunyo tan olgan bo'lib xalqaro tan olingan sertifikatlar shu standartlar asosida yaratiladi. Butun dunyo tan olgan A2 dan B1 ga ko'tarilish uchun CEFRdagi ko'rsatmalarni tushunish va bu 2 darajani farqlash kerak. CEFR da til o'rganuvchilarning til bilimi 6 darajaga ajratiladi: A1, A2, B1, B2, C1 va C2.

A1 boshlang'ich darajani, C2 esa tabiiy til egasining darajasini anglatadi.

A2 da siz o'zbek tilining asosiy tushunchalariga egasiz, lekin B1da siz tildan mustaqil foydalanishga o'ta boshlaysiz. Bu shuni anglatadiki, siz kundalik vaziyatlarning ko'pini hal qila olishingiz, fikr bildirishingiz va mulohaza yuritishingiz kerak. Bu darajada so'z boyligi kengayadi, grammatika murakkablashadi.

O'zbek tilini A2 dan B1 ga oshirish uchun o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini turli sohalarida, jumladan grammatika, lug'at va talaffuz, o'zbek madaniyati, yozuvda rivojlantirishga e'tibor qaratishingiz kerak. Ushbu jihatlarni takomillashtirish orqali o'zbek tilida o'quvchilarning samarali muloqot qilishiga erishish mumkin.

A2 va B1 o'rtasidagi asosiy farqlardan biri grammatikadagi murakkablik darajasidir. A2 da siz hozirgi, o'tgan va kelasi kabi zamonlar bilan tanishsiz, lekin B1 da siz zamonlarni chuqurroq o'rganishingiz, fe'l nisbatlaridan va mayllaridan grammatik kategoriyalardan unumli foydalanishingiz kerak.

Yana bir muhim farq - so'z boyligining kengayishi. A2 darajasida lug'at boyligi cheklangan bo'lsa, B1da siz turli xil so'z va iboralardan foydalanib, fikringizni yanada samaraliroq ifodalay olishingiz kerak.

Bu sizning muloqot qobiliyatingizni oshirish uchun ko'proq sinonimlar, iboralar, maqollar, birikmalar, o'xshatishlarni ni o'rganishni anglatadi.

A2 dan B1 ga o'tishda talaffuz ham yaxshilanishi bilan xarakterlanadi. A2 da sizning talaffuzingizda hali ham sezilarli xatolar va ba'zi tovushlar bilan bog'liq qiyinchiliklar

bo'lishi mumkin. Biroq, B1da siz urg'uni kamaytirish va tabiiyroq va ravonroq ovoz berish ustida ishlashingiz kerak.

Umuman olganda, A2 va B1 o'rtasidagi asosiy farqlar grammatika murakkabligi, so'z boyligini kengaytirish va talaffuzni yaxshilashda yotadi. Ushbu sohalarga e'tibor qaratish va ularni faol ravishda mashq qilish orqali siz o'zbek tili ko'nikmalarini oshirib, A2 dan B1 ga ishonch bilan o'tishingiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilini o'qitishda A2 dan B1 ga o'tish bosqichi muhim

hisoblanib, bunda til o'rganuvchi o'zbek tilining leksik, grammatik va madaniy aspektlari bilan yaqindan tanishadi. Til o'rgatuvchi o'qituvchilar zimmasida xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishga mo'ljallangan barcha darajalarga mos metodik, madaniy bazani yaratish yotadi. Zeroki, til o'rgatish resurslari boy va xilma-xil bo'lsa, o'rgatish jarayoni qulay va oson bo'ladi va shu bilan bir qatorda, o'rganuvchilar soni oshadi bu esa tilning umrboqiyiligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Türkçenin yabancı dil olarak öğretimi programı. Türkiye maarif vakfı. İstanbul, 2020. B.320.
2. The pedagogical knowledge base of four TESOL teachers. *Modern Language Journal* 90/1:48-66. Bartels, N. (ed.). 2005.
3. Richards, J.C. and Rogers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd Edition). Cambridge: Cambridge University Press. 2001.p
4. Amarech A. The Roles of the Teachers and Students in the Integrative Language Teaching Approach and Factors that Affect the Use of the Approach in Actual Classroom: Review Article. ISSN 2224-5766 (Paper) ISSN 2225-0484 (Online) DOI: 10.7176/RHSS, Vol.9, No.15, 2019, p-29.
5. Ergasheva G. Androgogik ta'limda o'zbek tili o'rganuvchi xorijliklar uchun leksik, grammatik, fonetik qobiliyatlarni takomillashtirish masalalari. O'zbekiston milliy universiteti xabarları, 2022, [1/2] ISSN 2181-73-24. УДК: 811.161 (13.00.00; №15)
6. Ergasheva G. Issues of creating online platform for teaching Uzbek as a foreign language. *Academica. An International Multidisciplinary Research journal*. India. 2020. p- 800-806. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 4, April 2020 Impact Factor: SJIF 2020.=7.13. 10.5958/2249-7137.2020.00168.8 <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-APRIL-2020-FULL-JOURNAL.pdf>
7. Kuznetsova Y. Evolution of Foreign Language Teaching Methods. Italy. *Mediterranean Journal of Social Sciences*. 2015. P 248.



UDK:15: 371.044.4(045)

Sayyora ERGASHEVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Psixologiya fanlari doktori B.Jo'rayev taqrizi ostida

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ASSESSING THE PROFESSIONAL ORIENTATION OF THE HEAD OF AN EDUCATIONAL INSTITUTION

Annotation

The article examines the psychological features of assessing the orientation of the head of a comprehensive school towards professional activity. The theoretical and practical aspects of this problem are described, as well as the scientific research carried out by scientists in our country in this direction. The article also provides detailed information about the essence of the activities of educational institution leaders today, and the features of its effective organization.

Key words: Continuing education, school, leader, team, management, activity, professionalism, efficiency, competence, mental activity, interest, emotional state, stress, comfort.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические особенности оценки ориентации руководителя общеобразовательной школы на профессиональную деятельность. Рассказывается о теоретических и практических аспектах данной проблемы, а также о научных исследованиях, проводимых учеными нашей страны в этом направлении. Также в статье представлена подробная информация о сущности деятельности руководителей образовательного учреждения сегодня, особенностях ее эффективной организации.

Ключевые слова: Непрерывное образование, школа, лидер, коллектив, управление, активность, профессионализм, работоспособность, компетентность, умственная деятельность, интерес, эмоциональное состояние, стресс, комфорт.

TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING KASBIY FAOLIYATGA YO'NALGANLIGINI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbarining kasbiy faoliyatga yo'nalganligini baholashning psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Shuningdek, maqolada ta'lim muassasasi rahbarlarining bugungi kundagi faoliyati mazmun-mohiyati, uni samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Uzlüksiz ta'lim, maktab, rahbar, jamoa, boshqaruv, faoliyat, professionalizm, samaradorlik, kompetensiya, psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish, qulaylik.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida bo'lgani singari uzluksiz ta'lim tizimida ham misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bug'uni bo'lib, bugungi kunda uning asosiy vazifasi mamlakatimiz kelajagi bo'lgan o'quvchi-yoshlarni amaldagi davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash, shaxsni ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lmoqda. Maktabning o'quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish esa maktab direktorining lavozim vazifasi hisoblanib, u vakolati doirasida maktabdagi ta'lim-tarbiya ishini tashkillashtirish, maktabning ma'muriy-xo'jalik, moliya-viy ishini ta'minlash, maktabda xavfsizlik texnikasi meyorlari va qoidalariga rioya qilish tartibini yaratish, ularning ishini nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Modomiki shunday ekan, o'zini yetakchi deb hisoblaydigan har bir maktab rahbari jamoani samarali boshqarish uchun maxsus bilim, kasbiy tayyorlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo'lishi, maktabning moliyaviy va iqtisodiy masalalarini to'g'ri va oqilona yecha oladigan, favqulodda yuz bergan mummolarni tezkorlik bilan hal qila oladigan, tobe kishilarni psixologik jihatdan ajrata oladigan, ularning jinsi, yoshi, aqli va jismoniy imkoniyatlariga qarab ishni taqsim qila oladigan darajada bo'lishi kerak.

Bugungi kunda taraqqiyot zamonaviy rahbardan davr bilan baravar qadam tashlash, yangiliklardan cho'chimaslik, yangilik va axborotlarni tez qabul qilish, qayta ishlash va undan o'z o'rinda foydalanish, yangi g'oyalarni yaratish va ularni moddiy mahsulga aylantirish uchun kurashish, chet el ilg'or tajribalari va innovatsion texnologiyalarni o'z pedagogik jamoasida tatbiq etish kabi vazifalarni bajarishni talab qilmoqda. Ta'lim muassasasi rahbari yangi va zamonaviy, dunyoviy bilim va g'oyalarga tashnalikni namoyon qilib, hayotiy muammolarga ijodiy yondashishga harakat qilishi, myayyan loyihalar ishlab chiqishi, yangilikni sinab ko'rishi va uning samaradorligini sarhisob qilishi, o'zi va qo'l ostidagi xodimlarning mahoratini uzluksiz oshirishga intilishi maqsadga muvofiqdir. Bu vazifalarni bajarish esa har bir ta'lim muassasasi rahbaridan professionalizm, o'z sohasini yuqori saviyada bilish, tashabbuskorlik, uddaburonlik, izlanuvchanlik, yangilikka intilish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishlikni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda mamlakat hamda xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish hamda boshqaruv kadrlar kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimiz olimlaridan B.A.Abdullayev, Sh.X.Abdullayeva, D.S.Abdullajanova, K.S.Aliyeva, N.Boymurodov, E.S.Yoziyev, X.A.Kadirova, N.T.Kariyeva, V.M.Karimova, I.I.Maxmudov, A.M.Maxmudov, D.G.Muxamedova, A.S.Nazarov, N.A.Ruziqulov, E.N.Sattarov, O.R.Shamiyeva, A.M. Shonazarov, O.E. Hayitov, E.G'.G'oziyev va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan bo'lib, ularda yuqori malakali rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lg'usi rahbarlarni professional boshqaruv faoliyatiga tayyorlash, saralash, tanlash tadqiqot ishining maqsadi sifatida talqin qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan T.Y.Bazarov, D.Y.Varnavskiy, B.M.Genkin, S.I.Dubov, N.A.Yeroxina, B.A.Jiganov, E.V.Ivanova, F.S.Ismagilova, S.S.Mixeyev, A.V.Nekrasov, A.P.Obuxov, O.I.Orlova, V.P.Ponamarev, N.V.Samoukina, YE.A.Shagayevalar tomonidan turli soha boshqaruv tizimini optimallashtirish, rahbar kadrlar boshqaruv kompetensiyalari va kompetentligi shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq qilingan.

O.E.Hayitov tomonidan "Oliy ta'lim myassasasi o'rtta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish" mavzusida bajarilgan doktorlik dissertatsiyasi oliy ta'lim myassasasi o'rtta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish jarayonidagi kompetensiyalar shakllanishining individual-psixologik, yoshga, jinsga, kasbga oid ijtimoiy-psixologik fazilatlar tizimini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida kompetensiya, kompetentlik masalalariga asosiy urg'u berilgan, turlicha yondashuvlar tahliliga asoslanilgan holda kompetentlik darajalari ko'rsatilgan va kompetentlikni tashkil etuvchi komponentlar (bilimlar majmui, ko'nikmalar, muloqot meyorlari) rahbardagi boshqaruv, shaxsiy va funksional kompetensiyalar rivojlanishining asosi ekanligi to'g'risida xulosaga kelingan. Ilmiy tadqiqot ishida rahbarning psixologik kompetentligini modellashtirish imkoniyatlari empirik jihatdan o'rganilgan. Myallif tomonidan berilgan o'rtta bo'g'in rahbarida psixologik kompetentlikni rivojlantirishning kompleks modelida ustivor kompetensiyalar sifatida 38 ta kompetensiya belgilangan [5].

A.M.Maxmudov tomonidan "Yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari shakllanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishida turli sohalarida boshqaruv faoliyatini olib borayotgan yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari rivojlanishi va shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda yosh rahbarlarda boshqaruv ko'nikmalari shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ushbu ko'nikmalarning

1-jadval

"Psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylikni diagnostikalash" metodikasi natijalarining umumiy tavsifi (n=543)

№	Psixik holat shkalalari	Min.	Maks.	O'rtacha	Standart og'ish
1	Psixik faollik	3	21	10,89	3,56
2	Qiziqish	3	21	9,87	3,95
3	Hissiy marom	3	21	12,13	3,21
4	Zo'riqish	3	21	11,54	3,36
5	Qulaylik	3	21	10,99	3,50

Bu aynan UO'TM laridagi har uchchala toifa boshqaruv kadrlari faoliyatida psixik holatlar ichida "zo'riqish", "qulaylik", "qiziqish", "hissiy marom", "psixik faollik" o'rtta darajada ekanligini bildiradi.

(Mann-Uittni – U mezon)

№	Psixik holat shkalalari	O'rtacha ranglar		U	p
		Ayol boshqaruv kadrlar (n=300)	Erkak boshqaruv kadrlar (n=243)		
1	Psixik faollik	988,6	663,5	168893	0,021*
2	Qiziqish	919,0	697,7	161806,5	0,000**
3	Hissiy marom	1024,2	780,3	150081	0,002**
4	Zo'riqish	980,6	662,3	169985,8	0,037*
5	Qulaylik	1048,8	678,8	154107,5	0,000**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01

UO'TM lardagi erkak va ayol boshqaruv kadrlarning "psixik faollik" ko'rsatkichlari solishtirilganda ayol respondentlarning natijalarida tafovutlar kuzatildi (U=168893;

shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlil etilgan. Boshqaruv ko'nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlash va o'rganishda yosh rahbarlarning o'zini-o'zi anglashi ularning keyingi rivojlanishi uchun yetakchi stimol bo'lishi to'g'risidagi yangi yondashuv respublikada rahbarlikni o'rganish bo'yicha psixologik tadqiqotlar amaliyotiga olib kiritilganligi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur tadqiqot liderlik kompetensiyasining rahbarlik faoliyatida yetakchiligi e'tirof etilgan holda amalga oshirilganligi va faoliyat ko'rsatayotgan yosh rahbarlarda bu kompetensiyalarning ifodalanganligi darajalarining aniqlan-ganligi ushbu tadqiqot ishining kadrlar zaxirasini shakllantirish sohasiga tatbiq etish imkoniyatlarini oshiradi [4].

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlaridan biroz farq qilib, umumiy o'rtta ta'lim muassasalari (UO'TM) boshqaruv kadrlaridagi ustivor psixologik holat va subyektiv nazoratning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Biz tajriba-sinov ishlarida UO'TM lari boshqaruv kadrlaridagi ustivor psixologik holat va subyektiv nazoratning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlash maqsadida, dastavval "Psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylikni diagnostikalash" metodikasi Kurganskiu-Nemchin) yordamida beshta shkala bo'yicha ularning emotsional holatini o'rgandik.

Izlanishlarimizga ko'ra, olingan birlamchi empirik natijalar tahlili, bizga, minimal va maksimal ko'rsatkichlar oralig'ida meyorini aniqlash imkoniyatini berdi. Xususan, "psixik faollik" shkalasi bo'yicha respondentlarimiz ko'rsatkichi o'rtacha 10,89 ni tashkil qilib, holat "o'rtacha daraja" ekanligini bildiradi. Sababi, metodika natijalarini qayta ishlash yo'riqnomasiga ko'ra, respondentlar qancha katta ball olishsa shkala bo'yicha psixik holatning "eng past darajasi" kuzatiladi. Bizning tadqiqot ishimizda, "qiziqish" shkalasi bo'yicha 9,87; "hissiy marom" shkalasi bo'yicha 12,13; "zo'riqish" shkalasi bo'yicha 11,54; "qulaylik" shkalasi bo'yicha 10,99 ham natijalar "o'rtta darajada" ekanligini namoyon qiladi. Sababi, metodika mualliflari tomonidan "o'rtta daraja" uchun 9-15 ball oralig'i meyor sifatida ko'rsatib o'tilgan. Nazarimizda, ushbu shkalalar bo'yicha natijalarga respondentlarning "yosh guruhi", "jins guruhi", "lavozimi toifasi", "boshqaruv darajasi" kabi ijtimoiy-psixologik omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Metodika yo'riqnomasiga ko'ra, "psixik holat"ning "eng yuqori darajasi" 3-8 ball oralig'i; "eng past darajasi" 16-21 ballni tashkil qiladi. Aniqlanilishicha, bizning tadqiqotimizda bu borada natijalar yo'riqnomadagidek "9-15 ball" oralig'ini, ya'ni 9,87-12,13 oralig'ida o'z ifodasini topgan (1-jadvalga qarang).

2-jadval

UO'TM lari boshqaruv kadrlarida psixik faollik, qiziqish, hissiy marom, zo'riqish va qulaylik namoën bo'lishining taqqosiy ko'rsatkichlari

p<0,05). Maktablarda ish hajmi va bosimining balandligi, doimiy ravishdagi aqliy faol harakat, bir muhitdan ikkinchi muhitga ko'chishdagi tezkor moslashuv, shuningdek, tig'iz ish

rejimi kabi omillar ta'sirida boshqaruvdagi erkak kadrlarning psixik xususiyatlarida faollik "muqim" belgilardan biri bo'lib qolishiga olib kelgan. Erkak kadrlarda "psixik faollik" darajasi biroz past bo'lishini ulardagi ish muhitidagi vazifalar taqsimotidan qoniqish, berilgan yuklamani bajarish bilan cheklanish ko'lamining siklik tarzidaligi bilan izohlashimiz mumkin.

"Psixik faollik"ni biz ongning optimal ravshanligi holati, shaxsning ongli faoliyat qobiliyatining maksimal darajada ishlashi deb ta'riflashimiz mumkin. Ongning optimal tashkil etilishi faoliyatning turli jihatlarining izchilligi, uning sharoitlariga diqqatning kuchayishi bilan ifodalanadi. Psixik faoliyat kiruvchi ma'lumotlarning ahamiyatini doimiy ravishda tahlil qilish va ularga adekvat xatti-harakatlar reaksiyasini topishdan iborat. Psixik faoliyatning asosini belgilab beruvchi jihatlardan biri hushyorlik bo'lib, u shaxsning atrof-muhit bilan faol psixik o'zaro ta'siri holatini ifodalaydi.

"Qiziqish"lar darajasida ham tafovutlar qayd etilib ($U=161806,5$; $p<0,01$), boshqaruv sohasida faoliyat olib boruvchi ayollarda o'z ustida doimiy ishlashni yuzaga keltiruvchi asosiy motivatsion birlik sifatida qiziqish namoyon bo'lishi aniqlandi. Natijalarga asoslanib, qiziquvchanlik darajasining domiy faollikda bo'lishi boshqaruvdagi kadrlarni faoliyat sohasida ham, turmush tarzida ham yangiliklardan boxabar bo'lish, intellektual salohiyatini oshirib borish hamda ijtimoiy faol subuyekt sifatida ham intrapersonal munosabatlarda shaxslarning kechinmalarini anglash orqali ularga to'g'ri yondashuv ishlab chiqishga undar ekan. Erkaklarda ko'rsatkichlar tahliliga asoslanib, aytishimiz mumkinki, "qiziqish" u darajada yuqori emasligi ko'proq bioritmik o'zgarishlarga sekin reaksiya bildirishlari, daxldorlik hissining faqatgina faoliyat jarayoniga yo'naltirilgani bilan ham tavsiflash lozim. "Qiziqish"ni noma'lum narsani bilish istagi bilan birga keladigan hissiyotlar va kognitiv jarayonlarning kombinatsiyasi sifatida tushuntirish mumkin. "Qiziqish" insonning barcha hayotiy davrlarida o'rganish va rivojlanish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ham boshqaruv sohasidagi shaxslarning faollik manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

"Hissiy marom"ni emotsional barqarorlik, hissiy kayfiyat hamda tashqi muhitda bo'layotgan o'zgarishlarga tez moslashishga ko'mak beruvchi emotsional intellektning tarkibiy vositasi sifatida ta'riflashimiz mumkin. Natijalar tahlilidan kelib chiqqan holda ($U=150081$; $p<0,01$), emotsional tonusning ayollarda baland bo'lishi ish jarayonidagi yuklamalar, shaxslar bilan kechadigan doimiy muloqot, o'zgalarni his qilish orqali ularni ta'sir o'tkazishning baland bo'lishi, shuningdek, ish samaradorligi ta'minlashga undovchi qo'zg'atuvchi emotsional kayfiyatning dinamik xarakterda namoyon bo'lishi sababli deb aytishimiz mumkin. Erkaklarda esa, "hissiy marom" darajasidagi nisbiy tafovutlar ko'proq ularning ish samaradorligiga putur yetkazishi, hissiy charchoqni yengib o'tishda emotsional tajribalarning

yetishmasligi kabi omillar bilan bog'lash maqsadga muvofiq sanaladi.

"Zo'riqish" ko'rsatkichidagi natijalar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, ayollarda ustun tafovutlar kuzatildi ($U=169985,8$; $p<0,01$). Doimiy hissiy-ijtimoiy bosim ostidagi zo'riqishlar, tig'iz ish rejimi, javobgarlik hissining yuqori bo'lishi, shuningdek, diqqat ko'lamini, uning bo'luvchanligining ekstremal holatlarga doimiy shay bo'lishi kabi omillar ta'sirida UO'TM larining 1-darajali boshqaruv lavozimlarda faoliyat yurituvchi ayollarda zo'riqish darajasi baland bo'ladi. Erkaklarda nisbatan pastroq ko'rsatkichlarni qayd etilishini esa, ularda zo'riqish kamroq degan xulosaga kelishga imkon bermaydi, aksincha, ulardagi zo'riqish ko'rinishlari intra, ya'ni ichki olamga yo'nalgan bo'lib, ko'proq ish faoliyati mobaynida yuzaga keluvchi bosimlarni "ichiga yutish" orqali "hazm qiladi", deb baholash mumkin.

"Qulaylik" ko'rsatkichida ham xuddi yuqoridagi shkalalarda bo'lgani kabi, ishonchli tafovutlar qayd etildi ($U=154107,5$; $p<0,01$). Ayollarda o'z o'rnidan qoniqish hissi hosil qilish orqali o'zi uchun qulay muhit yaratish imkoniyatining mavjudligi ularda komfort hissining baland bo'lishini ta'minlasa, erkaklarda esa, komfort bu yuklamalarni o'z vaqtida bajarib, ishdan "qutulish", o'zi uchun belgilangan doiradan tashqariga chiqmaslik kabi qarashlarning xulq-atvor patternlari kabi ko'rinishda qotib qolganligi bilan ham tavsiflanadi.

Aniqlanilishicha, ayollarda erkaklarga nisbatan hissiy holatlarni boshqarish erkaklarga nisbatan ko'proq tashqariga yunalgan bo'lib, o'zidan tashqari ko'proq atrofda yuzaga g'amxo'rlik ko'proq kuzatilar yekan. Erkaklar ko'proq o'zligini anglash, iqtisodiy ta'minotchilik, nazoratchilik pozitsiyasida bo'lishga intilishni ustunligi kuzatilar yekan. Ayollarda emotsional bosiqlik bilan boshqarish erkaklarga nisbatan kuchli sezilar yekan. Erkaklarda "hissiy maarom" ko'p hollarda komfort zonadan chiqqanda sezilishi kuchayir yekan.

Xulosa. Umuman olganda, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u shaxsdan nafaqat oliy ma'lumotga ega bo'lishni, balki ta'lim muassasasini boshqarishga oid maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy tajriba va malakalarga ega bo'lishni hamda zamon bilan hamnafaslikni talab etadi. Bugungi taraqqiyot maktab rahbaridan, yuksak aql-farosat, katta kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni namoyon qilishini, o'z ustida tinmay ishlashni, kreativlik va ishbilarmonlik sifatlariga ega bo'lishni taqazo qiladi. Buning uchun rahbar jamoani mohirlik bilan boshqarish usullarini egallashi, zamonaviy boshqaruvning texnologiyalari ustida tinmay izlanishi, muayyan loyihalar va proyektsiyalarni ishlab chiqishi, fan-texnika yutuqlari va ish yuritishning zamonaviy usullarini chuqur o'rganishi, pedagogik jamoani boshqarishning ilg'or va yanada mukammal usullarini yaratish borasida faol ijodiy izlanishlar olib borishi, malakasini doimiy suratda oshirishi lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Yoziyev E.S. Boshqaruv psixologiyasi // O'quv qo'llanma. – Qarshi: "Fan va ta'lim", 2021. – 388 b.
2. Karimova V., va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. –T.: Fan va texnologiya. 2008 y. -208 b.
3. Mahmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. –T: YUNAKS-PRINT MCHJ, 2006.- 232 b.
4. Mahmudov A.M. Yosh rahbarlarda boshlang'ich boshqaruv ko'nikmalari shakllanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (harbiy va harbiy bo'lmaganlar misolida): Psixol. fan. bo'u. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ua: 19.00.03. – T.: TDPU, 2020. – 140 b.
5. Hayitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2020. – 250 b.
6. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. –T: O'zMU, 2001.- 144 b.



UDK 37.022

Fatima ERGASHEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: faergasheva@gmail.com

TDPU professori, p.f.d. M.Mamarajabov taqrizi ostida

PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' METACOMPETENCE IN DIGITAL EDUCATION

Annotation

This article examines the problems of developing high-level competencies in students, called metacompetencies, in the context of digital education. The differences between the concept of metacompetence and other types of competence are revealed, and the need for and mechanisms for developing metacompetence are described using the example of future primary school teachers.

Key words: Metacompetence, hard competence, soft competence, professional competence, digital learning environment.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕТАКОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы развития у студентов компетенций высокого уровня, называемых метакомпетенциями, в условиях цифрового образования. Раскрыты отличия понятия метакомпетентности от других видов компетентности, а также описаны необходимость и механизмы развития метакомпетентностей на примере будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: Метакомпетентность, жесткая компетентность, мягкая компетентность, профессиональная компетентность, цифровая среда обучения.

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING METAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida talabalarning metakompetentlik deb ataluvchi yuqori darajadagi kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan. Unda metakompetentlik tushunchasining boshqa kompetensiya turlaridan farqli jihatlari ochib berilgan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida metakompetensiyalarni rivojlantirish zarurati va mexanizmlari tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Metakompetensiya, qattiq kompetensiya, yumshoq kompetensiya, kasbiy kompetentlik, raqamli ta'lim muhiti.

Kirish. Hozirgi murakkab va noaniq muhitda yangi ijtimoiy va real dunyo muammolariga yechim topish uchun faqat fanlar doirasida olingan bilimlar etarli emas. Ilg'or fikrlash qobiliyatlari va ijodkorlikni o'z ichiga olgan metakompetensiyalar ushbu sohaga xos kompetensiyalarni umumlashtiradi[1]. Shunga ko'ra, bunday murakkab jarayonlarni o'rganish va etarli darajada tavsiflash zarurati paydo bo'ladi. Har bir kasb egasining yuqori darajadagi (o'ta) kasbiy fazilatlar mavjud bo'lib, ularning rivojlanganligi natijasida kasbiy kompetensiyalar almashtirilishi yoki kengaytirilishi mumkin. Doimiy ravishda o'zgarib borayotgan va tobora ko'proq yangi shartlar va qoidalarni ilgari surayotgan hozirgi vaqtda bo'lajak mutaxassislariga, shu jumladan pedagog xodimlarga qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi: yangidan-yangi kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lish talab etiladi. Natijada, quyidagi muhim savol tug'iladi: zarur moslashuvchanlikga qanday erishish mumkin? Bu savolga umumiy tarzda quyidagi javobni asosli ravishda berish mumkin: Metakompetensiyalarni rivojlantirish asosida.

Keyingi yillarda ko'plab fan sohaslarida, xususan, pedagogika va psixologiya yo'nalishidagi tadqiqotlarda metakompetensiya tushunchasi ko'p qo'llanilmoqda [4]. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, metakompetensiyalar nafaqat ta'lim sohasida, balki barcha sohalarda zarur bo'lgan kompetensiyalarning yuqori darajasi hisoblanadi. Masalan, L. Zenk va boshqalar [4] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, metakompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassis yoki boshqaruv xodimi u faoliyat yuritayotgan tashkilotning muvaffaqiyat qozonishida kasbiy

kompetensiyaga ega xodimlarga nisbatan umumiy hisobda 20-30 % yuqori natijalar qayd etishgan.

Ushbu maqolada biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida talabalarning meta professional kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Xususan, ishda metakompetentlikning qattiq va yumshoq ko'nikmalar (hard and soft skills) dan qanday farq qilishi va ularning bo'lajak mutaxassislar uchun zarurligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan, shuningdek, metakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metakompetensiyalar atamasining o'zi amerikalik psixoterapevt Emi Mindell tomonidan taklif qilingan bo'lib [6], u bu kompetensiyalarni "ruhiy qobiliyatlar" sifatida tavsiflaydi. Qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan "meta" prefiksi "yuqorida" yoki "qolipdan tashqari" degan ma'noni anglatadi. So'zning etimologiyasi shuni ko'rsatadiki, bunday ko'nikmalar odamga "tizimdan yuqori" bo'lishga imkon beradi. Standart kasbiy kompetensiyalar belgilangan chegaralar ichida harakat qilish, ta'lim tizimiga integratsiyalashish va uning doirasida amalga oshirilishiga yordam beradi. "Tizimdan yuqori" bo'lish - uning qanday ishlashini tushunish, jarayonlarga ta'sir qilish va tizim qoidalarni o'zgartirishni anglatadi. Bunday tasavvur har doim ham to'liq oqilona emas: ko'p narsa sezgiga ham bog'liq. "Meta-o'qituvchi" o'z holatini va o'quvchilarining holatini yaxshi his qiladi va muayyan vaziyat qanday rivojlanishini oldindan ko'ra oladi. Bunday bilimlar

belgilangan qoidalarga emas, balki natijaga e'tibor qaratishga imkon beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) dasturida ta'lim sifatiga, jumladan, oliy ta'lim muassasalari va ularning o'quv dasturlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining innovatsiyalar bo'yicha va XXI asr ko'nikmalari tashabbusi ta'limning kelajagi va yangi kompetensiyalarni rivojlantirish haqidagi so'nggi munozaralarda markaziy mavzuga aylandi [7]. Bunda murakkab muhit sharoitida noaniq vaziyatlarni yengish uchun metakompetentlik talab qilinishi asoslangan.

E. Heery va uning hammualliflarining fikricha [8], metakompetensiyalar birinchi navbatda umumiy ish muhiti sharoitiga taalluqlidir, chunki ular odamlarga tashkilot ehtiyojlariga moslashish va vazifalarni bajarish va tashkiliy maqsadlarga erishish, shu jumladan o'zgarishlarni kutish va yaratish uchun moslashuvchan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. G. Cheetham va boshqalar [9] ta'kidlashicha, metakompetensiyalar inklyuziv xususiyatga ega, chunki ular barcha ish muhitlari uchun umumiy bo'lib, ular boshqa kompetensiyalarni birlashtiradi va targ'ib qiladi. Umuman olganda, metakompetentlikka boshqalar bilan muloqot qilish, turli xil ish vaziyatlari haqida tanqidiy fikrlash, tajribalar haqida fikr yuritish va amaliyotlarni birlashtirish qobiliyati kiradi [10]. Shuningdek, Harden va boshqalar [11], metakompetentlik akademik, hissiy, analitik, ijodiy va shaxsiy kompetensiyalarni o'z ichiga olgan kompetensiyalar uchun asos sifatida turli xil intellektlarni birlashtiradi. Braunning [12] e'tirof etishicha, metakompetensiyalar dastlab o'rganish jarayonida shakllanadi va keyinchalik kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Reis va boshqalar [13], metakompetensiyalar ko'pincha kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishiga olib kelishi, masalan, o'z-o'zini rivojlantirish kontekstida tahlil va mulohaza yuritish yoki mansab rivojlanishi kontekstida moslashuvchanlikni oshirishga olib keladi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda metakompetentlikning turli jihatlarini turli yo'llar bilan muhokama qilingan bo'lsa-da, bir nechta intizomiy nuqtai nazarlarni izchil ko'rib chiqadigan yanada keng qamrovli yondashuv hozirgacha mukammal asoslanmagan. So'nggi yillardagi global o'zgarishlar va tobora dolzarb bo'lib borayotgan ijtimoiy muammolarni hisobga olgan holda, metakompetensiyani chuqur tushunish va yanada rivojlantirish zarurati har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Metakompetensiyalarning boshqa turdagi kompetensiyalardan farqini aniqlashtirishda, talabalarda metakompetentlikni rivojlantirish, metakompetent-

likning raqamli ta'lim muhitidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish uchun ushbu tadqiqot ishida tahlil, taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Metakompetensiyalarning boshqa turdagi kompetensiyalardan farq qilishi, yuqorida xorijiy olimlar ishlarini tahlil qilish jarayonida qisman qayd etib o'tildi. Ushbu farqni aniqlashtirish maqsadida har bir mutaxassis uchun zarur bo'lgan quyidagi asosiy ko'nikmalarni keltirib o'tamiz:

Qattiq ko'nikmalar (hard skills). Bu ko'nikmalar biror sohadagi kasbiy ko'nikmalardir. Bu turdagi ko'nikmalarsiz hech bir kasb egasi rivojlana olmaydi. Masalan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarni bilishi, ushbu bilimlarni berishda hech bo'lmaganda ba'zi ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishi va ta'lim resurslaridan (hech bo'lmaganda darslikdan) foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;


Yumshoq ko'nikmalar (Soft skills). Ushbu ko'nikmalar bir sohaga yo'naltirilmagan, lekin tamoyilga ko'ra mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga imkon beradi. Masalan, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan do'stona munosabat, o'quv mashg'ulotlarini innovatsion usullarda tashkil etish va nazorat qilish va h.k.;

Meta-ko'nikmalar (Meta-skills). Bazaviy shaxsiy fazilatlar, ya'ni ular asosida boshqa ko'nikmalar shakllanadi. Ilgari ular tug'ma xarakterli xususiyatlar deb hisoblangan, lekin keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu ko'nikmalar hayot davomida shakllanishi mumkin. Meta-ko'nikmalar, masalan, ong va empatiyani o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan izohlardan anglash mumkinki, yumshoq va meta ko'nikmalar bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Lekin, metako'nikmalar yumshoq ko'nikmalarga qaraganda keng ma'noli hisoblanadi va yumshoq ko'nikmalar metako'nikmalar asosida shakllanadi.

Garvard, Stenford tadqiqot markazi va Karnegi jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ishdagi muvaffaqiyatning 85 foizi "yumshoq" ko'nikmalar va atigi 15 foizi "qattiq" ko'nikmalar orqali erishiladi. Ma'lum bo'lishicha, yumshoq va metako'nikmalar qattiq ko'nikmalardan ko'ra muhimroqdir.

Talabalarda metakompetentlikni shakllantirish jarayoni ancha murakkab. D.Fleming 1991 yildagi maqolasida [1] "Metakompetensiyalar - bu tushunishning kengroq chegaralarida ma'lum bir kompetensiyani ko'rish imkonini beradi" deb ta'riflagan. U metakompetensiyalarni soha kompetensiyalarining yuqori chegarasi sifatida quyidagi sxemani taklif etadi (1-rasm).



1-rasm. D.Flemingning metakompetensiyalar pirmidasi.

Shunday qilib, metakompetensiyalarning boshqa turdagi kompetensiyalardan asosiy farqlanuvchi jihatlari quyidagilar:

yangi, murakkab yoki unikal muammolarni hal qilishga qaratilgan;

o'zgaruvchan sharoitlarda ijtimoiy-moslashuvchan sifatlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Metakompetensiyalar talabalar moslashuvining fundamental masalalarini qamrab oladi, shuning uchun ularning rivojlanishi qisqa ta'lim dasturlarida ancha muammoli

hisoblanadi. Bu faqat ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin [14]:

rivojlangan metakompetensiyaga ega talabalarni tanlab olish;

doimiy talabalarni o'qitishga katta investitsiyalar jalb qilish.

Metakompetensiyalar bir nechta sabablarga ko'ra bugungi mehnat bozorida juda muhimdir [15], xususan, bo'lajak mutaxassislar uchun quyidagilarni e'tirof etish mumkin.

1. Texnologiyaning jadal rivojlanishi. Zamonaviy texnologiyalar tez o'zgaradi va rivojlanadi, bu esa o'qituvchilardan yangi ko'nikmalarni tezda o'rganish, moslashish va qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Tanqidiy fikrlash va o'rganish qobiliyatlari kabi metakompetensiyalar bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Demak, talabalik davrida qo'lga kiritilgan metakompetentlik, ish faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishga zamin yaratadi.

2. Raqobat. Bugungi mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lish uchun bo'lajak o'qituvchi nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki ijodiy fikrlash va jamoada ishlash kabi zarur metakompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

3. Globallashtiruv. Global iqtisodiyot o'sib borayotgani va xalqaro aloqalar o'sishi bilan mutaxassislar turli madaniyatlarda samarali muloqot qilishlari, murakkab xalqaro vaziyatlarda qarorlar qabul qilishlari va turli muhitlarga tezda moslashishlari kerak.

4. Ta'limning isloh qilinishi. Bozor talablari tez o'zgarib bormoqda. O'qituvchilar o'z sohasidagi o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari kerak. Metakompetensiyalar ularga yangi sharoitlarga moslashish va yangi bilimlarni tezda o'rganish imkonini beradi.

5. Zamonaviy muammolarning murakkabligi. Zamonaviy kasblar va vazifalar ko'pincha ijodiy yondashuvni, analitik fikrlashni, turli jihatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish va murakkab qarorlar qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Metakompetentlik bunday vazifalarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Ushbu keltirilgan sabablar asosida ish faoliyati va shaxsiy samaradorlik uchun muhim bo'lgan ba'zi universal va har doim talab qilinadigan metakompetensiyalarni quyidagi sxema shaklida ifodalash mumkin (1-rasm).



2-rasm. Metakompetensiyalarning asosiy turlari.

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning metakompetentligini rivojlantirish muammosi hozirgi kunda ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Metakompetentlikning yuqorida asoslab o'tilgan zarurati raqamli ta'lim jarayonida yanada dolzarblashadi. Masalan, Hemis integratsiyalashgan ta'lim platformasidan foydalanish jarayonida ham o'ziga xos muammolar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, platformaning ta'lim resurslaridan foydalanish, nazoratlarni ushbu topshirish, kerakli ma'lumotnomalarni (baholar qayd varag'i, shartnoma blankalari va h.k.) yuklab olish jarayonida metakompetentlik elementlari zarur bo'ladi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida ta'lim resurslarini izlash (internet va boshqa elektron manbalardan), ularni ajrata olish, saqlash, qayta ishlash, to'g'ri foydalana olish kabi muammolarni hal qilishda ham talabalarning metakompetentlik darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Maqolada professional kompetensiyalarning yuqori darajasi sifatida e'tirof etiluvchi

metakompetensiyalar va ularni talabalarda rivojlantirish masalalari o'rganildi. Bunda ushbu jarayon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida ko'rib chiqilib, metakompetensiya tushunchasining kasbiy kompetensiyadan farqlanishi, metakompetensiyalarning turlari va ularning har bir mutaxassis uchun zarur bo'lgan sabablari aniq misollarda ochib berildi. Shuningdek, metakompetentlikning raqamli ta'lim sharoitida yanada dolzarb ahamiyatga ega ekanligi pedagogik nuqtai nazardan asoslab berildi. Maqolada keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, talabalarda metakompetentlikni rivojlantirish asosida bo'lajak mutaxassislarining ish sharoitiga oson moslashish, ish jarayonida yuzaga keladigan turli mummoli vaziyatlarda tez va optimal qarorlar qabul qilish, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan samarali muloqotlar o'rnatish, raqobatbardoshlik kabi ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. O'z navbatida, bunday mutaxassislar, ta'lim muassasalarining turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishishida asosiy kuch bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Fleming D. (1991). The concept of meta-competence // *Competence and Assessment*. Vol. 16. P. 9–12.
2. Delamare Le Deist F. & Winterton J. (2005) What Is Competence? // *Human Resource Development International*. Vol. 8:1. P. 27-46.
3. Nelson T.D., Narens L. (1990). Metamemory: a theoretical framework and new findings. // *The Psychology of Learning and Motivation*. Vol. 26. P. 125-173.
4. Zenk L. et al. Meta-competences in complex environments: An interdisciplinary perspective // *Thinking Skills and Creativity* 53 (2024) 101515.
5. Campbell-Lee, D., Barton, S., & Armstrong, P. Higher-order CBT skills: Are there differences in meta-competence between trainee and experienced therapists? // *Cognitive Behaviour Therapist*, 17 (2024). <https://doi.org/10.1017/S1754470X24000047>
6. Mindel E. *Metaskills: The Spiritual Art of Therapy*. Lao Tse Press, 2001. P.180.
7. Brockmann, M., Clarke, L., Winch C. Competence and competency in the EQF and in European VET systems // *Journal of European Industrial Training*, 33 (8/9) (2009), P. 787-799, DOI: 10.1108/03090590910993634
8. Heery, E., Noon, M. *A dictionary of human resource management*. Oxford University Press, 2nd ed., (2008).
9. Cheetham, G., Chivers, G. Towards a holistic model of professional competence // *Journal of European Industrial Training*, 20 (5) (1996), P.20-30, DOI: 10.1108/03090599610119692
10. Nurius, P.S. Social work preparation to compete in today's scientific marketplace // *Research on Social Work Practice*, 27 (2) (2017), P.169-174, DOI: 10.1177/1049731516658130
11. Harden, R.M., Crosby, J.R., Davis, M.H., Friedman, M. From competency to meta-competency: A model for the specification of learning outcomes. AMEE Guide No. 14: Outcome-based education: Part 5. // *Medical Teacher*, 21(6) (1999), P. 546-552, DOI:10.1080/01421599978951

12. Brown, R. Meta-competence: A recipe for reframing the competence debate // *Personnel Review*, 22(6) (1993), P. 25-36, Doi:10.1108/EUM00000000000814
13. Reis, D.A., Fleury, A.L., Carvalho, M.M. Consolidating core entrepreneurial competences: Toward a meta-competence framework // *International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research*, 27(1) (2021), P.179-204, DOI:10.1108/IJEBR-02-2020-0079
14. Razzak M.R., Al-Riyami S., Palalic R. (2022) Organizational Meta Capabilities in the Digital Transformation Era. *Foresight and STI Governance*, 16(4), 24–31. DOI: 10.17323/2500- 2597.2022.4.24.31
15. Ergasheva F.T. Problems of development of research competence of students of technical universities in teaching mathematics. // *International Journal for Innovative Engineering and Management Research*. - 2021. Vol. 10, Issue 06, pp. 103-111. DOI: 10.48047/IJEMR/V10/I06/21.
16. Ergasheva F.T. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari // *O'zMU xabarlari*, 2023, [1/7/1]. 155–157 b.
17. Ergasheva F.T. General issues of forming the digital competence of university students // *European Journal of Humanities and Educational Advancements (Open Access Journal)*. Vol. 4 No.7, 2023.



UDK 152.22

Zoir YUNUSXODJAYEV,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o'qituvchisi
E-mail: zoiryunusxodjayev@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori S.Jo'rayeva taqrizi asosida

OBJECTIVE AND SUBJECTIVE CONTEXT OF THE DYNAMICS OF THE DISTRIBUTION OF ROLES IN A COUPLE RELATIONSHIP

Annotation

Creating a family is a serious and important step in the life of every person. It is important for society and the state that this issue leaves the personal and private sphere and acquires social significance, conveys information about gender roles and their responsibilities in marriage to young people who are on the verge of starting a family, and forms the responsibility of motherhood in the minds of growing children, especially ours daughters, and the responsibility of fatherhood in the minds of our sons.

Key words: Family, patriarchal family, matriarchal family, equality and democratic family, role in the family, marriage.

ОБЪЕКТИВНЫЙ И СУБЪЕКТИВНЫЙ КОНТЕКСТ ДИНАМИКИ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ РОЛЕЙ В СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

Создание семьи – серьезный и ответственный шаг в жизни каждого человека. Обществу и государству важно, чтобы этот вопрос вышел из личной и частной сферы и приобрел социальную значимость, донес до молодых людей, стоящих на пороге создания семьи, информацию о гендерных ролях и их обязанностях в браке, сформировать ответственность материнства в сознании растущих детей, особенно наших дочерей, и ответственность отцовства в сознании наших сыновей.

Ключевые слова: Семья, патриархальная семья, матриархальная семья, равноправная и демократическая семья, роль в семье, брак.

ER-XOTIN MUNOSABATIDA ROLLAR TAQSIMOTI DINAMIKASINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV KONTEKSTI

Annotatsiya

Oila qurish masalasi har bir inson hayotida jiddiy, mas'uliyatli qadam. Bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini, nikohdagi gender rollar va ularning vazifalari haqida ma'lumotlarni oila qurish ostonasida turgan yoshlarga yetkazish, voyaga yetayotgan bolalar, avvalambor qizlarimiz ongida onalik mas'uliyati, o'g'illarimizda esa ota bo'lish mas'uliyatini shakllantirish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifa bo'lib qoladi.

Kalit so'zlar: Oila, patriarxal oila, matriarxal oila, tenglik va demokratik oila, oiladagi rol, nikoh.

Kirish. Oiladagi rol munosabatlarning o'zgarishi oila va nikoh munosabatlarini zamonaviy qayta qurishning eng muhim bosqichidir. Hozirgi vaqtda nikoh va oilaviy munosabatlarni, shu jumladan rol munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning noaniqligi zamonaviy oila uchun bir qator ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ulardan eng muhimi tashqi rolli o'zaro ta'sirning har bir tomonini tanlash va erkakning oiladagi rol xatti-harakatlarining turli jihatlariga munosabatini shakllantirishdir.

Rol tuzilmasining paydo bo'lish jarayoni uning oilada ijtimoiy-psixologik jamoa sifatida shakllanishi, turmush o'rtoqlarning bir-biriga moslashishi va oilaviy hayot tarzi rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Rol xulq-atvorining turli me'yorlari va shakllari mavjudligini hisobga olgan holda bu jarayon turmush o'rtoqlarning shaxslararo munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Oilada muayyan rolni tanlash va qabul qilish muammosi oila a'zolarining ushbu obrazga, ularning oiladagi rolga va boshqa oila a'zolarining rollarini bajarishga munosabatini shakllantirish bilan ajralmasdir. Zamonaviy oilada otaning bolalarni tarbiyalashda onaning sherigi sifatidagi ulushi ularga nisbatan g'amxo'rlikning ortib borayotganida ko'rinadi. Oilada onaning roli ham o'zgarimoqda bolalar bilan muloqotda ayol xulq-atvorining

“emansipator erkaklashuvi” sodir bo'layapti, buning natijasida ayollar odatda eri va bolalari ustidan hukmronlik qilishga intiladi.

Oilada rolli xulq-atvor va rol munosabatlari qoidalari oilaviy hayot jarayonida, shaxslararo munosabatlar va oila a'zolari o'rtasidagi muloqot bilan chambarchas bog'liq holda ta'minlanadi. Zamonaviy me'yorlar oilada butun jamiyat uchun funksional rol guruhlarini qurishning bir xil bo'lmagan, turli oilalar uchun ajratilgan, har bir oila a'zosining vazifalarini oldindan belgilangan namunalar bo'yicha qat'iy bo'lgan taqsimlashni rad etgan holda moslashuvchan cheklovlarni nazarda tutadigan usullarni taklif etadi. Oiladagi rol va oilaviy munosabatlar oilaviy tajribaga asoslanadi, masalan, shaxsiy moyillik va qobiliyatlar, tajriba, xohish, ixtiyoriy rozilik, ishlab chiqarish sohasidagi bandlik darajasi va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi, V.V.Stolin va S.R.Pantileevning «O'z-o'ziga bo'lgan munosabat» test-so'rovnomasi, S.Yu.Kupryanovning «Oilaviy muhit shkalasi» metodikasi, Yu.Ye.Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayaning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi hamda V.V.Stolin, T.M.Ramanov, G.G.Butenkoning «Oilaviy hayotdan qoniqish» so'rovnomasidan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik

ishonchlik darajasi matematik-statistika metodlaridan Kolmogorov-Smirnov Z mezon, Mann-Uitni mezon, Kraskel-Uollis – H mezon hamda Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi.

Fanda ijtimoiy rol xususiyatlari va yetakchilik mezonlari asosida oilalar quyidagicha tasniflanadi: patriarxal, matriarxal, tenglik va demokratik oila.

Patriarxal oila. Bunday oilada er uning so'zsiz boshliq, xotinning eriga, bolalarning ota-onasiga qaramligi aniq ifodalangan. Erkak kishiga "xo'jayin", "ta'minotchi", "boquvchi" rollari beriladi. Erkak hokimiyati shubhasiz tan olinadi yoki bosim ostida qabul qilinadi. Boshqa oila a'zolarining hokimiyati ularning jinsi va yoshiga bog'liq: keksa odamlar eng hurmatga sazovor, erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq huquqlarga ega. Guruh manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun turadi. Shuning uchun bu turdagi oila avtoritar-patriarxal deb ataladi.

Matriarxal oila. Ushbu turdagi oilada shaxsiy ustunlik ayolga tegishli. Ba'zi oilalarda, erkakning rasmiy rahbarligi bilan, aslida hukmron mavqeni ayol egallaydi. U uy bekasi yoki juda kam maosh oladi. Oddiy hayot va iste'molni tashkil etish uning yelkasiga tushadi va u uy xo'jaligini namunali olib borishi, uyda qulay va sokin muhit yaratishi talab etiladi. Uning vazifalariga bolalarga qarash va tarbiya ham kiradi. Har doim ona oilaviy rishtalarni saqlashda alohida rol o'ynagan. Ayolning shaxslararo munosabatlarni tartibga solish va boshqalarga ta'sir qilishning bilvosita usullarini qo'llash qobiliyati unga yetakchilik uchun kurashda g'alaba qozonishga yordam beradi.

Egalitar (fransuzcha egalitaire — tenglik) oila. Bu amorf, shakllanmagan rol tuzilishiga ega, yetakchiliksiz va rollar mas'uliyatlarining aniq taqsimlangan oilasi. U teng, ekvivalent deb ham ataladi. Zamonaviy yadro oilasi aynan shunday bo'lib bormoqda, uni teng huquqli ittifoq deb hisoblash mumkin, ya'ni uning barcha voyaga yetgan a'zolari huquq va majburiyatlarida teng ulushga, bolalar uchun yetarlicha mustaqil pozitsiyaga ega. Biroq, oila shakllarining xilma-xilligi va sheriklarning oilaviy baxtning tarkibiy qismlari to'g'risidagi qarashlari, nikoh va oilaviy g'oyalari sezilarli tafavut tufayli tenglik ittifoqini yaratish hozirgi kunda tobora qiyinlashib borayotgan masaladir.

Demokratik oila oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmatga, oilaviy rollarni muayyan vaziyat ehtiyojlariga muvofiq taqsimlashga, er-xotinning shaxsiy fazilatlarini va qobiliyatlariga, ularning har birining barcha masalalarda teng ishtirok etishiga, barcha muhim qarorlarni birgalikda qabul qilishiga asoslanadi. Demokratik oilada, qoida tariqasida, "rasmiy" boshliq yo'q, lekin rahbar, obro'li shaxs mavjud. Bundan tashqari, er ba'zi munosabatlarda, xotin esa boshqalarida yetakchi bo'lishi mumkin. Ba'zi hayotiy vaziyatlarda ulg'ayib borayotgan bolalar ham yetakchiga aylanishi mumkin.

Nikoh rollarini uchta asosiy turga ajratish mumkin: an'anaviy, do'stona o'rtoqlik va hamkorlik rollari. Asosiy rolga moslashish, albatta, oilaviy majburiyatlarining tabiati va

taqsimoti haqidagi g'oyalarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Moslashuvning birinchi xususiyati bu turmush o'rtoqlar bir xil turdagi rolni tanlashi. Ikkinchisi, bu rol uchun zarur bo'lgan oila ichidagi va oiladan tashqari xatti-harakatlarning asosiy tarkibiy qismlarining har biri er va xotinga mos kelishidir.

An'anaviy rollar xotinning farzand ko'rishi va uni tarbiyasi bilan shug'ullanish, vafodorlikni saqlash, oilaga xizmat qilish, o'z manfaatlarini erining manfaatlariga sodiqlik bilan bo'ysundirish, turmush o'rtog'iga va uning oila a'zolariga bo'ysunishga moslashish va faoliyat doirasining cheklanganligiga toqat qilishni o'z ichiga oladi. Bu holatda oilaviy munosabatlarning uyg'unligini saqlab qolish uchun er tomonidan quyidagilar zarur: farzandlarining onasiga sadoqat, oilaning iqtisodiy xavfsizligi va himoyasi, oilaviy hokimiyat va nazoratni saqlab turish, oilada asosiy qarorlarni qabul qilish, ajralishda alimentni ta'minlash.

Erning roli o'z xotiniga his-tuyg'ularini baxshida etishni va unga nisbatan jasoratli munosabatni, o'zaro mehr – muhabbat va muloyimlikni, kiyim-kechak sotib olish, o'yin-kulgi, ijtimoiy aloqalarni saqlash, xotini bilan bo'sh vaqtini o'tkazish uchun mablag' bilan ta'minlashni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yosh oilalarda barqarorlikni ta'minlovchi omillar turlicha. Yosh turmush o'rtoqlar oilada xotin o'zini qay darajada kasbiy faoliyatga bag'ishlashi, oilaviy mas'uliyatni qay darajada ado etishi haqida kelishib olishi, bo'sh vaqtni sarflashda turmush o'rtoqlarning fikrlari izchilligi, erkakning oiladan tashqari va xuddi shuningdek, ayolning ham oiladan tashqari masalan, dugonalari bilan dam olish vaziyatlarini kelishib olishlari, oilada bolalar tarbiyasi va iqtisodiy ta'minoti majburiyatlarini teng taqsimlanishi, shaxslararo rollarning izchilligi, nikohda va oilada bir birlarining pozitsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shular jumlasidandir. Afsuski, psixologik maslahat amaliyotidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar an'anaviy va egalitar oila xususiyatlarini aralastirib yuboradilar.

Tahlil va natijalar. Oiladagi er-xotin munosabatlari dinamikasi hamda nikohdan qoniqish darajasining oila stajiga ko'ra tavsiflarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot davomida T.Lirining "Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika o'zida 8 ta shkalani ifodalab olingan ballarning yig'ilgan summaning tafvutiga ko'ra shaxsda boshqalar bilan munosabatlarda hamda guruh ichida yuqoridagi 8 ta tipning barchasi turli ko'rinishda yuzaga chiqishi mumkinligini anglatadi. Natijalar tahlilini amalga oshirar ekanmiz, juftliklarda doim o'zaro munosabat paytida hamda oilaning turli muammolarini hal qilish barobarida liderlikka intilish mavjudligi (9,73) ma'lum bo'ladi. O'zaro munosabatlarda ishonchsizlik ko'rsatkichi esa (5,80) kamroqni tashkil etib, er-xotinlar kamdan-kam vaziyatlarda bir-biriga nisbatan ishonchsizlik tug'diradigan vaziyatlarni hosil qilishga moyillik bildiradi, degan xulosalarni qilishga imkon beradi.

Juftliklarning oilaviy hayotdan qoniqish hamda o'z-o'ziga munosabat ko'rsatkichi asosidagi tavsiflovchi statistik ko'rinishi (N=600)

Shkalalar	Min	Max	M	Std. Og'ish	Z	p
Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi	6,00	47,00	31,1933	7,55211	2,313	0,000**
Ichki samimiylilik	1,00	11,00	6,5167	2,31560	2,836	0,000**
O'z-o'ziga ishonch	1,00	15,00	6,6617	2,51948	2,711	0,000**
O'z-o'zini boshqarish	1,00	12,00	7,0083	2,47895	2,909	0,000**
O'ziga bo'lgan munosabat	1,00	11,00	7,0800	2,20871	3,262	0,000**
O'zini baholash	1,00	16,00	7,2483	2,90069	2,195	0,000**
O'zini qabul qilish	1,00	11,00	6,3333	2,18789	2,741	0,000**
O'ziga bog'langanlik	1,00	11,00	5,9617	2,32290	2,798	0,000**
Ichki nizolilik	1,00	14,00	7,0317	2,99816	2,474	0,000**
O'zini ayblash	1,00	10,00	5,9617	2,27497	3,167	0,000**

** - p < 0,01

M.Ueddell o'zining «Oila va uning dinamikasi» asarida oila - qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan odamlar guruhi, turli xil er-xotinlar atrofida mavjud bo'lgan ijtimoiy-

iqtisodiy birlik ekanligini ta'kidlaydi. Oilada tizimli aloqalar asosini tashkil etuvchi dinamik jarayonlar – "oila dinamikasi"da sodir bo'ladi. Bolaning tug'ilishi kelajakda

oilani xarakterlaydigan uzoq muddatli va o'ziga xos munosabatlar modellarini o'rnatadigan dinamikaning boshlanishini anglatadi. Bolaning tug'ilishi bilan, ilgari o'z-o'zidan yopilgan tizim uchburchak shaklida obyektiv ravishda mavjud bo'la boshlaydi, uchburchak uchun xarakterli va tegishli barcha muammolar mavjud. Bola bilan sodir bo'ladigan jarayonlarning mohiyati oiladagi onalik, otalik, ota-onalik kabi tushunchalarning mazmunini belgilaydi. Olimlar barcha oilaviy jarayonlar oilaviy hayotning birinchi kunlaridan kelib chiqqan ota-ona oilalarida o'tmish dinamikasining tabiiy davomi sifatida sodir bo'lishiga e'tibor qaratishadi. Shunday qilib, oila dinamikasi - bu butun oilada ham, uning alohida a'zolarida ham turli xil o'zgarishlarga olib keladigan muhim shakl. Oilaning harakatlanishi muqarrar, bu oilaviy inqiroz holatlarida tezroq sodir bo'ladi. Er-xotin munosabatlaridagi dinamik holatni o'rganganda albatta ularning oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga e'tibor berish lozim. Boisi, oilaviy hayotdan qoniqish shaxsning juft sifatida tanlagan hamda umr yo'lini bog'lagan insonidan ma'naviy, jinsiy, moddiy, ruhiy qoniqish hosil qilishini ham qamrab oladi. Yuqorida berilgan jadvaldan ko'rinadiki, juftliklarda oilaviy hayotdan qoniqish darajasi o'rtacha. Bunda ular bir-birini to'ldiradi, turli vaziyatlarda o'xshash qoniqishlarni his

qiladi. V.V.Stolin va S.R.Pantileevning "O'z-o'ziga bo'lgan munosabat" test-so'rovnomasining tahlili bo'yicha ichki samimiylik shkalasi bo'yicha ($Z=2,836$; $p<0,01$), o'z-o'ziga ishonch shkalasi bo'yicha ($Z=2,711$; $p<0,01$), o'zini-o'zi boshqarish shkalasi bo'yicha ($Z=2,909$; $p<0,01$), o'ziga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha ($Z=3,262$; $p<0,01$), o'zini baholash shkalasi bo'yicha ($Z=2,195$; $p<0,01$), o'zini qabul qilish shkalasi bo'yicha ($Z=2,741$; $p<0,01$), o'ziga bog'langanlik shkalasi bo'yicha ($Z=2,798$; $p<0,01$), ichki nizolilik shkalasi ($Z=2,474$; $p<0,01$) va o'zini ayblash ($Z=3,167$; $p<0,01$) ko'rinish oldi.

Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, juftliklarda turli hayotiy vaziya hamda bir oila davridan ikkinchi oila yiliga o'tishda ba'zi vaziyatlar ta'sirida o'zini ayblash, o'ziga munosabat kabi ko'rsatkichlarda dinamik holatlar kuzatilib turar ekan. Biz ushbu jihatni ko'proq, shaxsning ehtiyojlar hamda motivatsion sohasidagi o'zgarishlarning tub qadriyatlar bilan to'qnashuvi va o'zini o'zini aktualashtirgan holda realizatsiya qilish paytdagi intim kechinmalari bilan bog'lashimiz mumkin.

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi ko'rsatkichi asosidagi tavsiflovchi statistik ko'rinishi (N=600)

Shkalalar	Min	Max	M	Std. Og'ish	Z	p
Uyg'unlik	3,00	9,00	4,8283	1,41026	3,752	0,000**
Ekspressivlik	3,00	9,00	4,8200	1,44259	3,751	0,000**
Nizo	3,00	8,00	5,0933	1,54335	3,549	0,000**
Mustaqillik	3,00	9,00	5,2183	1,54639	3,390	0,000**
Muvaffaqiyat orientatsiyasi	3,00	8,00	4,8000	1,43647	3,908	0,000**
Intellektual-madaniy orientatsiya	3,00	9,00	5,1283	1,54354	3,412	0,000**
Faol dam olishga orientatsiya	3,00	9,00	4,8467	1,47199	3,760	0,000**
Axloq va tarbiya	3,00	9,00	5,3567	1,52862	3,545	0,000**
Tashkilotchilik	3,00	8,00	5,0017	1,48053	3,714	0,000**
Nazorat	3,00	9,00	5,3367	1,53859	3,310	0,000**

**_ $p<0,01$

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi tahlili bo'yicha uyg'unlik shkalasi bo'yicha ($Z=3,752$; $p<0,01$), ekspressivlik shkalasi bo'yicha ($Z=3,751$; $p<0,01$), nizo shkalasi bo'yicha ($Z=3,549$; $p<0,01$), mustaqillik shkalasi bo'yicha ($Z=3,390$; $p<0,01$), muvaffaqiyat orientatsiyasi shkalasi bo'yicha ($Z=3,908$; $p<0,01$), intellektual-madaniy orientatsiya shkalasi bo'yicha ($Z=3,412$; $p<0,01$), faol dam olishga orientatsiya shkalasi bo'yicha ($Z=3,760$; $p<0,01$), axloq va tarbiya shkalasi ($Z=3,545$; $p<0,01$), tashkilotchilik ($Z=3,714$; $p<0,01$) va nazorat shkalasida ($Z=3,310$; $p<0,01$) ko'rinish oldi. Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi ko'rsatkichlari tahliliga binoan, nazorat ko'rsatkichida (5,33) ustunlik kuzatilib mental muhitimizga asoslanib oilada bir-birining xulq-atvorini nazorat qilish ustuvor ekan ma'lum bo'ladi. Muvaffaqiyat orientatsiyasida esa biroz past natijalar qayd Yu.Ye.Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayaning "Oilada rollar taqsimoti" metodikasining tavsiflovchi statistik ko'rinishi

(N=600)

Shkalalar	Min	Max	M	Std. Og'ish	Z	p
Bola tarbiyasi	1,00	4,00	3,52	,88269	3,136	0,000
Oiladagi emotsional muhit	1,00	4,00	3,68	,87304	2,380	0,000
Oilaning moddiy ta'minlanishi	1,00	4,00	3,70	,82943	2,563	0,000
Ko'ngil ochishlarni tashkil qilish	1,00	4,00	2,57	,91639	2,599	0,000
Uy sohibi va sohibasi	1,00	4,00	2,71	,86989	2,071	0,000
Jinsiy sheriklik	1,00	4,00	3,12	,82510	2,532	0,000
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	1,00	4,00	2,74	,80687	2,734	0,000

**_ $p<0,01$

Juftliklarning oilada rollar taqsimoti metodikasining tahlili bo'yicha bola tarbiyasi shkalasi bo'yicha ($Z=3,136$; $p<0,01$), oiladagi emotsional muhit shkalasi bo'yicha ($Z=2,380$; $p<0,01$), oilaning moddiy ta'minlanishi shkalasi bo'yicha ($Z=2,563$; $p<0,01$), ko'ngil ochishlarni tashkil qilish shkalasi bo'yicha ($Z=2,599$; $p<0,01$), uy sohibi va sohibasi shkalasi bo'yicha ($Z=2,071$; $p<0,01$), jinsiy sheriklik shkalasi bo'yicha ($Z=2,532$; $p<0,01$), faol dam olishga orientatsiya shkalasi bo'yicha ($D=3,760$; $p<0,01$), oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish shkalasi ($D=2,734$; $p<0,01$) ko'rinish

etildi (4,80), Oiladagi juftliklar uchun asosiy e'tibor bola tarbiyasi, oilaning maishiy-xo'jalik ishlarini unumli tashkillashtirish bo'lib qolganligi uchun ularda shaxsiy orientatsiyaga juftlik bo'lib erishish istagi biroz pastroq ko'rinishda bo'ladi. Ushbu omilni biz "o'zi yemay, farzandiga yediradi" maqoliga monand ravishda xalqimiz yurmush tarziga singib ketgan bolajonlik, farzand ravnaqini ko'proq o'ylash kabi motivlar bilan bog'lashimiz mumkin. Nikohda uyg'unlik omili uchun eng muhimi, o'rnatilgan munosabatlar va qo'shma faoliyatdan shaxslararo qoniqishdir. Turmush o'rtoqlarning uyg'unligi muammosini o'rganish er va xotin o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning butun majmuasini tahlil qilishni talab qiladi va er va xotinning uyg'unligi mezonni eng to'liq bo'ladi, chunki oilada bir kishi boshqasiga ko'p jihatlarni ochib beradi. Shu sababli, oilada uyg'unlik muammosi ko'p qirrali hisoblanadi. Bu muvofiqlik fiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiydir.

Juftliklarning oilada rollar taqsimoti metodikasining tavsiflovchi statistik ko'rinishi

oldi. Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

Oilada rollar taqsimoti metodikasining ko'rsatkichlari tahliliga binoan, oiladagi emotsional muhit bo'yicha (3,68) o'rtacha qiymat baland ko'rinish olgan bo'lib, bu bizga juftliklar turmush dinamikasida oiladagi emotsional muhit oila barqarorligini rollar teng taqsimlanishi belgilab beradigan asosiy indikativ belgi bo'lishi mumkinligidan darak beradi. Shuningdek, oilaning moddiy ta'minlanishi bo'yicha ham

(3,70) erkak va ayol o'rtasida rollar to'g'ri taqsimlanishi oiladagi "gegemonlik" nuqtayi nazaridan hokimiyatni o'z qo'lga olishda erkakka katta ustunlik beradi. Natijada, oilada iqtisodiy funksiya to'g'ri ishlaydi, yetishmovchilik hissi sezilmaydi hamda oilada barqaror iqtisodiy muhit hukm surishiga asos bo'ladi.

Ko'ngil ochishlarni tashkil etish jihatidan nisbatan o'rtacha qiymat ko'rsatkichining qayd etilganini (2,57) biz turmush yillari davomida etnik xususiyatlarimizdan kelib chiqib turmush o'rtoqlarning o'zini emas, balki farzandining yorqin istiqbolini o'ylagani evaziga ba'zi holatlarda madaniy dam olish, ko'ngilochar maskanlarga nisbatan kam tashrif buyurish, faol xordiqqa e'tiborni kam qaratish holatlari tez-tez kuzatilishi bilan ham tushuntirishimiz mumkin. Ushbu jihatdan oiladagi rollar taqsimlanishida tenglik qayd etilib, bu ba'zan er, ba'zan ayol tomonidan ushbu rolni o'z bo'yniga olish ehtimoli balandligini ko'rsatadi.

Oila psixologik farovonlik manbai sifatida shaxsning shaxslararo va rolga asoslangan oilaviy munosabatlar haqidagi g'oyalarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Oilaviy hayot dinamikasi o'sgan sari shaxsda oila borasidagi g'oyalar, juftini tushunish instinktiv shaklda kechadi deyish mumkin. Er-xotinning turmushdagi rollar dinamikasiga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish orqali turli turmush yillaridagi rollar taqsimoti qay shaklda kechishini taxmin qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama o'rganish, ulardagi turli xildagi muammolarni hal qilish, yechim qidirish, to'g'ri rejali ish yuritish, muammoli oilalarni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo'shib yuborish chora-tadbirlarini o'ylab chiqish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Abdusamatov X. "Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari". Psixol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2019.
3. Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
4. Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2010.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil